

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti xabarлари

Ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnali

Jurnal bir yilda to‘rt marta nashr etiladi

Bosh muharrir –

Yo‘ldoshev Ibrohim Jo‘rayevich

filologiya fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o‘rinbosari –

Jumayev Sobirjon Saidovich

professor

Tahrir hay’ati

Tulyaxodjayeva Muhabbat Turobovna – san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Qodirova Sarvinoz Muhsinovna – san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Ibrohimov Oqilxon Akbarovich – san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Muxtarov Ildar Asxadovich – san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Ismoilov Abdurahim Isroilovich – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, professor

Umarov Absalom Adilovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor

Mavrulov Abduxalil Abduxayevich – tarix fanlari doktori, professor

Yo‘ldoshev Ma’rufjon Muxammadjonovich – filologiya fanlari doktori, professor

Xalikulova Go‘zal Erkinovna – san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Ismoilov Hamdam – filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Kosheleva Antonina Fedorovna – pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Rashidov Temur Maxmudovich – san’atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent

Shermanov Eldor Uralovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Tursunov Farrux G‘ulomovich – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.

Jamoatchilik kengashi

Sayfullayev Baxtiyor Sayfullayevich – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatining Yoshlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi raisi, pedagogika fanlari nomzodi, professor

Nazarbekov Ozodbek Ahmadovich – O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vaziri, O‘zbekiston Respublikasi xalq artisti

Hakimov Akbar Abdullayevich – O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi

Akilova Kamola Baltabayevna – san’atshunoslik fanlari doktori, professor

Karimova Nigora G‘aniyevna – san’atshunoslik fanlari doktori

Qosimov Nozim Kozimovich – filologiya fanlari nomzodi, professor

Maqolada keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi uchun muallif mas’uldir.

O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan
2015-yil 14-dekabrda 0862-raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya
Komissiyasi Rayosatining 2017-yil 29-noyabrdagi
245/6-sonli qarori bilan San’atshunoslik fanlari bo‘yicha
dissertatsiyalar yuzasidan asosiy ilmiy natijalarni chop
etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

MUNDARIJA

1. I. Yo‘ldoshev. “Mahbub ul qulub” da saxovat va himmat.....	3
--	---

I TEATR VA KINO

1. F.Abduvohidov. Sharq va g‘arb teatrining yirik tadqiqotchisi.....	6
2. S.Xaymatova., R.Tursunmetova. Kinoshunoslik sarchashmalari.....	10
3. I.Meliqo‘ziyev. Hotam Fayziyev – o‘zbek kinooperatorlik san‘atining yorqin namoyandasi.....	13
4. B.Yakubov. O‘zbek dramaturgiyasini rivojlantirish va tadqiq etish muammolari.....	20
5. M.Pirmatov. Musiqali teatrimiz namoyandasi.....	25
6. X.Qobilov. Pedagog – rejissyor Bahodir Nazarov.....	29

II MUSIQA SAN‘ATI

1. S.Muzaffarova. Musiqa ilmiga oid qarashlarning yoshlar tarbiyasiga estetik ta‘siri.....	35
2. F.Mansurbekova. Zamonaviy estrada san‘atining ma‘naviy omillari.....	38
3. Z.Mo‘minova. Toshkent dutor ijrochiligi.....	41
4. D.Mulladjanov. O‘zbek musiqiy estradasida ohang masalasi.....	44
5. X.Xudoyev. Nazmga yo‘g‘rilgan ohanglar.....	47

III SAN‘AT TARIXI, FALSAFA VA NOMODDIY MADANIY MEROS

1. G.Xodjametova. Хореографическое искусство как фактор воспитания молодёжи.....	51
2. B.Kultashev. Xalq bilan hamnafas rassom.....	55
3. K.Isayev. O‘zbek folklorining yosh avlod tarbiyasidagi ahamiyati.....	58
4. G.Saparbayeva., A.Qo‘lqanatov. Qoraqalpog‘istonda madaniyat markazlari faoliyatining shakllanishi.....	61
5. R.Usnatov. Qalbiga dunyoni sig‘dirgan ustoz.....	64

IV PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA

1. A.Kosheleva. Современные особенности развития высшего образования Узбекистана.....	68
2. G.Muhammedova. Akademik xonandalik yo‘nalishini o‘qitishda “Vokal ansanbili” fanining ahamiyati.....	70
3. O.Dadamirzayev. Ta‘lim sifati va innovatsion faoliyat.....	73
4. X.Usmonova. Muhammad Yusuf she‘rlarini ingliz tilida o‘rganilishi.....	77
5. A.Utepbergenov. Sahna nutqi fanini o‘qitishda pedagog mahorati.....	80

V YOSH TADQIQOTCHI

1. N.Alijonova. Etnomadaniy turizm genezisi.....	84
2. O.Dostonov. Yosh operatorlar ta‘limidagi vorisiylik va innovatsiya masalalari (kinooperator-pedagog I.Meliqo‘ziyev misolida).....	87
3. Z.Sa‘dullayeva. O‘zbekiston noan‘anaviy kulolchiligi: Odil Sayfullayev.....	90
4. M.Muxtorova. Ilk o‘zbek kinokomediyalari.....	94

“MAHBUB UL-QULUB”DA SAXOVAT VA HIMMAT

Mazkur asar shoir umrining so'ngida yaratilgan. Ushbu asarni Navoiy umri davomida to'plagan hayotiy tajribalarining mahsuli, hayoti mahzani desak, mubolag'a bo'lmaydi. “Mahbub ul-qulub” “Qalblarga sevimli bo'lgan kitob” ma'nosini beradi. Uni “Dillarga oshno asar” yoki “Qalblarga yaqin kitob” deb tarjima qilish ham mumkin. Asar nega bunday nomlangan? “Mahbub ul-qulub” birinchi navbatda, kimlarga mo'ljallab yozilgan? Bu asarni yozishga qanday ehtiyoj bor edi? Qalblar deganda, Navoiy kimlarni nazarda tutadi? Bular haqida bilish asarning qimmatini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

Asarning muqaddimasida shoir chuqur bir xo'rsinish bilan o'z hayot yo'lida uchragan qiyinchiliklarga nazar tashlaydi. – Qo'lim kaltalik payti ko'p xorlik va notavonliklarni ko'rdim, – deydi Navoiy. Hayotning turli sinovlariga duch keldim, goh pastkash lainlar meni xo'rladilar, goh razillar kamsitdilar. Har ko'cha-yu ko'yga kirdim, turli el va toifalarga qo'shildim, yaxshilarning yaxshiliklaridan bahramand bo'ldim, yomonlarning fitnalaridan qalbm jarohatlandi, pastkashlarning qiliqlaridan ko'nglim yaralandi, olijanob insonlarning munosabati ko'nglimga malham bo'ldi. Taqdir kulib boqqanda amir va hokim ham bo'ldim. Unda adolat bilan ish ko'rdim, ta'zim va saxovatni kanda qilmadim, qo'limdan kelgancha yaxshilik qildim. Men yaxshi-yomonning farqiga bordim, juda ko'p uqubat va ko'rguliklar natijasida katta hayotiy tajriba to'pladim.

Gahe topdim falakdin notavonlig',

Gahe ko'r'dum zamondin komronlig'.

Base issig', sovux ko'r'dum zamonda,

Base achchig', chuchuk tottim jahonda.

Ammo hayotning bunday achchiq, og'ir sinovlariga hali hanuz duch kelmagani insonlar ko'p, – deydi hazrat. Ular umr yo'llarida qoqilmasliklari, yaxshi-yomonni farqlay olishlari uchun ushbu kitobni yozdim, ularni hushyor torttirish va ogoh etishni vojib deb bildim.

Kitob har bir inson egallashi lozim bo'lgan go'zal xulq, yuksak ma'naviyat mezonlari haqida atroflicha mu'lumot beradi.

Ko'rinib turibdiki, bu asar hali yetarli hayotiy tajribaga ega bo'lmagan insonlarga, nazarimizda, ko'proq yoshlarga atab yozilgan. Toki, – deydi Navoiy, – ular jamiyat ichidagi barcha toifa va tabaqalarda uchraydigan fazilat va qusurlardan ogoh bo'lsinlar, kimga ergashish masalasida adashmasinlar.

Asarning kompozitsion qurilishi o'ziga xos. Uning uch qismga bo'linishi bejiz emas. Navoiyning maqsadi bo'lgan pand-nasihat va tanbehlar turkumi uchinchi qismda keltirilgan. Birinchi va ikkinchi qismdagi mulohazalarni keltirishdan maqsad nima edi? Navoiy pand-nasihatdan oldin o'quvchiga jamiyat haqida, uni asrab turuvchi ma'naviy ustunlar haqida bilim va tushuncha berib o'tishni zarur deb biladi. Shu bois asarni dabdurustdan quruq nasihat qilishdan boshlashni ma'qul ko'rmaydi. Dastlab u o'quvchini muayyan tayyorgarlikdan o'tkazgan.

Birinchi qismda kishilik jamiyatini tashkil etgan barcha tabaqa va toifalarga qirq faslda batafsil ta'rif beriladi. Ularning fazilatlarini va kamchiliklarini ochib tashlanadi. Bu o'quvchiga jamiyat haqida yaxlit tasavvur uyg'otishga qaratilgan. Birinchi qismda tijorat ahli, munajjimlar, dehqonlar, navkarlar, shayxlar, darvishlar, mutribu mug'anniylar, hofizlar, shoirlar, faqihlardan tortib, vaziru podshohgacha har birining aslida qanday fazilatlariga ega bo'lishlari talab etilishi va o'sha davrda ularning tabiatlari zohir bo'layotgan qusurlar tilga olinadi.

Masalan, tabiblar Iso payg'ambarga o'xshatiladi. Iso chiqqan jonni duo bilan inson tanasiga qaytargan bo'lsa, tabiblar chiqayotgan jonga davo bilan tanani tark etishga monelik qiladi, – deydi. – Tabib o'z fanida nihoyatda mohir, kasbiga sadoqatli, bemorga marhamatli va shafqatli bo'lishi lozim. Bunday tabibning yuzi bemorga mahbub, so'zi bemor joniga marg'ub, ya'ni yoqimlidir. Qadamlari xastalarga shifo bo'ladi. Ammo o'z kasbini yaxshi egallamagan, yomon fe'li, beparvo va dag'al muomalali bo'lsa, bemorni davolagani bilan boshqa tomondan ko'nglini jarohatlaydi. Agar tabib o'qimishli, ilmi bo'l-masa, u jalloid shogirdidir. Jalloid tig' bilan o'ldirsa, u davo o'rniga zaharlaydi.

Jamiyatning faol a'zolariga aylanib borayotgan yoshlar o'z jamiyatlarining kamoloti uchun qanday fazilatlariga ega bo'lmoqliklari kerak? Ushbu kishilik jamiyatida ezgulik va to'liq saodatmandlik hukm surishi uchun jamiyat a'zolari qanday tamoyillarga asoslanmoqlari lozim? Buni Navoiy asarning ikkinchi qismida 10 ta bob doirasida tahsinga sazovor fe'l-atvor, yuksak xulqqa erishish tamoyillari orqali ochib beradi. Bular tavba, xuhd, tavakkul, qanoat, sabr, tavoze va adab, zikr, rizo, tavajjuh va ishqdir. Mana shu fazilatlar inson qalbini tug'yon va isyondan saqlaydi, unga huzur va halovat baxsh etadi, xulqini go'zal qiladi, bardoshini oshiradi. Irodasining baquvvat bo'lishiga ko'maklashadi.

Masalan, zuhdga bag'ishlangan bobga nazar tashlaylik. Zuhd – bu diniy istilohda tarkidunyochilik, uzlatga chekinish demakdir. Navoiy esa zahdni shunday tushuntiradi: Zuhd – bo'lar-bo'lmas orzulardan kechmoq, molu mansab ketidan quvmaslik, nomahram yuzdan ko'zni asrashlik va yomon so'zlardan tilni tiymoqliq.

Kimki bu maqomni qo'lga kiritsa, uning ko'nglida bir nur paydo bo'ladi va ko'nglini hamisha shod etadi.

Navoiy har bir inson qalban zohid bo'lishini, zuhd maqomini egallashini orzu qiladi. Bunday zuhd insonning ko'ngil halovati, qalb osudaligini ta'minlaydi.

“Mahbub ul-qulub”ning uchinchi qismida Navoiy to'g'ridan-to'g'ri o'quvchiga murojaat etadi va turli tanbeh, pand-nasihatlar vositasida ularga ma'naviy kamolot sirlarini o'rgatadi.

Hazrat Navoiy nafaqat ulug' mutafakkir, ulug' shoir, balki o'z xalqi, millati taqdiriga befarq bo'lmagan buyuk murabbiy ham edi. U o'z umri intihosida ham millat va xalq dardi bilan yashadi. “Mahbub ul-qulub” asarida

jamiyat bilan bog'liq orzu-umidlarini ifodaladi. Unda jamiyat hayotini yuksaltirish, uni to'g'ri yo'lga solish va shaxs ma'naviyatini tarbiyalash kabi o'zining so'nggi armonlarini vasiyat qilib qoldirdi"¹.

Quyida ushbu asardan mavzumizga oid parchalarni keltirib o'tamiz.

“SAXOVAT VA HIMMAT

Saxovat insoniyat bog'ining serhosil daraxti, balki u daraxtning foydali mevasidir. Saxovat odamiylik mulkining mavj urib turgan dengizi, balki u sermavj dengizning bebaho gavharidir. Saxovatsiz odam – yomg'irsiz bahor bulutiga va hidi yo'q mushki anbarga o'xshaydi.

Mevasiz daraxt ham biri, o'tin ham bir. Yong'insiz bulut ham biri tutun ham bir. Saxovatsiz odamdan gavharsiz sadafning farqi yo'q. Dursiz sadaf bilan qurib qolgan toshbaqaning farqi yo'q. Baxil jannatga kirmas, hatto, qurayshlarning sayyidi bo'lsa ham va saxiy do'zaxga kirmas, qora habash bo'lsa ham. Saxiy go'yo bulutdir, uning ishi xirmon-xirmon don, balki xazina boyligidir. Baxil esa go'yo chumolidir, don-dun terib, tashigani-tashigan.

Saxovat faqat himmat ahlida bo'ladi va bu ulug' sifat pokiza kishilarga xosdir. Odam bir badan bo'lsa, himmat uning jonidir. Himmatlilardan olam ahli uchun yuz ming sharaf va shukuh yetishadi. Himmatsiz kishi – er sonida emas. Jonsiz badanni hech kim tirik demas. Oliy himmat odam – balandparvoz lochin. Behimmat esa sichqon ovlovchi kalxatdir. Shunqorning maskani shohning bilagidir. Kalxatning joyi o'limtikning sassiq badani va suyagidir. Arslonning maqsadi ov qilib, och yirtqichlarni to'yg'izmoq, sichqonning harakati esa don o'g'irlab, tugun axtarmoq. Himmat egasi qashshoq bo'lsa ham tubanlik qilmaydi. Himmatsiz odam xazina topsa ham buyuklarga teng kelmas. Chinor daraxti mevasiz bo'lsa ham uning yuksakligiga nuqson yetmaydi. Yer ostida yashirin xazinaning tuproqqa foydasi tegmaydi.

Himmatli kishilarning darajasi yuksakdir, ammo saxiylikning darajasi bir necha barobar yuksakdir.

Isrof qilish saxovat emas, o'rinsiz sovrishni aqlli kishilar saxiylik demaydilar. Halol molni kuydirganni devona deydilar, yorug' joyda sham yoqqanni aqlan begona deydilar. Maqtanish uchun mol bermiq – o'zini o'zi ko'z-ko'z qilmoq va bu bilan o'zini saxiy deb atash behayolik. Kimki xalqqa ko'rsatib ehson qilsa, u – pastkash, saxiy emas. Tilagandan so'ng berish ham saxovatdan emas, qistov natijasida bergandan ko'ra bermagan yaxshiroqdir. Bitta kulchani ikkiga bo'lib, yarmini och odamga berganni saxiy deb, o'zi yemay hammasini muhtoj odamga berganni axiy (oshna, birodar, do'st)² deb bilgin.

12-tanbeh

¹ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalbgah mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o'zbek tiliga tabdil. – Toshkent: Sano-standart. 2018. – B.3-6.

² Axiylar – XII–XIII asrlarda Onado'lida vujudga kelgan “axiylik” diniy-ijtimoiy harakati a'zosi bo'lib, ularning oliy maqsadi odamlarga xizmat qilish, muhtoj va miskinlarga yordam berishdan iborat bo'lgan.

³ Alisher Navoiy. Mahbub ul-qulub (Qalbgah mahbub hikmatlar va hikoyatlar). Hozirgi o'zbek tiliga tabdil. – Toshkent: Sano-standart. 2018. – B.107-110.



SAXOVAT QANDAY QILINADI?

Hunarlarni (yaxshilarni) topmoq yedirmoqdir va ayblarni yopmoq esa kiydirmoqdir.

Zarur vaqtda berilgan eski chopon va bo'z to'n – saxovat, bemahal berilgan zarbof chopon – yaramaslik. Taomim uvul bo'lmasin, desang – yedir, libosim eskir-masin, desang – kiydir.

Saxovat qilish yo'lini shu aytilgan gaplardan angla, ammo olijanoblik va mardlik rasmlari bundan bo'lakchadir.

13-tanbeh

KARAM VA MARDLIK TO'G'RISIDA

Karam – bir jafokashning og'ir yukini ko'tarmoq va yukni mashaqqatidan uni qutqarmoq. Karam – birovning tikanlik yukini ko'tarmoq va tikan sanchilishidan guldek ochilmoq va shu qilgan ishi haqida qayta og'iz ochmaslik. Hech qachon minnat qilmaslik va aslo yuziga solmaslikdir. Karam sifati “Akram ul-akramin”, ya'ni karamlilarning karamlisi Tangri taolodir. Sohibi karam kishi Haqning bu sifatiga tobe' kishidir.

Hozirgi paytda karam sabzavoti sabzavotfuroshning do'konidan boshqa yerda topilmaydi va mehr guli (quyosh) osmon gulshanidan o'zga yerga ochilmaydi. Karam inson tabiatida noyob va balki yo'qdir, shu boisdan karam ahlini ko'z ilg'amaydi, hatto topolmaydi.

14-tanbeh

AJIB JAVHAR

Karamdagi “k” harfini go'yo “kimyo” so'zining boshlanishidan olibdurlar va “r” harfini “simurg” so'zi orasidan va “mim” harfini xo'blar (yaxshilar) og'zidan tutibdurlar. Bu javharni olam ahli tilash, quyoshni zarradan tilamak bilan barobardur, eng kichik Suho yulduzidan osmonni tilash bilan barobardur.

15-tanbeh

MURUVVAT TO'G'RISIDA

Kamyoqlikda muruvvat karamning urug'-aymog'idir. Balki egizak tug'ishganidir. Bularning ikkisi ham odamiyligi yo'q xalqning bevafoqligidan xabardor bo'lgach, bulardan qochib, yo'qlik dunyosiga safar qilibdurlar. Sohibi karam u go'zal, qimmatbaho boylikdan ayrilishini to'g'ri ish deb bilmaydi.

Va muruvvat sohibi u sharif xulqidan ayrilmaydi.

Karam bilan muruvvat ikkalasi qayerda bo'lsa ham Tangrining panohida bo'lsin, izzat va hurmat makonidan o'rin olsin”³.



I BO'LIM

TEATR

VA KINO

SHARQ VA G'ARB TEATRINING YIRIK TADQIQOTCHISI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek teatr san'ati rivojiga munosib hissa qo'shgan, g'arb, sharq hamda o'zbek teatri tadqiqotchisi, teatrshunos olim, tajribali ustoz Sotimboy Tursunboyevning ijodiy izlanishlari xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: teatr, aktyor, rejissor, dramaturg, sahna, janr, pyesa

Фахриддин АБДУВОХИДОВ,

и.о. доцента кафедры "Искусствоведение и культурология" ГИИКУз

ВЕДУЩИЙ ИССЛЕДОВАТЕЛЬ ВОСТОЧНОГО И ЗАПАДНОГО ТЕАТРА

Аннотация. Статья посвящена творческим поискам Сотимбая Турсунбоева - ученого театроведа, исследователя западного, восточного, узбекского театра, внесшего достойный вклад в развитие узбекского театрального искусства.

Ключевые слова: театр, актер, режиссер, драматург, сцена, жанр, пьеса.

Fakhriddin ABDUVAKHIDINOV,

acting docent of the department "Art and Cultural studies" UzSIAC

LEADING RESEARCHER OF EASTERN AND WESTERN THEATRER

Abstract. The article is devoted to the creative searches of Sotimboy Tursunboyev, a scientist of theater, researcher of the Western, Eastern, Uzbek theater, who made a worthy contribution to the development of Uzbek theatrical art.

Key words: theater, actor, director, playwright, stage, genre, play.

Uzoq yillik xizmatlari bilan el hurmatiga sazovor bo'lgan, o'zining boy bilim va tajribasini, mahorat va ilmiy salohiyatini yosh mutaxassislar kamoloti yo'liga bag'ishlagan ustoz-murabbiylar talaygina. Ularning serqirra faoliyati, ilmiy-ijodiy izlanishlari, hayot yo'li kelajak avlodlar uchun ibrat na'munasi bo'lib xizmat qiladi. Professional san'atshunoslikning tarixi va zamonaviy jarayonlarini mukammal o'zlashtirgan, doimiy tarzda izlanishlar olib borayotgan haqiqiy olim, san'atshunoslik fanlari nomzodi, "Do'stlik" ordeni sohibi, professor Sotimboy Tursunboyevning ilmiy-tadqiqotchilik, teatrshunoslik, pedagoglik, ijtimoiy faoliyati bir-biri bilan shu qadar bog'liqlik, birini ikkinchisidan ajratib bo'lmaydi.

S.Tursunboyev 1932-yilning 15-martida Toshkent viloyati, M.Fozilov shirkatida dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi Tursunboy Valiyev (1903-yilda tug'ilgan) 1943-yilda urushga ketib bedarak yo'qolgan. Ukalari Abduhakim va Abdukarim va Gulniso aya (1910-1992 y.)ning tirikchiligi 11 yoshga to'lgan Sotimboy Tursunboyevning daladagi mehnati bilan bog'liq bo'ladi. Turmush qanchalik og'ir bo'lmasin u kishi o'qishni tashlamadi. 1955-yili Teatr va rassomlik san'ati institutining "Teatrshunoslik" ta'lim yo'nalishini, 1961-yili Lunacharskiy nomidagi Moskva davlat teatr san'ati instituti aspiranturasini tamomladi. 1975-yili "Andijon teatrining rivojlanish yo'llari" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qiladi. Shu bilan birga, "Abbos Bakirov", "Andijon teatri" kitoblarini chop ettirdi.

Domla avvaliga, O'zbekiston teatr jamiyatida metodist (1955-y), "O'zbekiston madaniyati" hozirgi "O'zbekiston

adabiyoti va san'ati" gazetasi tahririyatida tarjimon (1959-y) lavozimlarida mehnat qiladi. 1961-yildan 1967-yilga qadar Toshkent madaniy-oqartuv texnikumida o'qituvchilik qiladi. 1967-yildan 2012-yilga qadar O'zbekiston davlat san'at institutida oddiy o'qituvchilikdan professorlik darajasiga ko'tariladi, jamoatchilik orasida o'z sohasining yirik mutaxassisi sifatida taniladi. Uzoq yillar davomida "San'atshunoslik" kafedrasining professori sifatida juda ko'plab shogirdlarni tarbiyalab, katta hayotga uchurma qildi.

S.Tursunboyev tabiatan xushfe'l, o'ta madaniyatli, halol, hokisor inson bo'lishi bilan bir qatorda iste'dodli, talabchan murabbiy sifatida e'tirof etiladi. Domlaning ilmiy-ijodiy va pedagogik faoliyatiga e'tibor qaratsa, doimo shogirdlar taqdiri uchun kurashgan zahmatkash ustoz siyomosi namoyon bo'ladi.

Domlani serhosil daraxtga o'xshatish mumkin. Ustoz yarim asr davomida talabalarga teatrshunoslik ilmidan saboq berib keldi. O'tgan yillar davomida ko'plab talabalar ustozning ta'lim va tarbiyasini olib, yetuk mutaxassis sifatida jamiyatimiz rivojiga munosib hissa qo'shib kelmoqda. Ustoz G'arb, Sharq va o'zbek teatrlarining tarixi va zamonaviy jarayonlari xususida talabalarga saboq berib keldi. Ustoz o'z ma'ruzalari orqali talabalar ko'z o'ngida jahonning yirik dramaturg, rejissyor va aktyorlari ijodiy qiyofasini namoyon qilishga intilib keldi. Domla qaysi davlat teatrining ma'lum bir davri xususida ma'ruza qilmasin, o'sha teatrning ijodiy faoliyatini ko'rgandek, kuzatgandek, yutuq va kamchiliklarini ro'y-rost, ishonch bilan ochib berishga intiladi. Domlani G'arb, Sharq va o'zbek teatrining haqiqiy bilimdoni sifatida talabalarni



har bir teatrning ijodiy xususiyati, dramaturg, rejissor va aktyorlari, badiiy qiyofasi va ijro uslubi bilan yaqindan tanishtirishga harakat qilib keldi.

Sotimboy Tursunboyevni zimmasiga yuklatilgan mas'uliyatni chuqur his etadigan fidoiy kurs rahbari ham deyish mumkin. Domla uzoq yillar davomida talabalarga teatr tarixidan saboq berish bilan birga "San'atshunoslik – jurnalistikasi", "Teatrshunoslik", ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarga rahbar sifatida soha sirlarini o'rgatib keldi. Domla har bir talabani o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib shakllanishi uchun kurashdi. Ular bilan o'z farzandidek yaqin munosabatda bo'ldi. Talabalar bilan yakka tartibda dars olib borar ekan, kun qoralab qolganligini ham yoddan chiqarib qo'yardi. Ularning tanlagan kasbiga bo'lgan intilishini, ko'zidagi uchqunni ko'rib ilhom oldi, yanada zavqqa to'ldi. Mavzular mohiyati ilmiy – nazariy jihatdan tushunarli bo'lganligi bois talabalar daslarni to'liq o'zlashtirib keldi. Bu jarayon ularning kelajakda o'z o'rnini topishiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Ustoz hech kimdan maslahatini ayamaydi, aksincha, insonlarga yaxshilik qilishni o'zining oliy burchi deb biladi. O'z sohasiga bo'lgan hurmat, qattiqqo'llik, talabchanlik ustozning murabbiylik faoliyatida ham kutilgan natijalarni berdi. Domla rahbarligidagi bitiruvchi kurs talabalari Davlat imtihoni va himoyalarni a'lo baholarga topshirib, uchirma qush sifatida baland – balandlarga parvoz qilib, tanlagan sohasining yetuk vakillari sifatida respublikamiz rivojiga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Zero, bunday yuqori malakali kadrlar tayyorlash zamirida mehnat, izlanish, yangilikka intilish, bilimga chanqoqlik yotganligi yorqin namoyon bo'ladi.

S.Tursunboyevni tinib-tinchimas ijodkor, milliy teatrimiz jonkuyar targ'ibotchisi va fidoiy yoshlar murabbiysi ekanligini matbuotda chop ettirgan dolzarb mavzudagi maqola va taqrizlarida hamda o'quv qo'llanma, majmua va darsliklarida ko'zga tashlanib turadi. Ilmiy halollik, muammoga bilim va malaka bilan yondoshish olimning maqolalariga xos xususiyat hisoblanadi. Ustoz tomonidan bitilgan maqolalar o'zbek teatri bosib o'tgan tarixiy yo'lni o'rganishda asosli manba bo'lib xizmat qilishiga

shubha yo'q. Domlanning aksariyat maqola va taqrizlari, san'atkorlar haqidagi sharh hamda tahlillari poytaxt va ko'pgina viloyat teatrlarida yaratilgan yangi spektakllar ko'rigidagi ishtiroki natijasida jonli jarayonda tug'ilganligi bilan tarixan haqqoniy va qadrlidir. Domlanning barcha maqolalarida sohaga jiddiy yondoshuv sezilib turadi.

Domlanning teatr tanqidchilik faoliyati o'z mazmuni va qamrab olingan mavzu doirasiga ko'ra rang-barang ekanligiga guvoh bo'lish mumkin. Yangi spektakllarga yozilgan taqrizlar qatori aktyorlar, rejissorlarning ijodiy qiyofasini yaratish maqsadida ham bir qancha maqola va ocherklarni bitgan. Domlanning yozganlarida san'atkorlar mahorati, qalbi, ichki dardi, orzu o'ylarini tahlilan ochishga intilish ko'zga yaqqol tashlanib turadi. Abbas Bakirov, Rustam Boboxonov, Qamara Burnasheva, Soli Ahmedov, Sulaymon Qosimov, Nosir Otaboyev, Sobir Rahmoniy, Shafolat Rahmatullayeva, Sur'at Jalilov, Omon Abdurazzoqov, Hoji Qurbon Nazarovlarning faoliyatiga bag'ishlangan maqolalari orqali kasbiga mehr qo'ygan, o'z ishining sir-asrorlarini yaxshi bilgan teatr ijodkorlari mahoratini yoritib beradi.

Teatr tanqidchiligida taqriz eng dolzarb, hozirjavob janrlardan hisoblanadi. Ayni jarayonda teatrning zamondosh tomoshabinlarga ta'siri, u yo bu spektaklning qay darajada qabul qilinganligi turli taqrizlarda o'z ifodasini topadi. Domla tomonidan yozilgan taqrizlar spektakllarning mazmun mohiyatini, g'oyaviylik, badiiylik xususiyatlarini ochish nuqtai nazaridan yozilganligi bilan e'tiborni tortadi. S.Tursunboyev Muqimiy nomidagi musiqali teatrning "Qizbuloq" spektakli haqida shunday yozadi. Turob To'laning "Qizbuloq" spektakli falsafiy mezoni katta, ko'lami keng asardir. Uning zamirida insoniy qismatlar haqidagi falsafiy fikr va mushohadalar yotadi. Uning mohiyatini g'ayritabiiy tushunchalar va etiqodlar fojiasi, insoniy jihatlarining g'ayriinsoniy ideal ustidan g'alabasi tashkili nazari". Bu fikrlar teatrshunosning soha xususida o'z nuqtai nazari borligidan dalolat beradi.

Sotimboy Tursunboyev taqrizlarida spektakl qiyofasini chizish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Tanqidchi "Qizbuloq" asarining falsafiy mazmunga ega ekanligini

qizbuloqqa ilohiy dargoh deb sig'ingan Shayx (R.Shokirov), unga ishonib qizi Zeboni nazir qilgan Ummat ota (O'zbekiston xalq artisti Mashrab Yunusov), o'zini qizbuloqqa tashlab nobud qiluvchi Zebo (Naima Pulatova) obrazlarini tahlil etish orqali ochib beradi. Taqrizda Shayx ham, Ummat ota ham yomon odamlar tarzida emas, balki o'z dard-alami, intilishlari bilan yashovchi kishilar sifatida talqin etilganligini asoslaydi.

Bir-biridan farqlanuvchi taqrizlar orqali aktyorlar ijodidagi yangi izlanishlar hamisha muallifning diqqat e'tiborida bo'lib kelganligini kuzatish mumkin. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist Rixsi Shokirovning Shayx roli ijrosini munosib baholaydi. Aktyor "Toshbolta oshiq" spektaklida Muhammadsolih obrazini juda ta'sirli yaratganligini hamda uning bu spektakldagi obrazi avvalgisiga mutlaqo o'xshamasligini keltirib o'tadi. Aktyor yaratgan Shayx A'lam qiyofasi xudo yo'lida sidqidildan xizmat qiluvchi, o'z e'tiqodini eng haqqoniy deb biluvchi shaxs sifatida gavdalanganligini asoslaydi. "Mahmadjon G'ofurov talqinida esa bu obraz uning ijodi uchun yangilikdir. Zotan, bunday murakkab xarakterli rollar aktyor uchun an'anaviy bo'lib qolgan ijro yo'lidan qutqarib, uni rang-baranglik sari da'vat etgan"ligini ham asoslaydi.

Muallif e'tiborini tortgan muammolardan yana biri bu spektaklning musiqiy tasviridir. "Kompozitor I.Akbarov musiqa yaratishda o'ziga xos yo'lidan borganligini keltirib o'tadi. U muallifning "yordamchisi" sifatida emas, balki mustaqil ijodkor sifatida asarga yondoshganligini yoqlaydi. U xalq musiqasidan o'rinli foydalanganligini, asar qahramonlari xakteri va shiddatli voqealarga mos ishlangan musiqalar spektaklning badiiy yaxlitligini ta'minlashga xizmat qilganligini keltirib o'tadi.

Sotimboy Tursunboyevning teatr tanqidchilik sohasida olib borgan ilmiy tadqiqotlarida uzoq yillik mehnatlari bilan xalqimizning ardoga tushgan aktyorlarning ilk ijodiy izlanishlari alohida samimiyat bilan ta'riflab berilgan. "Ona qalbi" nomli taqrizda Respublika yosh tomoshabinlar teatrining M.Boboyev asari asosida sahnalashtirilgan spektakl xususida so'z boradi. Spektakl qahramonlari Erkin va uning onasi Fazilat xola obrazi Muhabbat Yo'ldosheva va Obid Tolipov ijrosida yuksak mahorat bilan talqin etilganligini ta'kidlaydi. "Fazilat Yo'ldoshevaning o'g'liga bo'lgan mehr-muhabbati, insoniyliги cheksiz qiymat kasb etgan. Uning onalik mehri va qayg'usi shunchalik chuqur va musaffoki, hatto u aql va iroda bilan farzandini o'ziga bo'ysundira olgan"ligini isbotlab beradi.

Yosh tomoshabinlar teatrining "Toshkent non shahri" spektakliga bag'ishlangan taqrizda Xayrulla Sa'diyev, Aziza Begmatovalarning yoshlik ilhomi bilan yaratilgan Masha va Seryoja obrazlari xususida munosib fikrlar bayon qilinadi. Sa'diy haqida shunday yozadi: "u umidorzu bilan yashovchi, qalbi hayrat va intiluvchanlik bilan to'la hushchaqchaq boladir. Uning chehrasida bolalikka xos samimiyat, ishonch tuyg'ulari nur sohib turadi. Har qanday qiyinchilik ham uning irodasini bukolmaydi. O'z do'stiga mehribon. Ayoq va ochlik kunlarning birida do'sti Seryojadan judo bo'larkan, og'ir qayg'u chekib koinotga dod soladi, o'kirib-o'kirib yig'laydi, tutun bo'lib ketgan ko'nglini bo'shatib oladi. Ko'p qiyinchilik va iztiroblardan

keyin, Toshkentga kelar ekan, "Toshkent" deb hayqiradi. Aktyor bu sahnada qahramonning ich-ichidan quvonishini ham, iztirob cheka olishini ham mohirona ifodalagan"ligini tahlil yoritib beradi. Shu bilan birga "Aziza Bekmatova yaratgan Seryoja obrazi ham juda taassurotli chiqqan"ligini, aktrisa o'g'il bolalar qiyofasini yaratish layoqatiga ega ekanligini isbotlaydi.

Sotimboy Tursunboyev spektakl haqida yozishga kirishar ekan asarning insonparvarlik mohiyati nuqtai nazaridan yondashib g'oyaviylik va badiiylik qiymatini belgilashga intiladi. Ustozning Milliy akademik drama teatrida sahnalashtirilgan "Qirol Lir" spektakli xususidagi fikrlari o'z vaqida mutaxassislar e'tiborini tortadi. "Qirol Lir" asari o'zining g'oyaviylik, to'g'ridan-to'g'ri inson va insoniyat taqdiri masalasini badiiy mujassam etishi bilan "Gamlet" va "Otello" asarlari kabi kishi qalbiga juda yaqin tragediya ekanligiga izoh beradi. Ustozni adolatsiz dunyo devorlariga urilib singan muhabbat ham, hokimlarning hukmdorlik irodasi-yu, shohlarning tarixi ham qiziqitirmaydi. Balki muallif Lir rolini o'zbek akademik drama teatri sahnasida birinchi bo'lib o'ynagan atoqli aktyor Olim Xo'jayevning rol ustidagi izlanishlari va muvaffaqiyati haqida batafsil to'xtalib o'tadi.

Domla faqatgina maqola, ijodiy portretlar yozish bilan chegaralanib qolmadi. Aksincha, istiqloq yillari ustoz uchun teatr tanqidchiligida, pedagoglik sohasida, ilmiy-ijodiy izlanish borasida, o'quv qo'llanma va darsliklar yaratishda uzlisiz mehnat davri bo'ldi, deyish mumkin. S.Tursunboyev "Teatrshunoslik" fani bilan shug'ullanib shu soha bo'yicha talabalarga bilim berish uchun adabiyotlar tanqisligini yurakdan his etgan holda "Xorijiy teatr tarixi" nomli darslik va xrestomatiyalarni yaratdi. Shu bilan birga, "Teatr tarixi", "O'zbek teatr sarhadlarida" nomli o'nga yaqin o'quv qo'llanmalari o'zbek teatrshunoslik ilmida amalga oshirilgan yirik va muvaffaqiyatli izlanishlardan hisoblanadi. Ushbu o'quv qo'llanma va darsliklar talabalarni o'z kasbining bilimdoni, axloqan yetuk, ma'naviy komil mutaxassislar bo'lib yetishini ta'minlashdek, muhim tarbiyaviy vazifa mezonlari asosida tuzilganligi bilan qadrlidir. Ayniqsa, antik davrdan XX asrga qadar bo'lgan g'arb teatri tarixini bayon etuvchi "Xorijiy teatr tarixi" nomli darslik va xrestomatiyalar bugungi kunda O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti qatori barcha san'at va madaniyat o'quv yurtlari talabalari uchun o'zbek tilidagi yagona manba vazifasini o'tab kelmoqda.

"Xorijiy teatr tarixi" nomli o'quv qo'llanma Antik davr teatri, O'rta asrlar teatri, Uyg'onish davri teatri, Fransuz klassitsizm teatri, Ma'rifatparvarlik davri teatri, Romantizm davri teatri, XIX asrning oxiri va XX boshlarida g'arbiy yevropa teatrlari, 1917–1945-yillarda g'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH teatri, 1945–2000-yillarda g'arbiy Yevropa mamlakatlari va AQSH teatri kabi bo'limlarni o'z ichiga oladi. Bu bo'limlar orqali g'arbiy Yevropa teatrlarining vujudga kelishi, shakllanish hamda rivojlanish jarayonlari dramaturgiya, aktyorlik va rejissorlik san'atida vujudga kelgan talqin xususiyatlari orqali yoritib beriladi.

Ustoz tomonidan chop etilgan "Sharq teatri" nomli o'quv qo'llanma jahon teatri tarixini o'rganishdagi kemptikni to'ldirishga xizmat qiladi. Qo'llanmaga hind, xitoy va yapon mumtoz teatri asos qilib olingan. Sharq

mintaqasida yozma adabiy drama teatrlar faoliyati orqali o'zining yuksak rivojlanish darajasiga ko'tarilgan.

O'quv qo'llanmaning birinchi bobi "Hind mumtoz teatri" deb atalib, "Hind teatrining kelib chiqishi" nomli muqaddima bilan boshlanadi. Bu qismda Hindistonda teatr san'atining eradan avvalgi asrlarda dunyoga kelganligi, uning gullagan davri eramizning IV–V asrlariga to'g'ri kelganligi batafsil sharhlab beriladi. "Hind dramaturglari" nomli qismda "Bxasa dramaturgiyasi", "Shudraka va uning "Loydan yasalgan aravacha" asari", "Kalidasa dramaturgiyasi" va "Xarsha va uning "Ratnavali" asarlarining tomoshaviylik xususiyatlariga e'tibor qaratadi.

Ikkinchi bob "Xitoy mumtoz teatri" deb nomlanib, muqaddima qismida Xitoyda yozma drama va professional teatrning kelib chiqishi XII–XIV asrlarda Yuanlar sulolasi davrida gullash davrini o'taganligi bayon qilinadi. Asosiy qism "Xitoy dramaturglari" sarlavhasi bilan boshlanib, Yuanlar davri teatri va dramaturgiyasi uch buyuk dramaturg Guan Xan-sin, Ma Chji-yuan va Chjen Tin-yuy ijodi misolida ko'zdan kechiriladi. XVI asrga doir yana ikki dramaturg Tan Syan-szu va Xun Shen asarlari ham tahlil etiladi.

Uchinchi bob "Yapon mumtoz teatri" deb nomlanib, bu qismda "No" va "Kabuki" teatrlarining kelib chiqish tarixi bayon qilinadi. Dramaturg va aktyor Kannami "No" teatrining asoschisi hisoblanadi. "Yapon dramaturglari" deb nomlangan qism shu dramaturgning ikki pyesasi tahlili bilan boshlanadi. "No" teatriga bag'ishlangan qismda yana bu teatrn yuksalish darajasiga olib chiqqan dramaturg va aktyor Dzami ijodi alohida ko'zdan kechirilgan. Dzaming bir necha pyesasi tahlil orqali yetakchi o'ringa chiqarilganligi maqsadga muvofiq bo'lgan. Boisi, "No" teatrn estetik qiyofasini belgilashda aynan Dzami ijodi hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Uchinchi bobning ikkinchi qismi "Kabuki teatri" deb atalib, asosiy e'tibor Tikamatsu ijodi tahliliga qaratilgan. Uning "Yog'lik do'zax" va "Tamballik podachi Yosakuning tungi qo'shig'i" asarlari batafsil tahlil etilgan. "Sharq mumtoz teatri" qo'llanmasining eng muhim jihati, yirik pyesalar tahlili misolida Hindiston, Xitoy va Yaponiya teatrlarining o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z boradi. Bu borada muallif teatrning olg'a surgan talablarni ma'lum asarlar misolida tahlil etganligi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Asarning avval syujeti bayon qilinib, so'ng uning o'ziga xosligi haqida so'z borishi ham juda e'tiborlidir. Sababi talaba-o'quvchi

syujetdan xabardor bo'lgandan so'ng, asarning badiiy estetik xususiyati haqidagi fikr-mulohazalarni oson tushunishi va qabul qilishi mumkin. Qo'llanmaning yana bir muhim jihati tahlil etilgan asarlardan qisqa parchalar o'zbek tiliga tarjima qilinib ilova tarzida berilishidir. Bu qo'llanmaning alohida fazilatini belgilaydi. Sababi talaba asl manba bilan tanishgach, asarlar haqida o'zi mustaqil fikrlash imkoniga ega bo'ladi.

Har bir inson yaratuvchi tomonidan bitilgan taqdir va muayyan sohaga iqtidor bilan dunyoga keladi va umri davomida oliy maqsadlarga erishish ishtiyoqi bilan yashaydi. S.Tursunboyev umrining bebaho yillarini o'tkinchi hoyu havaslarga sarflamadi. Aksincha, yo'lchi yulduzdek yonib, ma'rifat yo'lini mash'aladek yoritib kelmoqda. Zahmatkash olim va mehribon ustoz umr yo'ldoshi, rahmatli Sayyoraxon aya bilan birga qizalog'i Shoiraxonni tarbiyalab voyaga yetkazdi. Ota yo'lini tutgan Shoiraxon ham bugungi kunda ziyo tarqatuvchi murabbiylar qatorida talabalarga aktyorlik va rejissorlik mahoratining sir-asrorlaridan saboq berib kelmoqda. Shu bilan birga, ustozning ko'plab shogirdlari ayni damda O'zbekiston teleradiokompaniyasida, gazeta-jurnallarda, viloyat madaniyat boshqarmalarida, Oliy va o'rta maxsus ilm dargohlarida yetakchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritib, mamlakatimiz taraqqiyotida munosib hissa qo'shmoqda.

Domla hayot yo'li davomida juda ko'p qiyinchiliklarga duch kelgan bo'lsa-da, hech qachon taslim bo'lmadi. Kelajakka umid bilan qarab, o'z orzu umidlarini ro'yobga chiqarish uchun kurashdi. Uyqusiz tunlar, tinimsiz izlanishlar, sermahsul ijod samarasi o'laroq ustoz dotsent (1975-y), professor (2006-y) unvoniga erishdi. Ilm-fanga qo'shgan hissasi va teatr pedagogikasi sohasidagi uzoq yillik xizmatlari uchun "Do'stlik" (2000-y) ordeni bilan taqdirlandi.

S.Tursunboyevning ijodiy izlanishlari ayni qaynoq pallada. Ustoz bugungi kunda "O'zbek teatri tarixi", "Andijon teatri", "Farg'ona teatri", "Rustam Hamidov rejissurasi" nomli o'quv qo'llanma va monografiyalar yaratish ustida tinimsiz ish olib bormoqda. Domlaning bunday shijoatini, ilmiy va ijodiy faoliyatini o'rganish, izidan borish biz shogirdlarga g'urur va iftixor tuyg'usini bag'ishlaydi. Ayni damda hamkasb do'stlari va shogirdlari ustozga mustahkam sog'liq, ilmiy va ijodiy muvaffaqiyatlar tilab qoladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ikromov H. Davr va teatr. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009. -240 b.
2. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi (1900–2007). –Toshkent: Art Press, 2010. -568 b.
3. Tursunov T. Sahna va zamon. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. -267 b.
4. Tursunboyev S. O'zbek teatri sarhadlari. –Toshkent: O'zDSI., 2010. - 308 b.
5. Tursunboyev S. Andijon teatri. –Toshkent: G'ofir G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1970. -133 b.
6. Bayandiyev T. Qoraqalpoq teatri. –Toshkent; 2005. -314 b.
7. San'at masalalari – teatrhunos nigohida. –Toshkent: O'zDSI., 2009. -204 b.
8. Rizayev O. Nabi Rahimov. –Toshkent: G'ofir G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1997. -104 b.

Sabohat XAYTMATOVA,
O‘zDSMI “San’atshunoslik va madaniyatshunoslik” kafedrasida dotsenti, s.n.
Robiya TURSUNMETOVA,

O‘zDSMI 17.00.03- Kino san’ati. Televideniye ixtisosligi 2-kurs tayanch doktoranti (PhD)

KINOSHUNOSLIK SARCHASHMALARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada kinoshunoslik sohasi va kinoshunoslikning kelib chiqish tarixi, rivojlanish yo‘llari fanlararo kesimda tahlil qilingan. Jahon, shu jumladan, rus va yurtimiz kinematografiyasining yetakchi tarixchilari va nazariyotchilarining asarlari tarixiy kontekstda ko‘rib chiqildi. Ayniqsa, o‘zbek kino mutaxassislari va kino tanqidchilarining tajribasi va yutuqlari hamda ularning O‘zbekiston kino san’ati rivojiga qo‘shgan hissalarini ko‘rib chiqildi. Maqolada kinoshunoslikning professional kadrlarini tayyorlash masalalariga ham e’tibor qaratilgan.

Kalit so‘zlar: kinematograf, kino san’ati, san’atshunoslik, kinoshunoslik, kino tanqidchilik, tahlil, kino, film, tarix, nazariya, muammo, tendensiya, kino jarayon.

Сабахат ХАЙТМАТОВА,

и.о. доцента кафедры «Искусствоведение и культурология» ГИИКУз кандидат искусствоведения

Рабия ТУРСУНМЕТОВА,

Докторант (PhD) 2-курса ГИИКУз по специальности 17.00.03 – Искусство кино. Телевидение

ИСТОКИ КИНОВЕДЕНИЯ

Аннотация. В данной статье освещается история зарождения киноведения и кинокритики, анализируются пути их развития в контексте междисциплинарной науки. В историографическом разрезе рассматриваются труды ведущих историков и теоретиков мирового киноискусства, в том числе российского и отечественного. Особо прослеживается опыт и достижения узбекских киноведов и кинокритиков, их вклад в развитие киноискусства Узбекистана. В статье уделяется внимание и вопросам подготовки молодого поколения профессиональных кадров киноведческой науки.

Ключевые слова: кинематограф, киноискусство, искусствоведение, киноведение, кинокритика, анализ, кино, фильм, история, теория, проблема, тенденция, кинопроцесс.

Sabohat KHAITMATOVA,

Acting Professor of the Department "Art History and Cultural Studies" Uzbekistan State Institute of arts and culture

Rabiya TURSUNMETOVA,

2nd year doctoral student of the Uzbekistan

State Institute of arts and culture of specialty 17.00.03 - Cinema Art. Television

THE ORIGINS OF FILM STUDENTS

Keywords. The article highlights the history of the origin of film studies, film criticism, and analyzes the ways of their development in the context of interdisciplinary science. The works of leading historians and theoreticians of world cinema, including Russian and domestic ones, are examined in a historiographical context. The experience and achievements of Uzbek film experts and film critics and their contribution to the development of cinematography in Uzbekistan are especially traced. The article also pays attention to the issues of training the young generation of professional cadres of film studies.

Abstract: cinematography, cinematography art history, cinematography, film criticism, analysis, cinema, film, history, theory, problem, trend, film process.

Kinoshunoslik – san’atshunoslik sohasi, kino san’ati tarixi va nazariyasi, kino san’atiga oid masalalarini o‘rganuvchi fan. Shuningdek, kinoshunoslik kinodramaturgiya muammolari, kinorejissura, kinooperatorlik mahorati, aktyorlarning kinodagi mahorati, kinomusiq, kinorassomchilik, ovozrejissura, liboslar bo‘yicha rassomchilik, grim ustasi va boshqa masalalarni o‘rganuvchi hamda bevosita tahlil qiluvchi fan. Kinoshunoslik sohasi hamda filmografiya va kino bo‘yicha bibliografiyani ham o‘rganadi. [5]

Kinematografning paydo bo‘lishi va rivojlanishi jarayonida ko‘ngilochar tomoshadan san’at turiga aylanishining turli davrlarida kino asarlarni nafaqat tomosha qilish, balki uni tahlil qilib, tanqidiy fikr yuritish ehtiyoji paydo bo‘ldi. XX asrning 10–20-yillarida kino hali ovozsiz bo‘lgan bir davrda, Yevropaning turli mamlakatlarida, masalan, Fransiya, Germaniyada ilk tahliliy ishlar paydo bo‘la boshladi. G.Uefker, V.Panovski, E.Alteplob (Germaniya), R.Kanudo (Fransiya) ishlarida teatr va kino aktyorlarining ijrosidagi farq, filmning

sotsiologiyasi, tasviriy yechimiga e’tibor berilgan. A.Antuan, L.Dellyuk, L.Mussinak (Fransiya) san’atning boshqa turlari ichida kinoning spetsifikasini o‘rganishgan. Ushbu mualliflar ishlarida “harakatdagi tasvir”, “ko‘rinarli musiq” singari yangicha nazariyalar yuzaga keldi. Ba’zi bir tadqiqotchilar kinoni elitar san’at deb hisoblashdi (A.Shomet). Kinoshunoslik bilan bir qatorda kino tanqidchilik ham paydo bo‘la boshladi. 30-yillarga kelib, ko‘zga ko‘rinarli nazariy ishlar ichida kino san’atiga bag‘ishlangan tadqiqotlarda kinematograf murakkab va mutlaq obyekt sifatida o‘rganila boshladi (A.Arnxeym “Kino kak iskusstvo” (“Kino san’at sifatida”), Germaniya). Mazkur tadqiqot ishida asosan, kino san’atining ovozsiz davri o‘rganilgan. Angliyada esa ilk jahon kino san’ati tarixi kitobi nashr etilgan (P.Rota “Istoriya kino do nashix dnei”). Nemis kinoshunoslari R.Arnxeym va Z.Krakauer o‘z kinoshunoslik tadqiqotlarini keyinchalik AQShda davom ettirdilar. Ikkinchi Jahon urushidan keyin 1939–1945-yillarda italiyalik kinoshunoslari U.Barbaro, L.Kyarini, G.Aristarko o‘z ishlarida kinoda realizm

qonuniyatlarini o'rganib chiqqan holda, kino san'atining ijtimoiy kuchini isbotladilar. [4] Fransiyalik kinoshunos J.Sadul "Butun jahon kino tarixi" ensiklopediyasini yaratdi (tugallanmagan) (1946).[6] Polshalik taniqli kinoshunos Ye.Teplitsning "Kino san'ati tarixi" 4 tomli kitobi kinoshunoslik fani uchun juda katta manba sifatida xizmat qiladi. Shu bilan bir qatorda, fransiyalik kinoshunos A.Bazening "Chto takoye kino?" ("Kino o'zi nima?") kitobi kino tanqidchiligi va kinoshunoslikning absolyut klassikasi hisoblanadi. A.Bazen kinoni teatr, fotografiya va boshqalardan farq qiladigan alohida san'at sifatida birinchilardan bo'lib tushungan. U kino – bu rejissyorning san'ati, degan g'oyani ilgari surdi. Kinorejissor, Bazen fikricha, bu filmning yaratuvchisidir. [2] Bazen bu kitobida ko'plab tanqidiy va nazariy fikrlar bildirgan. Bazening "Kino o'zi nima?" kitobini o'qiganingizdan so'ng, siz umuman kino haqidagi asosiy adabiyotlardan biri bilan tanishasiz.

Shu tariqa, kino sohasidagi ilk izlanishlar 1914–1918-yillarda Birinchi Jahon urushidan oldin paydo bo'lgan. 20-yillarda san'atning boshqa turlari – "harakatlanuvchi rasm" va "vizual musiqa" singari kinoning o'ziga xos xususiyatlari o'rganildi. Shu bilan birga, Rossiyada kino



masalalarini o'rganishga birinchi urinishlar bo'ldi.

Kino san'ati rivojlangani sari uning ekspressiv vositalarini, uning tabiati va badiiy imkoniyatlarini o'rganish boshlandi. XX asrning 60–70-yillariga kelib jahon kino sohasida kinoshunoslik mukammal o'rganila boshlandi, xususan, Rossiyada kinoshunoslik san'atshunoslik va kinematografiyaning turli institutlarida o'rganilgan.

Rossiya kino tarixi va nazariyasida juda ko'pgina kinoshunoslar va kinotanqidchilar faoliyat olib borganlar. Sobiq Ittifoqdagi Kino san'ati ilmiy-tadqiqot instituti, Rossiya san'atshunoslik instituti, S.A.Gerasimov nomidagi Butunittifoq davlat kinematografiya instituti (hozirgi S.A.Gerasimov nomidagi Butunrossiya davlat kinematografiya instituti), Iskusstvo kino (Kino san'ati) jurnali hamda ko'plab nashriyotlarda chop etilgan maqolalari, ilmiy ishlari, tanqidiy retsenziyalari bilan rus kino san'atining shakllanishi hamda rivojlanish bosqichlari tarixini va nazariyasini yozgan yirik kinoshunoslik namoyondalari Rossiya kinosining taraqqiyotiga katta hissa qo'shdilar. Bularning orasida S.Freylix, N.Zorkaya, A.Karaganov, I.Vaysfeld, M.Zak, R.Yurenev, B.Dondurey, V.Kichin, V.Matizen, Y.Bogomolov, Ye.Stishova, M.Turovskaya, V.Kisunko, L.Mamatova, V.Malishov, I.Shilova, V.Shitova, M.Yampolskiy, V.Dyomin, L.Karaxan, S.Lavrentyev, K.Paramonova, Y.Tyurin, A.Fyodorov va boshqalar.

Bugungi kunda Rossiya kinoshunosligini A.Plaxov, K.Razlogov, A.Dolin, I.Didenko, S.Xoxryakova, A.Shemyakin kabi qator o'z o'rniga ega bo'lgan va zamonaviy

rus kino tanqidchiligi rivojiga mislsiz hissa qo'shayotgan taniqli kinoshunoslar hamda kino tanqidchilar tashkil etadi.

Xalqaro Kino Matbuotlari Federatsiyasi (abstr. FIPRESSI, FIPRESCI, Fr. Fédération internationale de la presse cinématographique) – kinoshunoslar va kino tanqidchilarni birlashtiradigan xalqaro tashkilot hisoblanadi.

U 1930-yil 6-iyunda Parijda tashkil etilgan. Tashkilotning maqsadi jahon kinosi rivojiga hissa qo'shish, shuningdek, kino haqida yozadigan mutaxassislarining manfaatlarini himoya qilishdir. FIPRESCI mukofoti ta'sis etilgan va u juda nufuzli sovrin hisoblanadi. FIPRESCI Bosh assambleyasi Italiyada joylashgan. FIPRESCIning Rossiyadan vakili taniqli kinoshunos K.Razlogov, MDH davlatlaridan a'zolari yetuk tanqidchi hamda kinoshunoslar G.Abikeyeva (Qozog'iston) va G.Tolomushova (Qirg'iziston), O'zbekistondan esa san'atshunoslik fanlari doktori N.Karimova a'zo.

O'zbekistonda kinoshunoslik XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Unda yozuvchi, jurnalist, muharrir va boshqa tomonidan kino haqida ilk maqola va taqrizlar chop etilgan. XX asrning 30-yillarda va o'zbek kinosining boshlovchilari Nabi G'aniyev, Sulaymon Xo'jayevlar ham kino haqida risola va maqolalar e'lon qilganlar. 1949-yilda Zikrilla Kalonovning "ovet O'zbekistoni kinematografiyasi" nomli birinchi kitobi o'zbek va rus tillarida chop etilgan.

50-yillarda adabiyotshunoslik sohasida faoliyat olib borgan kinotanqidchilar va ilmiy xodimlarning bir guruhi milliy ekran san'atining rivojlanish jarayonini o'rganishga kirishdilar. Bunga o'sha davrda ishlab chiqarilgan filmlar doirasining kengayishi, yirik kino ustalari guruhining shakllanib borayotganligi turtki bo'ldi. S.Muxamedov, R.Pirmuxamedov, M.Melkumov, A.Abdullayev, L.Fayziyev kabi kinochilarning o'zlari ham kinoshunoslik bilan shug'ullanganlar.

O'zbek kinoshunosligining rasmiy rivoji 60-yillarning boshlaridan boshlangan. Bu san'atshunoslik institutida o'z ishini boshlagan bir guruh kinoshunoslar faoliyati bilan bog'liq. J.Teshaboyev, X.Abulqosimova, X.Akbarov, B.Xasanovlar shular jumlasidan. Keyinchalik bu bo'limga M.Mirzamuxamedova, S.Xo'jayeva, V.Kosheleva, M.Zoxidov, S.Xaytmatova kabilar kelib qo'shildilar. Bu davrda J.Teshaboyev ("Kamil Yormatov", 1964; "Sovet O'zbekistoni kino san'ati", 1968; "Shukur Burxonov", 1968; "Asad Ismatov", 1968), X.Abulqosimova ("Nabi G'aniyev" 1965; "O'zbek kinosining tug'ilishi", 1967) larning kino san'atining rivojlanish jarayoni, tarixi, o'zbek kino ustalarining ijodi va boshqa masalalarga oid asarlari yaratildi.

Asosiy e'tibor endi milliy kino nazariyasi masalalariga qaratildi. Milliy kinodramaturgiya va rejissura rivoji, teatr aktyorlarining kino san'ati rivojiga qo'shayotgan hissasi, kinoning boshqa san'at turlari bilan o'zaro bog'liqligi kabi masalalarga qaratilgan asarlar yaratildi. O'zbek kinosidagi an'ana, milliylik va baynalmilallik, mashhur kino ijodkorlarining hayot va ijod yo'lini yoritishga alohida e'tibor qaratildi. B.Xasanovning "Malik Qayumov" (1970), "O'zbek hujjatli kinosi" (1972), X.Akbarovning "Yetuklik" (1971), "Sehrli nur" (1977), X.Abulqosimovanning "Taniqli rejissor" (1971), "Yo'ldosh A'zamov" (1972), "Shuhrat Abbosov" (1976), J.Teshaboyevning "Qahramon – yirik planda" (1972), "Taraqqiyot yo'li va izlanishlar" (1973), "Ustaning baxti" (1975), "O'zbek kinosi: an'ana

va novatorlik” (1979) kabi asarlari nashrdan chiqdi. Bolalar kinosi va rivojiga bag‘ishlangan, “O‘zbekfilm”da yaratilgan bolalar va multiplikatsion filmlar tavsiflangan M.Mirzamuxamedovanning “O‘zbekistonda bolalar kinosi”(1976) kitobi nashr etildi.

80-yillarda yangi kitoblarni bilan bir qatorda kino sohasidagi muhim muammolarga bag‘ishlangan tadqiqotlar San‘atshunoslik institutida amalga oshirildi. Ularda ko‘proq respublika kino san‘atining turli jabhalari, milliy san‘atda o‘zbek kinosining tutgan o‘rni va roli, televideniye va televizion filmlar muammolariga e‘tibor berildi. X.Akbarovning “Zohid Sobitov” (1980), “Adabiyot va kino” (1981), “Latif Fayziyev” (1985), “O‘zbekiston kino va televideniyesi” (1989), M.Mirzamuxamedovanning “O‘zbekiston bolalar kinosi” (rus tilida, 1982), S.Xo‘jayevaning “60–70-yillar Osiyo va Afrika mamlakatlari kino san‘atidagi ilg‘or g‘oyalar” (1982), J.Teshaboyevning “O‘zbek kinosi: izlanishlar va ishonchlar” (1984), X.Abulqosimova, J.Teshaboyev, M.Mirzamuxamedovalarning “O‘zbekiston kinosi”



(1985) kabi asarlari shular jumlasidan. Bundan tashqari, S.Xaymatova “Stanovleniye i razvitiye televizionnogo kino Uzbekistana” (avtoreferat, 1987) X.Abulqosimova “Kino i xudojestvennaya kultura Uzbekistana” (1992) [1], N.Karimova “Molodoy sovremenniy geroy uzbekskogo igrovogo kino (1960–1990 gg.)” (avtoreferat, 1997) singari ilmiy tadqiqotlar ham olib borildi. Ta’kidlash joiz, bu yillarda nafaqat o‘zbek kinosiga, balki hind, turk, arab mamlakatlari, qo‘shni davlatlar kinematografiyasiga oid ilmiy tadqiqot ishlari o‘zbek kinoshunoslari tomonidan olib borildi.

Mustaqillik yillarida kinoshunoslik muammolarini yangi davr nuqtai nazaridan izlanishlar olib borish ko‘zga tashlandi. Ayniqsa, 2000-yillarda kinoshunoslikda o‘zbek kino tarixi yangi bosqichi bo‘lgan mustaqillik davrini chuqur o‘rganish maqsadida bir qator tadqiqotlar olib borildi. Bu tadqiqotlarda jahon kinosining zamonaviy tendensiyalarga oid masalalari, kinoshunoslik ilmida

jamlangan nazariy bilimlarga asoslangan holda o‘zbek kinematografi tarixidagi davrlarni qayta ko‘rib chiqish ustuvor vazifa qilib belgilandi. Jumladan, N.Karimova tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlari natijasida “O‘zbekiston badiiy kinematografiyning shakllanishi va taraqqiyoti” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi yuzaga keldi. N.Karimova birinchilardan bo‘lib kinoshunoslik masalalarini kengaytirgan holda, o‘z izlanishlarida nafaqat o‘zbek kino san‘ati taraqqiyotini, balki keng ma’nodagi o‘zbek kinematografiyning bugungi kundagi dolzarb muammolariga o‘z e‘tiborini qaratdi. Yangi avlod kinoshunoslari N.Karimovanning “Igrovoy kinematograf Uzbekistana” monografiyasi ushbu fanda ta’lim va tahsil olishga imkon yaratdi. Shu bilan birgalikda, 2008-yilda “Annotirovanniy katalog xudojestvennogo kino Uzbekistana 1925–2008” nomli kitobini yaratish ehtiyoji tug‘ildi hamda o‘zbek kinoshunoslari tomonidan tizimga solingan O‘zbekistonda yaratilgan filmlar ro‘yxati tuzildi (loyiha rahbari: S.Xaymatova). Shuningdek, o‘zbek kinosining janr va turlari (multiplikatsiya, hujjatli kino, teleseriallar va boshqalar)ga bag‘ishlangan tadqiqot ishlar ham paydo bo‘ldi. Televideniye sohasiga ham alohida e‘tibor berildi. Televideniye amaliyotidan chiqqan tadqiqotchilar F.Fayziyeva va I.Raxmatullayevalarning ilmiy tadqiqot ishlari kinoshunoslikni mavzuviy jihatdan ko‘lamini kengaytirdi. Respublikada kinoshunoslik va kinotanqidchilik o‘z qatorini ommaviy axborot vositalarida o‘z nashrlari, televizion ko‘rsatuvlari va bahslari bilan bugungi kundagi kinojarayonni tahlil qilishga imkon berdi. Shularning ichida O.Kopadze, F.Nodirova, E.Xasanova, B.Yakubov, G.Raxmatkariyeva, E.Ganiyeva va boshqalar.

Keyingi yillarda kinoshunoslik fani o‘z safini kengaytirmoqda. Zamonaviy o‘zbek kino san‘ati nafaqat FA San‘atshunoslik institutida, balki O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida ham o‘rganilmoqda. Professional kadrlar tayyorlash maqsadida O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutida kinoshunoslik yo‘nalishi va mutaxassisligi tashkil etildi. Aytish mumkinki, so‘nggi yillarda qisqa vaqt ichida o‘zbek kinosi barcha jabhalardan o‘rganilmoqda, xususan, kinoning boshqa san‘at turlari bilan aloqadorligi, kino tur va janrlari, dramaturgiya, kinoda musiqa, operatorlik mahorati, kino san‘atining barcha komponentlari singari mavzularda bakalavr talabalari, magistrantlar va ilmiy tadqiqotchilar (doktorantura PhD) tomonidan izlanishlar olib borilmoqda hamda milliy kinoni rivoji uchun o‘z tadqiqotlari bilan hissa qo‘sha oladigan loyiq kadrlar tarbiyalanmoqda. Bu yo‘lda institutda tashkil qilingan doktorantura (PhD) ta’limi ham o‘z natijasini berishiga imkon yaratildi. O‘zbek kinosining dolzarb masalalaridan zamonaviy o‘zbek kinosida xarakter yaratish masalasi, o‘zbek kinosida tasviriy yechim muammolari, yangi davr o‘zbek kinosining rivojlanish tendensiyalari, o‘zbek kinosida teatr va kino aktyori fenomeni, o‘zbek hujjatli kino masalalari, vizual madaniyat va kino kabi mavzular yosh kinoshunoslar diqqat markazida.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. Абул-касымова Х. Кино и художественная культура Узбекистана. –Ташкент; 1997. -220 с.
2. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана: истоки. –Ташкент: Санъат, 2012. –120 с.
3. Кино: энциклопедический словарь / гл. ред. С. И. Юткевич. –Москва: Сов. энциклопедия, 1987. -640 с.
4. Садуль Ж. Всеобщая история кино. Т.6. –Москва: Искусство, 1958–1963. -383 с
5. Базен А. Что такое кино?: сб. ст. / Андре Базен ; пер. с фр. – Москва: Искусство, 1972. – 383 с.
6. Кино.ру [Электронный ресурс] : новая энциклопедия кино. – Режим доступа: <http://www.kinox.ru/index.asp>.

HOTAM FAYZIYEV – O‘ZBEK KINOOPERATORLIK SAN‘ATINING YORQIN NAMOYANDASI

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek badiiy kinematografiyasining, kinooperatorlik maktabining yorqin namoyandasi bo‘lgan usta ijodkor, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san‘at arbobi, davlat mukofoti sovrindori, “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlangan Hotam Fayziyevning ijod yo‘li, uning kinooperator sifatidagi tasviriy uslubi tadqiq qilinadi. Shu bilan birga atoqli kinooperator yaratgan filmlari, ulardagi tasviriy ifodalilik, obrazlilik, tasviriy yechim xususiyatlari o‘rganildi. Bundan tashqari, Hotam Fayziyevning kino san‘atidagi rejissorlik faoliyati, rejissor sifatida yaratgan ilk filmlari tahliliy o‘rganilgan. Maqolada yana kinooperatorning mustaqillik yillarida suratga olgan badiiy filmlari, ulardagi tasviriy stilistika, ijodkor shaxsning pedagogik faoliyati ham ko‘rib chiqildi.

Kalit so‘zlar: operator, san‘at, kino, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, badiiylik, tasviriy yechim.

Икбол МЕЛИКУЗИЕВ,
Заведующий кафедрой "Звукорежиссура и операторское мастерство",
и.о. профессора ГИИКУЗ

ХОТАМ ФАЙЗИЕВ – ЯРКИЙ ПРЕДСТАВИТЕЛЬ УЗБЕКСКОЙ КИНООПЕРАТОРСКОЙ ШКОЛЫ

Аннотация. В данной статье исследуется творческий путь кинооператора Хатама Файзиева, яркого представителя узбекского художественного кинематографа, узбекской школы кинематографии, заслуженного деятеля искусства Узбекистана, лауреата Государственной премии, обладателя ордена “Почёт народа”, его живописный стиль как кинематографиста. При этом изучались фильмы, созданные известным кинооператором, особенности их выразительности, образности, визуальных решений. Кроме того, аналитически исследована режиссёрская деятельность Хатама Файзиева в киноискусстве, его первые фильмы как режиссера. Также изучаются художественные фильмы, созданные кинооператором за годы независимости, их изобразительная стилистика, а также педагогическая деятельность творческой личности.


Ключевые слова: искусство, кино, кинооператорская школа, творчество, выразительность, изобразительное решение.

Iqbal MELIKUZIEV,
Acting professor of the department “Sound direction and cameraman skill” UzSIAC

KHATAM FAYZIEV – A BRIGHT REPRESENTATIVE OF THE UZBEK CINEMATOGRAPHY SCHOOL

Abstract. This scientific article explores the creative path of cameraman Khatam Fayziev, a prominent representative of Uzbek art cinema, the Uzbek school of cinematography, Honored Artist of Uzbekistan, laureate of the State Prize, holder of the Order of “Honor of the People”, his painting style as a cinematographer. At the same time, films created by a famous cameraman were studied, the features of their expressiveness, imagery, visual solutions. In addition, the directorial activity of Khatam Fayziev in the theater and in the cinema, his first films as a director is analyzed analytically. It also studies feature films created by the cameraman during the years of independence, their pictorial style, as well as the pedagogical activity of a creative person.

Keywords: art, cinema, cinematography school, creativity, expressiveness, visual solution.



Kinooperator Hotam Fayziyev
AQShning Metro-Goldwin-Mayer Kinokompaniyasida.

Bugungi kunda boshqa sohalarda bo‘lgani kabi o‘zbek milliy kinosi rivoji uchun keng yo‘l ochib berildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan o‘tgan 5 yil davomida milliy kinematografiyani yanada rivojlantirishga oid chora-tadbirlarni o‘zi ichiga olgan bir nechta qarorlar imzolandi. Mazkur muhim hujjatlarni joriy etishdan asosiy maqsad milliy kinematografiyani rivojlantirishdir. Vatanimizdagi o‘zgarishni kino san‘ati vositasida to‘laqonli badiiy aks ettirish, badiiy, hujjatli, ilmiy-ommabop va multiplikatsion filmlarning xalqimiz hayotidagi, yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini oshirishdan iborat.

Men “Shaxsan men har safar “Tohir va Zuhra”, “O‘tgan kunlar”, “Sen yetim emassan”, “Mahallada dud-dud gap” kabi mumtoz milliy filmlarimizni ko‘rganda bu fahr tuyaman. Mana shunday milliy asarlar nafaqat xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishga, balki uning go‘zal qadriyatlarini butun dunyoga tanitishda ham katta hissa qo‘shib kelmoqda”¹. Prezidentimiz e‘tirof etgan filmlar

qatoridan “Sen yetim emassan” filmining joy olishi e’tiborga loyiq. Zotan, ushbu filmning muvaffaqiyatini ta’minlashda filmning boshqa ijodkorlari qatori O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, mohir operator Hotam Fayziyevning ham hisssasi beqiyos. Zero, uning tasvirlarda obraz yaratish mahorati, sovuq texnika vositasida inson ruhiyati va qalbining qaynoq taftini berish iqtidori filmning muvaffaqiyatiga ulkan hissa qo‘shgan. Ijodkorning bundan tashqari yana bir qancha filmlardagi muvaffaqiyatli faoliyati bu ijodkorning ijodini keng ko‘lamda o‘rganishni taqozo qiladi. Odatda, adiblar, rejissorlar, aktyorlar haqida yaratilgan portretlarga tez-tez duch kelamiz. Biroq operatorlar faoliyatiga bag‘ishlangan tadqiqotlar kam uchraydi. Aslida, kino aynan operatorlar nigohi orqali ko‘rilishi asli haqiqat-ku! Bundan tashqari, H.Fayziyev shunchaki mualliflar fantaziyasini ifoda etuvchi, bajaruvchi operator bo‘lib qolmay, o‘zi fikrovchi, bir butun yaxlit kino asarini tasavvur etuvchi ijodkor hamdir. Buni birgina uning rejissorligida ishlangan filmlaridan bilish mumkin.

USULLAR

Mazkur maqolada mavzuni yoritish, badiiy filmlarda operatorlar mahoratini tahlil qilish, badiiy filmlarning tasviriy yechimiga izoh berishda sohaga yaqin bo‘lgan adabiyotlardagi yondashuv uslublariga tayangan holda, tasviriy-tavsifiy bayon etish hamda tizimli tahlil qilish tarzda yondashildi. Bunday yondashuv asosida ijodkor Hotam Fayziyevning operatorlik mahoratini bosqichmabosqich, tartibli ravishda, ya’ni kichik bo‘limlarga ajratilgan tarzda o‘rganish va ularni o‘ziga xos jihatlarini yoritish, shuningdek, yaratilgan filmlardagi tasviriy elementlarini chuqurroq va atroflicha tahlil qilishga erishish mumkin.

NATIJALAR VA MUNOZARA

Kinooperator – musavvir, faqat mo‘yqalam va xolst o‘rnida – kinoapparat ishlatadi va u o‘z asarlarini tasмага yozadi” deb yozgan edi maqolalarining birida atoqli kinooperator Hotam Fayziyev. Haqiqatdan ham tasviriy san’at va operatorlik san’ati qonuniyatlari o‘rtasida ko‘pgina mushtarakliklar mavjud bo‘lib, ifoda vositasiga ko‘ra farqi shundaki, kino kadrlar ila fikr aytish san’atidir. Kino – hayotga go‘yoki, chekkadan turib qarash, odatda sezilmasdan o‘tib ketadigan jihatlarini anglash, voqelikni chuqurroq mushohada qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayonda sohaning professional vazifalaridan xabardor, shu bilan birga, obyektini hissiy munosabati ila tahlil eta oladigan kinooperatorning ishtiroki juda muhim sanaladi. Umuman, kinooperator filmni ilk kuzatuvchisi bo‘lib, tomoshabin va aktyor o‘rtasidagi vositachi hamda texnikani so‘zlata oladigan sehrgardir. Mohir kinooperator Hotam Fayziyev ham kinokamerasi orqali mo‘jizalar yaratgan sehrgar tasvir ustalaridan biri edi. Uning kinooperator sifatidagi mahorati nafaqat O‘zbekistonda, balki dunyoning ko‘plab mamlakatlarida ma’lum va mashhurdir.

Hotam Fayziyev 1958-yilda Butunittifoq davlat kinematografiya institutining (VGIK, Moskva) kinooperatorlik fakultetini tugatib keldi. Shu kundan boshlab ustoz “O‘zbekfilm” kinostudiyasida kechani kecha, kunduzni kunduz demay ishlay boshladi. Hattoki filmni suratga olish tugaganda uni tugashidan xursand bo‘lish o‘rniga xuddi sevgan ishidan ajrab qoladigandek xafa ham bo‘lib

qo‘ydi. Lekin bu hissiyot uzoqqa cho‘zilmadi. Moskvada O‘zbekiston san’ati va adabiyoti dekadasida yaqinlashib kelardi. Bu dekada haqida to‘laonli film olish masalasi kinochilar oldida turgan birinchi vazifa edi. Hotam akani shu filmni suratga oluvchi gruppaga qabul qilishdi. Hotam aka yana yangi kuch-g‘ayrat, shijoat bilan ishga kirishib ketdi. Keyinchalik, mamlakat ekranlariga “Salom, Moskva!” nomli hujjatli film chiqdi, bu filmni yaratishda u ham o‘z ulushini qo‘shdi.

Oradan ko‘p o‘tmay, 1959-yilda Aleksandr Pan Hotam Fayziyevni o‘zi rejissor Latif Fayziyev bilan birgalikda suratga olayotgan birinchi o‘zbek rangli kartinasi – “Ikkinchi bahor” filmiga ikkinchi operatorlik sifatida ishlashga taklif etdi. Yosh ijodkor kartina ustida alohida zavq va zo‘r qiziqish bilan ishladi. Suratga olish jarayonida u barchaning hurmat-e’tiborini qozondi. Eng muhimi, operatorlik kasbini mukammal egallay olishini isbot etdi.



Hotam Fayziyev “Toshkent – non shahri” filmni suratga olish jarayonida.

Hotam Xolmatovich 1960-yilda yosh rejissorlar Damir Salimov va Yevgeniy Sherstobitovlar postanovka qilgan “Qudratli qatlam” filmni mustaqil ravishda suratga oldi. Ancha tajribasi ortib, operatorlarga xos boy fantaziyasi, ayniqsa, suratga olish nuqtalarini aniq ko‘ra olishi, kadr ko‘lamini chuqur his qilishi va kartina kompozitsiyasini mukammal ko‘ra bilishi rejissor e’tiborini qozondi”. Keyinchalik, Hotam Fayziyev birin-ketin o‘zbek kinosining oltin fondidan joy olgan eng sara filmlariga operatorlik qildi. Bular, “Besh og‘ayni”, “Sen yetim emassan”, “Toshkent – non shahri”, “Muhabbat mojarosi”, “Abu Rayhon Beruniy”, “Sahro osmoni”, “Surayyo”, “Vijdon amri”, “Yilning to‘rt fasli”, “Olov qa‘ridagi farishta”, “Yulduzingni ber, Osmon!”, “O‘tkan kunlar”(ikkinchi varianti), “Favqulodda komissar”, “Sel”, “Ehtiyot bo‘l, ilon!”, “Buvimni qaytarib bering”, “Hayot mazmuni”, “Alif Laylo”, “Katta janjal”, “Komila”, “Nur va soya”, “Diyonat”, “Yolg‘izlikda”, “Uran sayyorasining yo‘ldoshi”, “Sahro osmoni”, “Ayollar saltanati”, “Chimildiq”, “Dilxiroj”, “Yodgor”, “Dard”, “Tahdid”, “Faqat g‘alaba!”, “Erkak”, “Ta’ziyadagi to‘y” kabi badiiy filmlar va “Tushlar”, “Toshkent – zilzila!”, “Samarqand – hamisha men bilan”, “Avlodnoma”, “Yesenin”, “Murodning orzu-umidlari”, “Yo‘l chetida qoldirib ketilganlar”, “Yevropaga yo‘l”, “Ayol madhiyasi”, “Serquyosh joy”, “Bobur”, “Navoiy shahri”, “Qirq yil va bir kun”, “Mening minglab o‘g‘il-qizlarim”, “Farg‘ona qizlari”, “Chotqol qo‘riqxonasi” kabi hujjatli va qisqa metrajli filmlar shular jumlasidandir. Ijodkor, shuningdek, “Nashtar” hamda “Zumrasha” kinojurnallarining ko‘p sonlarida operator va rejissyor sifatida qatnashgan. Ko‘rinadiki, Hotam Fayziyev faoliyati davomida rang-barang

¹Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. -Toshkent: Ma’naviyat, 2008. - b 145.

mavzu, janr, keng ko'lamli yo'nalishlar, uslublarda suratga olingan filmlarda o'z iqtidorini namoyon etib, har birining tasviriy stilistikasi hamda tugal badiiy shaklini topa olganligi e'tiborli jihatdir. Bu esa o'z o'rnida operatorning ko'p qirrali ijodkorligidan darak beradi.

Hotam Fayziyevning mohir va o'ziga xos operator bo'lib yetishishida bevosita Butunittifoq davlat kinematografiya institutida olgan ta'limi katta asos bo'lgan. Institutda professor, taniqli operator Aleksandr Galperin ustaxonasida suyagi qotgan ustoz shu bilan birga, yana bir necha operatorlar A.Levitskiy, A.Golovnya, A.Moskvin, E.K.Tisse kabi tasvir ustalaridan soha sirlarini qunt va sabr-toqat bilan o'rgandi. Eng muhimi, ustozlar maktabi an'anasini davom ettirgan holda o'zlashtirgan bilimlarini tajribasida qo'llab, o'z yo'li, uslubini topib oldi, muvaffaqiyatlarga erishdi. Suratga olgan fotosuratlar esa hali-hanuz u o'qigan oliy dargohda talabalarga namuna sifatida havola etiladi.

Hotam Fayziyev operatorlik san'atining o'ziga xosligi haqida so'z yuritir ekan, avvalo, uning "Kamera begona tomoshabin, voqelikning hissiz qayd etuvchisiga aylanib qolishi kerak emas. Operator esa sovuqqon kosib emas, balki kino tilining azobli va ayni paytda qiziqarli izlanishlariga tayyor hamfikir bo'lishi kerak!.." deydi. U bir umr ana shu qimmatli aqida asosida ijod qiladi. Hamkasblarining xotirlashicha, o'zbek operatorlik san'atida Hotam Fayziyevdek kadrda aniq mo'ljalli, qahramon ichki dunyosiga monand xarakterli tarzda chiroq qo'ya oladigan operatorlar juda kamdan-kam topilar ekan. Uning chiroq qo'yish uslubi ko'proq, Gollandiyalik rassom Rembrandtning suratlaridan ilhomlangan tarzda vujudga kelgan. Bu usulni soha vakillari "Rembrandtcha" yoritish usuli deyishadi. Operator kadr qo'yishda ko'pincha portret janriga murojaat etgani bois, unga bu uslub ko'p bora qo'l kelgan. Bunda qahramonning ko'zlari aniq ajratib ko'rsatiladi, yuzning qolgan qismi esa soyaroqqa olinadi. Ya'ni, kadrning butun kompozitsiyasi aynan ko'zlarning yirik planda ko'rsatilishiga asoslanadi. Shu bilan birga uning operatorlik asarlarida ichki dramatism, hayajonli dinamika, musiqa bilan hamohang rivojlanadigan kadrlarning kompozitsion tempi, tugallangan badiiy shakl, ma'noli sukutlar, lirika, mayin va samara beruvchi yorug'lik (effekt), tabiat va aktyorning mutanosib harorati, murakkab rakurslar, keng fazoviy havo, o'tkir badiiy did eng muhimi, dramaturgiyaning ekranda ta'sirli ifodalanishiga o'ralgan fikr aks etib turadi².

U doim yangi film ustida ish olib borganda operator sifatida filmni adabiy asos bo'lmish ssenariy ustida rejissor bilan yonma-yon ishlab, shu asnodan obrazlar ruhiyati va silsilasiga kirib borgan. Shuning uchun ham operator suratga olgan yirik plandagi tasvirlarda inson va uning taqdiri tabiiy, haqqoniy ravishda bo'y ko'rsatib turadi. H.Fayziyev juda sinchkov operator ham edi. U "O'tgan kunlar" filmni ikkinchi variantini tasvirga tushirayotgan vaqtida qahramondan o'n besh qadamcha narida turgan devordagi kichkinagina dog'ni ko'rib qolib, shartta suratga

olishni to'xtatgan ekan. Operator ushbu filmda bosh rassom sifatida ham ishlagan. U ellik yildan ortiq vaqtini shu kasbga bag'ishladi. Shuni ham ta'kidlash joizki, u "Beruniy" filmni bir necha o'n metr balandlikda 100 kilogramm og'irlikdagi kamerasi bilan suratga olayotib yonib ketgan. O't o'chiruvchilarning vaqtida yordamga kelgani tufayligina u omon qolgan. Aynan shu filmda quyosh tig'ida kamerasi bilan haddan ziyod ko'p turganligi uchun xastalikka chalinib qolgan. Shundan keyin ham operatorning sohasiga bo'lgan munosabati o'zgarmadi. H.Fayziyev kasbini ana shunday mashaqqatlar bilan yaxshi ko'rardi³.

U operator sifatida ijod qilgan dastlabki yirik kartinalari "Sen yetim emassan" (1962-y.), "Toshkent – non shahri" (1967-y.) kabi drama janridagi realistik filmlari oq-qora ko'rinishda bo'lsa-da, bu kartinani tomosha qilishda zerikish hissini aslo uyg'otmaydi. Sababi, operator ushbu filmlarida yoritish tonalligiga alohida e'tibor berib, har bir voqea yoki bo'lmasa qahramonlarning ichki ruhiy kayfiyatini nozik ifodalashga erishgan. Ushbu klassikaga aylangan kartinalarni har gal tomosha qilsak ham, qalbimizdan yanada yangi taassurotlar, kechinmalar sizib chiqadi, go'yo...

O'zbek kinosining ushbu durdona asarlarida Hotam Fayziyevning ijodiy imkoniyatlari keng qamrovda aks etdi. Shuningdek, "Sen yetim emassan" filmi 1963-yilda Frankfurt – Mayneda bo'lgan Xalqaro kinofestivalda, "Toshkent – non shahri" filmi esa 1968-yili Olmaota kinofestivalida yaxshi rejissorlik ishi va tasviriy yechimi ko'rinishlari uchun festival sovriniga sazovor bo'ldi⁴.

"Toshkent – non shahri" filmida ocharchilik yillari Volga bo'yidan Toshkentga kelib qolgan bola va uning oilasi taqdiri orqali butun mamlakat hayoti ochib beriladi. U yoqlarda ochlik hukm surgan bir paytda ular uchun Toshkent yagona najot shahri edi. To'qqiz kishilik oiladan mushtipar ona va och-yupun uch bolagina omon qoladi. 12 yoshli Mishkani o'lim va ochlik bilan olishib yotgan ukalariga non olib kelish istagi Toshkentga yetaklaydi. O'sha paytlari och-nahor odamlar tilidan ushbu shaharning nomi tushmay qolgan edi. Shuning uchun ham Mishka, Toshkentga boraman, deb oyoq tirab turib oladi.

Voqealar, asosan, yo'lda bo'lib o'tadi. Bolakayni hayotning o'zi tarbiyalaydi, bora-bora yaxshi-yomonni, oq-qorani taniydi. Ne-ne mashaqqatlarni boshidan kechiradi, do'stlik, mehr-oqibat, qadr, burch singari tushunchalar nima ekanini anglab yetadi. Vova Vorobey yaratgan Mishka – murakkab va serqirra obraz va davr sharoiti, kishilari haqida tasavvur beradi. Filmda 1920-yillar hayoti aniq detal, voqealar bilan ochib berilgan.



Hotam Fayziyev "Toshkent – non shahri" filmni suratga olish jarayonida

² Melikuziev I. Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films // International Journal of Advanced Science and Technology. -2020.-№29(5). -B.1554–1567.

³ Qobilova L. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Hotam Fayziyev ijodiy faoliyati. Bitru malakaviy ishi. –Toshkent: O'zDSMI., 2014. – b 18.

⁴ Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. – b 78.

Bosh qahramon xarakterining turli qirralarini ochib berishda Seryojka, o'zbek bolasi Rahim, vagonidagi o'g'ri-qalloblar, o'zbek dehqonlari, ona kabi obrazlardan unumli foydalanilgan. Filmni tomosha qilish jarayonida bolaning taqdiri, uning kechinmalariga sherik, nonni olib, onasi va ukalari oldiga eson-omon yetib borishga xayrixoh bo'lamiz.

Tomoshabin Toshkentga sayohati davomida ancha ulg'ayib, qishlog'iga qaytgan Mishka Dodonovga bola emas, balki oilasi, hamqishloqlarining og'irini yengil qilgan shaxs sifatida qaray boshlaydi. Biroq, afsuski, u qaytib kelguncha ukalari ochlikdan o'lgan edi. Lekin hayot davom etadi. Yer yana hosilga kiradi. Xonadonlarda ochlik dami kesiladi. Og'ir sinovlarda nondan-da qimmatli, nondan-da aziz bo'lgan oqibat o'lmaydi".

Aleksandr Neverovning shu nomli qissasi asosida kinodramaturg Andrey Mixalkov-Konchalovskiy tomonidan yozilgan ssenariy bo'yicha suratga olingan mazkur filmning ekspozitsiyasi xronologik manzaralar aks etgan kadrlar bilan boshlanadi. Och-nahor odamlar to'dasi, qurib, qovjirab, yorilib ketgan yerlar, qabriston, ochlikdan nobud bo'lgan jasadlarning qalashib yotgan suyaklari.

Bularning bari o'sha davr muhitini yaqindan his qilishimizga yordam beradi. Bu operatorning ijodiy guruh bilan izlanishlari samarasi edi. Asarda bayon qilingan barcha voqealarni to'laqonli aks ettirish uchun faqat asarnigina emas, balki o'sha davr sharoitini yaqindan o'rganib chiqish zarurligini yaxshi tushungan ijodiy guruh Volga bo'yiga yo'l oladi. Hotam Fayziyev safar davomida Volga bo'yidagi ocharchilik yillari haqidagi muzeylarni ko'rdi, arxiv hujjatlarini o'rganib chiqdi. Keyinchalik, bu filmning haqqoniy kadrlar majmuasi yaralishida zamin bo'ldi.

Tomiga poxol to'shalgan eski yog'och hovli o'rtasida o'tirgan Mishaning ikki ukasi "Non yegimiz kelyapti..." deya yig'layaptilar. Sillasi qurigan ona bo'lsa, og'ir qadam tashlab, uy yumushlarini zo'rg'a bajarmoqda. Operator bu manzarani kuzatib o'tirgan Mishani orqa tomonidan suratga oladi. Bunday yondashuv Mishaning oilasini ochlik balosidan qutqarish choralarini izlayotganligi haqida jiddiy o'y surayotganini, uning ichki vazmin holatini salobatli ko'rinishiga xizmat qilgan.

Bolakay Toshkentga ketishga qarshi bo'lgan onasiga qarata alamli tarzda "Oilamizdan qancha odamni ko'mdik... Endi bizni ham ko'mmoqchimisiz?!.. Otam sizlarni menga ishonib topshirib ketgan. Men bu uyning boshiman axir..." deya ushbu so'zlarini uyning u chetidan bu chetiga borib kelib aytadi. Bevosita operatorning kamerasi ham bola bilan birga harakat qilar ekan, tomoshabin Mishaning xayoli katta odamlarnikidek mushohadali o'y-fikrlar bilan band ekanligini, uni ich-ichidan juda-juda azob chekayotganligini, yashash uchun mardona kurashishga tayyorligini ta'sirli mizansahna orqali his qiladi.

Ushbu kinokartinadagi ko'pgina epizodlar poyezd ichi, poyezd yo'li va stansiya atrofida suratga olingan bo'lib, bu operator zimmasiga katta mas'uliyat yuklaganligidan dalolatdir. Ayniqsa, ommaviy sahnalar epizodlari turli nuqta va rakurslardan suratga olishni talab etardi. Tomoshabin mazkur epizodlar zalvorini tinimsiz almashinib turgan kadrlar orqali angelaydi. Ya'ni, bu yerda montaj ritmi tez suratlarda hal etilganligi bilan ahamiyatlidir. Odamlarning tez-tez yurib ketayotgan oyoqlari yirik planda ko'rsatilganda esa kadr ta'sir kuchi yanada oshib boradi.

"Qozoq cho'li" epizodi sokin musiqiylik tabiatiga

ega bo'lib, kadrda qadimiy qal'a xarobalari namoyon bo'ladi. Juda ham baland tuproq devorlar, mahalliy hudud va qal'aning landshafti o'zining ibtidoiyligi bilan kishida katta taassurot qoldiradi. Misha va Rahim bu muhitga tabiiy ravishda singishib ketib, yaxlitlikni tashkil etadilar. Bu sahnada bir guruh odamlarning poyezdni kutib o'tirmasdan, Toshkentga qarab piyoda yo'lga tushishga qaror qilganliklari ko'rsatiladi. Ularga Misha Dodonov va Rahim ham qo'shilishadi. Ular quyosh ayovsiz kuydirib tashlagan qozoq yerlaridan o'tishadi. Keksa bobo Dodonovga bug'doyni qanday ekish va mo'l hosil olish yo'llarini o'rgatadi. So'ng piyodalar Toshkent va Toshkent zamini haqida orzu qilishadi.

Qal'aning quyosh nurlari ostida ko'zni qamashtirguday chaqnaq turgan qaynoq oq tomlari va ko'hna tuproq devorlar bag'rida bu so'zlar hech qachon amalga oshmaydigan orzuday yangrardi. Butun atrof-muhit bor-yo'q istaklari non shahri Toshkentga yetib olish bo'lgan bir siqim odamlarni ezib turardi. Operator mazkur epizodda tempni osudaligini ta'minlash maqsadida uzun kadr usulini qo'llaydi.

Misha ketib borayotgan poyezdning oxirgi vagoniga bir amallab osilib olish ilinjida uning ortidan yugurarkan, u yirtiq chiptakovushlaridan ayrilar va eng so'nggi lahzada vagon zinasining quyi pallasidan ushlab qoladi. Shunda Mishaning yalang'och oyoqlari yerda sudralib, o'tkir toshlarga uriladi. Bu epizodning bir necha nuqtalardan suratga olinganligi Mishaning qo'rqinchli hayajonini tuyishimizga imkon beradi. Ayniqsa, panorama usuli ushbu epizodda o'rnida qo'llanilgan.

Filmning intrigasi yuqori bo'lgan boy epizodi Stepanning (Aleksandr Susnin) poyezd ustida bolalarni orqasidan ta'qib qilish sahnasidir. Operator harakatdagi poyezd ustida yugurib ketayotgan aktyorlarning vagonidan vagoniga sakrashini suratga olar ekan, vagonlar orasiga belanchak yasab, kamera bilan yotib, o'sha yerdan kadr nuqtasini belgilaydi. Stepan qora tutun ichida tasvirlanar ekan, bu bilan uning salbiy qahramon ekanligiga ishora qilinadi. Shuningdek, operator suratga olish maydonchasida yaratiladigan film sifatini o'ylab, murakkab syomkalar haqida ko'p izlanardi. Hattoki o'sha tinib tinchimasliklar hayotiga xavf solib turgan lahzalarda ham u filmning taqdirini o'ylardi. Bu chindanda kamdan-kam uchraydigan haqiqiy ijodkorning yorqin namunasi..

Operator Eski Toshkent manzarasini Misha Dodonovning nigohida (subyektiv kadr) ko'rsatadi. Tutun burqsiq turgan kaboblar, savatlardagi qaynoq nonlar, paranjil yopingan ayollar, uyum-uyum qovun-tarvuzlar, mo'l-ko'l meva va sabzavotlardan uning boshi aylanib ketadi. Ochlik va charchoqdan tinka-madori qurigan Mishka beixtiyor sotuvchi ayolning nonini olib qo'yib, shosha-pisha yeya boshlaydi. Jahli chiqib ketgan ayol yordam so'rab baqiradi va bolani kaltaklaydi. Bolalar qochib qolishadi, ularning ortidan olomon chopadi. Mishani favqulodda tor va qiyshiq ko'chalar, uzun chopon va do'ppi kiygan erkaklar, paranjili ayollar hayratga soladi. Bu epizodda operator kadrning o'tkir kompozitsion tuzilishiga, dinamikali harakatlarga va nurning kontrast yoritilishiga rioya etadi. G'azabga mingan olomondan qochib ketayotgan bolalarni tasvirga olish uchun qo'l kamerasi bilan ularning ortidan chopadi. Operator Hotam Fayziyev, go'yo, aktyor bilan birga baravar rol ijro etadigan operatorlar toifasiga kirardi. Ya'ni, u aktyor operatori edi. Bu haqida operatorning o'zi shunday degandi: "Aktyor berilib o'ynaganda, siz ham u bilan birga o'ynaysiz, uning holatiga kirasiz. Qiynalsa,

qiynalasiz, kulsa qo'shilib kulasiz. Agar tasvirchini chetdan kuzatsangiz, yoki suratga olsangiz, u ham aktyor bilan baravar o'ynayotganini ko'rishingiz mumkin”.

Qishloq, o'sha tegirmon, yog'och ko'prik ustida arava ko'rinadi, unda Mishra o'z oilasiga bug'doy olib kelmoqda. Uning nigohlarida “Oilam omonmikan?”– degan havotir bor. Hotam Fayziyevga ham aynan shu kadr qadrli bo'lgan ekan. Final sahnasida yerga bug'doy urug'ini sepyotgan Mishka paydo bo'ladi. U aslida, yerga mehr-oqibat urug'ini qadamoqda... Film ana shunday optimistik ruh, tugal badiiy shaklda nihoyasiga yetadi.

“Sen yetim emassan” filmi esa ikkinchi jahon urushi yillari O'zbekistonga kelib qolgan o'n to'rt nafar yetim bola va ularga mehr qo'rini berib, ota onalik qilgan Mahkam ota va Fotima ayalarning katta qalbi, ma'naviy jasorati haqidadir. Ushbu kartina o'zida o'zbek xalqining milliy ruhini, millatning umumiy xarakterini, mehr-oqibatini, bolajonlik fazilatini tarannum etadi. Bir so'z bilan aytganda, o'zidan kechib, o'zgaga ilinib yashagan olijanob insonlar, vatandoshlarimiz Bahri Akromova va Shoahmad Shomahmudovlarning oilasi va ular asrab olgan bolalarning taqdiri film uchun mavzu bo'lgan. Film yirik kadrlar, qo'shplanli mizansahnalar, obrazli effektlar bisyorligi bilan xarakterlidir. Kartina Rinatning (Valeriy Rojayev) bozorda tarvuz o'g'irlashga kirishgan chog'ida qo'lga tushib qolish sahnasi bilan boshlanadi. Uni ko'rgan Fotima ona (Lutfixonim Sarimsoqova) avvaliga rosa koyiydi. Lekin mirshab Rinatni jazolashga olib ketar ekan, ikki o't orasida qolgan ona qiynaladi. Shunda operator onaning ichki vahimasini yirik planni qiyshiq shakl hisobiga qurish evaziga aks ettiradi. Ona mirshabga “Bu mening o'g'lim, u boshqa o'g'rilik qilmaydi...” deganida, yirik planda Rinatning quyidan olingan yoshli ko'zlarida qalqigan minnatdorchilik, andisha hissi tomoshabinga yanada ta'sirliroq yetib boradi⁵.

Ona va o'g'ilning ko'zlari oniy lahzalarda to'qnashib, tasvirning ichki pafosini bo'rttiradi. Keyingi epizodda bolalarning “Urush, urush” o'yini tasvirlanadi. Quvnoqlik ila boshlangan o'yin drammatizm bilan tugaydi. Xayolida nemis obrazidagi Abram (Fima Kaminer) o'yinchoq avtomat qurolni qo'lga olib, guruhdoshlari bilan Tarasni (Jenya Artishevskiy) dushman sanab, uni qo'lga tushirish uchun ketidan chopadi. Ular ovloq joyga yetkanlarida Abram Tarasga qo'lini ko'tarishni buyurib, uni otib tashlamochi bo'ladi. Lekin, birdan uning ko'z oldi xiralishib, quloqlari ostida otasini otib tashlagan nemis kishining vajohatli so'zlari eshitiladiyu, subyektiv kadr orqali to'g'risida turgan Tarasning o'rta plandagi tasviri g'ildirak misol shiddat bilan aylanadi. Operator bolalarning ayniqsa, yirik plandagi tasvirini quyidan kadr qo'yish orqali ularning ko'zlaridagi holatni yorqin yechimini topishga muvaffaq bo'lgan.

Kadrdan ingichka kesilgan qora non bo'laklari terilgan likopcha yuqoridan suratga olingan bo'lib, bolalar o'zlariga tegishli non bo'laklarini sekin-asta, nabatma-navbat ola boshlaydilar. Oxirgi bo'lib uzatilgan qo'l o'z non bo'lagini olar ekan, uning ushoqlarini ham avaylabgina terib oladi. Bunda operator mahorati qo'llar orqali bolalarning nonga bo'lgan munosabatini ta'sirli tasviriy yechim ila ko'rsatishida anglanadi.

“Vanyaning isyoni” epizodi aylana panorama usulida suratga olingan bo'lib, aylana panorama kursi atrofida o'tirgan har bir bolani kuzatishimizga, ularni kayfiyatini bilishimizga imkon beradi. Xontaxta boshida o'tirgan Vanya (Gena Tkachenko) saflari bitta bolaga ko'payganini hazm qilolmasdan, bor nafratini yig'ib, “Chigirtkalar!” Shuncha bolaning qornini to'ydirib bo'ladimi? Endi hammamiz ochimizdan o'lamiz!”, degan achchiq so'zlarni aytadi. Uning so'zlaridan sergak tortgan bolalar yeyishdan to'xtab, unga jim qarab qoladilar. Ayniqsa, Sersenbayning (Abil Azizov) piching aralash aytgan so'zlari Vanyaning izzat-nafsiga tegib, ular janjallashib ketadilar. So'ng hamma o'z tovog'ini Vanyaning oldiga qo'yib ketadi. Operator Vanyani to'g'risidan uzunasiga keng quloqli kadr qo'yib, qalashib yotgan tovoqlar ichra Vanyaning alamzada xo'mraygan yuzini ko'rsatadi. Shunda Vanyaning o'ylamasdan aytib qo'ygan so'zlari uni naqadar yolg'izlatib qo'yganini ko'rishimiz mumkin.

Omborxonaga berkinib olgan Vanya otasi (Obid Jalilov) kirib kelishi bilan o'rnidan turib ketadi. Bu yerda operator otaning salobatini Vanyaning orqasidagi devorga tushib turgan bahaybat soyasi orqali beradi. Vanya otasi tomon chopib borganda kadr pasdan qo'yilib, kontrast shakl hosil qilinadi. Ya'ni, ota yanada jiddiylik kasb etadi, uning Vanyadan norozi ekanligi qo'llarining yerga tomon istar-istamas musht qilganida ham ko'rinadi. Ko'cha darvozasi oldi, birinchi planda ona, orqa plan – uy ichida esa ota va bolalar. Ostonada devorga suyanib yig'lab o'tirgan Vanya. Operator esa kadrdan bir varakayiga uchta qatlamning munosabatini yaxlitlikka qurilgan mizansahna asosidagi kompozitsiyaga birlashtiradi.



“Sen yetim emassan” filmidagi Dzidraning portreti

Filmning eng ta'sirli hamda ko'proq esda qolgan kadri qizcha Dzidraning (Larisa Luppian) “Oyi, oyi, oyijon...” deya kinoteatrdan o'z uyidek bo'lib qolgan xonadonga hayajon ichra yugurib borishi epizodidir. Qizcha bilan yakdil bo'lib, bolalar ham birgalikda chopishadi. Bu esa yirik plandagi Dzidra obrazining ta'sirchanligini oshiradi. Operator bu epizodni bolalar bilan birga yugurib qo'l kamerasida tasvirga oladi. Bolalarning hayajonidan yeru-ko'k larzaga keladi. Operator tabiat va bolalar o'rtasida uyg'unlikni topib, epizodning psixologik ma'nosini keng hajmli fazoviy kayfiyat ila ochib beradi. Mazkur epizodni Hotam Fayziyevning ijodi davomida erishgan eng katta yutuqlaridan biri sifatida baholash mumkin. Keyinchalik, hamkasblari Hotam Fayziyevning bunday yondashuvini mashhur operator Urasevskiy ijodiga qiyos etishadi. Operator suratga olgan kadrlarda ritmik va aniq pozitsion bog'lanishlar ko'zga tashlanadi. Masalan, Dzidraning

⁵Qobilova L. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Hotam Fayziyev ijodiy faoliyati: Bituruv malakaviy ishi. - Toshkent: O'zDSMI, 2014. - b 14.

hayajoni uni uyda kutib o'tirgan ayolning chehrasiga shu qadar noziklik ila bog'lanib ketadiki, bu ikki qahramon o'rtasida ko'prik yasab, ichki dialog kuchini tarang notalarda ifoda etadi.

Ona uydan qochib ketgan o'g'li Rinatni izlab, kichik qizi Lesya (Lilya Penkova) bilan birga yo'lga chiqadi. Onaning holati, ichki iztirobi yirik planda suratga olingan og'ir qadam tashlashlari ko'rsatilishi bilan ta'sirli tasviriy yechimini topgan. Epizod dialektik montaj usulida hal etilgan bo'lib, birinchi planda ona, orqa planda esa xira ko'rinishda uning subyektiv nigohi tasviri doirasida ko'chadagi har xil manzilgoh, joylar, turli odamlar to'dasi tez-tez ko'rsatiladi. Goh esa subyektiv kadr birinchi planga ko'chib, onaning ko'zlari tussimli tarzda orqa planga o'tadi. Dzidraning tong pallasida qo'l ko'zgasiga boqib, "Agar oyijonim bo'lganida, meni tug'ilgan kunim bilan tabriklardi..." deya aytgan so'zlari zamiridagi sokin ko'ngil evrilishini operator qizchening ko'zgudagi aksini yirik planda ko'rsatish bilan yanada kuchaytirgan. Ya'ni, qizcha ko'zgudagi o'z tasviri orqali onasi timsolini ko'radi. Ko'zguga tushib turgan quyosh nuri esa Dzidraning yoshli ko'zlarining yuzasini aniq belgilab beradi.

Filmning so'nggi kadri umidbaxsh, sokin musiqiy kayfiyat asnosida beriladi. Dzidraning tug'ilgan kunini nishonlayotgan baxtiyor va birdam oila... Operator har bir bolaning ko'zidagi kelajakka bo'lgan ishonchini, xursandchiligini doirali aylanma panorama tarzida aks ettirishga harakat qiladi. Ushbu filmida milliy ruh operator topilmalari, chuqur ko'rimlari orqali tomoshabin yodida qolishi bilan e'tiborlidir.

O'zbek kinosida uslub va talqin jihatdan muqobillardan xoli, kashf etilgan "Ayollar saltanati" badiiy filmi operatorning nozik tasviriy yechimlarisiz his etish mushkul. Operator Hotam Fayziyev uchun chuqur falsafaga ega, istioralar bilan sug'orilgan ushbu kartina ustida ishlash katta yangilik bo'lib, uning ijodida tub burilish yasagan edi. Yozuvchi Omon Muxtorning "Ayollar saltanati va mamlakati" romani shuuridan paydo bo'lgan film rejissor va ssenariy muallifi Yusuf Roziqovning (Mahmud To'ychiyev bilan hamkorlikda) ekran asaridir. "Ayollar saltanati" filmi kino va adabiyotning ijodiy hamkorligi mevasi sifatida baholanmog'i lozim. Film ijodkorlari romanga faqatgina g'oyaviy yondashib, dramaturgiya nuqtai nazaridan kinobop izlanishlar natijasida butunlay yangi badiiy to'qima yaratishgan. Bu jarayon aniq fan hisoblanmish matematikadagi "funksiyaning hosilasi" nazariyasiga juda mos keladi, hosila birlamchi funksiyadan butkul farq qiladi.

Omon Muxtorning romani bir o'qishda tushunish mumkin bo'lgan oddiy asar emas. Kitobxon asarning mag'zini chaqish uchun roman qahramoni Ma'rifiy idora boshqarmasi xodimi Olim bilan birga bir necha bor "jarliklarga" tushishi, "Halqa yo'llarda" tentirashi, "o'tkan kunlar" xayollariga berilishi, bir jumboq tugunini yechib, ikkinchisini bilib, bilmay tugishi kerak. Bu kabi murakkab adabiy asarni ekranga olib chiqish ijodiy jasoratdan kam emas. Umuman, kitob mutolaasi qaysidir ma'noda kino yaratilishining laboratoriyasi, ustaxonasidir. Chunki, har qanday kitobxon badiiy asarni o'qish bilan barobar badiiy tasavvur qilish iqtidori darajasida voqealarni xayolan ko'rib boradi. Misralar orasida esa yozuvchi ta'riflagan obraz xayolotda gavdalanadi, sahnalar, mizansahnalar almashinadi.

Yer qa'ridan bahra oluvchi o'simlik ildizi – tabiat

mo'jizasi, juda shifobaxsh, xastalarning dardiga darmon hayot malhami, bu mehriyodir. Filmida u Farishta ayolning o'simlik dunyosidagi o'xshash obrazi ("Erni er qiladigan ham xotin") deb olinadi. Chunki mehriyoyo o'tining ildiz shakli ayol kishi jismining tabiatdagi takroridir. Nazarimizda, juda chiroyli o'xshatish qo'llangan: ayol mehr-muhabbati va mehriyoyo darmoni. Romandagi Ismoil obrazi filmida (aktyor Zokir Mo'minov) bir qadar rivojlanirilib, markaziy o'ringa olib chiqilgan. U domla bo'lmish Olimning (aktyor Baxtiyor Zokirov) yaqin do'sti, tabiblikni kasb qilgan va ko'pchilikni mehriyoyo o'simligi bilan davolagan. Qadim-qadimdan bu o'simlik haqida ko'plab rivoyatlar mavjud. Ulardan biri quyidagicha: emishki mehriyoyo o'tini yerdan sug'urib olgan kishi, boshqalar dardiga shifo topib, o'z hayotiga zominlik qilar ekan. Film mualliflarining bu naqlni kinoasarga singdirib yuborishgani natijasida Ismoilning o'zi kasal bo'lib qoladi. "Mehmonlarga tutish uyat" piyoladan sharob ichib o'z o'limini "tantana" qilayotgan Ismoilni eslang: darz ketgan piyoladan sizib tomayotgan sharob tomchilari tabibning tugayotgan umriga qiyos qilingan. Ismoil mehriyoyoga qilgan zulmini tushunib yetadi, shuning uchun uni inson qo'li bilan emas, kuchuk vositasida olish kerak, degan fikrga keladi. Ismoil anglaydiki, u mehriyoyo – ayolni yerdan – "xo'jasi"dan ayirdi, uni nobud qildi va buning uchun o'lim bilan jazolandi. Shu sabab Zeboni nobud qilmaslik uchun uning "xo'jasi" etib do'sti Olimni tanlaydi. Film mualliflarining o'z o'rnini topgan bu falsafiy mushohadalari Baxtigul fojiasi bilan to'ldirilgandek. Baxtigul (aktrisa Kamola Umarxo'jayeva) filmida dramatik yuki salmoqli bo'lgan obrazlardandir. Chunki bu obraz ayol ruhiyatining murakkab evrilishlari, fel-atvori, his-tuyg'ularining eng nozik torlari nolasidan yaralgan ayol ramzidir. U muhabbatga, mehrga to'la, vafosi asrlarga dosh berishi, sodiqligi qator norlarni lol qoldirishi mumkin. Afsuski uning hech kimga keragi yo'q, uni go'dak bilib his-tuyg'ularini jiddiy qabul qilmaydilar. Baxtigul o'limi "Ayolni hayotda nima xo'rlaydi?" degan savolga javob beradi. Baxtigulning faryodini mehriyoyoning yerdan sug'urilgandagi dahshatli nidosisida anglash mumkin. Biri "xo'jasi"ni topolmay fig'on chekdi, ikkinchisi "xo'jasi"dan ajralgani uchun yeru ko'kni zir titradi. Ayollarga nisbatan his-tuyg'ulari chirmovida olgan bosh qahramon Olim bularning barini xayolotida ko'radi. Lekin "ayollarga munosabat qanday bo'lishi kerak?" degan savolga aniq javobni real hayotda qizi Nodiradan oladi. Nodira musulmonchilikda ayolga e'tibor uning oiladagi o'rni, ona mo'tabarligi, u e'zozda bo'lishi lozimligi haqida va'z qilayotganda Olimning o'y-fikrlari ravshanlashadi".

Bunday syujet tizimi, ajobtovur qahramonlar olamini rang-barang badiiy shaklda tasvirlash, ayniqsa, operatorga ko'p jihatdan bog'liqligi ma'lum bo'ladi. Operator Olim qahramonining real hayoti va xayoloti kechmishlari dinamikasini goh sokin, goh shiddatli, goh esa sirli tarzda ekranga ko'chiradi. Film boshlanishida titr bilan parallel tarzda quyosh tutilishi manzarasi sodir bo'layotganligi ko'rsatiladi. Aynan shu kadrning berilishidanoq, voqea tizimiga tugun tushadi. Sababi, Hurriyatning aytshiga qaraganda, quyosh tutilgan kun zaminda allaqanday g'alati ishlar sodir bo'lar ekan. Bu esa keyinchalik, Olimning taqdiri misolida o'z ifodasini topadi. O'rmondagi ayollar saltanatini peyzajini ertaknamo tarzda gavdalanitiradi. Har bir ayolning xarakter portreti

operator kamerasi orqali tabiatdagi turli rang gammalari hisobiga ochiladi.

Asarda baxtli ayolning o'zi yo'q, ularning bari jabrdiydalar. Lekin operator Hurriyat obrazini tasvirlar ekan, unga boshqa ayollarga nisbatan rangpar bo'yoqlar bilan chizgi beradi. Chunki Hurriyat Olimning nikohidagi sadoqatli ayoli, u turmush o'rtog'ini hamma kamchiliklariga qaramasdan sevib, ardoqlaydi. Baxtigul personaji esa quyuc, to'q soyalar berilishi bilan xarakterlanadi. Uning o'lim sahnasi ham juda ta'sirli. Operator nigohi daraxtning tepa qismidan pastga qarab yo'nalarkan, o'zini osib qo'ygan Baxtigul va uni pasdan kuzatib turgan ayollar namoyon bo'ladi.

Olim mehriyoti ildizini yerdan sug'urib oladigan epizod tarang muhitli makon kasb etib, kadrda to'lg'anayotgan zamin va yer ostidagi ildiz – ayol obrazining dardli ohi tomoshabinni hayajonlantirmasdan qolmaydi.

Ayollar saltanatidagi daryo bo'yi... Atrof quyuc tumanga burkangan. Go'yo tabiat ham aza tutayotgandek. Ayollar yassi qayiqda yotgan Baxtigulni so'nggi manzilga kuzatmoqdalar. So'ngra Olim daryodagi suvga boshini tiqqancha, muallaq bo'lib turadi. Bu uning bolalikdan yaxshi ko'rgan mashg'uloti bo'lib, u shu ko'yi suv tagida nafas olmasdan soatlab turishi mumkin edi. Ammo bu safar yutgan nafasini chiqarolmaslikka mahkum bo'lgandi. To'g'rirog'i, mehriyotining qarq'ishiga uchrugandi. Filming so'nggi kadrida suv tagidagi Olimning ko'zoynagi ko'rinadi. Buni hayotga doimo ko'zoynagi orqali qaraydigan kishining tabiat qonuniyatlari oldidagi iqrori ramzi sifatida tushunish mumkin.

Operator zamonaviy texnologiyalar asosida O'zbekistonda ham yuqori sifatli filmlar yaratish haqida ko'proq o'y surardi. Shuning uchun yangi chiqqan turli xildagi apparatlarni o'rganishdan charchamasdi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Hotam Fayziyevning o'zbek kinematografiyasidagi o'rni alohida o'rin tutadi. U yaratgan asarlarda manguqlikka daxldor go'zal g'oyalar samimiy nigohi ila kuylangan. U oddiy texnik xodim emas, balki kino san'atining asl shaydosi,

unga qalbini baxshida etgan inson edi. Hotam Fayziyev lahzalarda tug'ilgan hayotni o'z kinokamerasi tasmasiga ziyraklik bilan muhrlay olgan. Shuning uchun ham u yaratgan asarlarning qadr-qimmati, o'zbek kinosida tutgan o'rni beqiyos. Uning san'atdagi bosib o'tgan yo'lini xuddi bir qiziq film mazmuniga qiyoslasa bo'ladi. Uni tahlil qilganing sari tafakkurni boyitadigan yangi-yangi fikrlar tug'iladi.

Ijodkor o'zidan katta ma'naviy meros qoldirganki, ularni o'rganishga hamisha tabiiy ravishda ehtiyoj tug'iladi. Bugun kino sohasiga kirib kelayotgan ko'pgina yosh ijodkorlar Hotam Fayziyevdek san'atkorning izlanishlarini, u yaratgan filmlardan o'z amaliy salohiyatlarini oshirish yo'lida o'rnak olsalar arziydi. Haqiqiy fidoyi inson siymosida ham Hotam Fayziyev namuna, timsoldir!

H.Fayziyevning har bir kinokadri kishida xuddi rassom chizgan tasviriy san'at asaridek taassurot qoldiradi. Uning har bir kadri shedevr darajasida bo'lib, filming istalgan yerida to'xtatsak ham, o'sha kadr o'z mukammalligini yo'qotmaganligiga guvoh bo'lamiz. H.Fayziyev jahon kinematografiyasida shakllangan sanoqli operatorlik maktabini o'z original uslubi bilan boyitdi va uni o'zbek kinosida yangi bosqichga olib chiqdi. H.Fayziyev operatorlik maktabi bugungi shovqinli media muhitida boy berilayotgan sokin tarzidagi ekran falsafasini saqlab qolishga qurbi yetadi. Bu borada operatorning intellekti ham namunadir.

Kinoshunoslar odatda operatorlar haqida deyarli kam yozishadi. Bu haqida Hotam Fayziyev shunday degandi: "Tasvirni alohida ajratib tahlil etish juda qiyin. Ko'pincha, film syujeti yoki bo'lmasa, aktyor ijrosiga e'tibor qaratishadi. Tasvirni ko'rsatish kerak, og'zaki to'liq tushuntira olmaysiz. Shu sababli ham kinoshunoslar bu borada qiynalishadi. Epizodlarni tahlil etish mumkin, kadri tushuntirish esa mushkul." Shunday bo'lsa-da, ushbu bobda imkoni boricha operatorlik ishini tahlil etishga harakat qilindi. Zero, bu kelgusidagi izlanishlar uchun yaxshigina turtki bo'ladi, deb o'ylaymiz. Boisi, o'zbek operatorlik san'atida tadqiq etilishini kutib turgan kinoasarlari bisyordir. Bu kinoshunoslik sohasida ham yorqin yangilik bo'la oladi, degan umiddamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtiyarovna, U. D. The main tendencies of Uzbekistan's painting in the period of independence // World Scientific News. -2019. -№116. -B.36-45. - 45 P.
2. Tadjibayeva O.K., Melikuziev I.M., Khusanov Sh.T. Issues of the using the Special Effects as means of Visual expression in the Cinema art //European Journal of Molecular & Clinical Medicine. -2020. -№7, 2. -2215.P
3. Melikuziev I. Cinematographer's ability in the creation of graphic image in uzbek historical films //International Journal of Advanced Science and Technology. -2020. -№29(05). 1567 P.
4. Ikboljon, M., Tirkashaliyevich, K. S. Creative researches of young cameramen on the creation of graphic image in modern uzbek feature films // International Journal of Engineering and Advanced Technology. -2019. -9(1). -5236.P
5. Ikboljon Melikuziev I. Duties of a Cinematographer in Creating a Film // Journal of Literature and Art Studies6, -2016. -№7. -5836.P.
6. Khusanov, S. Poetic methodology in Uzbek cinema 60-70 s // Culture and Arts of Central Asia. -2018. -№7(1). -B. 6-27.
7. Melikuziev, I. Cinematographer's ability in the creation of graphic image in Uzbek historical films //International Journal of Advanced Science and Technology. -2020. № 29(5). -1567.P.
8. Sherzod, K., Robiya, T. New wave in uzbek cinema art: Expressiveness in social realism //International Journal of Engineering and Advanced Technology. -2019. -№9(1). 5246. P.
9. Umarova, D. B. Traditional heritage in modern art of Uzbekistan //Modern Science. -2017. -№ (5-2). -102.P.
11. Fayziyev H. Ovozsiz kinematografiyadagi operatorlik san'ati tarixidan. –Toshkent: O'zDSI., 2009. -38 b.
12. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2009. -78 b.
13. Qobilova L. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi Hotam Fayziyev ijodiy faoliyati. Bitiruv malakaviy ishi. –Toshkent: O'zDSMI., 2014. -18 b.

O'ZBEK DRAMATURGIYASINI DAVRLASHTIRISH VA TADQIQ QILISH MUAMMOLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada vujudga kelganiga bir asrdan ko'proq vaqt bo'lgan professional o'zbek dramaturgiyasining taraqqiyot bosqichlari, uni davrlashtirish muammolari hamda tadqiq qilishdagi o'ziga xos xususiyatlar haqida so'z yuritiladi. O'zbek dramaturgiyasining har bir taraqqiyot bosqichlariga oid alohida tadqiqotlar shakllangani, ularning har biri ma'lum davrni alohida ijodiy jarayon sifatida o'rgangani maqolada atroflicha muhokama qilingan.

Kalit so'zlar: dramaturgiya, jadid dramaturgiyasi, davrlashtirish muammolari, janriy xususiyatlar, badiiylik, mafkuraviylik, mustaqillik davri dramaturgiyasi.

Бахтиёр ЯКУБОВ,

Доктор философии по искусствоведению (PhD) ГИИКУЗ

ПРОБЛЕМЫ ПЕРИОДИЗАЦИИ И ИССЛЕДОВАНИЯ УЗБЕКСКОЙ ДРАМАТУРГИИ

Аннотация. В статье речь идёт об этапах развития профессиональной узбекской драматургии, насчитывающей более века, проблемы ее периодизации и особенности изучения. Также подробно рассматривается формирование отдельных исследований на каждом этапе развития узбекской драматургии, каждое из которых рассматривает конкретный период как отдельный творческий процесс.

Ключевые слова: драматургия, джадидская драматургия, проблемы периодизации, жанровые особенности, художественность, идеология, драматургия периода независимости.

Bakhtiyor YAKUBOV,

PhD, Art sciences UzSIAS

PROBLEMS OF PERIODIZATION AND RESEARCH OF UZBEK DRAMATURGY

Abstract. The article deals with the stages of development of professional Uzbek drama, which is more than a century old, the problems of its periodization and the peculiarities of its study. The formation of individual sketches at each stage of the development of Uzbek drama is also examined in detail, each of which considers a specific period as a separate creative process.

Keywords: drama, Jadid drama, problems of periodization, genre features, artistry, ideology, drama of the period of independence.

1911-yilda yozilgan M.Behbudiyning "Padarkush" pyesasi bilan boshlangan o'zbek professional yozma dramaturgiyasi bugungi kungacha ko'plab taraqqiyot bosqichlarini boshidan o'tkazdi. Aynan milliy dramaturgiyaning vujudga kelishi bilan milliy teatrning dunyoga kelganini ko'rish mumkin.

O'zbek yozma dramaturgiyasining vujudga kelishi yirik ijtimoiy-siyosiy, madaniy harakat bo'lmish jadidchilik bilan bevosita bog'liq. Garchi mahalliy ilg'or ziyolilarda tatar, ozarbayjon, rus, arman teatr truppalari ta'sirida bu yangi shakldagi tomoshaga havas, qiziqish uyg'ongan bo'lsa-da, dramaturgiya va teatrchilik harakati bilan shug'ullanish ular uchun oddiy ermak, mashg'ulot bo'lmay, o'zlarining asosiy maqsadlarini amalga oshirish vositasi bo'ldi va undan unumli foydalanishga harakat qilishdi. Bu borada jadid dramaturgiyasi va teatri bilan maxsus shug'ullangan olim Shuhrat Rizayevning Abdulla Avloniy tarjimai holidan keltirgan misoli o'rinni: "...bizning maqsadimiz zohirda teatru bo'lsa ham botinda Turkiston yoshlarini siyosiy jihatdan birlashtiruv va inqilobga hozirlov edi" [2; 95-b.].

Jadidlar amalga oshirgan teatrchilik harakati va yaratgan ilk milliy pyesalari o'zbek dramaturgiyasining dastlabki davrini o'zida aks ettiradi. Bu borada Shuhrat Rizayevning "Jadid dramasi" tadqiqoti esa har bir hodisaning ijtimoiy-madaniy kelib chiqish sabablarini chuqur o'rgangani,

faktlarni o'zaro solishtirib, ular muqoyasida zarur ilmiy xulosalar aytgani bilan e'tiborlidir. Shuhrat Rizayev o'z tadqiqotida Markaziy Osiyoda tomosha san'atining shakllanishi, xalq og'zaki dramasi taraqqiyotiga alohida to'xtalgan holda Turkistonga Yevropa ko'rinishidagi teatrning kirib kelishi, yozma dramaturgiyaning vujudga kelishidagi ijtimoiy shart-sharoitlar haqida munosabat bildiradi. Bu boradagi fikrlarini esa "O'zbek jadid dramaturgiyasi hamda teatrining shakllanishi, avvalo, ijtimoiy hayot taqazosi va ehtiyoji tufayli sodir bo'ldi", - deya xulosa qiladi. Olim jadid dramaturgiyasi va teatrchilik harakatiga uyg'unlikda munosabatda bo'lib, "Jadid dramasi" monografiyasining ikkinchi bobini to'liqligicha jadidlarning teatrchilik harakatiga bag'ishlaydi. Bu jarayonlar oson kechmagani, yangilanish tarafdorlari har tomonlama tazyiqlarga qarshi turishlariga to'g'ri kelgani faktlar bilan ko'rsatib berilgan. Ularning erkin faoliyat yuritishi, siyosiy-ijtimoiy fikrlarni targ'ib qilishiga bir tomondan mustamlakachi podsho hukumati yo'l qo'ymasa, ikkinchi tomondan mahalliy diniy ulamolarning aksariyati teatrchilik harakatining rivojiga to'sqinliklar qilishgan.

Bunday mojarolardan biri sifatida Mahmudxo'ja Behbudiy hamda mudarris Sayidahmad Vasliy o'rtasidagi ziddiyatni keltirish mumkin [2; 97-b.]. Behbudiy diniy ilmni yaxshi bilgani holda millatni taraqqiyotga xizmat qiluvchi dunyoviy ilmni ham o'rganish tarafdori edi. U

teatrni o'yin-kulgi emas, jiddiy tarbiya maskani sifatida tushungan va uni targ'ib qilgan.

Sh.Rizayev tadqiqotining e'tiborli jihatlaridan yana biri jadid dramaturgiyasini davrlashtirish borasidagi izlanishlaridir. Qariyb yigirma yilcha davom etgan jadid dramaturgiyasi uch davrga bo'lingan:

“Birinchisi, tom ma'nodagi shakllanish davri bo'lib, u 1911–1916-yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchisi, 1917–1924-yillar oralig'idagi taraqqiyot bosqichi bo'lib, bu davrda dramaturgiya, umuman, o'zbek adabiyotining yetakchi janri bo'lib qoldi va uning eng sara namunalari maydonga keldi. Bu davr o'ta qizg'in teatrchilik tajribalari bilan ham xarakterlanadigan haqiqiy yuksalish yillari bo'lib, o'zbek teatri tarixiga kirishga haqli. Uchinchi davri, 1925–1929 va ma'lum darajada undan keyingi yillarni o'z ichiga olib, bu davr fikriy tushkunlik, kommunistik mafkuraning dramaturgiyaga kirib kelishi, jadidchilik g'oyalari tanazzuli bilan izohlanadi...” [2; 110-b.].

Sh.Rizayevning jadid dramaturgiyasi bo'yicha olib borgan tadqiqotining keng ko'lamliligi, kompleks yondashilgani hamda davrlashtirish muammolariga, ularning ichki xususiyatlariga to'xtalganini e'tirof etgan holda bir mulohazani aytish o'rinli ko'rinadi. Yuqorida berilganidek, jadid dramaturgiyasi uch davrga bo'linadi. Ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga ega. Biroq olim asosan birinchi davrni batafsil o'rganagan va keyingi davrlarga yetarli darajada o'tilmagan. To'g'ri, olib borilgan ishning maqsadi ham asosan belgilangan dastlabki davrni o'rganishni ko'zda tutgan. Shuningdek, mana shu birinchi bosqichning atroficha o'rganilishi ham yirik tadqiqotga asos bo'lgan va belgilangan barcha bosqichlar bir ishda ko'rilishi hajman imkonsiz edi. Bu esa jadid dramaturgiyasining keyingi davrlariga oid tadqiqotlar olib borilishini taqazo etadi. Olimning o'zi ham 1911–1916-yillar oralig'ida yaratilgan ishlarni keltirish orqali ushbu fikrni bildirib o'tgan edi: “Jadid dramaturgiyasini, jumladan, uning ilk davrini atroficha, xolis o'rganish endi boshlanmoqda. Demak, kelgusi izlanish va tadqiqotlar biz taklif etgan ro'yxatni yanada to'ldirsa, ajab emas” [2; 130-b.]. Darhaqiqat, jadid dramaturgiyasini to'liq va to'g'ri o'rganish qator ilmiy izlanishlarni taqazo qiladi. Buni olim yaxshi bilgani holda uning birinchi davriga chuqur va atroficha to'xtalgan. Biroq mulohaza shuki, olib borilgan tadqiqotning muvaffaqiyati jadid dramaturgiyasining keyingi davrlari bo'yicha ham Shuhrat Rizayev ishni davom ettirishi kerakligini ko'rsatmoqda. Zero, dastlabki davr haqida fikr bildirish orqali biroz keyingi davrlarga ham munosabat bildirishidan olimning o'zida ishni davom ettirish uchun materiallar yetarli bo'lgan.

O'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotining keyingi davri Qudrat Jo'rayevning XX asrning “20-yillar o'zbek dramaturgiyasi” tadqiqotida davom ettirildi. Davr nuqtai nazaridan 20-yillar dramaturgiyasi jadid dramaturgiyasining davomi bo'lsa-da, aslida, tadqiqotlarning amalga oshirilgan vaqti aksinchadir. Balki shu bois, Shuhrat Rizayev keyingi davrlar bo'yicha ishni davom ettirmagandir.

Ushbu ishda o'rganilayotgan o'n yillik bir qarashda juda qisqadek ko'rinsa-da, aslida, bu davr juda murakkab hisoblanadi. Shu tufayli tadqiqot besh bobga bo'lindi. Ular

asosan davrning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini, dramaturgik asarlarning mavzui-g'oyaviy yo'nalishlari, badiiy xususiyatlaridan kelib chiqib bo'lingan.

XX asrning 20-yillari juda murakkab davr bo'lib, unga nisbatan yengil, bir yoqlama qarab bo'lmaydi. O'sha davr siyosiy-ijtimoiy holatini anglagan holda imkon qadar xolis munosabat bildirish lozim. Tadrijiy ravishda millat istiqloli sari intilayotgan jadidlarning harakatlarini 1917-yildan bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelish jarayonlari uzib qo'ydi.

Bu davr O'zbek teatri, xususan, dramaturgiyasi g'oyaviy (jadidlar hamda sovetlar o'rtasidagi) kurash maydoniga aylandi va qaysidir ma'noda o'zida haqiqiy demokratik tamoyillarni namoyon qildi. Shu tufayli ham Q.Jo'rayev o'z tadqiqotida bu davr dramaturgiyasida yaratilgan asarlarning g'oyaviy jihatlariga alohida e'tibor qaratib o'tgan. Taassufki, olimning ayrim fikrlari mulohazalidir. Xususan, “20-yillar dramaturgiyasi – inqilobiy davrning mahsuli” [1; 18-b.], – degan mutlaq fikr bildirilishi va bunga nisbatan keyingi o'rinlarda o'zining “Sovet hokimiyatining ilk davri uchun shu narsa xos ediki, madaniyatning rivojlanishi, jumladan, dramaturgiya va teatrning taraqqiyoti yo'lida kommunistik partiyaviylik va sinfiylik kabi socialistik realizm talablari g'ov bo'lib turmagan edi” [1; 19-b.], kabi xulosalari bir-biriga muvofiq tushmaydi.

Tadqiqotda o'rganilayotgan davrning o'ziga xos xususiyatlarini to'laqonli ifoda etish maqsadida ungacha bo'lgan yozma dramaturgiya vujudga kelgan dastlabki o'n yillik borasida ham fikr yuritilgan. Shuningdek, olim yigirmanchi yillarda vujudga kelgan badiiy tamoyillarning keyingi rivojini belgilash maqsadida o'ttizinchi yillar tegrasida ham birmuncha fikrlarni berib o'tadi. O'rganilayotgan davrdan oldingi va keyingi o'n yilliklar borasida fikr bildirish orqali olim o'ziga xos davriy tasnifni taklif etgan: “O'zbek dramaturgiyasining tug'ilish (1911–1919) va shakllanish (1920–1930) bosqichlarini bosib o'tgani hamda bu bosqichlar mustaqil g'oyaviy-badiiy yo'nalishiga ega ekanligi ma'lum bo'ldi” [1; 46-b.]. Ushbu tasnifda har o'n yillikda ma'lum o'zgarishlar, yangilanishlar mavjudligiga urg'u berilgan. Darhaqiqat, o'tgan asrning 60-yillarigacha har o'n yillikda o'zbek dramaturgiyasida o'ziga xos yangi o'zgarishlar, yo'nalishlar vujudga kelib turdi.

20-yillar dramaturgiyasi alohida o'rganilgan ushbu ishda G'ulom Zafariy, Cho'lpon, Xurshid, G'ozzi Yunus, Ziyoy Said, Hamza, Fitrat kabi dramaturglar ijodi misolida bu davrda maishiy, ma'rifiy mavzulardan ijtimoiy-siyosiy keskin masalalarga murojaat o'sgani hamda mavzu ko'laminin kengaygani, janriy rang-baranglik kasb etgani bilan ahamiyatli ekani ta'kidlangan.

Yuqorida nomlari aytib o'tilgan o'zbek dramaturgiyasining dastlabki davrlariga oid tadqiqotlar mafkura o'zgargan, O'zbekiston mustaqillikka erishganidan keyin yozilgan ishlardir. Bu holatda tabiiyki, o'rganilayotgan davrga nisbatan bugungi kun nuqtai nazaridan turib munosabatda bo'linadi. Ulardan farqli o'laroq, o'zbek dramaturgiyasining keyingi davri – XX asrning 30-yillaridagi ijodiy jarayonlarga bag'ishlangan Toshpo'lat Tursonovning “O'zbek dramaturgiyasida socialistik realizmning shakllanishi” nomli tadqiqoti Sovet tuzumi davrida

amalg oshirildi. Tadqiqotning bunday nomlangani tabiiy edi. Zero, hokimiyat tepasiga kelgan sovetlar san'atdan unumli foydalanishga, uni o'z g'oyalari yo'lida ishlatishga kirishdilar. Garchi yigirmanchi yillar va undan biroz oldinroq yaratila boshlanganiga qaramay, hali to'la-to'kis o'zini namoyon eta olmagan sovet mafkurasiga oid asarlar o'ttizinchi yillarda san'at va adabiyotni to'laligicha qo'lga oldi. Buning ikki sababi bor edi. Biri sovetlar hokimiyatni mustahkamlash, yot g'oyalarga qarshi jismoniy kurash olib borгани bo'lsa, ikkinchisi, aynan o'ttizinchi yillarga kelib yangi tuzum tarbiyasini o'zlashtirgan ijodkorlar guruhi shakllandi [6; b. 93]. Ushbu tadqiqotda ham asosan Hamza, K.Yashin, U.Ismoilov, Z.Fatxullin, N.Safarovlar ijodi misolida bu davr dramaturgiyasining o'ziga xos jihatlari o'rganilgan.

T.Tursunov 30-yillarda yaratilgan pyesalarni ikki bobda mantiqan va mavzu jihatdan ajratgan holda tahlil etib chiqadi. Dastlabki bobda sosrealizmning o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi tarixiy asarlar ko'rib chiqilgan. Bu paytda o'zbek dramaturgiyasida yangilik bo'lgan xususiyat – tarixiy-inqilobiy asarlar yaratildi. Ikkinchi bob esa asosi tashviqotga qurilgan zamonaviy asarlar tahliliga bag'ishlangan. To'g'ri, tadqiqotchi davr talabidan kelib chiqib sosrealizmning ustuvor xususiyatlarini ochib berishga intilgan. Biroq 20-30-yillardagi o'zbek dramaturgiyasiga ham xolis qaragani ahamiyatlidir. Xususan, olim jadid dramaturgiyasining dastlabki namunalari havaskorlik darajasida [6; b. 24], deb baholasa-da, Fitrat dramalarining, ayniqsa, tarixiy mavzudagi pyesalarining professional ekaniga e'tiroz bildirmaydi. Hatto, Fitratga tarixiy dramalar bilimdoni sifatida qaraydi.

Ushbu tadqiqotda o'rganilgan sosrealizm davr talabi, ma'lum zamon bilan bog'liq hodisadir. Ushbu ishning teatrshunoslik fani uchun ahamiyatli jihati o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotining ma'lum bosqichini o'rgangani, ilmiy tadqiqotlar uzviyiligini ta'minlagani bilan baholanadi. Bundan tashqari, bu davrda ijod qilgan Hamza, Komil Yashin yaratgan asarlarning yuksak badiiyati tahlillarda ochib berilganki, ularda ko'tarilgan g'oyalardan qat'i nazar dramaturglar mahoratiga tan bermay ilojimiz yo'q. 20-yillar o'rtasi 30-yillarga kelib, dramaturgiyadagi professionallashuv hamda janr xususiyatlarining rang-baranglashganini olim o'rinni e'tirof etib o'tadi.

O'zbek dramaturgiyasi tarixidagi eng ko'tarilish davrlaridan biri shubhasiz, o'tgan asrning 60–70-yillari bo'ldi. Bu davrda ko'plab yangiliklar ko'zga tashlandi, o'ziga xos ijodiy tamoyillar vujudga keldi. Bu davrni yaxlit ijodiy jarayon sifatida Muhabbat To'laxo'jayeva o'zining “Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini” (1960–1970 yy.) nomli tadqiqotida o'rgangan. Ushbu ish o'zbek dramaturgiyasining o'ziga xos ko'tarilish davrini to'liq qamray olgani va barcha xususiyatlarini aniq yoritgani, vujudga kelgan tamoyillarini ta'riflay olgani, yaratilgan pyesalarning badiiyati darajasini belgilay olgani bilan ahamiyatlidir. Ishda dastlab tadqiq etilayotgan davrgacha bo'lgan o'zbek dramaturgiyasi tarixiga ekskurs qilingan bo'lib, ular asosiy tamoyillar nuqtai nazaridan yoritilgan. 1960–70-yillar o'zbek dramaturgiyasining o'ziga xosligi tarixiy hamda zamonaviy mavzulardagi dramalarni tahlil etish orqali ochib berilgan.

Muallif tarixiy dramalar haqida yozar ekan, 60-yillarda

bunday mavzudagi asarlarning yangi davri boshlanganini alohida ta'kidlaydi. Maqsud Shayxzodaning “Mirzo Ulug'bek” fojiasi bilan boshlangan bu davr tarixiy asarlaridagi o'ziga xoslik murakkab ijtimoiy-tarixiy voqealarning tarixiy shaxs ongi va ruhiyatiga ta'sirini, qalb kechinmalarini, xarakter talqinlarida ifodalashda yaqqol aks etadi.

Zamonaviy mavzudagi asarlarni tahlil qilar ekan, olima ularga janr xususiyatlaridan kelib chiqib munosabatda bo'ladi. 60–70 yillarda drama janrida sezilarli ko'tarilishlar kuzatildi. Xususan, dramaturglar o'z davrining “...dolzarb, jiddiy muammolarini izohlash orqali insonning jamiyatdagi o'rni, uning axloqiy burchi, kishilar o'rtasidagi yangicha munosabatlar, bugungi kun qahramonlarining o'tmishi va kelajagi borasida fikr yuritadilar” [4; str. 3].

M.To'laxo'jayeva o'rganilayotgan davrda yetakchi hamda voqelik bo'lgan asarlar misolida davr dramaturgiyasining o'ziga xosliklarini yoritadi: “Ijtimoiy-axloqiy muammolarni hal qilishga e'tibor qaratish orqali O'zbekiston dramaturglari va teatr ijodkorlari inson xarakteri va uning hayotiy ifodasini aks ettirish yo'llarini izlashdi. K.Yashin, I.Sultonov, Uyg'un, M.Shayxzoda, A.Qahhor, S.Azimov, O'.Umarbekov pyesalarida ifodalangan ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-etik muammolar murakkab, ziddiyatli, odatiy ijobiylik-salbiylik tizimiga to'g'ri kelmaydigan qahramon xarakterining yangi tipini shakllantirishdi. Yozuvchilar muammoni hal qilishning bir yoqlama uslubini inkor etgan holda har tomonlama, chuqur ijtimoiy-psixologik tahlilga intilishdi. Ular qahramonlarning dramatik ikkilanishlarini, hayot haqidagi murakkab o'ylari, ziddiyatlarni o'z-o'zi bilan kurash orqali, o'zining hayotdagi o'rnini anglash orqali yengishlarini ko'rsatib berishdi” [4; b. 64]. Tomoshabinning ham teatrdan izlaydigan ozuqasi hayotning murakkab sinovlariga bardosh berishda choralar topish, inson qalbidagi ziddiyatlarni anglash, to'g'ri yo'lni topa olish muammolaridir.

M.To'laxo'jayeva tadqiqoti davri 70-yillar so'ngigacha olinmagani hamda bu davrda vujudga kelgan badiiy-ijodiy xususiyatlar 80-yillarning o'rtalariga qadar davom etgani inobatga olinsa, albatta, bu davrni yaxlit bir butunlikda o'rganish ehtiyoji paydo bo'ladi. Bu ishni teatrshunos olim Tohir Yuldashev o'zining “Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi muammolari” (70–80-yillar dramalaridagi dramatik konflikt va xarakter masalalari), deb nomlangan tadqiqotida amalga oshirdi. O'zbek dramaturgiyasi tarixida aynan konfliktning o'ziga xosligi hamda o'zgacha xarakterlar ifodasi bilan alohida o'rin tutuvchi ushbu davrning o'rganilishi avval ta'kidlanganidek, dramaturgiyani davr-lashtirish masalasini uzviy davom ettiradi.

T.Yuldashev tadqiqotining yirik ikki bobini ishda o'rganmoqchi bo'lgan konflikt hamda xarakter masalasiga bag'ishlaydi. Tabiiyki, boblarda belgilangan davrda yaratilgan sara asarlar misolida badiiy tahlillar olib borilgan. Ishning ahamiyatli jihati shundaki, olim o'rganayotgan davri asarlarini dramalar hamda komediyalarga ajratgan holda janr xususiyatidan kelib chiqib, ulardagi konfliktning farqi va davr nuqtai nazaridan uyg'unligini tahlil etadi. Bu davrda yaratilgan barcha janrdagi asarlarda psixologizm, axloqiy munosabatlar ustuvorlik kasb etdi. Komediyalarda esa asosan satira, tragikomediya yetakchilik qildi.

Ishning xarakterga bag'ishlangan bobida T.Yuldashev masalaga mantiqan juda to'g'ri yondashadi va dramaturgiyada doimiy munozara uyg'otib kelgan holat – ijobiy qahramon yaratish hamda hayotiy xarakterni ifodalashga alohida e'tibor qaratadi. O'rganilayotgan davrning xususiyatlarini yaqqolroq aks ettirish maqsadida bu paytda vujudga kelgan yangiliklarni avvalgi davrlardagi holatlar bilan qiyosiy tushuntiradi: “Agar 50–60-yillarda dramaturglar asosan axloqiy-psixologik jarayonlarni syujetning tashqi xususiyatlari bilan ifodalagan va sodir etilgan harakat natijalarini ko'rsatishgan bo'lishsa, endi ular (dramaturglar – Y.B.) qahramonlarning ichidagi kurash jarayonlarini ifodalash va tahlil qilishga intilishdi. 70-yillar psixologik dramalari va spektakllaridagi muhim o'ziga xoslik ham shunda” [4; b. 14].

Tadqiqotda asosan I.Sulton, Uyg'un, A.Ibrohimov, S.Ahmad, A.Muxtor, J.Jabborov, R.Bobojonov, O'.Umarbekov, M.Boboyev, Sh.Boshbekov asarlari tahlilga tortilgan bo'lib, ulardagi bir umumiylik – qahramonlarning asosan ishlab chiqarish kishilari, mehnatkashlar ekaniga ahamiyat qaratadi. Yana shuni alohida qayd etadiki, bu davr asarlarida asosan halol, pok insonning hayot haqiqatlari, e'tiqodini saqlab qolishi va unga qarshi kuchlar o'rtasidagi ziddiyatlar aks etadi. Garchi olim tomonidan tadqiq etilayotgan asosiy xususiyat konflikt hamda xarakter kabi dramaning ichida sodir bo'luvchi jihatlar bo'lsa-da, bu ichki xususiyatlar dramaning tashqi tuzilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazishini to'g'ri ta'kidlagan.

T.Yuldashev tadqiqotida belgilangan davriy chegara o'tgan asrning saksoninchi yillari o'rtalarigacha etib belgilangan. Albatta, saksoninchi yillarning to'liq qamrab olinmaganiga obyektiv sabab mavjud. Ma'lumki, saksoninchi yillarning o'rtalarida sobiq Ittifoqda “Qayta qurish” tashkil etildi. Bu siyosat jamiyatda o'ziga xos demokratiyani – oshkoralik, ijtimoiy tanqid, so'z erkinligini kuchaytirib yubordi. Natijada adabiyot va san'atda ham voqelikka munosabat yangicha qiyofada shakllandi. Xususan, bu jarayon o'zbek dramaturgiyasining mustaqillikkacha bo'lgan davrida ham yangi bosqich edi. Ma'lumki, bunga qadar o'zbek dramaturgiyasi rivoji g'oyaviy jihatdan jadidlar harakati hamda sovet mafkurasi hukmron bo'lgan davrlarga bo'lingan. Istiqolol, erkka intilish nuqtai nazaridan saksoninchi yillar ijodkorlari jadidlar g'oyasiga yaqin mavzularda asarlar yaratishdi. Biroq jadid dramaturgiyasiga nisbatan badiiy darajasi, teatralik xususiyatlari hamda janriy rang-barangligi kuchli bo'ldi. Garchi siyosiy jihatdan sovetlar davriga mansub bo'lishiga qaramasdan, saksoninchi yillarning ikkinchi yarmida hur fikrlilik, istiqololga intilish, jamiyatni ijtimoiy tanqid qilish, mafkuraga xizmat qiluvchi mavzulardan chetlashish holatlari vujudga keldi.

Mana shunday murakkab davrdagi o'zbek teatri va dramaturgiyasining holati hamda taraqqiyot xususiyatlarini Oltinoy Tojiboyeva o'zining “80-yillar O'zbek dramaturgiyasining sahnaviy talqin muammolari” mavzuidagi tadqiqotida atroflicha o'rgangan. Bu davrdagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlarning badiiy ijodga ta'sirini ushbu tadqiqot boblarining nomlanishidan ham bilish qiyin emas: “Teatr – yangi ijtimoiy davrning badiiy ifodachisi” hamda “janrlar va badiiy uslubdagi yangiliklar”. Boblarda olim jamiyatdagi o'zgarish jarayonlarining teatrdagi ifodasini, bu davrda

vujudga kelgan shakliy hamda mazmun o'zgarishlarini konkret asarlar misolida tahlil etadi va umumlashma fikrlar asosida yangi tamoyillarni belgilab beradi. Xususan, ishda pyesalarning mavzuga yondashuvining ikki turi aytiladi: shartli nomlangan yondashuvning birinchi shakli to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatish bo'lib, bu ko'proq o'zida publisistik uslubni mujassam qiladi. Bu borada T.Muhiddinning “Adashganlar”, M.Xayrullayevning “Jar”, I.Tursunovning “Paxtamiz oppoq edi”, “Qog'oz qayiqchalar” kabilar misol qilinib, ulardagi faktografika, sxematizm teatring badiiy-estetik darajasini tushishiga sabab bo'ldi, degan fikr bildirib o'tilgan. Ikkinchisi, badiiy obrazlar vositasida davr muammolarini yoritgan asarlar – E.Vohidovning “Istambul fojiasi”, F.Musajonning “Najot istab”, I.Xasanovning “Bir kam dunyo”, I.To'xtayevning “Toshkentda tuman” kabilar misol qilib ko'rsatilgan. Tadqiqotda muallif har ikkala yondashuvdagi pyesalarda ham taassufki, qahramon masalasi, asardagi asosiy fikrni tashuvchi bosh qahramon masalasi mavhumligini, dramaturglarning asosiy e'tibori muammoni aytishdangina iborat bo'lib qolganligini ta'kidlaydi.

O.Tojiboyeva tadqiqotida zamonaviy asarlar bilan birgalikda bu davrda yaratilgan tarixiy pyesalarning ham o'ziga xosligi aniqlangan. Ta'kidlanganidek, 80-yillarning ikkinchi yarmi o'zbek teatri tarixida ajralib turadigan bosqich hisoblanadi. Olima bu davrdagi tarixiy asarlar xususiyatini quyidagicha tasniflaydi:

Birinchidan, o'tmishga munosabatda mafkura bosimi ta'sir o'tkazmadi va mualliflar biror davrni qoralash, inkor etishga majbur bo'lmadilar. Ikkinchidan, biror shaxsni ideallashtirish, bir yoqlamalik yo'qoldi. Qahramon boricha ko'rsatildi [3; 13–14- betlar]. Bu borada tadqiqotda tahlil etilgan uch asarning o'ziga xos xususiyatlarini aytib o'tish o'rinlidir. Bu davr tarixiy asarlari orasida Shukur Xolmirzayevning “Qora kamar” pyesasi, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” dostoni asosida Sh.Rizayev tomonidan yozilgan “Iskandar” pyesasi, S.Sirojiddinovning “To'maris” pyesasi butun o'zbek teatrida ochiqdan-ochiq vatanparvarlik, erkka intilish borasidagi dastlabki tarixiy asarlardan bo'ldi.

80-yillarning 2-yarmida yaratilgan pyesalar asosan ijtimoiy-tanqidiy ruhga ega bo'ldi. Ko'pchiligi faqat tanqidga qurilgan bo'lib, oradan vaqt o'tgach, dolzarb bo'lmay qoldi. Bu esa, ularning o'sha paytdagi g'oyaviy ko'tarilish, o'zgarishlar ta'sirida yaratilganini ko'rsatadi.

O'zbek dramaturgiyasining keyingi taraqqiyot bosqichi o'tgan asrning to'qsoninchi yillaridan – O'zbekiston mustaqillikka erishgan davrdan boshlanadi. O'zbek dramaturgiyasining turli taraqqiyot bosqichlari o'rganilgan ilmiy tadqiqotlarni ko'rib chiqish natijasida mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasini ham mana shu tarixiy-badiiy jarayonning bir qismi, uzviy davomi, yangi bosqichi sifatida tadqiq etish, yangi ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda teatr, xususan, dramaturgiyaning taraqqiyoti masalalari, mahorat muammolarini o'rganish, muammolaridan zaruriy xulosalar chiqarish hamda istiqboli masalasida fikr yuritish ilmiy zarurat hisoblanadi.

Mustaqillik davri o'zbek dramaturgiyasining o'ziga xosligi, yaxlit badiiy jarayon sifatidagi xususiyatlari Baxtiyor Yakubovning “Zamonaviy o'zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini” (1991–2016-yy) tadqiqotida o'rganildi. Ishning o'ziga xosligi tadqiqotda aniq

badiiy-ilmiy kriteriya asosida faqat mustaqillik davrida yozilgan original pyesalar tahlilga tortilgan. Bunga asosiy sabab, yangi davrdan avval yozilgan pyesalarning ham, inssenirovkalarning ham ko‘rilayotgan bosqichdagi dramaturgiyaning haqiqiy badiiy darajasini belgilashda rol o‘ynamasligidir. Ham siyosiy-mafkuraviy, ham iqtisodiy o‘zgarishlar davrini ifoda etuvchi yangi bosqich dramaturgiyasidagi original pyesalarda davr muammolari, badiyat masalalari yaqqol ko‘zga tashlandi. Tadqiqotda ushbu asarlar yirik ikki guruhga – tarixiy hamda zamonaviy mavzudagi asarlar alohida boblarda ko‘rilgan. Mustaqillik davri tarixiy pyesalarini yirik ikki turkumga ajratish mumkin: qadimgi davrlardan to XX asr avvaliga qadar bo‘lgan tarixiy davr, tarixiy shaxslar faoliyatiga oid asarlar hamda XX asrning sovetlar hukmronlik qilgan davri va undagi siyosiy-ijtimoiy jarayonlar ifodalangan asarlar. Yangi davr o‘zbek dramaturgiyasida yaratilgan tarixiy mavzudagi pyesalarga o‘ziga xos mas’uliyat yuklatiladi. Bu kabi asarlar zamonaviy kishilarning ma’naviy-estetik olamini, dunyoqarashini o‘zgartirishga yordam bermog‘i darkor. Tarixiy qahramonlarning vatan tarixida, millat taqdirida tutgan o‘rnini belgilash; milliy o‘zlikni anglashga bo‘lgan intilish, tarixiy xotiradan xulosa chiqarishga chorlash xususiyatlari yangi davr tarixiy dramalarining o‘ziga xosligini belgilab berdi. Mustaqillik davri tarixiy asarlari asosan, yubileylar munosabati bilan ko‘paygani va faqat ma’lum davrlarda avj olib, birdan to‘xtab qolgani, ularning doimiy, uzluksiz yaratilishida izchillik mexanizmi yo‘qligini ko‘rsatmoqda.

Zamonaviy mavzudagi asarlar bu davrda ustuvor bo‘lgan drama hamda komediya janridagi asarlar asosida tahlil etilgan. Har ikkala janrga oid asarlar jamiyatdagi ma’lum o‘zgarishlarga munosabatni shakllantirganini, o‘zida aks ettirganini ko‘rish mumkin. Muallif ishda obyektivlikka intiladi. Natijada ushbu davr dramaturgiyasining bir qancha xususiyatlari – zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasidagi pyesalar davr ehtiyoji hamda tomoshabin talabi asosida vujudga kelayotgani, yangi davr tarixiy asarlarida milliy o‘zlikni anglash, tarixiy xotiradan

xulosa chiqarish kabi mavzularning yetakchilik qilgani, drama janridagi pyesalarning o‘tish davri murakkabliklarini ifodalash hamda zamon qahramoni obrazini yaratish kabi ikki bosqichda rivojlangani, zamonaviy komediyalar o‘tkir ijtimoiylikdan xoli folklor-etnografik tomosha, maishiy va satirik talqinlarda namoyon bo‘layotgani, zamon qahramoni obrazini yaratishdagi izlanishlar bir tomonlama shakllanayotgani, g‘oyaviylik badiiylikka nisbatan ustuvorlik kasb etayotgani ko‘rsatib berilgan.

O‘zbek dramaturgiyasi taraqqiyotining deyarli barcha bosqichlari yaxlit badiiy jarayon hamda ilmiy muammo sifatida tadqiq etilgan bo‘lib, birgina XX asrning 40-50 yillari dramaturgiyasi hali-hanuz o‘rganilmay qolmoqda. Vaholanki, bu davrda o‘zbek dramaturgiyasining taraqqiyotida muhim o‘rin tutgan “Hamza” (K.Yashin, A.Umariy), “O‘lim bosqinchilarga”, “General Rahimov”, “Yo‘lchi yulduz” (K.Yashin), “Alisher Navoiy” (Uyg‘un, I.Sulton), “Burgutning parvozi” (I.Sulton), “Ona”, “Qaltis hazil”, “Hayot qo‘shig‘i”, “Navbahor”, “So‘nggi pushaymon”, “Hurriyat” (Uyg‘un), “Muqanna” (H.Olimjon), “Jaloliddin Manguberdi” (M.Shayxzoda), “Shohi so‘zana”, “Og‘riq tishlar” (A.Qahhor), “Yurak sirlari” (B.Rahmon), “Chin muhabbat”, “Sadoqat”, “Yurak yonmog‘i kerak” (O.Yoqubov), “Furqat” (A.Avezov) kabi pyesalar yaratildi. Demak, zamonaviy teatrshunoslik ilmida o‘rganilishi dolzarb bo‘lib turgan yana bir tadqiqot o‘z izlanuvchisini kutmoqda. Ayni bu davrning o‘rganilishi o‘zbek dramaturgiyasining davrlashtirish va tadqiq etish tizimining to‘laqonligini ta’minlab beradi.

O‘zbek dramaturgiyasi kabi o‘zbek san’atshunosligidagi ko‘plab badiiy-ilmiy muammolarning tizimli o‘rganilishi, izchil tadqiq etilishi bugungi kunda zamon talabi bo‘lib turgan ilm-fanning ishlab chiqarish bilan integrallashuvini ta’minlashga, amaliyotda muvaffaqiyatli asarlar yaratilishiga zamin yaratadi. Tadqiqotlarda belgilangan ilmiy xulosalar hamda gipotezalar dramaturgiya vositasida teatr san’atining jamiyat hayotidagi ahamiyatini belgilab, uning istiqboliga yordam beradi.

Адабиётлар рўйхати:

1. Jo‘rayev Q. Yigirmanchi yillar o‘zbek dramaturgiyasi: dissertasiya. –Toshkent; 1994. -287 b.
2. Rizayev Sh. Jadid dramasi. –Toshkent: Sharq nashriyot-matbaa konserning bosh tahririyati; 1997. -320 b.
3. Tojiboyeva O. 80-yillar o‘zbek dramaturgiyasining sahnaviy talqin muammolari: dissertasiya. –Toshkent; 1996. -152 b.
4. Туляходжаева М., Юлдашев Т. Узбекская драматургия на сцене театра. –Ташкент: Фан, 1990. -136 с.
5. Туляходжаева М. Современная узбекская драматургия и её сценическое воплощение (1960-1970-е годы) автореферат. –Москва: 1978. -23 с.
6. Турсунов Т. Формирование социалистического реализма в узбекской драматургии. –Ташкент: изд.-во АН УзССР., 1963. -163 с.
7. Юлдашев Т. Проблемы современной узбекской драматургии (к вопросу о драматическом конфликте и характерах в драмах 70-х и начала 80-х годов): автореферат. –Ташкент; 1984. -18 с.
8. Yakubov B. Zamonaviy o‘zbek dramaturgiyasi va uning sahnaviy talqini (1991-2016 yy.): disertasiya. –Toshkent; 2019. -166 b.

MUSIQALI TEATRIMIZ NAMOYANDASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek musiqali drama teatrlarining yetuk namoyandasi, iste'dodli aktyor, mohir sozanda va mashhur xonanda O'zbekiston xalq artisti Murodjon Ahmedovning serqirra ijodiy faoliyati haqida so'z boradi. Shu bilan birga, Murodjon Ahmedov ijodi misolida o'zbek milliy musiqali teatr san'atining o'ziga xos xususiyatlari xususida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: teatr, musiqa, musiqali drama, aktyor, obraz, vokal, ijro.

Музаффар ПИРМАТОВ,

старший преподаватель кафедры «Искусствоведение и культурология» ГИИКУз

ПРЕДСТАВИТЕЛЬ НАШЕГО МУЗЫКАЛЬНОГО ТЕАТРА

Аннотация. В данной статье рассматривается творческая деятельность яркого представителя узбекского музыкального драматического театра, талантливого актера, искусного музыканта и известного певца, Народного артиста Узбекистана Муроджона Ахмедова. Вместе с этим, на примере творчества Муроджона Ахмедова рассматриваются особенности узбекского национального музыкально-театрального искусства.

Ключевые слова: театр, музыка, музыкальная драма, актер, образ, вокал, исполнительство.

Muzaffar PIRMATOV,

lecturer of the department "Art and Cultural Studies" UzSIAC

REPRESENTATIVE OF OUR MUSICAL THEATER

Abstract. The main theme of this article is the creative activity of a prominent representative of the Uzbek musical drama theater, a talented actor, a skilled musician and a famous singer, People's Artist of Uzbekistan Murojon Akhmedov. At the same time, on the example of the work of Murojon Akhmedov, the features of the Uzbek national musical and theatrical art are considered.

Key words: theater, music, musical drama, actor, form, vocals, performance.

Professional o'zbek teatr XX asrning boshlarida shakllanish bosqichiga kirgan bo'lsa, uning bir tarmog'i musiqali drama teatri chin ma'noda xalqimiz milliy an'alarining davomchisi bo'lib qoldi. Shubhasizki, teatrimiz o'zining dastlabki faoliyati davridanoq Yevropa teatri san'ati an'alarini dasturi amal qildi. G'arb teatr maktabiga, uning tajribasiga suyandi. Stanislavskiy sistemasi hozirgi kunga qadar aktyorlik mahorati nazariyasi va amaliyotida asosiy manba bo'lib kelmoqda.

Musiqali teatr spektakllari ham Yevropa musiqali teatrlarining modeli asosida shakllandi. Musiqali teatr bir necha jamoalar sintezlashishi tufayli tashkil topgan bir jamoadir. Ushbu san'at turi, xor, balet, orkestr, dekorator, chiroq ustalari, ovoz operatorlari va sahna ishchilarining mehnati asosida bir butun qiyofa kashf etadi.

O'zbek musiqali drama san'atining shakllanishida G'ulom Zafariyning "Halima", Xurshidning "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" musiqali dramalarining ahamiyati katta bo'ldi. Musiqali dramaning janr sifatidagi hayoti, unda musiqaning yetakchi o'rni, ariya, xor, shuningdek, yakka va umumiy raqslar janrning tarkibiy qismi ekanligi shu asarlarning sahna tarixidan boshlandi. Bugina emas, milliy musiqa merosimiz, shu jumladan, maqom kuy-qo'shiqlari, xalq raqslarining teatr san'atidan o'rin olishi ham shunda bo'ldi. Bu asarlarning o'zbek sahnasida musiqali drama dostonchiligi – sevishganlar romantik qissasini joriy etib, shu yo'nalishga yo'l ochdi. "Tohir va Zuhra", "Alpomish", "Ravshan va Zulxumor", "Oshiq G'arib va Shohsanam", "Gul va Navro'z" asarlari shu yo'lning davomli bekatlarida yuzaga kelgan

mukammal asarlardir. Shu bilan birga musiqali dramaning shakllanishida Hamza, Mannon Uyg'ur, Xurshid, Muhiddin Qori Yoqubov, G'ulom Zafariy kabi teatr fidoiylarning xizmatlari katta bo'ldi.

Dastlabki musiqali asarlarda ijod qilgan sozandayu kompozitorlar, solistu boshqa ijrochilarning keksa avlodidan tortib, porloq yulduzlarigacha, yuqorida nomlari keltirilgan asarlarni sahnalashtirish va ijro etish jaryonlarida o'z iste'dolarini namoyon etish bilan birga mahoratlarini yanada takomillashtirdilar. Mannon Uyg'ur, Muzaffar Muhammedov, Shorahim Shoumarov, Yunus Rajabiy, Uspenskiy, Tolibjon Sodiqov, Glier, Ma'suma Qoriyeva, Abror Hidoyatov, Muhiddin Qoriyoqubov, Tamaraxonim, Mukarrama Turg'unboyeva, Usta Olim Komilov, Halima Nosirova, Lutfixonim Sarimsoqova, Shahodat Rahimova, Tursunoy Jafarova, E'tibor Jalilova, Karim Zokirov, Farog'at Rahmatova, Mahmudjon G'afurov, Mashrabjon Yunusov, G'ulom Abdurahmonov, Sattor Yarashev va keyingi avlod vakillarining ham ko'pchiligi ushbu asarlarni sahnaga qo'yib, unda rol o'ynab yoki raqs ijro etib shuhrat topdilar.

Butun umrini musiqali teatr rivoji yo'lida safarbar etgan, ijodi davomida sof dramatik va musiqali spektakllarda qaytarilmas obrazlar yaratgan O'zbekiston xalq artisti Murodjon Ahmedov ham ana shunday iste'dodli aktyorlardan hisoblanadi. Murodjon Ahmedov Farg'ona viloyati O'zbekiston tumanining Afg'on qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi Ahmadali Qosimov san'atga ishqiboz bo'lib dutor chertar, qo'shiq aytardi. U ilk bor otasining ta'sirida san'atga ixlos qo'ydi. Keyinroq Qo'qon shahar internatida o'qish chog'ida to'garak rahbari

tog'asi Baratali Boymatovdan dutor, doira chalishni o'rganadi.

Murodjon Ahmedov 1933-yili Qo'qon yosh tomoshabinlar teatriga doirachi sifatida ishga kelib, ilk rollarini shu yerda o'ynadi. O'zbekiston tuman kolxoz-sovxozi teatri (1935–1936-y) harbiy xizmatdan so'ng Hamza nomli Qo'qon teatrida (1940–1955-y) va 1955-yildan umrining oxirigacha Farg'ona viloyat teatrida faoliyat ko'rsatdi.

Murodjon Ahmedov deganda dastavval ko'z o'ngimizda xalqimiz ardog'idagi hofiz siymosi gavdalanadi. Murodjon akani el orasida xofiz sifatida tanilishida asosan teatrdagi o'ynagan rollaridagi aytgan ariyalarining ham alohida o'rni bor. U biron pyesaning ariyasimi yoki biron konsertda aytiluvchi qo'shiqning matni va ma'nosini jiddiy tahlil qilishga, so'ngra musiqa mashg'ulotiga o'tishga odat qilgan san'atkor edi. M.Ahmedovning ijrochilik repertuari rang-barang bo'lib, konsert dasturlaridan Navoiy, Fuzuliy, Munis, Xorazmiy, Avaz O'tar, Nodira, Muqimiy, Hamza kabi klassiklarimiz g'azallariga aytiladigan qo'shiqlar, shuningdek, zamona ruhini talqin qilayotgan g'azalxonlarimiz Sobir Abdulla, Habibiy, Charxiy, Chustiy, Turob To'la, Saida Zunnunova, Po'lat Mo'min, Yong'in Mirzo, Akmal Po'lat kabi qo'shiqchi shoirlarimiz so'zlariga o'zbek kompazitorlari tomonidan yaratilgan ashulalarning ijrosi mustahkam o'rin olgan edi. "Farg'ona vodiysining quvnoq kishilarining anjumani yoki suhbatida bo'lsangiz Murodjon Axmedov haqida so'z boshlansa, davrada o'tirganlardan biri, uning xo'p yoqimtoy qo'ng'iroq ovozi bor edi deyisha, ikkinchisi sahnada o'ynagan rollardagi aktyorlik mahorati ham chakki emasdi deb suhbatdoshning so'zini to'ldirib o'tadi". Darhaqiqat, Murodjon Ahmedov ijodiy imkoniyati benihoya keng aktyor ham edi. U o'z ijodiy faoliyatini Qo'qon teatrida shogirdlikdan boshlab, tajribali ustoz darajasiga ko'tarildi. "Tohir va Zuhra", "Farhod va Shirin", "Alpomish", "Layli va Majnun", "Ravshan va Zulxumor", "Gul va Navro'z" kabi musiqali dramalarda bosh qahramonlar rollarini ijro etdi.

U ana shunday rollarni ijro etar ekan, asardagi so'zlarning urg'ulariga va musiqadagi dinamik bo'yoqlarni tushungan holda to'laqonli qilib tomoshabinga zikr qilish uchun harakat qiladi. M.Axmedovning ovozi musiqa tili bilan aytganda, dramatik tenor hisoblanadi. Sahnada turib har-bir aytilgan ariya yoki duetlarning pastki pardasidagi tembr, yuqori (kulminatsiya) bosqichigacha zaldagi tomoshabinga yaqqol yetib bordi va uning qalbiga yo'l topa oladi.

Shu bilan birga, turli xarakterli kishilar timsollarini yaratishda oluvchi dramatik aktyor sifatida ham nom qozondi. Qorobotir, Mamat, Sheruya, Mullado'st, Meli Xobbon, Osip, Rustam ("Xolisxon") kabi xarakter jihatidan bir-biriga o'xshamas rollarni yaratdi. M.Ahmedov musiqali drama ariya va qo'shiqlar ma'nosini chuqur anglab, ularni so'z bilan uyg'unlashtirib, umumlashgan yirik obraz yaratishga intildi. Shu tariqa, Murodjon Axmedov respublikamiz teatrlarida musiqali drama janri bosh qahramonlari obrazini yuqori saviyada ijro etgan artistlardan Murod Qo'ldoshev, Vaxobjon Fayozov, Maxmudjon G'ofurovlarning izdoshlari sifatida nom qozondi.

Qo'qon shahar Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi, musiqali drama teatri 1943–1944-yillarda K.Yashinning



"Nurxon" asarini sahnalashtiradi. Bu spektakl o'z davrining dolzarb muammolarini dadil sahnaga olib chiqdi va aks sadodek jarangladi. Ayol baxti va erki uchun kurash asarining asosiy mavzusini tashkil qiladi. Nurxon boy – badavlat Hojining qizi, yosh, go'zal va iste'dodli. Nurxon spektaklning dastlabki sahnasida o'rab – chirmab, uy ichida saqlangan mazluma ayollardan biri sifatida ko'rinsa-da, keyinchalik, katta jasorat bilan o'z ozodligi, huquqi uchun kurashgan mardonovor inson tarzida namoyon bo'ladi. Mana shu kurashda unga sevgan kishisi Haydar yaqindan yordam beradi. Spektakl Haydarning jozibali ariyasi va singlisi Qumrixonning lirik qo'shig'i bilan boshlanadi. Erta tongda, tabiat uyg'onishi, bog' manzarasidan ilhomlangan Qumrixon qo'shig'i tomoshabinni nafosat muhitiga chorlaydi. Tinglovchini xushnud qiladigan bu qo'shiq tabiat uyg'onishida, turli qush – parranda, bulbullarni sayrashini orkestr sadosi bilan ifodalab, musiqa ta'sirchanligi yanada boyitiladi.

Rejissyor Haydar rolini Murodjon Ahmedovga ishonch bilan topshiradi. Ushbu rol orqali haqiqatdan ham aktyorning ham musiqiy, ham dramatik ijro mahorati yorqin namoyon bo'ladi. Murodjon Ahmedov Haydarni sodda, samimiy, adolat uchun kurashuvchi, yangi turmush, yangi hayot kuychisi sifatida talqin etadi. U Nurxon saodati, baxti-kamoli uchun, ayol kishining nafaqat oilada, balki ijtimoiy hayotda ham o'z o'rniga ega bo'lishi uchun harakat qiladi. U shu yo'lda Nurxonga madad bo'lishga harakat qiladi.

Spektaklning birinchi sahnasida Haydar – Murodjon Ahmedov, Nurxon – Sabaxon Karimovani orziqib kutadi. Aktyor intiqlik, kelgusi baxtdan sarmastlik, entikish holatlarini namoyon qilishga intiladi. Sahnada sabrsiz qadam tashlagan cha, chuqur xo'rsinadi. Uning bu harakatlaridan tashvishli, hayajonli alomatlar yorqin ko'zga tashlanadi. Aktyorning mana shunday qahramon holatiga kirib turgan paytda Nurxon sahaga kirib keladi. Uning "Assalom", Haydarning "Kelding" qo'shiqlari jarang topadi. Nurxonni ko'rish bilan boshlangan ariya tufayli aktyor o'z holatidan chiqadi. Natijada, ma'shuqasini ko'rgandagi oshiq yigit baxtiyorligi ijroda unchalik sezilmaydi. Ariya esa har vaqtdagidek jozibali, jarangdor ovozda ijro etiladi. "...Nurxonni sahnada ko'rganimizda ko'pincha obrazlarning musiqali va vokal qismi uning dramatik to'qimasidan ajralib qoladi, ariyalar

konsert nomeridek ijro etilaveradi. Goho ariyalarni obrazli ijro etib, kechinmali holatlarni esa statik ifoda etish, replikalarni bo'lsa, "yodaki" quruq aytib qo'yaqolish hollari ham uchrab turadi"[3]. Demak, o'sha yillarda dramatik holat bilan musiqiy qismni uyg'unlashtirish spektakllarda asosiy masalalardan biri bo'lgan. Murodjon Ahmedovning ham ijodiy faoliyatining dastlabki bosqichida ijrochilik imkoniyatlari ustunlik qilar edi. Biroq Haydar obrazi xatti-harakatini spektakl yakunigacha rivojlantirib borish davomida aktyor bu holatga barham berishga erishadi. Bu jarayon Nurxon otasi Hoji zulmlaridan qochib, shaharda, ma'rifatli kishilar qo'lida san'at sirlarini o'rganayotgan sahnada yanada oydinroq namoyon bo'ladi. Nurxon – Saboxon Karimova, Haydarga o'zi o'ynayotgan roldan parcha va qo'shiq kuylab beradi. Haydar – Murodjon Ahmedov Nurxonga qarab, to'ldirilgan, g'ayrati ichiga sig'may qo'shiq kuylaydi. Bu qo'shiq aktyorning jo'shqinlik kayfiyati, Nurxonga nisbatan faxr tuyg'usi bo'lib jaranglaydi. Natijada, Nurxon – Saboxon Karimova, Haydar – Murodjon Ahmedovlar kuy-qo'shiqqa berilib, lirik holatlarni vujudga keltiradilar va dialog bilan musiqiy ifodalar bir-birini to'ldirib, ajoyib uyg'unlik kasb etadi.

Murodjon Ahmedov 1940–1950-yillarda oddiy tomoshabin va teatr ixlosmandlari, san'at olami vakillari orasida nom qozondi, mashhurlik darajasining eng yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Ana shunday bir vaziyatda aktyorni Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatriga taklif qilishadi.

Murodjon Ahmedov 1955-yilning oxirlaridan Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrlarining ijodiy muhitiga sho'ng'ib ketadi. Aktyor ushbu teatrdan ham "Tohir (S.Abdulla, "Tohir va Zuhra)", Haydar (K.Yashin, "Nurxon)", Bahodir (I.Sulton, "Burgutning parvozi)", G'ofir (Hamza, "Boy ila xizmatchi"), Aziz (A.Bobojonov, "Aziz va Sanam"), Ravshan (K.Yashin, "Ravshan va Zulxumor"), Navro'z (S.Abdulla, "Gul va Navro'z"), Osip (N.Gogol, "Revizor"), Karl Mor (F.Shiller, "Qaroqchilar")" [4] kabi bir – biridan tubdan farq qiluvchi yirik qahramonlar qiyofasini yaratdi.

Murodjon Ahmedovning har ikkala teatridagi faoliyatiga e'tibor qaratsa, ham musiqali ham dramatik rollarni ijro etganligi ko'zga tashlanadi. Ammo aktyor ijodida musiqali asarlardagi ijrolari alohida ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatrida uning ovoz imkoniyatlarining qirralari kashf etiladi. Aktyor ijodida milliy ijrochilik an'analari yanada rivojlandi. Biroq shuni ham e'tiborda tutish lozimki, zamonaviy musiqali drama teatrida ovro'po ijrochilik san'atining o'ziga xos o'rni bor. Spektakl musiqiy qismidagi asosiy ariya, duet, xorlar vokal ijrochiligi yo'nalishida kuylanishi sir emas. Musiqiy qism bastakor tomonidan milliy ruh, milliy ohangda yechim topib, xalqona kuy-qo'shiqlar asosida hal etilsada, ijrochilikda katta e'tibor vokal imkoniyatlariga qaratiladi. Shu ma'noda, musiqali drama aktyorining xonandalik imkoniyatlari, ovoz ovro'pacha ijro yo'nalishiga moslandi. Murodjon Ahmedov tabiiy ovoz imkoniyatlari keng qamrovli, yuqori diapazonli aktyor edi. Aktyorning bunday ijodiy imkoniyatlari Farg'ona viloyat musiqali drama va komediya teatri sahnasida yaratgan Farhod, Ravshan, Navro'z rollarida yanada yorqin namoyon bo'ladi.

Murod Ahmedov ijodining gullab, keng quloq yozgan mana shu davrda yana bir yirik rol ijrosiga kirishadi. Teatr jamoasi 1957-yili K.Yashinning "Ravshan va Zulxumor" musiqali dramasi sahnalashtiradi. "Go'ro'g'li" dostoni siklida yaratilgan "Ravshan va Zulxumor" spektaklda sof muhabbat, ezgulik, adolat, erkinlik g'oyalari tarannum etiladi. Shu bilan birga, yaxshilik, haqiqatning zulm, istibdod ustidan ustunligi, qahramonlar xarakteridagi mardlik, oliyanoblik, bahodirlik, dovyurklik badiiy bo'yoqlarda ko'rsatiladi.

Musiqali drama spektakllari aktyor oldiga o'ziga xos murakkab ijodiy qiyinchiliklar turadi. Ular obraz xarakterini ochishda dramatik va vokal ifodalarini bir – biriga singdirib yuborishi kerak. Bu yutuqlarni qo'lga kiritishga hamma aktyor ham erishavermaydi. Chunki musiqali drama spektakllarida qahramonlar rolini ijro etuvchi aktyorlarda qobiliyatlar ikki tomonlama rivojlanishi kerak. Bunday iste'dodga ega aktyorlar biz so'z yuritayotgan teatr jamoasida mavjud edi. Albatta, ularning imkoniyatlari turlicha edi: ba'zi aktyorlar balog'at bosqichiga ko'tarilgan bo'lsalar, ba'zilar hali ko'p qiyinchiliklarni boshlaridan kechirishlari va tinmay mehnat qilishlari zarur edi. Biroq musiqali obrazlar yaratishdagi tamoyil va izchillik "Ravshan va Zulxumor" spektaklida o'z badiiy qimmatini bilan namoyon bo'ldi.

Yuqorida aytilgan g'oya va maqsadlarni Ravshan timsolida amalga oshirish Murodjon Ahmedovga nasib etadi. Aktyor o'z qahramoni xatti-harakatlarini munosib belgilashga, asar g'oyasini izchillik bilan rivojlantirishga, asosiysi, Ravshanga tashlangan katta yukni to'g'ri taqsimlab, sahnada jonlantirishga harakat qiladi.

Murodjon Ahmedov ijro etgan Ravshan obrazi avvalgi qahramonlik rollari (Tohir, Alpomish, Farhod) dan bir qadar farq qiladi. U ham chinakam bahodir, elning ishongan tog'i, dovyurak qahramon. Faqat obraz mohiyatida optimizm kuchliroq. Aktyor o'z rolga ana shu jihatdan yondashib, Ravshandagi botirlik hislari bilan bir qatorda quvnoq tabiati, sho'xliklarini yorqin ifodalashga harakat qiladi.

Birinchi galda Go'ro'g'li boshliq tinch-totuv hayot kechirayotgan Chambil eliga Shivon hoqoni Qoraxonning bostirib kirishi bilan bog'liq voqealar aks etadi. Bosqinchilarning dodini berish, xalqni turli balo – qazolardan asrash uchun Chambil el botirlari qo'zg'alib kurashga otlanadilar.

Ravshan – Murodjon Ahmedov ana shu kurashning old saflarida turib, zolimlarga qaqshatqich zarbani boshlab beruvchi zabardast qahramon sifatida sahnada namoyon bo'ladi. Uning dastlab, Qoraxon bilan to'qnashuvida ana shu sifat yorqin ko'zga tashlanadi. Qoraxon (Yahyoxon Mamatxonov) o'ziga ishonib, qat'iyat bilan, yuzida zolimlik, shafqatsizlik chizgilarini namoyon qilib, Ravshan qarshisiga chiqadi. Biroq uni ko'rgan zahoti ruhiyatida o'zgarish yuz beradi. Chunki Ravshan – M.Ahmedov yuzidan yog'ilib turgan samimiyat, ezgu nur, shijoat, jasurlik, alp qomati Qoraxoni bir muddat esankiratib qo'yadi.

Ravshan – Murodjon Ahmedovning harakatlarining aniqligi, zarbalarining sabab qilichbozlikda Qoraxon (Yahyoxon Mamatxonov) yengiladi. Sarbozlari bilan qochib qolgan Qoraxon ortidan Ravshan kulimsirab, g'olibona, g'ururlanib qarab qoladi. Lekin bu g'urur

avvalgi rollarga o'xshab kibarlik, aslzodalik xususiyatlari bilan o'z qahramonini ko'z-ko'z qilish orqali emas, samimiyat, yengil kulgu vositasida ro'yobga chiqadi. Biroq ayni vaziyatda Ravshan ruhiy olamida doston qahramonlariga xos o'ta dovyuraklik, har qanday to'siq duch kelganda ham ko'tarinki kayfiyat ustuvorlik qiladi. Bu uning navbatdagi raqibi bilan bo'lgan jangida namoyon bo'ladi. Dastlab, kichik jussali, nozik qaddi-qomatli bu raqib Ravshan.

M.Ahmedovning ko'ziga kuchsizdek ko'rinadi. Shu bilan birga Ravshanni ham raqibining jangdagi mahorati hayratga soladi. Ana shu daqiqadan boshlab, aktyor harakatlarida yanada jonlanadi, harakatlari o'tkirlashib avj nuqtaga yetganda, o'ta ustalik bilan raqib yuzidagi niqobni olib tashlaydi. Birdan uning harakatlarida keskin o'zgarish yuz beradi. Qarshisida qo'llaridan qilichi tushib, yerga yiqilgan go'zal malikaning ruxsoriga hayratlanib boqadi. Uning holatida ayol kishi bilan olishganidan orlanish, nomus qilish emas, balki ma'naviy olamida tamoman boshqa hislar vujudga keladi. Ko'zlari ishqdan porlab, engashib qiz qo'lini tutmoqchi bo'ladi. Biroq Zulxumor (Hafizaxon Ibrohimova) sakrab o'rnidan turib nari ketadi. Ravshan so'roqlariga javob berishga ro'yixushlik bermaydi. Aktyor ushbu sahnada qahramonining yoriga bo'lgan o'tli muhabbatini yorqinroq ochishga intiladi. Chunki Zulxumor ashaddiy dushman tomonidan, shunday bo'lsa-da, bir ko'rishda Ravshanning unga ishq tushadi. Birozdan so'ng u yovuz Qoraxonning qizi ekanligi ma'lum bo'ladi. Natijada, ikki raqib o'rtasida mo'jizaviy sevgi vujudga keladi.

1950–1970-yillar chin ma'noda Murodjon Ahmedov ijodining ko'tarilish boqichi bo'ldi. Milliy xalq og'izaki va yozma dostonchiligi asosida Farg'ona teatrida sahnalashtirilgan spektakllarning deyarli barchasida bosh qahramon rollarini ijro etdi. Og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan afsonaviy xalq qahramonlari qiyofasini sahnada yorqin gavdalandirdi. Har bir obrazning o'ziga xos xususiyatini kashf etdi. To'hiridagi mardona kurashlar Alpomishda yuksak bahodirona ko'rinishda davom etdi. Farhod misolida ideal inson qiyofasini chizishga intilish sezilgan bo'lsa, Ravshan va Navro'zda soddalik, samimiylik, xalqchilik xususiyatlari yaqqol namoyon bo'ldi. Har bir obraz mohiyatida aktyor shuhratli, mag'rur, oshiq qahramon sifatlarini birinchi planga olib chiqishga erishdi. Natijada, aktyorning individual ijro uslubida sof lirik – romantiklik, ko'tarinkilik qaror topdi va rivojlandi. Bunday mahobatli ijro aynan mo'jizaviy qudratga ega qahramonlar qiyofasiga juda mos tushdi. Shu sabab tomoshabin o'zi ishongan, tasavvur qilgan

qahramonini Murodjon Ahmedov ijrosida ko'rdi va yuksak qoniqish hosil qildi. Har safar uning ijrosini ko'rish, betakror qo'shiq, ariyalarini tinglash uchun tomoshabinlar uzoq – yaqinlardan oshiqib kelishdi.

Bu davrda aktyorlik mahorati bobida ham Murodjon Ahmedov ijodi yetuklik, chuqur professionallik kasb etdi. Dramatik holat bilan musiqiy qismni mazmunli uyg'unlashtira olish, qahramon ichki kechinmalari hissiy olamini yorqin ifodalash mahorati namoyon bo'ldi. Murodjon Ahmedov har bir obrazning yetuk va mohir ijrochisiga aylandi. O'zi yaratgan qahramonlari singari hayotda va san'atda ham shuhrat shohsupasini egalladi. Aktyorning ko'p yillik xizmatlari e'tiborga olinib, 1967-yili unga O'zbekiston xalq artisti unvoni berildi. 2001-yilda esa "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlandi.

O'zbek musiqali teatri yillar davomida zafarli yutuqlarni qo'lga kiritdi. Ularning cheki yo'q. Lekin vazifalar, qilinmagan kechiktirib bo'lmaydigan ishlar, uzoq yillardan buyon kun tartibidan tushmay, hal bo'lmay qolayotgan ishlarimiz undanda ko'proq. Bu ham tabiiy bir hol. Chunki kamchilik va vazifalarni taraqqiyot keltirib chiqaradi.

Hozirjavoblik san'at va san'atkorning zamon oldidagi muqaddas burchi. Lekin shu burchni ado etish tobora murakkablashib bormoqda. Zotan, ilmiy-texnika, davr taraqqiyotimizning rivoj sur'ati, ijodkorlardan, xususan teatr ijodkorlaridan alohida sifat jihati bilan javob berishni talab etmoqda.

Hozirgi talqin san'atining – rejissor va aktyor ijodining ahamiyati va unga tomoshabinning e'tibor va hurmati, binobarin, talabi ham har qachongidan ortib ketdi. "Talqin" va "ijro" tushunchalari ham boshqacha idrok etiladigan bo'lib qoldi. Pyesadagi ma'lumotni "obrazga kiritib" tomoshabinga yetkazish, bu allaqachon umrini o'tab bo'lgan usul hisoblanadi. Hozir tomoshabin aktyorni obrazga kirishini emas, uning o'zi bo'lishini, o'z idroki bilan yashashni, binobarin, idrok va mahorat darajasini hamohang ko'rishni istaydi. Hozirgi ilg'or tomoshabin tushunchasida obrazning ijro qolipi yo'q. Aktyor ham mana shunday talablarni e'tiborga olib, obraz talqiniga jur'at etadi. Chunki ijro bu ijod. Ijod esa ixtiro.

Shunday ekan, 60-yilga yaqin ijodiy faoliyati davomida tinimsiz izlanish va mehnati natijasida sahna san'atining barcha sirlarini mukammal darajada egallagan O'zbekiston xalq artisti Murodjon Ahmedov faoliyatini o'rganish, yosh ijodkorlarga tadbqiq qilish, o'zbek musiqali teatrimizning bugungi kundagi rivojiga jiddiy ta'sir qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: O'zbekiston, 2008. - 146 b.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va oliy janob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. - 486 b.
3. Tursunov T, Sahna va Zamon. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2007. -413 b.
4. Shokirov O'. Abduqunduzov M. Milliy teatrimiz namoyondalari. –Toshkent: Toshkent islom universiteti. 2002. -148 b.
5. Tursunov T. XX asr o'zbek teatr tarixi. –Toshkent: O'zDSI. 2009. -252 b.
6. Qodirov M. Sehr va mehr. –Toshkent: G'.G'ulom nashriyoti, 1980. -150 b.
7. Ikromov H. Musiqali teatr muammolari. Davr va teatr. –Toshkent: O'zbekiston ensiklopediyasi, 2009. -70 b.
8. Islomov T. Tarix va sahna. –Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti, 1998. -134 b.

PEDAGOG – REJISSOR BAHODIR NAZAROV

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagog rejissyor Bahodir Nazarovning rejissurasi, uning spektakl ustida ishlash usullari yoritilgan. Bahodir Nazarov o‘tgan asr boshida tamal toshi qo‘yilgan teatr maktabi ana‘analarini XX asrning yetmishinchi yillaridan to‘shu kunga qadar davom ettirib kelmoqda. Bu maqolada B.Nazarovning ta‘limdagi emas, balki professional sahnadagi ishlari faoliyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: sahnalashtirish, xatti-harakat, drama, teatr, temporitm, munosabat, ijro, fikr, psixofizik, rejissyor, dekoratsiya, asar.

Хабібулло КОБИЛОВ,

и.о доцент кафедры “Искусство музыкального, драматического театра и кино” ГИИКУз

ПЕДАГОГ – РЕЖИССЁР БАХОДИР НАЗАРОВ

Аннотация. В данной статье освещается режиссура, методы, работа над спектаклем педагога режиссера Бахадира Назарова. Бахадир Назаров продолжает традиции театральной школы, фундамент которой был заложен в начале прошлого века, и который бережно передаёт своим ученикам с семидесятых годов прошлого века до наших дней. В данной статье представлена работа Б. Назарова не в сфере образования, а профессиональной сцене.

Ключевые слова: постановка, поведение-действие, драма, театр, темпоритм, установка, перформанс, мысль, психофизика, режиссер, декорации, произведение.

Khabibullo KOBILOV,

acting professor of the Department of “Art of Musical, Drama Theater and Cinema”, UzSIAC

PEDAGOG – DIRECTOR BAKHADIR NAZAROV

Abstract. This article describes the work of the pedagogical leader Bakhadir Nazarov. Bakhadir Nazarov is a teacher and director of a theater school, the foundation of which was laid at the beginning of the last century, and which he carefully passes on to his students from the seventies of the last century to the present day. This article presents the work of B. Nazarov not in the field of education, but in the professional scene.

Keywords: staging, behavior-action, drama, theater, temporythm, attitude, performance, thought, psychophysics, director, scenery, work.

Bahodir Nazarov O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti hamda Muqimiy nomidagi o‘zbek musiqali teatrida barakali ijod qilayotgan rejissyordir. U professional rejissuraga o‘tgan asrning 1980-yillarida kirib kelgan. Avval Yunus Rajabiy nomidagi Jizzax viloyat musiqali drama teatrida, keyinchalik Mulla To‘ychi Toshmuhammedov nomidagi Qashqadaryo viloyat musiqali drama teatrida bosh rejissor bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan. Ko‘plab spektakllar sahnalashtirib, yillar davomida o‘z ustida ishlab, malakasini oshirib boravergan. Bahodir Nazarov rejissorlik faoliyatida aktyorlarni pyesani o‘qishi hamda stol atrofida tahlil jarayoniga katta e‘tibor qaratadi. Asarni qismlarga bo‘lish, voqealarni, maqsadlarni aniqlash, xatti-harakatlarni va xarakterlarni topish masalasida katta tajriba to‘plagan. Ustoz ko‘proq psixofizik xatti-harakatga e‘tibor qaratib, aktyorni jonli, tabiiy fikrlash jarayonidan o‘tkazib to‘laqonli obraz yaratishga erishadi. Bu esa juda murakkab jarayondir.

Ma‘lumki, psixofizik xatti-harakat aktyorni maqsad sari intilish yo‘lida berilgan shart-sharoitlarga qarshi kurashib, yengib o‘tish holati, diqqatni bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi, belgilar yig‘indisi, quyi belgidan yuqori belgiga kelishi, yuqori belgini aniqlagan davrdan boshlab, yangi temporitmni paydo bo‘lishi, yangi temporitm natijasida yangi munosabatni shakllanishi hamda paydo bo‘lgan yangi munosabat natijasida yangi maqsadning tug‘ilishi va yangi maqsaddan yangi xatti-harakat paydo bo‘lishi bu - psixofizik xatti-harakat jarayonidir.

Psixofizik xatti-harakat, deb aktyorning sahnadagi tabiiy uyg‘unlashgan ijrosi, fikr, gavda xatti-harakatlari va

so‘zda uyg‘unlikka erishishga aytiladi. Bahodir Nazarov aktyorlardan mana shu jarayonni to‘liq bajarishlarini talab qiladi hamda shu asosda sahnaviy voqealarni ko‘rishga intiladi. Aktyorlar bilan ishlashda ularning rol ustida mustaqil ishlashlariga imkoniyatlar yaratib beradi. Shuningdek, dekoratsiyalar, jihozlar orqali ham obrazli yechimlarni topishga urinadi.

Musiqali teatr janrlarining o‘z qonunlari mavjud bo‘lib, Bahodir Nazarov musiqali teatr rejissori sifatida o‘ziga xos “ijodiy dastxati”ga ega. Ushbu “ijodiy dastxat” yillar davomida hayotiy va ijodiy tajribalar asosida shakllanib ulgurgan. Bahodir Nazarov rejissorligining o‘ziga xos jihati, postanovka jarayonida atrofdegilarni eshitib, bamaslahat ish qilish qobiliyatidadir. Ish jarayonida rejissor yordamchisi, dramaturg, kompozitor, aktyorlar tomonidan ishga nisbatan yaxshi takliflar bildira boshlansa, ularga quloq tutgan holda, takliflarini o‘rinli qabul qilishi, bildirilgan takliflar asosida spektaklni jarayonda rivojlantirib borishi mumkin. Bahodir Nazarov ko‘plab spektakllar sahnalashtirgan va bu spektakllarni doim professional darajada bo‘lishiga intilgan. U rejissyor sifatida faqat yo‘llanmalar orqali aktyorlarga rolning mag‘zi, maqsadi va xatti-harakatiga singishlari uchun yordam berib borgan.

Xullas, Bahodir Nazarov rejissorlik ishida asosiy e‘tiborini aktyorlar ijrosiga qaratadi. Ya‘ni, u ustozlarining so‘zlarini yodga olgan holda: “Rejissor aktyorlarning ijrosida o‘ladi”, deydi va ijodda shu so‘zlarga amal qiladi. Rejissor uchun eng muhimi aktyor ijrosining jonli bo‘lishi kerakligidir. Dekoratsiyalar, chiroq effektlari spektakl



ishlashda ikkinchi darajali masala hisoblanadi. Albatta, spektaklda eng muhimi tomoshabinni ushlab turishdir. Bunday spektakl professional dramaturgiya, aktyorlik ijrosi, musiqa, ariya, kuy va qo'shiqlar asosida shakllanadi. Agar bu unsurlar bo'lmas ekan, chiroyli mezansahna qurilgan bo'lsa ham bu sahna bilan tomoshabinning e'tiborini tortib bo'lmaydi hamda bu sahna ularni larzaga sololmaydi. Buning uchun aktyorni o'zi larzaga tushishi kerak bo'ladi.

Bahodir Nazarov dramaturgiya sohasiga nazar tashlar ekan, shunday deydi: "Har bir rejissor aktyor bilan ishlar ekan, rejissorning mustahkam tayanchi bo'lishi kerak, ushbu tayanch esa mukammal dramaturgiyadir. Aktyor bilan ishlashda pishiq dramaturgiya kerak, pishiq dramaturgiya aktyorni yetaklaydi, rejissorga ham yordam beradi. Sayoz dramaturgiya hammani "pichoqsiz so'yadi". Sayoz dramaturgiyada aktyorlar – "hammasi to'kilib ketayapti, o'ynash uchun material yo'q", deb rejissorga e'tirozlar bildira boshlashadi. Nasrullo Qobilning "Namrud" pyesasida bunday e'tirozlar bo'lmagan, men rejissor sifatida mazza qilib ishlaganman va bosh rollarni o'ynagan aktyorlar haligacha ular uchun bu asar katta bir maktab bo'lganini yodga olishadi. Shunaqa "polotno" asarlar aktyorlarga maktab bo'ladi, ijro uslubini qayrab beradi, deb hisoblayman".

Darhaqiqat, hozirda bu kabi pishiq asarlar juda kam. "Namrud" spektakli 1995-yilda sahnalashtirilgan. Bu asar ham "Yusuf va Zulayho" singari afsona asosida yaratilgan pyesadir. Namrud va Ibrohim Halilulloh haqidagi mavzu muqaddas kitoblarda ham mavjud. Undagi keskin voqealar haqida professor Sotimboy Tursunboyev o'z maqolasida: "Spektakl, momoqaldiroq gumburlab chaqmoq chaqinlari ko'kni qoplagan tun chog'ida, Namrud ibodatxonasiga kohinlarning vahimali kirib kelishlari bilan boshlanadi. Tangrilar tangrisi Namrud nohush tush ko'rgan. Butparast zohid Ozor bostirib kelmish balolardan xabar bergach, boshiga oltin toj bostirilgan Namrud paydo bo'ladi, ibodatxona topinuvchilarning "illaha Namrud, illaha Namrud", degan hayqiriqlariga g'arq bo'ladi. Folbinlarning bashoratlari dahshatli; balo-qazoni daf etishning chorasi – yangi tug'ilgan bolalarni Marduxga qurbon qilish, ya'ni taomilga ko'ra "o'g'il bolalarni tiriklayin o'tda kuydirish, qizlarni tiriklayin yerga ko'mish kerak". Asar shu tarzda

¹ Qobilov N. Ustivor ruh. -Toshkent: A.Navoiy nomli milliy kutubxona nashryoti, 2012. -B.116.

qadimgi fojialar misol insoniy taqdir muammosini keskin qo'yish bilan boshlanadi. Unda insonning insonligini toptagan soxta payg'ambarlar-u, johil udumlarning barbod bo'lishi, ma'naviy komillik, ezgulik nurini taratuvchi islomiy qadriyatlarining dunyoga kelishi haqida so'z boradi.

Asarda Namrud (asar ilk nusxada "Namrud" deb atalgan) yovuzlik timsoli tarzida namoyon bo'ladi. U o'zini "zamin tangrisi" deb atab, koinot tangrilari nomidan ish ko'radi, kohinlar Namrudga sodiqlikni tangrilarga sodiqlik deb angelaydilar.

Rejissor Namrudning din, udumlar niqobi ostida faqat o'z shaxsiy manfaati uchun jon kuydirishini fosh etadi; "Fol oching, falakni ham uyg'oting tezroq, menga desa koinotga o't qo'ying", kabi so'zlar uning iblisona qiyofasini ko'rsatib turadi. Namrudning qabixona harakatlari ikkinchi sahnada ayniqsa yaqqol ochilgan; bular Ona ko'ksidan murg'ak chaqaloqni tortib olib, alanga qa'riga uloqtirilishi va Ozorning dilbandi Ibrohimning Allohning fazli karami bilan tirik qolishi sahnalari" deb davom etadi o'z maqolasida professor Sotimboy Tursunboyev. Bularni adashgan odamlarning jaholat va xurofot qa'rida azoblana-azoblana nihoyat Allohning irodasi bilan yorug'likka chiqish sahnalari deyish mumkin.

Asardagi bosh voqealardan biri chaqaloqni o'tda yonmasligi, ya'ni bu o'sha mashhur rivoyat. Allohning do'sti, Ibrohim Halilulloh (Ibrohim Gulzor)ni o'tga tashlash sahnasidir. U Xudoni irodasi bilan o'tda yonmaydi va gulxandan sog'-salomat chiqadi. Namrud shundan so'ng o'zidanda, qudratli, kuch sohibi borligini anglab yetadi va o'zini jarlikka otadi. Bu rejissorlik yechimidir. Asarda esa Namrudning tavba qilish sahnasi bor...

Chaqaloqlarni "yoqish", "sotqinlik", "sotqinlikni" fosh bo'lish voqealari ham ta'sirchan talqin etilgan. Bir umr farzand ko'rishni orzu qilgan ona o'z bolasini toqqa tashlab kelish voqeasi ayniqsa e'tiborlidir: Asarning uchinchi ko'rinishidagi Ozor va Omina uchrashadigan sahnada voqea qo'yidagicha ro'y beradi; Butlar bilan bezatilgan ibodatxona. Ozor yolg'iz. Omina kiradi.

Ozor – Tinchlikmi Omina? Senga ne bo'ldi.

Nega quting o'chgan, ranging oqargan?

Tun bedor o'tdimi, uxlamadingmi?

Omina – Uxlay desam kipriklar qovushmayapti,

Ko'z o'ngimda hamon kechagi gulhan.

Ozor – Behuda azobda yonmoqlik nechun?

Endi tirilmaydi o'tda yonganlar.

Omina – Bu qandayin jazo, bu qanday ko'rgilik,

Bolani o'tinday gulxanda yoqsa! ¹

Bu parchada berilgan shart-sharoit, zolim Namrudning taxtdan ajrab qolish xavfi ostida yangi tug'ilgan barcha chaqaloqlarni o'tda yoqdirishidir. Dialog davomida zamonnii zolimlar bilan to'lganligi, odamlarning yuragi toshligi, mehrsizligi, diydasi qotib ketganligi haqida so'z boradi.

Ozor – Bolang sog'-salomat, hol-ahvolidan,

Xabar olib keldi inimiz Xozor.

Omina – Xozor ayol emas, toqqa borganda,

Siyndagi sutga mehrin qo'shib,

Emiza olmaydi sho'rlik go'dakni.

Bu so'zlaridan Omina farzandini qanchalik sog'in-ganini bilib olamiz. U mana shu orqali eridan toqqa, bolasini oldiga borib kelish uchun izn so'raydi. Ammo mamlakatdagi ahvol bunga izn bermasdi. Shu tufayli eri

rad javobni beradi. Ozor Ominani yo‘ldan qaytarib – bu vaziyatda xavfqa qarshi kurashadi. Ya‘ni hamma joyda ayg‘oqchilar izg‘ib yuribdi, sen ham, bola ham qo‘lga tushasizlar, deb rad javobini beradi. Omina atrofdagi nohaqliklarga chiday olmay ariyasini boshlaydi;

*Omina – Tirnoqqa zor edim, yig‘lab tildardim,
Ona martabasin ato qilgin deb.
Nolam sanamlarni mehribon qildi,
Shukur iltijoyim ijobat bo‘ldi.
Endi farzandim bor, men esa bunda
Pushti kuygan ojiz joriya misol,
Jajji chaqaloqni qo‘lda tutmoqdek,
Huzurbaxsh tuyg‘udan bebahra nochor.
Yolg‘izim uzoqda, vahshiy hayvonlar,
Ilonlar, chayonlar, ichida yolg‘iz.
Men esa bu yerda, butlar qoshida,
Zor yig‘lab turibman, horg‘in, chorasiz.
Farzand deb, ne‘matga orzumand bo‘lib,
Necha, yillar zorlik libosin kiyib,
Niyatga yetsam-u, zaif notavon,
Bandadek oh tortsam ojizu, nodon.
Axir ojizmasman sog‘man, agarda,
Ijizat bersangiz, tun yo saharda
Hech kimga sezdirmay, yo‘lga otlanib,
Bolamni bag‘rimga bosay shodlanib.*

Ona ariyasi asarning musiqiy yechimini belgilab beruvchi omildir. Uning fojiaga to‘lib ijro etilishi, baland pardalarda kuylashi spektaklning to‘laqonli chiqishida katta ahamiyatga ega. Bu ariya musiqasi qahramon ichki iztiroblarini ochib beradi. Shuning uchun aktrisa berilib, so‘zlarini dona-dona qilib kuylashi lozim. O‘zbekiston xalq artistlari Zulayho Boyxonova va Maryam Ixtiyorovalar ushbu ariyani katta mahorat bilan ijro etishgan. Ona ariyasi ko‘rinishining yutug‘ida bastakor To‘lqin Qurbonov, dirijorlar Nabi Xalilov va Jo‘ra Ortiqovlar qatori spektakl rejissori Bahodir Nazarovning ham xizmati kattadir.

Bundan tashqari, ota bilan onani so‘roq qilish sahnasi ham juda psixologik ta‘sirchan va kuchli ishlangan. Voqealar kuchli dramatik asosda talqin qilinganligi uchun asar har gal ijro qilinganda, zalga og‘ir sukut cho‘mgan, tomoshabin hayratda qolgan holda spektaklni tomosha qilgan. Aristotelning “Poetika” asarida bu hol “katarsis”, deb nomlanadi. Ya‘ni, tomoshabin kuchli dinamika, rivoj va yechimga ega spektaklni hayrat bilan tomosha qiladi. Ammo, spektakl rejissurasi va ijrosida ba‘zi bir nuqsonlar ham uchrab turishi ham tabiiy hol. Bu haqida professor Sotimboy Tursunboyev o‘z maqolasida shunday degan: “She‘riy tarzda yozilgan bu asar dramatik dostonni eslatadi. Namrud ko‘proq xatti-harakat jarayonida emas, va‘z, hajmdor monologlar orqali namoyon bo‘ladi. Bu hol ba‘zi obrazlarni teran va oxirigacha ochilishiga imkon bermagan. Bulardan mustasno, yosh, sinchkov muallifning ma‘naviy qadriyatlarini qalb qo‘ri bilan anglashga intilishi kishida hayrixohlik hissini uyg‘otadi.

Odatdagi musiqali dramalardan farqli o‘laroq, bu asarda bizga sinashta ariya, duet, qo‘shiq va xoreografik manzaralar ko‘p. Rejissor Bahodir Nazarov talqinida u fojeona va ayni chog‘da nurlil bir qissa tarzida o‘qiladi. Parda ochilishi bilan (musavvir Sobir Bekmatov) erkin ruh abadiy zulmat pardasiga o‘ralgan, qo‘rquv, vahima hissi ko‘tarilib turuvchi, butlar hukmron biqiq vaziyatga

duch kelamiz. Mehrob o‘rnida qad ko‘targan Marduxning haykal – buti, uning poyi ostiga joylashgan qurbongoh sahnaning yana to‘rt nuqtasida qad ko‘targan butlar, tepalikda yal-yal yonib turgan mash‘ala vaziyatga fojeiy ruh bahsh etib turibdi. Bular musiqa va xor ovozlari yangragach, jonlanib ketgandek bo‘ladi. Kompozitor To‘lqin Qurbonovning musiqasi va Botir Umidjonov rahbarligidagi xor asarning mohiyatini ochishga astoydil harakat qilgan. Goh mungli, goh alamli jaranglovchi musiqiy ifodalar voqealarga shiddatkorlik bag‘ishlaydi. Musiqa rahbari Nabi Xalilovning dirijorlik pultini M.Ashrafiy nomidagi konservatoriyaning bitiruvchisi Jo‘ra Ortiqovga topshirgani e‘tiborga molik. Xoreografik va plastik ifodalar (baletmeyster Shokir Axmedov, plastik tasvir mutaxassisi Malvina Xasanova) ham o‘ziga xos; bular fe‘l-atvor, timsol yaratishga qaratilgan tasvirlardir. Afsuski, musiqiy va plastik tasvirlarda bo‘shliqlar ham sezilib turadi. Xususan, plastik tasvir omillari aktyorlar ijrosida yetarlicha qo‘llanilmagani spektaklda an‘anaviy musiqiy drama xos ijro ko‘nikmalarining saqlanishiga olib kelgan”.

Spektakldagi bosh qahramonlardan biri Namrud aktyor Ma‘ruf Otajonovning ijodida yirik obraz bo‘lib, aktyorning butun imkoniyatlarini ishga solgan. U Namrudni har on boshiga balo-qazolar yog‘ilayotgandek his etib, beorom va tig‘iz harakat jarayonida talqin etadi. Namrud – M.Otajonov uyqudan turib, vahima bosgan, darg‘azab holatda paydo bo‘ladi va spektakl oxiriga qadar shu holatni rivojlantiradi.

Ma‘ruf Otajonov ijrosiga baho berar ekan professor Sotimboy Tursunboyev shunday yozadi: “Ta‘kid etish lozimki, ortidan olomoni ergashtira olgan Namrud – M.Otajonov o‘zini-o‘zi darhol fosh etadigan anoyilardan emas. U o‘shqirish, kohinlarni turtish Namrudni arzimas kimsaga aylantirib qo‘yishi mumkinligini yaxshi biladi. Uning siyosatini zo‘rligi sirli ko‘rinishida bo‘lib, shuning uchun odamlar unga ergashadilar. Namrud – spektaklning umumiy muammosi; rejissor aktyorlarni o‘zicha harakat qilishdan tiyishi, ularni Namrudning rayiga qarab ish tutishlarini ta‘minlashi, Namrudni esa ularning tizginini ushlab turuvchi chora va holatlarni yaratishga burishi lozim.

Bosh kohin Ozor Nasriddin Rustamov talqinida aynan vaziyat taqozosi bilan nafas oluvchi obraz tarzida gavdalangan. Bu o‘rinda fojeiy inson taqdiri ko‘z o‘ngimizdan o‘tadi. Boshlariga bir xil mash‘um qismat tushgan ikki ona timsolining ikki xil tarzda talqin topishi ham diqqatga molik. Dilorom Safoyeva mushtipar, betayanch bir ona qiyofasini yaratadi. Uning sokin qarashlari, g‘amli nigohidan onalik mehri ufurib turadi. Kohinlar chaqalog‘ini zo‘rlilik bilan tortib olishini sezarkan, ozor yetmasin, degandek bag‘rini mayinlik bilan bo‘shatadi, qurbongohga talpinadi, kohinlar to‘sig‘iga duch kelib, o‘zini yerga tashlaydi. Odatiy musiqali dramalarda bo‘ladigandek faryod ko‘tarmaydi. Aktrisa ona obrazi talqinida plastik ifoda vositalaridan ko‘proq foydalangan. Omina obrazi pyesada ham, spektaklda ham bir qadar isyonkorona ruhda yaratilgan. Maryam Ixtiyorova sahnada jisman bo‘ydor, Ozorga mushtarak kuchli ayolni gavdalanitirgan. U Namrudning mudhish hukmidan o‘y-g‘ota olgan jonsarak holatda paydo bo‘ladi. Aktrisa Omina

obrazini ruhan o‘stirish, jur‘atini oshirib borish yo‘lidan borgan. Uning “Ona farzand uchun bermasa jonni, Odam deb bo‘lgaymi unday insonni”, degan so‘zlari da‘vatkorona yangraydi. Muallif ham, ijrochi ham Omina misolida Ibrohim alayhissalomdek mo‘tabar zotning onasi – mehri bir olam ona timsolini tabiiy gavdalantirishga astoydil bel bog‘laganliklari sezilib turadi”.

“Namrud” spektaklida ayrim kamchiliklarga yo‘l qo‘yilgan bo‘lsada, rejissyorlik va aktyorlik talqini, ssenografik yechimi, musiqiy dramaturgiyasi, orkestr ijrosi nuqtai nazaridan yaxlit spektaklga aylangan va “Namrud” o‘zbek teatrlarida sahnalashtirilgan diniy mavzudagi ilk asar bo‘lgan.

Spektakldagi aktyorlar ansambli kuchli aktyorlar jamoasidan iborat edi: Ozor rolida – Nasriddin Rustamov, Namrud rolida Ma‘ruf Otajonov va O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Boir Xolmirzayevlar. Omina rolida – O‘zbekiston xalq artisti Zulayho Boyxonova hamda O‘zbekiston xalq artisti Maryam Ixtorovalar, Xozor rolini esa Tursunboy Pirjonovlar ijro etganlar. Asar xor va ommaviy sahnalarni boyligi bilan ham diqqatga sazovor asarlardandir. Spektaklda an‘anaviy-mumtoz yo‘nalishdagi, “tantanavor” dekoratsiyalar ishlatilgan. Asarning final sahnasi, dinamik rivoji va ta‘sirchanligi bilan ajralib turadi. Kohinlar Namrudning buyrug‘i bilan yosh Ibrohim Xalilullohni yonib turgan gulxanga tashlashadi. Bolani o‘tga tashlatgach:

Namrud – Ey kushanda, endi nimangdan qo‘rqay?

Seni daf qildimku, bir hovuch kulday

Puf desam to‘zg‘iysan, shamolda uchib.

Daf bo‘lasan qora yerga qo‘shilib, – deb tantana qiladi. Xuddi shu lahzada orkestrning o‘ta ta‘sirchan ovozi ostida yer yorilib ichidan sog‘-salomat bola – Ibrohim Xalilulloh chiqib keladi. Xor yangraydi. Mo‘jizani ko‘rgan olomon larzaga tushgan. Namrud esa hayratda:

Namrud – Bu qanday sinoat, bu qanday balo?

Mo‘jiza sababi senga havola.

Faqat anglat, nega yonmadi bola?..

...Nahot Alloh g‘olib, ko‘rsatdi qudrat?!

Butlar qudratidan qolmadi asar?..

Aqlini yo‘qotgan Namrud o‘zini jarlikka tashlash sahnasi ham ta‘sirchan chiqqan.

“O‘ta shartlilik va o‘ta naturalizm omuxtasi hozirgi zamon teatriga xos”, deydi Bahodir Nazarov. Aktyorning sahnadagi to‘laqonli xatti-harakatga erishishi har bir rejissyorning asosiy maqsadi. Ya‘ni, tabiiy to‘laqonlilikka ssenografiyadagi shartlilik, zamon va makonga xos rejissyor intilishidan kelib chiqdi. Bu degani, teatr dekoratsiyasining mutlaqo shartliliigi, ijroning mukammalligi bo‘lsa, bugungi kunning katta yutug‘i, degani emas. Aktyorning ijrosida tabiiylik, mukammal bo‘lsa, dekoratsiya shartli bo‘lsa ham spektaklni badiiy yaxlitligiga putur yetmaydi, degani.

Masalan, A.Efros “Maliy Bronniy”dagi teatrdan A.P.Chexovning “Olchazor” pyesasini sahnalashtirgan payt rassom bilan quyidagi yechimni topishgan. Sahnaning o‘rtasida, deyarli bir metr lar tepaga ko‘tarilgan maxsus supada bir nechta gullab turgan olcha o‘rnatilgan. Go‘yoki Chexov asaridagi bepoyon olchazorni bir qismi kesib olinib, orolchaday sahna o‘rtasiga o‘rnatiladi va shu dekoratsiya atrofiga qolgan barcha xatti-harakatlar ro‘y beradi. Bu

o‘ta shartli yechim. Lekin aktyorlar ijrosida tabiiylik, mukammal bo‘lgani uchun shartli yechim tomoshabinning g‘ashiga tegmagan. Aksincha, dekoratsiyadagi shartlilik voqealarni, ular zamiridagi fojiani, inson taqdirini chuqurroq namoyon bo‘lishiga, muhimi, asar g‘oyasining falsafiy jaranglashiga asos bo‘lgan.

Bahodir Nazarovning zamonaviy mavzudagi spektakllari juda ko‘p. Ulardan biri “O‘lding aziz bo‘lding” pyesasidir. Holiq Xursandovning bu asari juda ko‘p teatrdan sahnalashtirilgan. Asar voqeasida dramaturgik nuqtai nazardan ozgina sun‘iylikka yo‘l qo‘yilgan, lekin mavzusi dolzarb bo‘lgan bu asarda otalar va bolalar o‘rtasidagi munosabat, insonlar o‘rtasidagi mehr-oqibat orasida avj olib borayotgan befarqlik masalalari ko‘riladi. Spektakl syujeti molu-dunyo, mansab ikir-chikirlari bilan band bo‘lib ota-onasini esdan chiqargan farzandlar haqidadir. Bosh qahramon Mavlon ismli chol. Uning uch o‘g‘li, bir qizi bor. Katta o‘g‘li hokimiyat idorasida amaldor, o‘rtancha o‘g‘li tadbirkor, eng kichigi shoir, qizini esa turmushga berib yuborgan. Barchasi o‘z tashvishlari bilan bo‘lib, cholu-kampirdan xabar olmay qo‘yganlar. Mavlon bolalarining mehrini sinamoq maqsadida o‘zini o‘ldiga chiqarib bolalarini jamlamoqchi bo‘ladi. Asarni afsonaga, latifaga tortadigan jihatlari shunda.

Ota bolalarini katta qilib, uyli-joyli qilgach, ular har tomonga tarqalib ketishgan, diydorlarini ko‘rishga zor. Otaga ulardan moddiy hech nima kerak emas, oddiy e‘tibor kerak xolos. Aynan shu narsa farzandlarida yo‘q. Har biri o‘zi bilan o‘zi ovvora. Ularni bir joyga to‘plash, diydoriga to‘yish uchun ota o‘zini yolg‘ondan o‘ldiga chiqaradi. Bolalari birin-ketin kirib kelishadi va otasining “ta‘ziyasini” o‘tkazishga harakat qilishadi. Ota o‘lmaganligini bilganlaridan so‘ng bolalari og‘ir gaplar qilib tarqab ketishadi. Bunday mehrsizlikka chiday olmagan Mavlon yurak xurujidan vafot etadi...

Spektakl haqida san‘atshunoslik fanlari doktori, professor Muhabbat To‘laxo‘jayeva quyidagi fikrni bildirgan: “Holiq Xursandovning “O‘lding, aziz bo‘lding” pyesasi qator teatrlar tomonidan muvaffaqiyat bilan sahnalashtirildi. Nazarimda, bular orasida Muqimiy nomli O‘zbek davlat musiqiy teatrlarining postanovkasi alohida ajralib turadi...”²

Rejissor Bahodir Nazarov va kompozitor Farhod Alimovlar Muqimiy nomli teatr sahnasida musiqali tragik komediya yaratishga muvaffaq bo‘lganlar. Spektaklning bosh mavzusi bola-chaqasi tomonidan unutilgan keksa odamning hayoti va taqdiri. Odamlardagi xudbinlik va loqaydlik bosh qahramonning fojiasiga olib keladi. Holdan toygan mo‘ysafidning oyoqlari ostiga yuqoridan beshik tushadi va Mavlon ota uni bag‘riga bosib, nimalardir deydi, shivirlaydi va ko‘z yosh to‘kadi. Zero, uning o‘sha noqobil farzandlari ana shu beshikda katta bo‘lgandilar. Beshik ustiga oq choyshab tashlanadi va u tomoshabin ko‘z oldida tobutga aylanadi. Bosh qahramonni o‘zi o‘ylab topgan, o‘limi haqidagi yolg‘oni faqat jondan aziz farzandlarini bir ko‘rish, ularning ota-onasiga, uyiga, oilasiga qanchalar mehribon ekanliklarini tekshirib ko‘rish uchun “imtihon”, deb hisoblaydi va bunga qattiq ishonadi.

Farzandlarining qiyofalari esa, otaning “dafn” etish oldidan bo‘lgan mash-mas‘halarda yaqqol ko‘zga tashlanadi. “Biznesmen” o‘g‘li tomonidan yollangan yig‘lovchi ayol

faryod cheka turib, raqsga ham tushib ketadi. Bu satirik manzara qahramonlarning asl qiyofasini ko'rsatish uchun xizmat qiladi. Ular qo'llarida hassa ko'targan kuyi marhum otalarini ta'riflab "yig'i-sig'i" qiladilar.

Spektakl finalida Mavlon ota bu "yolg'on o'yin"ga ortiqcha chiday olmaydi va quchog'ini ochib bolalari qarshisiga otilib chiqadi, ammo farzandlar uni sovuq, norozi qiyofada kutib oladilar. Achchiq tana-dashnom qiladilar. Mo'ysafid yana yakkalanib qoladi. U sahna markazida yolg'iz o'zi, boshini ham qilib turar ekan, beixtiyor xayolida farzandlari o'z bag'rida, o'z "oshiyonlari"da tinch va osoyishta o'tirgandek tuyuladi. Ammo bu keksa va yolg'izlikka mahkum qariyaning armon bo'lib qolgan orzusi, shirin xayoli edi xolos.

Har qanday spektaklda syujet, kompozitsiya, janr tizimi hamisha birlamchi bo'lib qolaveradi. Yuqoridagilardan ham ko'rinib turibdiki, o'zbek rejissorlari yaxshi asarni sahnalashtirishda janrlar ta'sirchanligini oshirish uchun izlanishlarni davom ettirmoqdalar"³.

Spektaklda Mavlon rolining ijrochisi Nasriddin Rustamov. Cholning do'sti – Avaz ota rolining ijrochisi Tursunboy Pirjonovlarning talqinlari alohida tahsinga sazovordir. Asar umumbashariy qadriyatlariga asoslangani uchun katta muvaffaqiyat qozongan. Spektaklning tug'ilish jarayoni davrida asar ishtirokchilari quyidagicha hikoya qilishadi. Spektaklni ishlash jarayonida Bahodir Nazarov boshchiligidagi ijodiy guruh o'zaro maslahatlashib Vakil obrazini kuchaytirishni ma'qul topdi. Aslida Vakil bir ko'rinib, yo'q bo'lib ketadigan epizodik personaj edi. Ish jarayonida shu personaj spektaklni boshidan oxirigacha qatnashadigan o'ziga xos obraz sifatida talqin etildi va matnlar, dialoglar repetitsiya jarayonida yaratildi. Vakil obrazini Muqimiy teatrining iqtidorli aktyori Dilmurod Uzoqov yaratdi. U sahnada "chala o'zbek" timsolini yaratishga intildi. To'rt og'iz gapirsa shuning uch og'izi ruschada bo'lar edi. Pyesada Avaz ota va Mavlon otalar birinchi ko'rinishdan so'ng sahnaga boshqa chiqmasdi. Keyin o'g'il-qizlari kelar, asar so'nggida esa chol tirikligini hamma bilib qolar edi. Ammo ijodiy guruh rejissor Bahodir Nazarovning taklifiga binoan Mavlon ota, Avaz ota, Vakil, Ona personajlarini to'liq, spektaklning boshidan oxirigacha qatnashadigan, tugallangan obrazlar shakliga olib kelindi. Asarning musiqiy xatti-harakatini kuchaytirish uchun chol va kampir dueti kiritildi. Bu duet mazmuni ham

bolalarining diydoriga zor bo'lgan ota-onaning dardli orzu-armonlari haqida bo'ldi. Mavlonning katta o'g'li, viloyat hokimiyatida ishlaydigan amaldor. O'zining ishlari bilan band, martabaga mingandan keyin bosar-tusarini bilmay qolganlardan. Ota-onasini esidan chiqarib qo'yish darajasiga borgan. Inson sifatida amalparast va xudbin: qachon qo'lingda martabang (amaling) bo'lsa, odamlarni boshqarish uchun imkoniyating paydo bo'ladi, oshna-og'aynilarning ko'payadi" – deb hisoblaydi. Ikkinchi o'g'li biznes bilan shug'ullanadi. Ota-onani ko'rishga, holidan xabar olishga vaqti yo'q. Pulni-pulga urishtirib, boylik ortidan quvib ketgan noma'qul farzand. Uchinchi o'g'li Bo'ston: o'zini shoir hisoblovchi shaxs, o'ttizdan oshib ketgan bo'lsa-da, na uyi, na oilasi va na kasbining tayini bor – takasaltang kimsa. Qizi esa birovning xasmi, o'z oilasi izmiga tushib ketgan, "bor desa-boradi, borma desa-bormaydi". Pyesada Marsiyachi obrazi ham bor. O'zi kichik rol bo'lishiga qaramay, juda xarakterli. Ayrim zamonaviy mansabdorlar hatto o'z otalari janozasida ham yig'lashdan or qilib, marsiyachi yollab, ularga pul berib o'z o'rnilariga yig'latishni odat qilganlar. Xullas, bu yerda hammasi o'yin, hammasi yolg'on va soxtalikdan iborat sahnalardir. Misol uchun, kommersant o'g'ilning shunday sahnasi bor: "Sen mening yo'qligimni bildirmasdan o'rnimga yig'lab turgin. Men tashqariga chiqib kelay". Bundan ko'rinib turibdiki, farzandda ota-onaga nisbatan oradagi mehr-oqibat allaqachon yo'qolib ketgan.

Bu sahna orqali rejissor noqobil farzandlarning ota-onasi oldidagi vazifalarini anglatmoqchi bo'lgan. Shu spektakl bilan odamlarni ogohlikka, mehr-oqibatli bo'lishga, insonlarni qadr-qiyamatini yerga urmaslikka chaqirgan. "Ota-onang bu ahvolda, sen farzand bo'lib qayoqqa qarayapsan, qanday karomat ko'rsatayapsan", degan fikrni ilgari surgan.

Shu kabi iqtidorli dramaturg, rejissor, kompozitor va aktyorlar bor ekan, o'zbek musiqali dramaturgiyasi bugun qanday qiyinchiliklarga uchrayotgan bo'lmasin, baribir rivojlanib boradi va kelajakda aynan musiqali drama janrida ishlash niyatidagi yosh ijodkorlarga o'ziga xos katta maktab vazifasini o'taydi. Ijodlari to'g'risida biz so'z yuritgan fidoyi san'atkorlarning o'zbek teatriga qo'shgan va qo'shib kelayotgan hissalarini beqiyos. Shu kabi fidoyilar bor ekan o'zbek musiqiy teatri yangi ko'rinish va yangi bosqichda rivojlanaveradi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullayeva M. Dramatik teatr va kinoda aktyorlik mahorati. –Toshkent: Tafakkur qanoti nashriyoti, 2014. -120 b.
2. Sayfiddinov A. Adabiy asar va ijrochilik mahorati. –Toshkent: Fan, 1980. -187 b.
3. Stanislavskiy K. S. Aktyorning o'z ustida ishlashi. –Toshkent: Badiiy adabiyot, 2010. -230 b.
4. Xolmirzayev B. Rejissorning spektakl ustida ishlashi. –Toshkent: Musiqqa, 2009. -117 b.
5. Usmonov R. Rejissura. –Toshkent;1997. -97 b.
6. Jabborov A. Musiqiy drama va komediya janrlari O'zbekiston kompozitorlarining ijodiyotida. –Toshkent: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2000. -130 b.
7. Qobilov H. Musiqali teatr rejissyorligi: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Navro'z, 2020. -138 b.
8. To'laxo'jayeva M.T. Teatr tanqidchiligi // San'at. -2015. -№3. -B.5.
9. Qobilov N. Ustivor ruh. –Toshkent: A.Navoiy nomli milliy kutubxona nashriyoti, 2012. -197 b.

² To'laxo'jayeva M.T. Teatr tanqidchiligi //San'at. -2015. -№3. -B.5.

³ Qobilov H. Musiqali teatr rejissyorligi o'quv qo'llanma. -Toshkent: Navro'z, 2020. -B.98



II BO' LIM

MUSIQA SAN'ATI

Saodat MUZAFAROVA,
O'zDSMI "Vokal" kafedrası dotsenti,
O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi

MUSIQA ILMIGA OID QARASHLARNING YOSHLAR TARBIYASIGA ESTETIK TA'SIRI

Annotatsiya. Mazkur maqolada musiqa san'ati va musiqa ilmiga oid olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari tahlil etilib, ularning yoshlar estetik tarbiyasidagi ahamiyati o'rganilgan. Sharq mutafakkirlari va allomalarining ilmiy qarashlari, zamonaviy ilmiy-tadqiqot jarayonlari ilmiy obyekt sifatida tadqiq etilgan. Yoshlarni estetik tarbiyalashda musiqa ilmiga oid tadqiqot ishlaridan foydalanishning samaradorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: musiqa, musiqa ilmi, Shashmaqom, maqom san'ati, estetik tarbiya, "ommaviy madaniyat", xonanda, sozanda.

Саодат МУЗАФАРОВА,
доцент кафедры "Вокал" ГИИКУз,
Заслуженный работник культуры Узбекистана

ЭСТЕТИЧЕСКОЕ ВЛИЯНИЕ ВЗГЛЯДОВ, СВЯЗАННЫХ С МУЗЫКАЛЬНОЙ НАУКОЙ, НА ВОСПИТАНИЕ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. В статье анализируются исследовательские работы по музыкальному и музыковедческому искусству и исследуется их значение в эстетическом воспитании молодежи. Научные взгляды восточных мыслителей и ученых, современные исследовательские процессы изучаются как научный объект. Даны рекомендации по повышению эффективности использования исследований в области музыки в эстетическом воспитании молодежи.

Ключевые слова: музыка, музыкальная наука, Шашимаком, искусство маком, эстетическое воспитание, "массовая культура", певец, инструменталист.

Saodat MUZAFAROVA,
docent of the Department "Vocal" Uz SIAC,
Honored Worker of Culture of Uzbekistan

AESTHETIC INFLUENCE OF MUSIC RESEARCH ON YOUTH EDUCATION

Abstract. The article analyzes research works on the art of music and musicology and examines their importance in the aesthetic education of young people. The scientific views of oriental thinkers and scientists, modern research processes are studied as a scientific object. Recommendations are given for increasing the efficiency of using research in the field of music in the aesthetic education of youth

Key words: music, musical science, Shashmakom, art of makom, aesthetic education, "mass culture", singer, instrumentalist.

XXI asr – globallashuv, axborot va texnika, xalqaro hamkorlik va milliy taraqqiy etish kabi jarayonlar makoni. Rivojlanish va taraqqiy etishning turli vositalari va omillaridan foydalanib, dunyo hamjamiyatida o'z so'zi va o'rniga ega bo'lish singari vazifalar qamrab olingan davr.

Mazkur asrning eng muhim jabhasi globallashuv jarayoni bo'lib, uning o'ziga xos imkoniyat va talablari jamiyat va shaxs o'rtasida o'zaro hamkorlik va ziddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu holat jamiyat taraqqiyoti uchun moddiy va ma'naviy naf va shuningdek, salbiy ta'sir ham etmoqda.

Globallashuv jarayonining eng muhim masalasi sifatida qaralayotgan "Ommaviy madaniyat" va uning salbiy ta'siriga eng avvalo, shaxs ma'naviy olamini shakllantiruvchi muhim omil musiqa va uning estetik ta'siri dolzarb ahamiyat kasb etib, har bir xalqning o'zligini ifodalaydi, tarbiya jarayonida estetik xarakterga ega hisoblanadi.

Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida

namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Yangi tahdidlar, jumladan, "ommaviy madaniyat" xavfi va boqimandalik kayfiyati paydo bo'layotgan, odob-axloq, qadriyatlarining yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida bu g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu sababli, mening fikrimcha, inson ma'naviy olami, xalqlar madaniyatini belgilaydigan manbalarni asrab-avaylash va boyitish bugungi kunda har qachongidan ham muhimdir [1, 29-30].

O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish, yangi O'zbekistonning yangi tarixini yaratish, moddiy va nomoddiy madaniy meros durdonalarini saqlash va targ'ib etish, xalq og'zaki ijodiyoti va havaskorlik san'atini yanada ommalashtirish, yurtimizning jahon madaniy makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash, madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Mamlakatimizda musiqiy merosga qaratilgan yuksak e'tibor natijasida milliy musiqi merosi va uning yetuk namoyandalari hayoti va ijodiy faoliyatini o'rganish, musiqi ilmini ta'lim tizimiga joriy etishda innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etilishiga katta e'tibor berilmoqda.

Sharq tabobatida tabiblar bemorlarni dorivor giyohlar, hayvon a'zolari, turli minerallar hamda shifobaxsh suvlar, tuzlar bilan davolash usullaridan keng foydalanganlar. Tabiblar davo ashyolarining tabiiyligi, zararsizligi hamda boshqa xastaliklarni qo'zg'amasligi kabi holatlarga katta e'tibor qaratishgan. Lekin insonda jismoniy kasalliklar bilan bir qatorda ruhiy, aqliy xastaliklar ham kuzatiladiki, bunday kasalliklarni davolashda sharq tabobati vakillari musiqadan keng foydalanganlar.

Qadim zamonlardan buyon tabiblar bemorlarni musiqi, ashula, raqs vositalarida davolab kelganlar. Bunday usul nafaqat bizda, balki barcha xalqlar tabobatida mavjud. Masalan, qadimgi Misr tabiblari bemorlarni ohang ko'magida davolash bo'yicha yaxshigina natijalarga erishishgan. Xitoylik tabiblar esa bemorning kasalligiga qarab, ularga musiqiy terapiyaning yagona dorisi – kuy-qo'shiqlarning foydalisini tavsiya qilishgan [10, 42].

“Qobusnoma”ning “Shoirlik rasmi zikrida”, “Hofiz va sozandalik zikrida” singari boblarida Kaykovusning axloqiy va estetik qarashlari to'la aks etgan. Uning ushbu yo'nalishlarga oid fikrlarida she'r, qo'shiq, musiqaning san'at vositasi sifatida inson ruhiga ta'siri, go'zallikni his etishdagi o'rni va ahamiyati haqidagina bo'lib qolmay, X–XI asrlardagi san'at darajasi, uning ijtimoiy-ma'naviy hayotdagi o'rni, she'r, qo'shiq, musiqi nazariyasi masalalari ham qamrab olingan. Jumladan, she'rda shakl va mazmun birligi masalasi shunday ifodalanadi: “Ey farzand, agar shoirlik qilmoqchi bo'lsang, harakat qil, toki so'zing oson va foydali bo'lsun, g'amiz (noaniq) va mushkul so'zdin parhez qilg'il va o'zing bilib, o'zgalar uning sharhiga muhtoj bo'lgudek so'zni aytmagil, nedinkim, she'r aytg'on kishi xalq uchun aytur va o'zi uchun aytmas. Bir xil vazn va bir xil qofiyaga qanoat qilmag'il, san'atsiz va tartibsiz she'r aytmagil. She'rda zarb, ya'ni ohang, yaxshi sado, mung bo'lsa va shaklda al'al bo'lsa, ya'ni vaznni to'la, yaxshi bo'lur” [4, 144-145].

Mazkur asarning “Hofiz va sozandalik zikrida” bobida musiqi va qo'shiq san'atining nazariy va amaliy jihatlari mukammal bayon qilinganki, bu fikrlar bugungi kunda ham alohida ahamiyatga egadir: “Ey farzand agar hofiz bo'lsang, xushfe'l, quvnoq bo'l, hamisha pok, mutayyab (xushro'y) va xush zamon bo'lg'il, yaramas xulq, qo'pol bashara bo'lmag'il. Hamma vaqt og'ir yo'llarni (ohanglarni) chertmagil, chunki barcha mashq va ohangni bir xilda chertish shart emasdur, nedinkim, odamlarning barchasi bir xilda bo'lgan emaslar, ta'blari ham bir-biriga muvofiq emas, ya'ni xalq muxtalib (har xil)durlar” [4, 148].

Hofizlar va sozandalar she'r va g'azallarni ko'proq yoddan bilishlari, iloji bo'lsa, o'zlari ham doimiy ijod bilan shug'ullanishlari, har vaqtning va faslning o'ziga munosib g'azallar o'qish, bahorda xazonga munosib, xazonda bahorga munosib, qishda yozga munosib va yozda qishga munosib g'azallarni o'qimasliklari uqtiriladi. San'at ahli majlis (yig'in)larda mavjud holatlarga, muhitga

moslashishlari, o'zlarini tuta bilishlari, aloqasi bo'lmagan voqealarga aralashmaslik, tanqid va maqtovg'a munosabat, mast kishilar bilan munosabat, yig'in ahli bergan tanga (pulga) qanoat qilishgacha maslahat beriladi.

Hofiz ichkilikdan saqlanishi, janjal-to'polondan o'zini olib qochishi, bir yig'inda ko'rgan, eshitgan narsasini boshqa joyda aytmasligi, go'yo kar, soqov, ko'r bo'lish va undan faqat manfaat ko'rishi muallif tomonidan alohida ta'kidlanadi.

Musiqi san'ati va musiqi ilmining ahamiyati soha olimlari tomonidan ta'limning turli tizimlari va turli ilmiy obyektlarda tadqiq etilgan bo'lib, bu borada tadqiqotchilarning metodologik yondashuvi Sharq allomalari va mutaffakkirlarining musiqi ilmiga oid qarashlariga tayanilgan.

O'zbek mumtoz musiqiy merosining eng salobatli qismini maqomlar tashkil etadi. Mutaxassis olimlar Markaziy Osiyo mintaqasida VII – IX asrlardan boshlab “Yetti maqom”, XIII – XVII asrlarda “O'n ikki maqom” tizimi va XVIII asrning o'rtalariga kelib esa Buxoro saroy kasbiy musiqachilari va musiqashunos olimlari tomonidan mahobatli turkum – Shashmaqom tasnif etilganligini e'tirof qiladilar [3, 13].

XX asr davomida Shashmaqomning an'anaviy shakli tubdan o'zgardi, bu salobatli musiqi san'ati murakka, ziddiyatli va o'ta sinovli jarayonlarni boshdan kechirdi. Bir qator ustoz-hofiz va sozandalar maqomlarni saqlab qolish va uni yosh avlodga yetkazish yo'lida o'z xizmatlarini ayamadilar. Bular qatorida Ota Jalol Nosir, Ota G'iyos Abdug'ani, Hoji Abdulaziz Rasulov, Domla Halim Ibodov, Levi Boboxonov, Yunus Rajabiyning xizmatlarini alohida ko'rsatish kerak. Shuningdek, Buxoro Xalq Respublikasining maorif noziri Abdurauf Fitrat tashabbusi bilan etnograf olim va kompozitor V.A.Uspenskiy hofiz Ota Jalol Nosir va tanburchi Ota G'iyos Abdug'anilar ijrosidagi Shashmaqomni ilk bor besh chiziqli nota yozuviga oldi. Bu to'plam 1924 yilda nashr etilgan [3, 15].

Shashmaqomni ilmiy o'rganishda dunyo san'atshunoslaridan Yuzef Elsner, Artur Yung va Toni Levinlarning tadqiqotlarida “Shashmaqom”ning lad va boshqa nazariy masalalari tavsif etilgan. O'zbek musiqashunos olimlari Ishoq Rajabiy, Otanazar Matyoqubov, Oqilxon Ibrohimov, Ravshan Yunusov va boshqalarning ishlarida “Shashmaqom”ning yaratilish tarixi, uning tuzilishi, ijrochilik uslublari haqida asosli fikrlar bildirilgan.

F.To'rayevning buxorolik xonanda, sozanda, bastakor va musiqashunoslar hayoti hamda ijodiga bag'ishlangan kitobida milliy madaniyatimiz tarixida musiqi san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan san'at namoyandalari bilan bir qatorda hozirgi davrda ham elga manzur bo'lgan san'at asarlari yaratgan va yaratayotgan musiqashunos olimlar, xonanda hamda sozandalar haqida ham qimmatli ma'lumot va kuzatishlar mavjud. Shuningdek, O.Safarov, O.Atoyev, F.To'rayevlarning “Buxorcha” va “Mavrigi taronalari” kitobida Buxoro ashula va raqs turkumlarining paydo bo'lishi tarixi, ularning o'ziga xos poetik xususiyatlari tadqiq etilgan [11, 6].

“Buxorcha” xalq qo'shiq va raqs turkumi “Buxorcha zang” nomi bilan ham yuritilib, bu qo'shiqlar sarahbor va naqoratdan iborat bo'lib, sarahbor yakkaxon tomonidan

ijro etilsa (ayni jarayonda uning o'zi raqqoslik ham qilgan), naqoratni esa, ansambl (jo'rnovozlikda) doira jo'rligida ijro etganligini O. Atoyev tadqiq etadi. Shuningdek, tadqiqotda "Buxorcha" xalq qo'shiqlari va raqslarining ijro uslublari, qismlari, raqs liboslari va taqinchoqlari, harakatlar jozibasini, xususan, "Buxorcha" shashmaqom sho'balarning "ufor" qismlari ohanglariga asoslangan serjoziba raqslarga behad boyligini, undagi raqslarning "Qayraqi ufori", "Ravona", "Ufor", "Larzon", "Zangi raqsi" kabi ko'rinishlari haqida ma'lumot berilgan [2, 20-22].

Musiqa vositasida estetik tarbiya borasida maqom asarlari kabi xalq qo'shiqlari, o'lanlar, laparlar, yor-yor va aytimlar ham spetsifik ahamiyat kasb etadi. Bu borada olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga qisqacha izoh beriladi.

O'zbek xalq laparlari: janr spetsifikatsiyasi va badiiyati yuzasidan tadqiqotchi N.K. Kasimov laparlarga xos janrlilik alomatlarini, xalq laparlarning mavzu qamrovini, laparlarda variantlashuv hodisasi, xalq laparlarning ijtimoiy hayot talabi bilan ommaviy ijrodagi va professional san'atkorlar repertuaridagi shakllarini, xalq laparlarning obrazlar tizimini, obrazlilikini, obrazlilikni vujudga keltiruvchi vosita hamda usullarini, laparlarning tarkibini, kompozitsiyasini, vazn tuzilishini, qofiya tarkibi va qofiyalanish tartibini tahlil qilgan [5, 6].

Tadqiqotchi R.H. Nosirov tomonidan o'zbek xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi o'rganilgan bo'lib, ilmiy ishda xalq qo'shiqlariga xos kompozitsion sathlar, har bir sathga xos kompozitsion tiplar, har bir kompozitsion tipning xalq qo'shiqlarida tutgan o'rni, ularning yaratilishi hamda jonli ijro etilishidagi ahamiyati yoritilgan [7, 7].

Ijtimoiy-estetik ong takomili va davrlar xarakteriga ko'ra xalfachilik turlarining vujudga kelishi va yangi asarlar bilan boyib borishi jarayonini, Xorazm vohasi hududida to'rtta xalfa ijro markazi mavjudligini, ijro va ijodda umumiy qonuniyatlardan tashqari, ularning har biriga xos lokal belgilarni, xalfalar repertuaridagi an'anaviy hamda yangi qo'shiqlarning kompozitsion qurilishi va

badiiyati batafsil tahlilini, shoira xalfalarning individual ijodiyoti namunalari folklor an'analari bilan birga yozma adabiyotning ta'sirini tadqiqotchi S.H. Ollaberganova tadqiq etgan [8, 10].

Tadqiqotchi Q.B. Panjiyev Surxondaryo viloyati o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyotini tadqiq etar ekan Surxondaryo viloyati mahalliy qo'shiqchilik ijodiyoti o'zbek etnomusiqashunosligida o'rganilishini, viloyat tumanlarining mufassal musiqiy xaritasi tuzilganligini, Surxondaryo xalq qo'shiqlarining o'ziga xos jihatlari va xususiyatlarini ilmiy asoslagan [9, 7].

Xorazm musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashning pedagogik muammolarini, "Musiqa madaniyati" fanini o'qitish jarayonida Xorazm folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashga qaratilgan mashg'ulotlarning mazmunini, metodikasini, Xorazm musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash mazmuni, shakl va metodlarini, Xorazm musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalash jarayonining mezonlarini, Xorazm musiqa folklori vositasida 5-7-sinf o'quvchilarini estetik tarbiyalashga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni B.X. Madraimov ishlab chiqqan [6, 12].

Musiqa ilmiga oid qarashlarning yoshlar tarbiyasiga estetik ta'sirini o'rganish va tahlil qilish bir maqola doirasida mujassam etish murakkab vazifaligi sabab yuqorida musiqa borasida turli davr va sohalarida tadqiq etilgan ilmiy ishlar tahlil qilindi.

Tahlil natijasida quyidagi xulosani qayd etish lozim: musiqa san'ati ta'lim tizimida yoki musiqashunoslik sohasida yohud san'atshunoslikning umumiy talablari doirasida o'rganilishidan qat'iy nazar avvalo musiqa bu – ilm, u ilmni egallash uchun esa kuchli iqtidor kerakdir. Musiqa san'atining bosh vazifasi esa davr va ijtimoiylikdan qat'iy nazar tinglovchiga estetik zavq berish orqali, uning qalbida vatan, oila, jamiyat va yorga muhabbat hislarini tarbiyalashdan iboratdir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni kat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Asarlar. J.1. – Toshkent: O'zbekiston, 2017. – 592 b.
2. Atoyev O. "Buxorcha" xalq qo'shiq va raqslari. // Moziydan sado. -2015, -№ 1. – B. 20-22.
3. Ibrohimov O. Shashmaqom. // Moziydan sado. -2015, -№ 1. – B. 13; 15.
4. Kaykovus. "Qobusnoma". Nashrga tayyorlovchilar: S.Dolimov, U.Dolimov. – Toshkent: O'qituvchi, 2006. – 208 b.
5. Kasimov N.K. O'zbek xalq laparlari (janr spetsifikatsiyasi va badiiyati): Dissertatsiya. fil.fan.nom. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Adabiyot instituti, 1998. – 125 b.
6. Madraimov B.X. Xorazm musiqa folklori vositasida o'quvchilarni estetik tarbiyalashning pedagogik asoslari (5-7-sinflar misolida): Dissertatsiya. ped.fan.nom. – Toshkent: T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti, 2008. – 149 b.
7. Nosirov R.H. O'zbek xalq qo'shiqlari kompozitsiyasi: Dissertatsiya. fil.fan.nom. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2004. – 160 b.
8. Ollaberganova S.H. Xalfalar ijodining o'zbek folkloridagi o'rni: Dissertatsiya. fil.fan.nom. – Toshkent: A.Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti, 2007. – 135 b.
9. Panjiyev Q.B. Surxondaryo viloyati o'zbek xalq qo'shiqchilik ijodiyoti: Dissertatsiya. san.fan.nom. – Toshkent: San'atshunoslik instituti, 2010. – 149 b.
10. Hamdamov O'F. Musiqa va davr. – Toshkent: Musiqa, 2014. – 184 b.
11. Yarashev J.T. Musiqa ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar tayyorlash samaradorligini oshirishda aksiologik yondoshuv (Buxoro musiqa merosi misolida): Avtoreferat, Dissertatsiya ped.fan.bo'yicha falsafa fan.dokt. – Samarqand: BuxDU, 2020. – 53 b.

ZAMONAVIY ESTRADA SAN‘ATINING MA‘NAVIY OMILLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy estrada san‘atining o‘ziga xosligi, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhalarda estrada san‘atining ahamiyati, estrada san‘atidan tarbiyaviy omil sifatida foydalanish imkoniyatlari yoritilgan. Estrada san‘atining ma‘naviy ta‘sirini oshirish yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: estrada, ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar, ma‘naviyat, madaniyat, san‘at, estrada xonandasi, musiqa, so‘z.

Феруза МАНСУРБЕКОВА,
доцент кафедры “Вокал” ГИИКУз

ДУХОВНЫЕ ФАКТОРЫ СОВРЕМЕННОГО ЭСТРАДНОГО ИСКУССТВА

Аннотация. В данной статье рассматривается специфика современного эстрадного искусства, значение эстрадного искусства в духовной и образовательной сферах, возможности использования эстрадного искусства в виде воспитательного фактора. Даны рекомендации по повышению духовного воздействия эстрадного искусства.

Ключевые слова: эстрада, духовно-просветительская работа, духовность, культура, искусство, эстрадный певец, музыка, слово.

Feruza MANSURBEKOVA,
docent of the Department “Vocal”, UzSIAC

SPIRITUAL FACTORS OF MODERN POP ARTS

Abstract. The article examines the specifics of modern pop art, the importance of pop art in the spiritual and educational spheres, the possibility of using pop art as an educational factor. Recommendations for spiritual influence in pop art are given.

Key words: stage, spiritual and educational work, spirituality, culture, art, pop singer, music, word.

Rivojlanayotgan O‘zbekistonda olib borilayotgan tub islohotlar “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” taraqqiy etishga, unda inson omili birlamchi bo‘lib, iqtisodiy-siyosiy va moliyaviy masalalar bilan birgalikda madaniy jabhalar taraqqiyotiga ham katta e‘tibor berilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishda beshta muhim tashabbusning joriy etilishi ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar samaradorligini ta‘minlashdagi yangicha tizim bo‘lib, bevosita yoshlarning madaniyat va san‘atga bo‘lgan qiziqishini va biror bir san‘at turi yoki kitobxonlik, kompyuter savodxonligi, sport bilan shug‘ullanishiga ma‘naviy mezon yaratadi.

Mazkur beshta muhim tashabbus joylarda mavjud to‘garaklar faoliyatini qaytadan jonlantirdi, yangi sport inshootlari, madaniyat maskanlari, kutubxonalar faoliyati uchun asos bo‘ldi.

Yoshlar tarbiyasi, ular ma‘naviyati har bir davr uchun dolzarb muammo sifatida qaralgan. Lekin globallashuv davrida yoshlar ma‘naviyatiga e‘tibor qaratish yanada dolzarb ahamiyat kasb etib, har bir rahbarning asosiy vazifasiga aylanmog‘i lozim.

Yoshlar ma‘naviyati va ular tarbiyasida san‘at turlaridan eng ommaviy hisoblanmish estrada san‘atining o‘rni kattadir. Mazkur san‘at turi boshqa san‘at turlariga qaraganda, yosh sanalsada, lekin juda tez ommalashgan va globallashuv davrining ma‘naviy vositasiga aylangandir.

Biz estrada san‘atining bugungi va ertangi rivoji haqida so‘z yuritir ekanmiz, avvalambor “milliy estrada” degan iboraning ma‘no-mazmuniga alohida e‘tibor berishimiz, uni har qanday begona ta‘siridan, ayniqsa, “ommaviy madaniyat” ruhidagi oqimlar ta‘siridan himoya qilishimiz

tabiiy, albatta. Bu haqda gapirganda, bir holatni afsus bilan aytishga to‘g‘ri keladi. Ayrim yosh ijrochi va ijodiy guruhlarining jamoatchilik e‘tiboriga taqdim etayotgan “asar”lari san‘atning hech qanday talab va mezonlariga javob bermaydi. Nafaqat mavzu va musiqa, ijro usullari, balki sahna harakatlarida ham ochiqdan-ochiq ajnabiy “ommaviy madaniyat” ko‘rinishlariga taqlid qilish, “yulduzlik” kasaliga chalinish holatlari tez-tez uchrab turayotgani chinakam san‘at muxlislarini ranjitmasdan qolmaydi, albatta [2, 141-142].

Respublikamizda estrada san‘atini rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yuzaga kelmoqda. Bu sohaning millionlab tinglovchilariga yo‘llanganligi va ayniqsa, yosh avlodning ma‘naviy tarbiyasiga katta ta‘siri e‘tiborga olinib, uni yangi davr talablari asosida rivojlantirishga qaratilgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining Qarorlari qabul qilindi. Farmon va Qarorlarda O‘zbekistonda asrlar osha yashab kelayotgan tomosha san‘ati an‘analarini o‘rganish, boyitish va targ‘ib qilish, estrada san‘atini har tomonlama rivojlantirish, mustahkamlash, mamlakatda amalga oshirilayotgan ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlarda estrada san‘ati ijodkorlarining faol ishtirokini ta‘minlash, milliy va umumbashariy qadriyatlarini tarannum etuvchi badiiy barkamol asarlarni yaratish kabi bir qator vazifalarni amalga oshirish ko‘zda tutildi.

Milliy istiqloq g‘oyalarini tarannum qilishda, vatandoshlarimiz ongida va qalbida mustaqillik sha‘ni va g‘ururini mustahkamlashda, yoshlarni mustaqil yurtning barkamol farzandi bo‘lib ulg‘ayishida o‘zbek milliy estrada san‘atining ham o‘ziga xos muhim o‘rni bor.

Ijodkorlarni murakkab va shonli tariximizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, olijanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa

va tasviriy san'at asarlarini yaratishga har tomonlama rag'batlantirish lozimligi qayd etiladi. Haqiqatdan ham madaniyat va san'at, ayniqsa, madaniy-ma'rifiy muassasalarning mafkurani shakllantirish va xalqimiz ongiga singdirishda katta imkoniyatlarga egaligi aniq [3, 64].

O'rta Osiyo xalqlarida qadim zamonlardan musiqa san'ati mavjud bo'lib, har bir xalqning o'ziga xos musiqiy an'analari asosida vujud kelgan. Uzoq tarixiy-madaniy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqiy ijod sifatida shakllangan.

O'zbek musiqa san'atida ham adabiyot va tasviriy san'at sohalarida bo'lgani kabi "musiqali drama", "musiqali komediya", "operetta", "opera", "balet", "simfoniya", "konsert", "romans" kabi yirik shakldagi musiqiy tomoshalar turlari ijobiy o'zlashtirilib olingan [4, 81].

Mazkur sohalarning deyarli har birida milliy ruh bilan sug'orilgan va ayni chog'da umuminsoniy qadriyatlar qatoridan o'rin olishga qodir bo'lgan asarlar yaratilgan va ular ota-bobolarimizdan meros bo'lib asrlar osha yashab kelayotgan kichik shakldagi an'anaviy musiqa boyligimiz bilan bir qatorda mushtarak o'zbek musiqa madaniyatini tashkil qiladi. Ana shu sertarmoq musiqa madaniyatimiz majmuyida estrada san'atining o'ziga yarasha o'rni va salohiyati mavjud.

Estrada san'ati dastlabki paytlarda uning qo'llanish doirasi nihoyatda keng bo'lganligini tadqiqotchilar isbotlashgan. Musiqashunos olim O.Bekov ushbu san'at turi haqida o'z tadqiqotlarida shunday yozadi: "Yorqin, rang – barang keskin o'zgarishlar asosida tuzilgan, ammo o'zaro bog'lanmagan estrada konserti amalda barcha badiiy ijodiyotning nazm va musiqadan to'ringacha qariyb barcha turlari namunalari o'z komiga torta olishga "qodir" ekanligini namoyon etadi. Va nihoyat, filarmonik konsert va teatr spektakllaridan farqli o'laroq, tomoshabin artistlar orasida estrada san'ati ijrochilik tabiatining asosiga aylandi. Shu jumladan, tomosha jarayonida tinglovchi bilan doimiy bevosita bog'liq bo'lish holati o'ziga xos konferans kabi estrada janrining yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ldi" [6, 88].

XX asr boshlarida siyosiy-ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar bois an'anaviy musiqa namunalari keng tinglovchilarga yetkazishda yangi konsert faoliyatlari shakllandi. Bu kabi musiqiy chiqishlarni estrada san'ati talablariga to'liq javob beradigan jarayon deb hisoblash mumkin edi.

Darhaqiqat, mazkur konsertlarda estradaga xos jihatlari (sahna va omma, rang-barang musiqiy nomerlardan iborat bo'lgan konsert dasturi, ko'ngilxushlik va b.), davr ohangi bilan sug'orilgan ijro va cholg'u kuylar, yangi tarkibdagi ansambllar namoyon bo'lsa-da, biroq ijro etilgan asarlar qatorida xalq va mumtoz musiqa namunalari ham bo'lganligi ma'lum. Demak, bunday yondashuvlar natijasida an'anaviy musiqa namunalari ham estrada san'ati doirasiga kiritib yuborilmoqda. Bu hol musiqa san'atimizda qadimdan mavjud turli qatlam namunalari alohida idrok etish borasida chalkashliklarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ma'lumki, jahon musiqa olamida estrada "yengil" "pop - myuzik", "ommaviy", "bit", "rok", "maishiy musiqa" kabi nomlar bilan yuritiladi. Bu atamalar ma'lum hudud, muayyan makonda mavjud shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda juda o'rinli qo'llanilgan ko'rinsa-da, aslida ularning har biri biz nazarda tutayotgan musiqaning ayrim

jihatlarinigina in'ikos etadi, xolos [4, 93].

E'tiborlisi, hozirgi o'zbek musiqa madaniyatida "estrada" atamasi nafaqat sahna bilan bog'liq san'at turlarini, balki musiqada o'ziga xos yo'nalishni tavsif etishda ham qo'llaniladi. Demak, "estrada" atamasi "tor" ma'noda ma'lum ijro va badiiy unsurlar birligiga asoslangan musiqa namunalari anglatadi. Bu o'rinda "estrada" maxsus tushuncha sifatida namoyon bo'lib, musiqada o'ziga xos (musiqiy folklor va kasbiy musiqadan farqli) alohida mustaqil yo'nalish sifatida ifodalanadi.

Asosiysi, "estrada" so'zini keng ma'noda, uning lug'aviy ma'nosidan kelib chiqqan holda, umuman "san'at" tushunchasi sifatida, "tor" ma'noda esa "musiqiy estrada", ya'ni maxsus tayyorgarligi bo'lmagan tinglovchi osongina tinglay oladigan, asosan xordiq chiqarish maqsadlariga xizmat qiluvchi, shakl – mazmuni oddiy, tez esda qolarli ohang va alohida urg'ulangan ritm usullar mushtarakligiga tayangan musiqiy namunalarga tayangan musiqiy namunalardir [7, 32].

Musiqiy ijod va ijro etishning asosan havaskorlik sohasi bo'lgan musiqiy estrada O'zbekistonda o'ziga xos tarzda shakllandi. Xususan, uning tamal toshi o'tgan asrning ikkinchi yarmida ijodiy mehnat qilgan kasbiy musiqachilar – kompozitorlar, xonanda va sozandalar faoliyati tufayli qo'yilib, o'zining ilk yuksalish davriga erishdi.

O'zbek musiqiy estradasi shakllanishi jarayonida folklor namunalari muhim zamin bo'lganligini alohida ta'kidlash zarur. Bunda qo'shiq, lapar va ayniqsa, sho'x yallalarning raqsboqli, yengil ohang – usullari keng qo'l kelganligi e'tiborli. Ayni paytda bu holat "o'zbek musiqiy estradasi"ning milliylik asosini ham ta'minlovchi vosita hisoblanadi [5, 9].

Haqiqiy qo'shiqning sehri, chinakam san'atkorning mahorati shundaki, u inson qalbini zabt etishga musharraf bo'ladi. Shu boisdan, asl san'at namunasi bo'lgan ashula shaydolariga akademik ham, bog'bon ham, yoshu-qari barobar bo'lishi mumkin. Hatto o'simliklari hayvonlarga ham kuy-qo'shiqning o'zgacha bir ta'siri bo'lishi isbotlangan. Demak, kuy va qo'shiq faqat insonlar jamoasiga emas, balki tabiatning boshqa jonzoqlariga ham eng tez ta'sir qiladigan san'at turidir.

Qo'shiq kuylash, soz ko'tarib el oldiga chiqishning o'ziga yarasha mas'uliyati bor. Qolaversa, qo'shiq ko'ngil mulki, ilohiy ne'mat. Ushbu jihatlari ham san'atkorning zimmasiga zalvorli mas'uliyat yuklaydi.

Ayni jarayonda o'zbek estrada qo'shiqchiligini so'z, musiqa, ijro uyg'unligidagi badiiy yaxlit asarlar bilan boyitish hamda an'anaviy ohang andozalarini zamon ruhiga mos qayta ifoda etish jarayonlarini kompozitorlik va ijrochilik yo'nalishida kuchaytirishga ehtiyoj sezilmoqda.

Binobarin, millionlab tinglovchilarga yo'llangan estrada qo'shiqlarini ijod etish vazifasi har bir san'atkor zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi. Bugungi estrada qo'shiqchiligi sohasida ruhan milliy ohang va so'zlarga asoslangan qo'shiqlarni yaratish muhim muammolardan sanaladi. Bu kabi vazifalar ijodkorlardan savodxon bo'lish bilan birga ko'p asrlik san'at namunalari mukammal bilishni taqozo etadi. Bu jarayonda mustahkam ijodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish juda ham muhimdir.

Hozirgi qo'shiqchilik san'atimizni yanada rivojlantirishda, uning jamiyat hayotidagi barkamol avlod tarbiyasidagi, kishilar ma'naviy boyligini oshirishdagi o'rni va ahamiyatini oshirish uchun mutasaddi mutaxassislar

yanada faollashishlari zarur. Zero, qo'shiq ko'ngil mulki. Shunday ekan, u jamiyat e'tiboridan, mutasaddilar nazoratidan xoli tarzda ko'pchilikka eshitalaversa, xom-xatala, saviyasiz qo'shiqlarning soni yanada ortib ketadi.

Bugungi kunda ustoz-shogird an'anasini davom ettirish, yoshlarga e'tiborni kuchaytirish yaxshi natijalarni beradi, nazarimizda. Ayniqsa yosh san'atkorlar ilk bor tomoshabinlar huzuriga ustoz hamrohligida chiqsa, muqaddas sahnaning sir-asrorlarini tezroq anglashda zamin hozirlanadi.

Darhaqiqat, haqiqiy san'at har qanday jamiyatda tarbiyaviy ahamiyatga ega hisoblanadi. Lekin hamma san'atkor ham bu ma'suliyatni angalayvermaydi. Eng asosiy muammo ham shunda. Biz yuqorida ma'naviy-ma'rifiy javhalarni rivojlantirishda estrada san'atining o'rni va roli katta bo'layotganligini qayd etgan edik. Vatan, millat manfaatlarini tarannum etuvchi, milliy urf-odatlar, an'analar, rasm-rusumlarini ifoda qiluvchi asarlar ko'payib bormoqda. Bularning barchasi, albatta, ijobiy jarayonlardir.

Men o'z tajribamdan yaxshi bilaman, katta bayramlarimizni – bu Mustaqillik, Navro'z yoki Konstitutsiya bayrami bo'ladimi – ularni o'tkazishda bizni eng qiynaydigan, xunobimizni chiqaradigan narsa – bu estrada dasturi ekanini hammangiz yaxshi bilasiz. Ming afsuski, mana shu holat hali ham barham topgani yo'q. Estrada san'atidagi kamchiliklarning asosiy sabablari hech kimga sir emas. Ko'pchilik qo'shiqchilar mas'uliyatni unutib, o'z ustida ishlamay qo'ygan, izlanish, mahoratini oshirish, yangi ijodiy g'oyalar bilan yashash, san'at dunyosiga, muxlislarga hurmat kabi tushunchalar ularga begona bo'lib qolgan, desak, qanchalik achchiq bo'lmasin, bu ham haqiqat [1, 202].

Erkinlik shiori ostida maza-matrasiz, g'oyaviy-axloqiy jihatdan talablarga javob bermaydigan mavsumiy qo'shiqlar ko'payib bormoqda. Na musiqada, na she'rda, na ijroda shiraning yo'qligi esa kishilarda ochiq e'tirozlarni ko'paytirmoqda.

Shu ma'noda, quyidagilarni taklif qilamiz:

– *estrada san'atini rivojlantirish ko'proq repertuar muammosini hal etilishiga bog'liq. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar Madaniyat boshqarmalarining repertuarlar bilan ishlashdagi mas'ulligini oshirish;*

– *O'zbekistonda milliy estrada san'atini rivojlantirish uchun iqtidorlarni, havaskor-san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash, ular ustidan moddiy, ma'naviy va ijodiy g'amxo'rlikni ta'minlash, ularni ijtimoiy muhofaza qilish tizimini ishlab chiqish, hamda ularning mehnatini munosib rag'batlantirib ishlarini takomillashtirish;*

– *estrada san'atini rivojlantirishning muhim omili bo'lgan yuqori malakali kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirish ishlarini sifat bosqichiga ko'tarish;*

– *O'zbekistonda milliy estrada xonandaligi san'ati rivojlanishining ushbu soha tarixi va nazariyasini o'rganish ishlarini takomillashtirish.*

Haqiqiy ashulaning sehri, chinakam san'atkorning mahorati shundaki, u inson qalbini zabt etishga musharraf bo'ladi. Shu boisdan, asl san'at namunasi bo'lgan qo'shiqning shaydolari akademik ham, bog'bon ham, yoshu-qari barobar bo'lishi mumkin. Kuy va qo'shiq faqat inson tafakkurini oshirishning badiiy vositasi bo'lib qolmay balki ma'naviy taraqqiyotning asosiy mezonini sanaladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. J.2. –Toshkent:O'zbekiston, 2018. -508 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch. –Toshkent: Ma'naviyat, 2008. -176 b.
3. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. –Toshkent: O'zbekiston, 2000. -342 b.
4. Muxamedov F.G'. Estrada musiqa ijrochiligi masalalari. –Toshkent: Yangi asar avlodi, 2000. -176 b.
5. Nazarov Q. Qadriyatlar tizimining barqarorligi va o'zgarishlari: Filos. fanlari d-ri. dis. avtoref. –Toshkent; 1997. -54 b.
6. Векон О. Современная узбекская эстрадная песня в контексте музыкальной культуры Узбекистана. –Tashkent: УзРА.СИТИ, 1994. -287 с.
7. Hamidova Sh. Estrada janrlari. –Toshkent: O'zDSI, 2009. -87 b.

TOSHKENT DUTOR IJROCHILIGI

Annotatsiya. Bugungi kunda xalqimizning ma'naviy dunyosiga va uning ruhiy kamolotiga ta'sir etuvchi musiqa san'atini targ'ib qilishda samarali mehnat qilayotgan fidoyi ustozlarning o'rni beqiyosdir. Jumladan, dutor ijrochilik san'ati rivojlanib, davr talablariga mos ravishda shakllanib bormoqda. Maqolada o'zbek xalqining milliy cholg'ularidan biri dutor sozining Toshkent ijrochilik maktabi hamda sozandalar tomonidan yaratilgan o'ziga xos uslublari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: dutor, ijro, uslub, ijod, sozanda, maktab, an'ana, kuy, ohang, jamoa.

Зульфия МУМИНОВА,
Соискатель Института искусствознания АН РУз

ТАШКЕНТСКОЕ ИСПОЛНИТЕЛЬСТВО ДУТАРА

Аннотация. На сегодняшний день обучение музыкальному искусству самоотверженных мастеров, которые оказывают влияние на духовный мир и духовное развитие нашего народа, неоценима. В том числе, исполнительское искусство игры на дутаре развивается, формируясь в соответствии с современными требованиями. В статье описаны Ташкентская школа исполнения дутара - одного из национальных инструментов узбекского народа, а также уникальные стили, созданные музыкантами.

Ключевые слова: дутар, исполнение, стиль, творчество, музыкант, школа, традиция, мелодия, гармония, коллектив.

Zulfiyaxon MUMINOVA,
Applicant of the Fine Arts Institute
of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

PERFORMANCE OF THE TASHKENT DUTAR

Abstract. Today, the role of self-sacrificing masters in teaching the art of music that has an impact on the spiritual world and spiritual development of our people is invaluable. Currently, the performing arts of the game on the dutar is developing, forming in accordance with modern requirements. The article describes the schools of performance of dutar - one of the national instruments of the Uzbek people, as well as unique styles created by musicians.

Key words: dutor, performance, style, creativ, musician, school, tradition, melody, tune, community.

O'zbek xalqining musiqiy cholg'ulari orasida ovoz tarovatining mayinligi va ijro imkoniyatlarining o'ziga xosligi bilan ajralib turuvchi qadimiy sozlardan biri budutordir. Dutor ijrochilik san'ati yillar davomida rivojlanib kelayotgan jarayon bo'lib, cholg'u bilan bog'liq bo'lgan mezonlarning barcha bosqichlarini o'z ichiga oladi.

Ijro dasturidagi asarga texnik va badiiy sayqal berish, o'z uslubiga ega bo'lish, maktab yaratish uzoq muddat davom etadigan izlanishlar mahsulidir. Ayniqsa, bugungi kunda kasbiy soha vakillari orasida o'ziga xos ijro uslubi va maktab yaratgan yetuk mutaxassis – sozandalarimiz talaygina.

Har bir ijodkor ahli o'z talqinidagi sir-sinoatlarni avloddan-avlodga ustoz-shogird an'analari asosida targ'ib etadi. Aynan, ushbu faoliyat turi orqali har bir xalq o'z farzandiga o'zligini, qadriyatlarini, urf-odatlarini, tarixiy an'alarini singdirib boradi.

Azaldan ma'lumki, o'zbek musiqa merosi 4ta mahalliy uslubga ajratilgan [1.–B.5]. Xususan, Toshkent-Farg'ona, Samarqand-Buxoro, Xorazm, Qashqadaryo-Surxondaryo hududiy uslublari. Lekin dutor ijrochilik maktablari uslublari negizida emas, balki tahlillar, an'analari, o'ziga xos xarakterdagi xususiyatlariga tayangan holda J.Rasultoyev va A.Hamidovlar tomonidan Andijon, Toshkent, Samarqand, Xorazm maktablariga ajratilgan edi [2. B.420].

Shuningdek, ustoz sozanda F.Sodiqovning dutor ijrochilik maktabini davom ettirib kelayotgan shogirdlaridan biri M.Ziyayeva o'zining "Dutor" deb nomlangan qo'llanmasida Qo'qon maktabi an'alarining yuzaga

kelishini quyidagicha ta'riflaydi: "Dutor ijrochiligining keng ommalashuvi ijrochining samarali mehnati natijasidir. Shinavanda-tinglovchilar bir-biridan serjilo, rang-barang asarlar va sirli ijro uslublarga oshno bo'lib bordilar. Uslublari vaqt o'tib o'z-o'zidan ijro maktablariga aylanadi. Xorazm dutor ijrochilik maktabi yoki Qo'qon ijro maktabi ana shunday an'analari asosida yuzaga kelganligi begumon.

Darhaqiqat, maktab darajasida shakllanib rivojlangan cholg'u yo'llarining bir qator tomonlari mavjud bo'lib, ular aniq bir tugal maqomga ega bo'lgan. Birinchidan ijro repertuari, ya'ni shu uslub doirasida yuzaga kelgan musiqiy namunalari yoki asarlar turkumlari. Ikkinchidan, asarlarning tarkibiy jihatlari va albatta ijrochilikdagi o'ziga xos xususiyatlaridir. Ushbu prinsiplarsiz ijrochilikni maktab darajasida tasavvur etish qiyin. Lekin, masalani ikkinchi tomoni, maktab darajasiga erishish uchun vaqt, ijod, ijrochilik amaliyoti asosiy ahamiyat kasb etadi" [3.–B.4].

Qisqacha qilib aytadigan bo'lsak, ushbu qo'llanmada maktab ikkita mezonga asoslanishi, ya'ni, ijro dasturi va asarning tarkibiy jihatlari, ijroning o'ziga xos xususiyatlari inobatga olinishi aytib o'tilgan.

Dutor ijrochilik san'atining rivojlanish bosqichlarida o'ziga xos sozandalik faoliyati bilan tanilgan ustozlarning ijodlarini tahlil qilar ekanmiz, ular orasida nafaqat uslub, balki maktablar yaratilganligini ham guvohi bo'lamiz. Lekin bu har ikkala faoliyat turini bir-biridan alohida tasavvur etish mushkuldir. Binobarin, ijrochilik san'atida eng avvalo, uslub shakllanadi, undan keyin ustoz-shogird an'alarining davomiyligi natijasida maktab yuzaga keladi. Uslub har bir ijrochida ustozlar talqinidagi kuylarni

tinglash va ularni o'rganish natijasida paydo bo'ladi. An'analar esa o'tmishdagi ma'lum bir uslubni tarixiy rivojlanishlar asosida kelajak avlod tomonidan davom ettirilishi negizida shakllanadi.

Dutor ijrochilik san'atida sozandalar talqinidagi umumiylik va farqli jihatlar qiyosiy-tahlil xulosalariga tayangan holda maktablarga ajratiladi. Bugungi kunda dator ijrochiligiga oid maktablar va uning davomchilari haqida to'xtalib o'tamiz. Jumladan, Andijon maktabining vakillari Andijon va Farg'ona viloyatlarida tug'ilgan bo'lib, ijodiy faoliyati o'ziga xos ijro uslubi negizida yuzaga kelgan. Bu maktab namoyondalari sifatida Dorip dutorchi, Muhiddin Hoji Najmiddinov, O.Rustamov, Komiljon Jabborov, Farg'onada Qo'zixon Madrahimovlarni keltirib o'tish joiz. Ustoz sozandalarning har biriga xos bo'lgan ijro uslublarini o'rganib, tahlil qilar ekanmiz, ularning betakrorligiga yana bir bor amin bo'ldik. Masalan, Muhiddin Hoji Najmiddinovning ijro dasturidan "Kurd", "Cho'li Kurd", "Sayqal", "Tuya bo'zlov" kabi kuylar o'rin olgan bo'lib, "Hoji akaning dator mashqida ikkinchi (bam) tor ochiq qoldirilmas va hamisha bir xil pardada sadolanib turmasdi. Hoji aka dutorning ikkinchi ovoz hosil etuvchi torida kuy elementlarini saralab berish uchun bosh barmog'ini aktiv harakatlantirardi" [4.-B.82]. Sozandaning ijrosida "Adoyi", "Tanavor" va "Munojot 1-2" kuylarini tinglar ekanmiz, uning talqinidagi asarlarda o'ng qo'lning faolligi sezilib turadi. Shuningdek, ritmik usullar bo'rttirilib, oddiy va terma zarblardan keng foydalanilganligining guvohi bo'lamiz.

Andijon maktabining yana bir vakili Qo'zixon Madrahimov edi. Uning ijro uslubini "Qo'shtor" kuyining ijro talqinida ko'ramiz. Q.Madrahimov "Bu asarni chalganda yengini shimaradi, oyog'ini oyog'i ustiga qo'yadi, qo'zlarini yumgan holda biroz hansiraydi. U yuz ko'rinishidan Yo'ldosh Oxunboboyevga ham biroz o'xshab ketardi. Dutoriga 14 ta parda bog'langan. "Qo'shtor"ni chap qo'li bilan parda ustida unison qilib sozlangan torlarda chalardi, o'ng qo'li bilan dator qopqog'iga usul berib turardi" [4.-B.139].

Ma'lumki, "Qo'shtor" kuyi dator cholg'u ijrochilik dasturidagi eng murakkab asarlari qatoridan o'rin olgan bo'lib, bugungi kunda ham yosh sozandalarni o'ziga jalb qilayotganligini va ularning qiziqishlari taboro ortib borayotganligini guvohi bo'lamiz. K.Olimboyeva-Ahmedova bu kuyni "tengi yo'q dator kuylaridan biri" deya ta'riflagan edi. Shu kabi ko'pgina asarlarimiz avloddan-avlodga yillar davomida kasbiy sohaning yetuk ijrochilari tomonidan sayqallanib, yanada mukammal talqinga ega bo'lmoqda.

Yana bir taniqli sozanda Komiljon Jabborov nafaqat g'ijjak cholg'usidagi ijrolari, balki dator ijrochiligida ham juda mohir sozanda hisoblanar edi. Keyinchalik u aynan dator uchun "Nolish" kuyini ijod qildi va uning talqinida sozandalar orasida keng tarqaldi. Asar quvnoq xarakterdagi ikki qismli bo'lib, o'ng va chap qo'llar bir-birini o'zaro to'ldirib, ikkinchi tordagi bosh barmoqning ham faolligi bir vaqtning o'zida olib boriladi. Chap qo'lda musiqiy bezaklarning qo'llanilishida ham o'ziga xoslik mavjuddir.

Dutor ijrochiligida Toshkent maktabining ham o'rni beqiyosdir. Bu maktab namoyondalari Mahmud Yunusov, Orif Qosimov, Zokirjon Obidov, Turg'un Alimatovlarning nomlarini zikr etish lozim. Ijrochilik san'atida yuzaga

kelgan uslub va maktablarning rivojlanishi, shakllanishi avlodlar shajarasining davomiyligidan dalolat beradi. Bugungi kunda ustoz sozandalardan bizgacha yetib kelgan kuylarning ijro uslublarini ilmiy va nazariy o'rganish hamda amaliyotga tadbiiq etish professional dator ijrochiligida muhim ahamiyatga ega. Shu bois, hozirgi kunda kuchli hissa zarblarini alohida bo'rttirib ijro etish hamda musiqiy bezaklardan mordent va forshlaglarni o'z talqinidagi asarlarda ko'p qo'llagan ijrochi O.Qosimov edi. O.Qosimov ijrosining davomchilari sifatida eng avvalo, nabiralaridan Sulton va Rustam Qosimovlar, Shoira Qosimovalarni aytib o'tishimiz lozim.

Orif Qosimov talqinida yangragan kuylarni tinglar ekanmiz, bunda o'ng qo'l harakatida amalga oshiriladigan oddiy, terma, teskari kabi zarblar muhim o'rin egallaydi. Sozandaning ijrosida miyang', tovushni uzoq sadolantirishlar, bidratma kabi bezaklar deyarli uchramaydi. Lekin mumtoz kuylarning xarakteriga xoslik o'ng qo'l barmoqlaridagi zarblarni mayin, muloyimlik bilan ijro etish orqali ifodalanadi.

Ta'kidlash joizki, Orif Qosimov o'zining betakror ijrosi bilan nafaqat an'anaviy ijro yo'nalishida, balki akademik yo'nalishda ham ijod qilgan sozandalardan biridir. Uning bir qator dator alt uchun yaratgan asarlari orqali bu sozning ham ijro dasturini yanada boyitishga ulkan xissa qo'shganligining guvohi bo'lamiz.

Bugungi kunda O.Qosimov ijro maktabining munosib davomchisi S.Qosimov ijrosiga nazar tashlab o'tamiz. Sulton Qosimov bobosi ijro an'anasini davom ettirish bilan birga bir qator kuylarni ijod etgan bastakor hisoblanadi. Bu haqida Orif Qosimovning quyidagi uy-hayollarini keltirib o'tishni joiz bildik: "O'tirib o'yladim, san'atim o'zim bilan ketaveradimi? Durust, men ko'p odamlarni dator chalishga o'rgatdim. 60 dan ziyod kuylar bastaladim. Lekin o'z bolalarimga dator san'atini o'rgatmadim hali. Mening uyimdagi dator mung'ayib qolmasligi kerak, u doim odamlar xizmatida bo'lsin. Shunday qilib, nabiram Sultonga dator tutqazdim. Barmoqlarida jon bor. Besh oy mashq qildik. Sulton binoyiday chaladigan bo'lib qoldi. Sulton dator chertganida kichik nabiram Rustam eshitib o'tirib, barmoqlarini qimirlata boshladi, dutorini talashdi. Nima qilish kerak, besh yashar nabiramga bu dator kattalik qiladi? Uning o'ziga jajjigina dator buyurtirdim. Ikkita nabiram ham oromini yo'qotdi, dutorga shaydo bo'lib qoldi. Sultonning torga qo'l urishlari, shtrixlarini kuzataman, huddi mening o'zim. Men unga yakka kuy berib ko'rdim. Menga suyanib, ergashib chalayotgandir deb o'yladim. Yo'q, yakka kuyni uning bir o'zi qiyomida ijro etdi. Boladagi qiziqish, san'atga bo'lgan muhabbatning bag'rida bilim ham, iste'dod ham o'saverarkan".[6.B.4]

Sulton Qosimovning ijro repertuarlaridan o'rin olgan asarlarni tahlil qilar ekanmiz, sozanda "Akademik ijro" yo'nalishida tahsil olish bilan bir qatorda "An'anaviy ijro" yo'nalishida ham bobosi kabi o'z ijro uslubiga erishganligining guvohi bo'lamiz. Odatda, an'anaviy ijrochilik san'atida oddiy tovushlarni turli xildagi ornamentikalardan foydalangan holda ijro etish mumkin. Ular maxsus atamalar bilan nomlanib, ayrimlari tovushning sifatini, sadolanishini, ijro etish usullarini ifodalab beradi.

Binobarin, S.Qosimovning dator ijrochilik uslubini tahlil qilar ekanmiz, sozandaning o'ng va chap qo'l harakatlari bir-birini to'ldirgan holda mutanosiblik bilan

amalg oshiriladi. Ayniqsa, mordent, forshlag, trel, to'liqlatish kabi musiqiy bezaklardan keng foydalanib, molish, ya'ni, barmoqni bir tovushdan ikkinchi tovushga ohangdorlik bilan sirg'altirish usulini qisman uchratish mumkin. Mumtoz kuylar ijrosiga xos muloyimlik, noziklik, ta'sirchanlik sifatlarini o'ng qo'l barmoqlaridagi zarblarning kuchli hissalariga urg'u berib, panjani biroz yo'yan holda aniq va shiddat bilan tovushlarni mayin sadolanishini ko'rsatgich barmaq bilan ifodalaniishi kuzatiladi. Lekin kashish, miyang' kabi qochirimlar deyarli uchramaydi.

Жигарпора

Moderato

С. Қосимов ижро услуби.
З. Муминова нотга олган.

Sozandaning ijro uslublarida mordent va forshlagning birinchi asosiy tovushi o'ng qo'l barmoqlarining pastga yo'naltirilgan kuchli zarbi bilan hosil qilinadi. Qolgan tovushlar esa o'ng qo'l yordamisiz, asosiy tovushning sadosi yordamida chap qo'l barmoqlari bilan keyingi tovushni chimdib yana asosiy tovushga qaytish orqali sadolantiriladi. Masalan, S.Qosimov ijrosidagi o'zbek xalq kuyi "Jigar pora" kuyiga e'tibor qaratamiz:

Жигарпора

Moderato

О. Қосимов ижро услуби.
З. Муминова нотга олган.

Sulton Qosimov ijrosidagi "Jigarpora" kuyida amalga oshirilgan birinchi hissadagi arpedjio yoki kvarta oralig'idagi tovushlarga glissando orqali sirg'alib tushish holatlari Orif Qosimovning talqinida kuzatilmaydi.

Toshkent ijro uslubining xassos sozandalardan yana biri – Mahmud Yunusov edi. Uning chap qo'l barmoqlari orqali kuyning xarakteridan kelib chiqqan holda sayqal (mordent) va nolish kabi musiqiy bezaklardan unumli foydalanishi kuzatiladi. O'ng qo'l barmoqlari ritm asosida shahdam va aniq harakatlanishi, kuyning ruhiyati dinamik belgilarga asoslangan holda ifodalaniadi.

Zokirjon Obidovning ijro talqinida biz ko'proq metrorimikaga e'tibor berilganligini kuzatishimiz mumkin. O'ng qo'l barmoqlari bilan ijro etiladigan zarblar kuchli urg'ular va keskin o'zgarishlar orqali talqin etilgan. Chap qo'l barmoqlarida bidratma, to'liqlantirish kabi musiqiy bezaklardan foydalangan. O'ng qo'l harakatida muloyimdan qisman foydalanilganligini kuzatamiz.

O'zbekiston xalq artisti, professor Turg'un Alimatovning ijro uslubida tanbur va dutor sozlarining hamohangligi va uning negizida o'ng va chap qo'l barmoqlarining ijrosidagi ovozning mayin, muloyim yangrashi o'z aksini topgan. Chap qo'l barmoqlaridagi sadolarning davomiyligiga nolish, to'liqlatish, bidratma kabi musiqiy bezaklar hamda o'ng qo'l barmoqlari orqali talqin etiladigan terma, o'rama zarblar tekis, ravon va mukammal darajada ijro etilgan.

O'zbekiston xalq artisti Turg'un Alimatov ijrosidagi "Tanovar", "Adolat tanovari", "Yovvoyi tanovar", "Farg'onacha Shahnoz", "Qo'qon tanovari", "Fabrikaning yo'lida" kabi kuylarni tinglaganimizda, sozandaning mohirligi va o'ziga xos bo'lgan ijro uslublarining jozibadorligiga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Bugungi kunga kelib, dutor ijrochilik san'ati kasbiy va folklor ijodda ham o'z dasturlariga ega bo'lib, bu jarayon Xorazm vohasida dostonchilik san'atida namoyon bo'ladi.

F.Karamatov xalq ijodini "ko'p qirrali mavzu bilan karakterlanuvchi, o'z ildizlari bilan uzoq o'tmishga taqaluvchi hamda soddaroq tuzilishdagi folklor janrlari" deya ta'riflagan. [7.B.6] Holbuki, yillar davomida ustozshogird an'analari asosida bizgacha yetib kelgan yalla, lapar va dostonchilik san'ati bugungi kunda xalqimizning qadimiy qadriyatlarini o'zida aks ettirgan. Bu janrlarning deyarli barchasida dutor cholg'usi yakka yoki jamoaviy jo'r bo'luvchi soz sifatida foydalanilgan.

Dutor ijrochilik san'ati – sozandaning cholg'u bilan hamkorlikdagi ijodiy jarayonidir. Yillar davomida olib borilgan kasbiy sohadagi izlanishlar, egallangan tajriba, amaliy ko'nikma va malakalar ijro amaliyotidagi texnikaviy ijroning murakkablashishiga hamda badiiy tasavvurning kengayishiga asos bo'ladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Karamatov F. O'zbek xalqi musiqa merosi. 1 k. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. -153 b.
2. Rasultoyev J., Hamidov A. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. D.harfi. –Toshkent: O'qituvchi, 1989. -441 b.
3. Ziyayeva M. Dutor. 2-nashr. –Toshkent: Musiqa, 2011. -97 b.
4. Olimboyeva K., Yo'ldoshboyeva T., Ahmedova M., Mirzayev T. O'zbek xalq sozandalari. –Toshkent: G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1974. –121 b.
5. Olimboyeva-Ahmedova K. O'zbek ayoli hayotida musiqa. –Toshkent: Yozuvchi. 1996. -166 b.
6. O.Qosimov sozanda// Sovet O'zbekistoni san'ati gazetasi. –8 b. 1980. -30 iyul.
7. Karamatov F. O'zbek xalqi musiqa merosi. 1 k. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1978. -153 b.

Davlat MULLADJANOV,
O'zDSMI "Musiqiy-nazariy fanlar" kafedrasini mudiri v.b,
san'atshunoslik fanlari nomzodi, dotsent v.b.

O'ZBEK MUSIQIY ESTRADASIDA OHANG MASALASI

Annotatsiya. Ushbu maqolada barkamol avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashda musiqiy estrada janrlarining ahamiyati haqida so'z yuritilib, bu borada o'zbek estrada jabhasida yuzaga kelgan turli uslub va badiiy oqimlar tahlil qilinadi.

Tayanch iboralar: ma'naviyat, madaniyat, ma'rifat, tarbiya, barkamol avlod, hamkorlik, jaz-rok, texno-pop, pank, xard-rok, reggey, bard.

Давлат МУЛЛАДЖАНОВ,
Заведующий кафедрой "Музыкально-теоретические науки" ГИИКУЗ
и.о. доцент, кандидат искусствоведения

ВОПРОС МЕЛОДИИ В УЗБЕКСКОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ ЭСТРАДЕ

Аннотация. в данной статье рассматриваются некоторые вопросы духовного воспитания подрастающего поколения на основе жанров музыкальной эстрады. В этом контексте проанализированы разные стили и художественные течения, возникшие в сфере узбекской эстрады.

Ключевые слова: духовность, культура, просвещение, воспитание, сотрудничество, джаз-рок, техно-поп, панк, хард-рок, реггей, бард.

Davlat MULLADJANOV,
Ph. D. in History of Arts, Associate professor, Head of the department "Musical Theoretical Sciences", UzSIAC

QUESTIONS OF MELODY IN THE UZBEK POP MUSIC

Abstract. this article discusses some issues of spiritual education of the younger generation on the basis of genres of musical variety. In this context, different styles and artistic trends emerged in the sphere of Uzbek variety art.

Keywords: spirituality, culture, education, upbringing, cooperation, jazz-rock, techno-pop, punk, hard rock, reggae, bard.

Bugungi o'zbek musiqiy estradasi murakkab jarayonni boshdan kechirmoqda. Unda an'anaviy musiqa namunalari estrada sahnasiga olib chiqish tajribalari bilan bir qatorda Yaqin va O'rta Sharq kuylaridan tortib, to Lotin va Shimoliy Amerika hamda G'arbiy Ovro'pa mamlakatlari ommaviy musiqasining ohang ritm-usullari ta'sirini ko'rishimiz mumkin.

Ma'lumki, har bir xalq, har bir millat o'ziga xos temperamentiga ega. Millatning ichki ruhiy olamini, ungagina xos bo'lgan mentalitetini badiiy ifoda eta olish har bir ijodkor oldiga qo'yilgan eng muhim vazifa hisoblanadi. Bu vazifaning qay darajada hal etilishiga muvofiq badiiy asarning qiymati ham yuzaga keladi. Demak, o'zbek musiqiy estradasida milliy asosga ega xalqchil uslubni shakllantirish masalasi hozirda eng muhim bo'lib kelmoqda, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Xo'sh, bu borada bizning estradada qanday ahvol yuzaga kelgan? So'nggi yillarda O'zbekiston musiqiy estradasida "jaz-rok", "texno-pop", "pank", "xard-rok", "reggey", "bard" qo'shiqchiligi kabi yo'nalish va uslublar namoyon bo'lmoqda [1.]. Bu jarayonda ayrim e'tiborli natijalarga erishilganligi bilan birga xalqimizning yuksak badiiy didi va saviyasiga javob bera olmaydigan asarlar soni ham kundan-kunga ko'payib borayotganligi tashvishlidir. Fikrimizcha, bu boradagi eng katta muammolardan biri estrada musiqamizda milliy uslub masalasini ijobiy hal etish bilan bog'liq yuzaga kelgan. Bu borada juda ko'plab

yozilgan va ijro etilgan qo'shiqlarning faqat sanoqchilariga bizni qiziqtirayotgan masala nuqtai nazaridan e'tiborlidir. Bunga, jumladan, "Qars" ("Chiprodalli-dalli", "Yor-yor, yoroney"), "Toshkent" ("Bedana"), "Mazur" ("Meni yor dema"), "Nola" ("Nazokat", "Sesan sevarim"), "Shahzod" ("O'ynaysan", "Kelinchak"), "Sideriz" ("Unutma"), "Asr" ("Qurbon bo'laman") kabi guruhlarining ayrim qo'shiqlari misol bo'lishi mumkin. Biroq aksariyat hollarda yuzaki "milliy uslub", aslida esa badiiy jihatdan sayoz, chet el estradasiga ko'r-ko'rona taqlid namunalari tashkil etadi.

Sir emaski, bugungi kunda musiqa sohasida savodxon bo'lmagan juda ko'p havaskorlar estrada sohasiga kirib keldi. Ular orasida katta sahnalarni "zabt" etib tezda shuhrat topganlari ham bor. Yoshlarning san'at bilan shug'ullanishlari yaxshi, albatta. Lekin millionlab tinglovchilarga qaratilgan "katta sahna" har bir san'atkordan katta mas'uliyat talab qilishini ham unutmaslik kerak. Bugungi kunda estrada sohasi ham ana shunday katta sahnalardan biriga aylangan ekan, demak, uning doirasida faoliyat ko'rsatayotgan har bir estrada xonandasi yoki guruhi ma'lum darajada malaka va nazariy bilim darajalariga ega bo'lmog'i kerak. Ma'nolarga boy musiqiy merosimiz – xalq qo'shiq-kuylari-yu mumtoz maqomlarimizni bilish ham muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Nazarimizda, ko'pgina estrada xonanda yoki guruhlarining "milliy uslub" masalasini xorijiy estrada

namunalariga ergashib, taqlidchilik ila jo'n hal qilib qo'ya qolishlarining sabablaridan biri – milliy kuylarimizni qalbdan his eta olmayotganliklarida, qolaversa, bu borada zarur bilim va amaliy malakalarga ega emasliklaridandir.

Hozirda aksariyat estrada yo'lida ijro etayotgan yoshlarimiz ijodiga e'tibor beradigan bo'lsak, ko'proq ongli chuqur anglab yetilmagan darajada ergashib, taqlid qilish kuzatilmoqda. Xo'p, shunday bo'laversin, buning nimasi yomon? – deb aytish mumkin. Hamma gap shundaki, milliy ohang masalasi yosh avlodni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash ishida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu o'rinda professor Abdurauf Fitratning "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" kitobida bayon etilgan quyidagi satrlarga murojaat etmoqchimiz: "Ovrupe musiqasi olimlarining yordamlari bilan kuylarimizni notaga o'ldirishda Ovrupe musiqasining ohang usullariga ergashtirmaylik. Ovrupe ohang usullaridan ko'z yumub, kuylarimizning o'z ohangida qolishiga tirishaylik (bu to'g'risida V.A.Uspenskiyning katta tajribasi bordir). Ovrupe ohang usullariga ergashtirib oling'an kuylarning etnografiya nuqtasidan ahamiyatini yo'qotqanimiz kabi ularning o'zbekligini ham yo'qotqan bo'lurmiz" [2.]. Demak, milliy ohang muhim ijtimoiy-ma'naviy omil ekan. Binobarin, milliy ohang bilan yo'g'rilgan yuksak darajadagi musiqasi namunalar – xoh qo'shiq, xoh ashula yoki boshqa musiqiy janrlarni ijro etish jarayonida xalq o'zini bir tanu bir jon bo'lib his qiladi. Bu hol mustaqil Vatanimizning milliy mafkurasini shakllantirishda ham juda muhimdir.

Ayniqsa, hozirgi paytda musiqiy estrada eng katta sahnalarni zabt etib turgan, butun millatni, xalqni diqqat markazida turgan soha ekan, bunga katta mas'uliyat bilan yondashuv kerak. Demak, har bir estrada san'atkori katta mas'uliyat bilan chiqishi zarur. Musiqiy estradani milliylik degani, bu milliy musiqiy an'analarni nihoyatda zo'r o'zlashtirgan holda, asrlar davomida rivojlanib kelayotgan musiqiy merosimiz yutuqlarini o'zida jamlagan holda va mana shu bilan birga musiqiy estrada sohasida jahon musiqasi erishgan yutuqlarni tabiiy bo'ysundira olgan holda sahnaga chiqish va shu asosda uslub yarata olish katta san'atkorlar ijodiy jasorati bilan hal qilib beriladigan masaladir.

Taniqli musiqiy estrada qo'shiqchilarimiz ijrosidagi ko'p asarlarda ham jahonda taniqli qo'shiqlarga o'xshash, ergashgan yoki taqlid qilinganligini guvohi bo'lamiz. Milliy musiqiy estrada uslubini yaratish uchun esa birinchi navbatda, milliy musiqiy merosni amaliy va ilmiy jihatdan o'rganish lozim. Ikkinchidan, jahon miqyosida estrada musiqasiga ergashgan natijalarni milliy uslub nuqtai nazaridan hazm qila olish, uni yutuqlarini milliy musiqaga bo'ysundirgan holda natijaga erishiladi. Mazkur jarayonni aniqroq tasavvur etish uchun muvoziy qiyos keltirish maqsadga muvofiq ko'rinadi.

Buyuk iste'dod sohibi, g'azal mulkingning sultoni Alisher Navoiy turkiy so'z boyligi bilan birga forscha, hindcha, yunoncha so'zlardan foydalangan. Lekin so'zlarga va ularning uslublariga ergashib, til kontekstida yuzaga keladigan mohiyatini jaranglatmoqchi bo'lganliklarida Hazrat Navoiy qoldirgan ulkan meros bizga bu qadar

qadrli bo'lmas edi. Ammo Navoiyning buyukligi shundan iboratki, boshqa xalqlar she'riyati erishgan yutuqlarni olib, o'zimizning turkiy tildagi g'azaliyotga shunchalik tarkibiy singdirib yubordilarki, ana shu chetdan olingan so'z boyligi o'zbek she'riyatiga xizmat qilgan. Bunday bo'ysindirib olish faqat ulkan iste'dodlar qo'lidan keladigan vazifadir.

Musiqada ham shunday hol mavjud. Masalan, maqomlarimizdagi Iroq, Isfaxon, Hijoz, Rok kabi maqom pardalari mavjuddir [3.]. Lekin bu pardalar Iroqdan kelib chiqqan deb tushinish kerak emas. Ular boshqa Sharq mamlakatlarida mashhur pardalar bo'lgan. Biroq musiqiy merosimizda boshqa mamlakatlar nomi bilan mavjud bo'lgan maqomlar ohangida o'zimizga xos kuydek yangramoqda. Nima uchun bunday hol kuzatiladi? Boisi, buyuk ustozlarimiz o'sha boshqa xalqlar musiqasi bo'lsa ham milliy uslub nuqtai nazaridan qayta ishlab milliy musiqamizga bo'ysindirib yuborishgan. Bunday misollar musiqada juda ko'p. Masalan, Fuzuliy g'azaliga "Qurbon o'lam", "Jazoir" xatto "Andijon polkasi" ham bizning san'atkorlarimiz ularni milliy ruhda sadolantira olganlar. Zero, ruhning turli holatlarini o'zida aks ettiraoladigan mazmunli va ta'sirchan musiqasi insonning badiiy didini shakllantiradi, ma'naviyatini yuksaltiradi. Tinglovchi bu kabi asarlarda nafaqat shaxsiy kechinmalarining aksini, balki ruhini qondira oladigan fazilatlarini topadi. Bu ham ulkan iste'dod sohiblarining ijodiy mahsulidir. Bu namunalar kabi misollar hozirda ham qimmatli bo'lib, musiqiy merosimiz mulkida o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

Ayni paytda milliy ohang tuyg'usi har bir millatning til talaffuzi ohanglari bilan o'zaro uzviy aloqada bo'ladi. Bu aloqadorlikni his etmaslik, qolaversa, ular orasidagi nozik bog'lanmalari qo'pol buzilgan yengil-yelpi qo'shiqlarning ommaviy tarzda targ'ib etilishi pirovardida jamiyatimiz nazdida milliy musiqiy meros qadr-qimmatini tushirib qo'yishi ham hech gap emas. Chunki milliy ohang tuyg'usidan uzoqlashgan, ayni paytda esa o'zga ohanglar asosida voyaga yetayotgan yosh avlod bora-bora milliy kuylarimizning qadriyatini anglayolmay, ularni teran idrok etishdan o'qiz qolishi mumkin. Buning oqibatlarini nechog'lik ma'naviy noxush ekanligini hatto tasavvur qilib ham bo'lmaydi. Demak, milliy ohanglardan uzoqlashish, ma'lum ma'noda milliy qadriyatlarimizdan uzoqlashishni ham anglatar ekan. Bu holatni yanada aniqroq tasavvur qilish uchun bir misolni keltirish mumkin. Ma'lumki, sobiq sho'ro davrida umumta'lim maktablarida o'tilgan musiqasi darslarida o'zbek musiqasiga nihoyatda kam o'rin berilar edi. Bu bejiz emas, albatta. Chunki milliy ohanglar qalbiga jo bo'lgan odam millat qadriyatini tezroq anglaydi, milliy tuyg'udan iftixor qila boshlaydi. Demak, aytish mumkinki, milliy ohanglar aslida go'daklikda tinglangan ona allalari-yu, ko'p asrlik marosim kuy-qo'shiqlarimiz ila qalbimizga ekiladigan urug'lardir. O'z navbatida, barcha mustamlakachilar buni yaxshi bilganlar [4.]. Shuning uchun ham musiqasi – estetik tarbiya ekanligini ko'p ta'kidlagan bo'lsalar-da, biroq o'sha davrda tuzilgan o'quv dasturlari va qo'llanma-darsliklar mazmunida milliy musiqamizni imkon qadar inkor qilib kelgan [5.]. Bunda go'yo farzandlarimizning baynalminal ruhdagi tarbiyasi


uchun ovrupo, rus mumtoz musiqalari havo va suvdek zarur ko'rsatilgani holda, milliy musiqa namunalari nihoyatda ahamiyatsiz qilib qo'yilgan edi.

Bugungi kunda vaziyat mutlaqo o'zgardi. Endilikda ohanglarni, ta'bir joiz bo'lsa, eng ko'p "tashuvchi" soha musiqiy estrada bo'lib qoldi. Modomiki shunday ekan, biz mustaqilligimiz manfaatlari o'laroq, milliy mafkuramizda belgilangan ustuvor yo'nalishlarni mustahkamlash yo'lida musiqiy estradani ana shu maqsadga muvofiq rivojlantirishga erishmog'imiz zarur.

Unutmaylik, biz o'zbeklar maqomlarning merosxo'rimiz. Maqom esa go'zal navolardagi ma'naviy boyligimizdir. Demak, biz navolarga, ajoyib ma'noli usullarga juda boy xalqmiz. Bizning estrada musiqamiz ham ma'naviy navolarga, serjilo usullarga boy bo'lishi zarur. G'azaliyot, she'riyat deganimizda Hazrat Navoiyni, me'morlik deganda go'zal ko'hna obidalarimizni ko'z oldimizga keltiramiz. O'zbek musiqiy estradasi ham naqshinkor, tarovatli, betakror navolarga boy bo'lgan o'ziga xos sharqona estradani ko'z oldimizga keltiradigan bo'lishi ayni muddaodir.

Milliy ohang-usullarni idrok etish ma'nosida yana bir holat ko'zga tashlanmoqda. U ham bo'lsa, estrada xonandalari va guruhlar tomonidan xalq kuylari yoki mumtoz maqomlarimizni estrada yo'sinida ijro etish tamoyilidir. Bu tamoyilda ham an'analarni yaxshi bilmaslik sezilib turadi [6.]. Aslida betakror xalq qo'shiqlari bu badiiy "sof buloq"lardir. Agar estrada "ijodkorlari" milliy merosni yaxshi o'zlashtirmasdan, ustoz tarbiyasini olmagan bo'lsalar hatto noyob xalq qo'shig'ini yengil-yelpi qayta ishlovlari bilan bachkana holga keltirib qo'yadilar. Binobarin, musiqiy meros namunalariga o'ta mas'uliyat bilan yondoshmoq zarur.

Ta'kidlash joizki, chet el estradasida ham bir davrlar bo'lganki, ularda klassik kompozitorlarning xususan, Bax, Mosart, Betxoven va boshqalarning noyob asarlarini



nihoyatda jo'n, soddalashtirib, ba'zan badiiy qiymatini kamsittirib qo'ygan holda estrada yo'sinida ijro etilgan edi [6]. Bu borada o'zbek kompozitorlik maktabi shakllanishiga katta hissa qo'shgan V.Uspenskiy, R.Glier, V.Kozlovskiy, G.Mushel kabi rus kompozitorlarining o'zbek musiqasiga yondashuvi e'tiborlidir. Chunonchi bu kompozitorlar yurtimizga kelib, o'zbek kuylari asosida ijod qilishga oshiqmaganlar, balki birinchi navbatda xalq bastakorlari, hofizlari va cholg'uchilari bilan tanishib, ular ijrosida o'zbek kuylarini tinglab, chuqur o'rganib chiqishgan. Shundan so'ng avvaliga ehtiyotlik bilan musiqiy merosimiz namunalari qayta ishlash badiiy usullarni qo'llashgan. Keyin "noan'anaviy" kompozitorlik musiqasining katta-katta janrlari (opera, musiqali drama, simfoniya va b.)da ijod qilgan. Bu kompozitorlarning milliy musiqa an'analarni atrofficha o'rganish, ularning badiiy qiymatini chuqur anglagan holda amaliyotga tadbiiq etish borasidagi urinishlari barcha musiqa ijodkorlari uchun ibratlidir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekov O.A., Mullajonov D.M. O'zbek milliy estradasi. O'zbekiston san'ati (1991-2001 yillar). –Toshkent: Sharq, 2001. -140 b.
2. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. – Toshkent: Fan, 1993. - 52 b.
3. Rajabov I. Maqomlar. -Toshkent: SAN'AT, 2006. -259 b.
4. Zabrodin G.D., Aleksandrov B.A. Rok iskusstvo ili bolezni?. –Moskva: Sovetskaya Rossiya, 1990. -283 s.
5. Ibrohimov O.A. Milliy tarbiyaning musiqa asoslari //Sog'lom avlod uchun. -1997. - №7. -B. 7-8.
6. Mullajonov D.M. O'zbek estradasida musiqiy meros talqini // SAN'AT. – 2002. - №4. -B. 38-39 .

NAZMGA YO'G'RILGAN OHANGLAR

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek xalqining mutafakkir shoiri Muhammad Yusuf she'riyatida musiqiy ohangning tutgan o'rni xalq sevgan san'atkorlar timsolida amaliy va qiyosiy o'rganiladi. Shuningdek, Muhammad Yusuf ijodi bilan bevosita bog'liq bo'lgan ustoz xonandalarning shoir haqidagi xotiralaridan namunalar keltiriladi.

Kalit so'zlar: san'atkor, qo'shiqchi, Vatan, muhabbat, sevgi, sadoqat.

Хайридин ХУДОЕВ,
Преподаватель Ташкентского колледжа культуры

МЕЛОДИЯ НАВЕЯННАЯ ПОЭЗИЕЙ

Аннотация. В данной статье рассматривается роль музыки в поэзии узбекского поэта и мыслителя Мухаммада Юсуфа, исследуется практическим и сравнительным образом в образе популярных исполнителей значение музыки в творчестве поэта. Приводятся также воспоминания о поэте мастеров-певцов, непосредственно связанных с творчеством Мухаммада Юсуфа.

Ключевые слова: артист, певец, Родина, любовь, привязанность, преданность.

Khayriddin KHUODOEV,
Teacher of the Tashkent College of Culture

MUSIC HIDDEN IN POETRY

Abstract. In this article, the role of music in the poetry of the Uzbek poet and thinker Muhammad Yusuf is explored in a practical and comparative way in the image of popular performers. There are also examples about the poet from the memoirs of master singers directly related to the work of Muhammad Yusuf.

Key words: artist, singer, homeland, love, affection, devotion.

“Buyuklik – bu oddiylikda” mana shu jumlar bizning mutafakkir shoirimiz Muhammad Yusufning hayotiy shiori edi, desak hech mubolag'a bo'lmaydi. Shoirning beg'ubor qatralari har bir tinglovchisining qalb sozini chertibgina qolmay, uning dil izhorlari bilan dardlashadi. Ayniqsa, uning xalq qalb qo'ridan chuqur o'rin olgan “Qizg'aldog'im”, “Kapalak”, “Lolajon”, “Qizg'onaman” kabi ko'plab she'rlariga bastalangan qo'shiqlar har bir o'zbek xonadonida xirgoyi qilib kuylanadi.

O'zbek xalqining oddiy, shu bilan birga buyuk shoiri Muhammad Yusufning 20 ga yaqin she'riy to'plamlari chop etilgan. Uning “O'zingdan qo'ymasin xalqim”, “Osmoning olib ket meni”, “Ko'nglimda bir yor” kabi she'riy to'plamlaridagi deyarli barcha she'rlar qo'shiq qilib kuylanadi.

Muhammad Yusufning bastakorlar va kompozitorlar bilan hamkorliklari xususida to'xtaladigan bo'lsak, bastakor Anor Nazarov: “Shoirda chapanilik bor, bu chapanilik mehr chapaniligi”, deb ta'riflagan edi. Shoir qisqa umr kechirgan bo'lsa-da, o'zining Vatanga, millatga nisbatan qalbidagi bitmas-tuganmas mehri, poyonsiz sevgi, Vatan madhi, o'zbek xalqiga bo'lgan cheksiz sevgi timsoli uning she'rlarida ohang misol qo'shiq qilib kuylanadi. Uning she'riy kitoblari nafaqat xalq orasida sevib o'qiladi, balki har bir o'quvchisi va tinglovchisi qalb torini junbushga keltirib, uning ichki kechinmalarini musiqiy soz misol tarannum etadi. Jumladan, biz san'at ahli ham Muhammad Yusufni mehr bilan esga olamiz.

Har birmizning ko'z o'ngimizda Muhammad Yusuf deganda xalq qalbidan joy olgan mutafakkir shoir,

xalqchil, ishq-muhabbatga to'la qalb egasi, oddiy so'z bilan aytganda inson qalbiga kirib boruvchi shoir gavdalanadi.

Muhammad Yusuf she'rlarining haqiqiy muxlisi bo'lgan shinavandalardan biri shoirdan: “Nima uchun doim oddiy kiyinib yurasiz, axir siz xalqning ko'zi o'ngida chiroyli kiyinib yursangiz bo'lmaydimi?” deb so'rganida, shoir: “O'zbekimning qo'shiqchilarini kiyintirib qo'yganim, menga yetarli”, deya javob qilgan ekan.

Shoir she'rlarini o'qigan har bir inson qalbi junbushga kelib, o'z-o'zidan uning qalbini qandaydir ohang va navo chulg'ab oladi. Shoir she'rlariga o'z qalb qo'rini, qalb nolasini payvand qilmagan xonandaning o'zi bo'lmasa kerak. Jumladan, Muhriddin Xoliqov, Yulduz Usmonova, G'iyos Boytoyev, Oxunjon Madaliyev singari va boshqa bir qator O'zbekiston xalq artistlari, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artistlar, Nihol mukofoti sovrindorlari va boshqa xushovoz xonandalar shoirning ijodiga murojaat qilgan.

Shoirda “Buyuklik nima?” deb savol berishganda, Ustoz Muhammad Yusuf shunday deb javob bergan ekan:

*Kecha meni maqtab yurganlar,
Bir umrga do'stman deganlar,
Yoshlik qilib qoqingan chog'im,
Pallalarda g'iybat qilganlar.
Bilib qo'ying yengilganim yo'q,
Ertamdan ham ko'ngillarim to'q.*

Mazkur she'r yaratilishining qisqacha tarixi haqida shoirning turmush o'rtog'i Nazira opa “O'zbekiston TV”



Nihol mukofoti sovrindorlari va Qurolli Kuchlar Markaziy ashula va raqs ansambli vakillari bilan

kanaliga bergan intervyusida quyidagilarni ta'kidlaydi: Shoir ijod xonasiga kirmoqchi bo'lib turgan xushovoz xonandamiz Anvar G'aniyevni kuttirib qo'ymaslik maqsadida xonadan chiqib turib uchrashgan joylarida "Kecha meni maqtab yurganlar..." deb oxirigacha she'rni o'qib bo'lib, bu she'rni sizga hadya qilyapman, men yozganligimni faqatgina o'zingiz biling, deb, muallifini sir saqlashligini aytgan ekanlar. Bu holatni Anvar G'aniyev keyinchalik Nazira opaga aytib berganligini ta'kidlaydi. Bu she'rni keyinchalik qo'shiq shaklida ko'rinishini qo'shiqchilar ijrosidan eshitaman xalqimiz yaxshi biladi, deb qo'shimcha qiladi Nazira opa¹.

Nazira opaning mazkur suhbatlari chog'ida, Muhammad Yusuf oilada umr yo'ldoshlari hamda farzandlari Ma'suda, Nozima, Madinalarga nisbatan juda talabchan bo'libgina qolmay, mehribon ota bo'lganliklari, quyidagi misralarda aks etganligini oila ahli mehr to'la so'zlarida yaqqol o'z aksini topadi.

*Mayli-da, kimgadir
Yoqsa,
Yoqmasa,
Ularga qo'shib
Yig'lasharmidik.
Biz baxtli bo'lamiz
Xudo xohlasa,
Xudo xohlamasa
Uchrasharmidik...
Rayhon hidlaringni
Yo'llarimga sep,
Kut meni,
Har oqshom,
Ko'kka oy chiqqan.
Faqat,*

*Yig'lamagin,
Gunohim ne deb,
Aybing –
Onang seni
Chiroyli tuqqan!..*

Shoir o'z ijodida go'zallikni tasvirlabgina qolmay, qalbni titrashga undaydigan ma'nolarni yaratuvchi so'zlarni erkalab yoza oluvchi qobiliyat egasi ekanligi, uning oddiy so'zlarda ifodalay olganligi bilan ko'zlarni qamashdirib turibdi. Shoirning vatanparvarlik ruhi barcha she'rlarida ufurib turadi. Xoh sevgi haqida, xoh boshqa mavzuda yozgan she'rlari bo'lsin, ularning xalqchilligi shundaki, har birida oddiylik va chapani go'zallik orqali Vatanga mehr tuyg'usi ufririb turadi.

Muhammad Yusuf xalq orasida o'zining xalqchilligi bilan o'rin olgan she'riy kitoblari durdonalarini qoldirib insonlar orasida mehr ulashibgina qolmay, o'lmas she'riy xazina qoldirib ketdi desak, hech mubolag'a bo'lmaydi. Muhammad Yusuf she'rlari san'atkorlar tomonidan juda ardoqlanib, qo'shiq qilib bastalanib ijro etilgan. Shoirning qo'shiq qilinmagan birorta ham she'ri qolmagan desak, xato bo'lmaydi. Jumladan, "Vatanim", "O'zbekiston", "Xalq bo'l elim" kabi qo'shiqlari vatanparvarlik g'oyalarini o'z ichiga olgan bo'lsa, "Jayron", "Mehr qolur", "Muhabbat", "Zebi, Zebi", kabi qator she'rlari inson qalbida sevgi sozini chalgan mashshoqdek, uni larzaga solmay qo'ymaydi. Shoirning she'rlari xoh kuyga solinsin, xoh shundayligicha she'riy ohangda o'qilsin, uni eshitgan tinglovchini she'riyatga, san'atga, musiqaga yetaklaydi.

Musiqi insonni ruhan tetiklashtiribgina, kayfiyatini yaxshilabgina qolmay, hatto betob odamga davo tarzida quvvat bag'ishlashi ulug' bobokalonimiz, tib ilmining asoschisi Abu Ali ibn Sinoning "Shifo" asarida ham aytib o'tilgan.

Agarda shu musiqi yaxshi she'r orqali bastakor

¹ Nazira Salomovaning 2020 yil fevral oyida "O'zbekiston TV" kanaliga bergan intervyusidan olindi.

tomonidan bastalanib eshittirilgan ekan, hattoki insonni yig'latadi, kuldiradi, sehraib qo'yadi. Muhammad Yusuf she'rlari o'zining xalq dilidagi va tilidagi oson so'zlar bilan tez tushuna oladigan ifodalar orqali ijro etilganligi, qo'shiqqa aylanganligi bilan ham kishida mehr o'yg'otadi.

Shoirning "Saylanma"(3) to'plamiga kiritilgan "Yor-yor" (3.49-b) she'rida oshiqning o'z ma'shuqasiga bo'lgan qalbidagi yashirin tuyg'usini musiqiy soz "g'ijjak nolasi" timsolidagi ohu faryodidek chiroyli misralarda bayon etiladi:

*Osmon olis, osmon jim,
Marhamatda qor yog'ar.
Seni qanday sevardim,
Ko'rolmadi qarg'alar.
Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jonim qaqshar, yor-yor.
Qayda bo'lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...
Osmon olis, osmon jim,
Osmon quloq soladi:
Yuragimni sog'inchim
G'ijjak qilib chaladi.
Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jonim qaqshar yor-yor.
Qayda bo'lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...
Osmon olis, osmon jim,
Osmon yulduz to'shaydi.
Bilagingda barmog'im
Izi borga o'xshaydi.
Hay-hay o'lan, jon o'lan,
Jonim qaqshar, yor-yor.
Qayda bo'lsang sen bilan
Sevgim yashar, yor-yor...*

Aslida, "yor-yor" mavzusi mazmunida bir qator san'atshunos olimlarimizning ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Jumladan, san'atshunoslik fanlari doktori F.Karomatovning "O'zbek xalqi musiqa merosi XX asrda" nomli ikki tomli nashrning ikkinchi kitobida Farg'ona vodiysida keng tarqalgan yallachilik an'analari kesimida "Yor-yor"lar umumiy mazmunda o'rganilgan (4). Musiqashunos olim K.Olimboyeva-Ahmedovaning "O'zbek ayoli hayotida musiqa" ilmiy monografiyasida esa Farg'ona vodiysida mashhur bo'lgan xalq musiqa bisotidagi qo'shiq, lapar, yor-yor hamda yalla namunlari ilmiy tahlillarda berilgan (5). San'atshunoslik fanlari bo'yicha falsafa doktori N.Turg'unovanning "Namangan yallachilik san'ati an'analari" mavzusida falsafa doktorlik dissertatsiyasida(6) hamda "Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati" nomli ilmiy monografiyasida (7) Farg'ona vodiysi yallachilik san'atining mazmun-mohiyati, ohang lug'ati, ritm usullari va boshqa xos sifatleri yorqin ifodalangan aytim janrlari – yalla, qo'shiq, ashula, yor-yor va boshqa qo'shiq va ashulalar timsolida o'rganilgan (6.5-b). Shuningdek, o'zbek xalq musiqasini o'rganish asnosida ham bir qator san'atshunos olimlarimizning ilmiy ishlarida "Yor-yor" mavzusi o'rganilgan (1, 2.).

Bundan anglash mumkinki, Muhammad Yusuf ijodida san'atga, xususan, musiqa san'atiga xos atamalarni qay darajada qo'llanilganligini qiyosiy tahlillar kesimida o'rganish san'atshunoslikdagi o'rganilishi dolzarb bo'lgan mavzulardan hisoblanadi. Shu bilan birga, bastakor va kompozitorlarimiz tomonidan Muhammad Yusuf she'rlarining shoir aytmochi bo'lgan dardga va mazmuniga qay darajada xos ohang tanlanganligini ilmiy o'rganish ham biz madaniyat xodimlari, san'atkor va san'atshunoslar oldida turgan katta vazifalardan biridir.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Ibrohimov O. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism: metodik tavsiyalar. –Toshkent: O'zR XT o'quv metodik markazi, 1994. -96 b.
2. Ibrohimov O., Xudoyev G'. Musiqa tarixi: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Barkamol fayz media, 2018. -309 b.
3. Muhammad Yusuf. Saylanma. –Toshkent: Sharq, 2019. -384 b.
4. Karomatov F. O'zbek xalqi muzika merosi XX asrda. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1985. -207 b.
5. Olimboyeva-Ahmedova K. O'zbek ayoli hayotida musiqa. –Toshkent: Yozuvchi, 1996. -145 b.
6. Turg'unova N. Namangan yallachilik san'ati an'analari: avtoreferat. –Toshkent; 2018. -47 b.
7. Turg'unova N. Farg'ona vodiysi yallachilik san'ati. –Namangan: Namangan, 2016. -364 b.



III BO' LIM

**SAN'AT TARIXI,
FALSAFA VA
NOMODDIY
MADANIY MEROS**

Гулчира ХОДЖАМЕТОВА,
кандидат исторических наук, доцент Нукусского филиала ГИИКУз

ХОРЕОГРАФИЧЕСКОЕ ИСКУССТВО КАК ФАКТОР ВСЕСТОРОННЕГО ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация. *Узбекский танец славится своим древним происхождением, многовековым развитием, поразительным многообразием школ, видов и жанров. Каракалпакский танец – танец всего тела, танец виртуозных движений ног, изощренных рисунков движений рук, трепетных движений корпуса, сложных орнаментальных движений рук, необычных, непривычных движений плеч и головы.*

Ключевые слова: *искусство, ритмика, движение рук, корпус, хореографическое искусство, каракалпакский танец, балет, танцевальная школа.*

Gulchehra XODJAMETOVA,
O‘zDSMI Nukus filiali, tarix fanlari nomzodi, dotsent

XOREOGRAFIYA SAN’ATI YOSHLARNING HAR TOMONLAMA TARBIYASI ASOSI

Annotatsiya. *O‘zbek raqsi qadimiy kelib chiqishi, ko‘p asrlik rivojlanishi, maktablari, turlari va janrlarining ajoyib xilma-xilligi bilan mashhur. Qoraqalpoq raqsi – bu butun badanning raqsi, virtuoz oyoq harakatlarining raqsi, qo‘l harakatlarining murakkab naqshlari, tana harakatlari titrashi, qo‘llarning murakkab bezak harakatlari, yelka va boshning g‘ayrioddiy harakatlardir.*

Kalit so‘zlar: *badiiylik, ritm, qo‘l harakati, tana, xoreografiya san’ati, qoraqalpoq raqsi, balet, raqs maktabi.*

Gulchira KHODZHAMETOVA,
candidate of Historical Sciences, docent of
Nukus branch of the State Institute of arts and culture of Uzbekistan

THE ART OF CHOREOGRAPHY AS A FACTOR OF SPIRITUAL- MORAL, AESTHETIC AND SOCIAL-CULTURAL EDUCATION

Abstract. *Uzbek dance is famous for its ancient origin, centuries-old development, amazing variety of schools, types and genres. Karakalpak dance is a dance of the whole body, a dance of virtuoso leg movements, sophisticated patterns of hand movements, quivering body movements, complex ornamental hand movements, unusual, unusual movements of the shoulders and head.*

Keywords: *art, rhythm, hand movement, body, choreographic art, Karakalpak dance, ballet, dance school.*

Из исторического пути развития любого государства известно, что ускоренное развитие той или иной страны, достижение ею определённых успехов, благополучие народа тесно связаны со степенью внимания, которое в данной стране уделяется учёбе и воспитанию молодёжи, её будущности. В этом смысле вопрос молодёжи в Узбекистане является одним из самых приоритетных направлений государственной политики.

В сфере защиты прав и интересов молодёжи, создания необходимых условий и возможностей в нашей стране создана прочная правовая база, и эта система в настоящее время совершенствуется созвучно требованиям времени. В частности, на сегодняшний день парламент принял свыше 40 законодательных актов касательно молодёжи, ратифицировал свыше 30 международных правовых документов.

Вместе с тем, придавая значение тому, что в настоящее время мы все живём в условиях с самым многочисленным слоем молодёжи в истории человечества, выдвигание Президентом Шавкатом Мирзиёвым с высокой трибуны Организации Объединённых Наций предложения о принятии Конвенции о правах молодёжи ООН было тепло встречено

международным сообществом. В качестве основания для принятия этого документа руководитель Узбекистана привёл такие важные аргументы, как сегодняшняя численность молодых людей в масштабах всего мира, которая перевалила за два миллиарда, необходимость защиты молодёжи во время стремительного роста влияния международного терроризма и экстремизма. [1. Мирзиёев Ш. 8.01.1997 г., № УП-1695]

Глубоко символичен и тот факт, что первым законодательным актом, подписанным Шавкатом Мирзиёвым в качестве Президента Республики Узбекистана, стал Закон от 14 сентября 2016 года «О Государственной молодёжной политике». Следовательно, и руководитель, и правительство страны хорошо понимают, что последовательное осуществление государственной молодёжной политики в стране, где более половины населения составляет молодёжь; воспитание молодёжи в духе патриотизма и самоотверженности всесторонне развитыми, интеллектуально способными, целеустремлёнными и очень энергичными личностями с твердой жизненной позицией, которым не безразличны осуществляемые в стране реформы, и которые причастны к завтрашнему достойному будущему своей страны, является важным фактором для того, чтобы Узбекис-

тан занял достойное место среди самых развитых государств мира. [4. Мирзиёев Ш. 28.11.2018 г.]

Здесь необходимо особо отметить, что данная задача нашла своё отражение и в «Стратегии действий по пяти приоритетным направлениям развития Республики Узбекистан в 2017-2021 годах». В частности, там были определены следующие первоочередные задачи, направленные на защиту прав и интересов молодёжи:

во-первых, воспитание физически здоровой, духовно и интеллектуально развитой, самостоятельно мыслящей, преданной Родине молодёжи с твёрдой жизненной позицией, повышение её социальной активности в процессе углубления демократических реформ и развития гражданского общества;

во-вторых, трудоустройство и привлечение в сферу частного предпринимательства выпускников средних специальных, профессиональных и высших образовательных учреждений;

в-третьих, поддержка и реализация творческого и интеллектуального потенциала молодого поколения, формирование здорового образа жизни среди детей и молодёжи, широкое привлечение их к физической культуре и спорту. [2. Мирзиёев Ш. 7.01. 2017 г., № УП-4947].

Указ Президента Республики Узбекистан от 27 июня 2018 года «О Государственной программе «Yoshlar – kelajagimiz» стал важным документом, направленным на повышение эффективности деятельности в данной сфере. В частности, в соответствии с этим указом, при Союзе молодёжи Узбекистана создан Фонд «Yoshlar – kelajagimiz», который должен обеспечить предоставление через коммерческие банки льготных кредитов и имущества в лизинг со ставкой 7 процентов годовых для реализации молодёжных бизнес-инициатив, стартапов, идей и проектов. В документе достаточно чётко и последовательно поставлены задачи по комплексному развитию молодёжного предпринимательства и инициативности молодёжи.

В свою очередь, коренные реформы осуществляются и в учебно-воспитательной системе, которая является основой всех проводимых в Узбекистане изменений. В настоящее время доля расходов на социальную сферу, в том числе на образование, составляет более половины общего объёма расходов государственного бюджета. В данных условиях естественно, что такие расходы не всякому государству под силу; тем не менее, как бы ни было трудно, для этого находятся необходимые средства и ресурсы. [3. Мирзиёев Ш. 28.11.2018 г.]

Руководитель Узбекистана, рассматривая вышеуказанные расходы не как издержки, а как самое результативное вложение в будущее, неоднократно отмечал, что уровень и качество образования являются важным фактором, который определяет будущее каждого государства. И в самом деле, судьба и результаты реформ, в первую очередь, зависят от уровня образования кадров, от того, насколько они отвечают требованиям времени и прогресса.

Государственная молодёжная политика в Узбекистане, преследующая четкие цели и поэтапно осуществ-

ляемая на основании комплексных мер, последовательно продолжается.

В этом отношении, выдвигание Шавкатом Мирзиёвым пяти важных инициатив по системному осуществлению действий в социальной и духовно-просветительской областях, впервые в истории Узбекистана положило начало новому этапу в воспитании и образовании молодёжи.

Первая инициатива – повышение интереса молодёжи к музыке, рисованию, литературе, театру и другим видам искусства.

Вторая инициатива – физическая закалка молодёжи, создание необходимых условий для проявления своих способностей.

Третья инициатива – организация эффективного использования населением и молодёжью компьютерных технологий и Интернета.

Четвёртая инициатива – организация системной работы по повышению духовности молодёжи, широкой пропаганде чтения книг.

Пятая инициатива – обеспечение занятости женщин.

Благая идея руководителя государства с большим интересом была встречена как народом в целом, так и молодёжью, и за короткое время широко распространилась по всей стране. [5. Мирзиёев Ш. 7.02. 2017 г., № УП-4947]

В соответствии с пятью вышеуказанными инициативами, которые в будущем будут широко внедрены в повседневную жизнь, значительно улучшится состояние культурных центров в регионах страны, материально-техническая база музыкальных школ и школ искусства, а также улучшатся условия их использования; исходя из интереса молодёжи, будут организованы дополнительно 1,5 тысяч кружков, будет налажена деятельность коллективов художественной самодеятельности, молодёжных театров-студий и «Клубов молодёжи» во всех районных центрах даже самых отдалённых селений.

Кроме того, в масштабах страны будут предприняты меры, направленные на обеспечение максимального охвата молодёжи в более чем 12 тысячах спортивных сооружениях, все общеобразовательные школы будут оборудованы современным спортивным инвентарём. Наряду с этим, в далёких и окраинных регионах будут построены спортивные залы и площадки с искусственным покрытием из лёгких конструкционных сэндвич-панелей. Значительно увеличится количество детских и подростковых спортивных школ.

На основе передового международного опыта в области защиты молодёжи от вредных нападок в Интернете, обучения её эффективному применению информационных технологий, во всех регионах страны будут созданы учебные центры по информационным технологиям. В них молодёжь будет бесплатно обучаться электронной коммерции и программированию, приобретать инновационные навыки по ведению бизнеса в сфере информационных технологий, получать помощь своим «стартап» проектам. Кроме того, будет разработан, а потом и поэтапно воплощаться в жизнь, план мероприятий по обеспечению к 2021 году



компьютерных классов всех школ современным оборудованием и сетью высокоскоростного Интернета. Вновь создаваемые центры компьютерных игр будут обеспечены тестами, викторинами, стратегией развития и другими полезными программами, направленными на расширение знаний и мировоззрения представителей молодого поколения.

В целях укрепления у молодёжи навыка к чтению книг, в рамках новой инициативы в Республику Каракалпакстан и во всех области страны будут доставлены книги в количестве не менее чем по 1 миллиону экземпляров. Одновременно с этим, в центре каждого города и района будет создан один образцовый книжный магазин, размещены передвижные книжные павильоны, населению кишлаков и аулов через «Библиобусы» будут оказываться библиотечные услуги.[6]

Вообще говоря, на пути получения молодёжью образования и становления полноценными людьми, для создания современных, передовых инновационных условий Узбекистан прилагает все силы и пускает в дело все возможности. Ибо от того, насколько будет усилено внимание к всесторонней поддержке молодёжи, к воспитанию духовно развитого и физически здорового молодого поколения в духе патриотизма и самоотверженности, к защите его прав и интересов, зависит то, насколько высоким будет отдача от него. Именно по этой причине Узбекистан рассматривает молодёжный слой, который признаётся активным слоем общества, не как «проблему», а как огромную силу, способную обеспечить процветание страны, как стратегический ресурс государства. В результате, сегодня высокообразованная и по-современному мыслящая молодёжь с твёрдой жизненной позицией постепенно превращается в решающую силу завтрашнего прогресса страны.

Как видно из выше изложенного, в стране существуют все нормативно-правовые и организационные условия для развития балетно-танцевальных школ, кружков как в стране целом, так и в Республике Каракалпакстан в частности.

Во всех районах и в городе Нукусе функционируют детские школы музыки и искусств, в которых есть хореографические отделения. При этих отделениях организованы детские ансамбли народных танцев. В городе Нукусе есть три детских ансамбля – «Эмиў гүллери» («Цветы Аму») при школе имени Ешан баксы, «Жайна» – при школе №12, «Айкулак» – при школе №22. Все эти детские ансамбли являются как бы практической стороной обучения в детских школах музыки и искусств. Все эти ансамбли участвуют во всех праздничных мероприятиях, устраиваемых в честь знаменательных дат и государственных праздников, юбилеев, а также в различных конкурсах, фестивалях.

В ходе сбора материалы мы брали интервью у балетмейстера Ж.Турдымуратова, который как раз таки стоял на истоке организации хореографических отделений в музыкальных школах и детских хореографических коллективов, а также у художественного руководителя ансамбля «Тумарис» А.Рейпназарова. В ходе беседы выяснилось, что самодеятельные коллективы в организации и методическом руководстве своей деятельности не опираются на какие-либо конкретные календарно-тематические планы. Они в основном ставят две задачи: 1) научить ежегодно вновь набираемый коллектив танцевать; 2) подготовить репертуар для очередного выступления или выучить новый танец.

В ходе беседы с балетмейстером Ж.Турдымуратовым выяснилось, что детские школы музыки и искусств как учреждения образования имеют свои общие направления в обучении в смысле учебного плана и общих предметов, но методических разработок к конкретным занятиям не имеют. Здесь все связано с педагогическим мастерством и опытом педагога.

Кроме того удалось выяснить, что функционирующие в Республике Каракалпакстан хореографические ансамбли и кружки, коллективы в основном ориентированы на народные танцы. Коллективов, ансамблей, школ, изучающих другие виды хореографического искусства на сегодняшний день в Республике

Каракалпакстан нет. В 2000-2010-е годы в городе Нукусе недолго просуществовали кружки бального танца и хип-хоп. Ныне существуют занятия оздоровительными танцами в фитнес клубах. [7.С.35-36]

Но есть педагоги, балетмейстеры способные обучать бальным танцам, современным танцам. Иногда они обучают на заказ и ставят конкретный танец конкретному исполнителю.

Основной задачей предприятий социально - культурного сервиса является организация досуга населения. Из-за недостаточного финансирования, экономических трудностей, безработицы, пренебрежения местных органов власти, развитие в этой сфере происходит медленно.

Хореографическая деятельность является одним из широко распространенных во всем мире видов организации свободного времени. Обучая искусству танца, совершенствуя человеческое тело, его пластику, хореографическая деятельность облагораживает и духовно-нравственные качества человека. Хореографическая деятельность должна в первую очередь рассматриваться как способ развития общечеловеческих ценностей участников проектов. В частности, задача хореографического коллектива должна заключаться не только в сохранении моральных устоев и духовности участников, но и в убеждении в необходимости данных качеств для индивида.

Изучив деятельность хореографических ансамблей, функционирующих в Республике Каракалпакстан, мы можем разделить их на три группы:

1) профессиональные ансамбли, к которым относится ансамбль «Айкулаш жулдызлары», а также ансамбли песни и танца при районных и городских отделах культуры;

2) самодеятельные ансамбли народного танца, функционирующие при высших и средних специальных учебных заведениях, а также при районных и городских центрах, домах культуры, такие как «Арыўлар», «Нәўше», «Нәлше»;

самодеятельные ансамбли при детских школах музыки и искусств во всех районных центрах и городе Нукус. [8.С.132]

В ходе изучения организационно-методических

вопросов деятельности балетно-танцевальных школ, ансамблей в Республике Каракалпакстан нами было выявлено следующее:

1) Нормативно-правовые аспекты деятельности балетно-танцевальных школ, ансамблей опираются на законодательные акты Республики Узбекистан, регулирующие отношения в сфере образования, культуры, молодежной политики, а также на стратегию развития Узбекистана в 2017-2021 годы;

2) Все существующие в Республике Каракалпакстан хореографические школы, ансамбли направлены на воспитание всесторонне развитой, гармоничной личности, на совершенствование ее способностей и профессиональное становление;

3) Все профессиональные и самодеятельные хореографические ансамбли, кроме «Айкулаш жулдызлары» представляют сугубо народные танцы. Существующие в их репертуарах некоторые номера, представляющие другие виды хореографического искусства, носят единичный характер и служат в основном для выражения исключительных талантов того или иного солиста или группы танцоров;

4) Уроки классического танца имеют место только в школах музыки и искусства, но не всегда педагог имеет полную компетентность в этом направлении, так как в большинстве случаев педагоги – представители народных танцев;

Отсутствуют методические разработки по каракалпакскому народному танцу, тогда как все хореографические отделения школ музыки и искусств в основном учат именно ему. [9.С.243]

Учитывая все выше изложенное, предлагаем:

во-первых, разработать методические рекомендации, пособие по обучению каракалпакскому народному танцу;

во-вторых, организовать стажировки, курсы повышения квалификации педагогов хореографического отделения детских школ музыки и искусства, учитывая, что в большинстве случаев в этих отделениях преподают выпускники средних специальных учебных заведений, а Центр переподготовки педагогов и повышения их квалификации при Государственной консерватории Узбекистана рассчитана на педагогов в области музыки.

Список литературы:

1. Указ Президента Республики Узбекистан «О развитии национального танца и искусства хореографии в Узбекистане» //Вести Каракалпакстана, -1997. -8 янв.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» //Народное слово. -2017. -7 февр.
3. Постановление Президента Республики Узбекистан «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан» //Вести Каракалпакстана. -2018. -28 ноя.
4. Постановление Президента «О мерах по кардинальному совершенствованию системы подготовки высококвалифицированных кадров и дальнейшему развитию научного потенциала в сфере танцевального искусства» //Народное слово. -2020. -4 февр.
6. Азимова О.Н. Звуковой мир каракалпаков. –Ташкент: Мирзо Улугбек нашриёти, 2008. -252 с.
7. Литвинова Т.Г. Формирования Каракалпакского народно-сценического танца: диссертация на соискание кандидата искусствоведения. –Ташкент;1987. -36 с.
8. Петросова Е.А. Каракалпакский танец. –Ташкент: Чўлпон, 1976. -152 с.
9. Уснатдинов Ш. Полат Мадреймов – биринши каракалпак балетмейстери. –Қарақалпакстан: Нукус, 2011. -243 б.

Baxrom KULTASHEV,

O'zDSMI "San'atshunoslik va madaniyatshunoslik" kafedrasida o'qituvchisi

XALQ BILAN HAMNAFAS RASSOM

(Ro'zi Choriyev tavalludining 90-yilligiga bag'ishlanadi)

Annotatsiya. Maqolada 1950–1960-yillar O'zbekiston badiiy madaniyatida yuz bergan jarayon, dastgohli rangtasviridagi o'ziga xoslik, etnomadaniy izlanishlar, milliy mavzularga bo'lgan murojaat kabi masalalar rassom Ro'zi Choriyev ijodi misolida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: O'zbekiston rangtasviri, badiiy an'ana, o'ziga xoslik, etnomadaniy izlanish, ekspressiv, portretlar galereyasi.

Баҳром КУЛТАШЕВ,

преподаватель кафедры "Искусствоведение и культурология" ГИИКУз

ХУДОЖНИК В ГАРМОНИИ С НАРОДОМ

(посвящается 90-летию со дня рождения Рузы Чарыева)

Аннотация. В статье рассматривается процесс художественной культуры Узбекистана 1950-1960 годов, самобытность, этнокультурные поиски, обращение к национальной тематике на примере творчества художника Розы Чарыева.

Ключевые слова: живопись Узбекистана, художественная традиция, самобытность, этнокультурные поиски, экспрессивность, галерея портретов.

Bakhrom KULTASHEV,

Teacher of the Department of "Art and cultural studies", UzSIAC


THE ARTIST IN HARMONY WITH THE PEOPLE

(dedicated to the 90th anniversary of the birth of Ruza Charyev)

Abstract. The article examines the process of the artistic culture of Uzbekistan in the 1950-1960s, originality, ethnocultural searches, an appeal to national themes on the example of the artist Roza Charyev.

Key words: painting in Uzbekistan, artistic tradition, originality, ethnocultural searches, expressiveness, gallery of portraits.

XX asr O'zbekiston rangtasviri murakkab, ammo rang-barang yo'lni bosib o'tdi. Asr boshidan milliy rangtasvir shakllanishi turfa ijodiy konsepsiyalar bilan boshlangan bo'lsa, 1940–1950-yillarda qisqa turg'unlik davri bo'ldi. 1960-yillarda O'zbekiston tasviriy san'ati yo'lida keskin burilish, rassomlarning milliy etnomadaniy o'ziga xoslikni izlashlari va jahon tasviriy san'atiga dadil murojaatlari bilan belgilanadi. San'at tanqidchilari bu o'zgarishlarni "dogmatizm to'siqlari olib tashlanishi, tasviriy san'atda sotsialistik realizm metodini tushunishning tor doirasini kengayishi, progressiv rassomlar bilan xalqaro madaniy aloqalarning o'rnatilishi hamda butun dunyo zamonaviy badiiy jarayoni va san'at tarixini yorituvchi bosma axborotning sezilarli darajada o'sishi"¹ bilan izohlaydilar. Rangtasvirda dahshatli urush va uning mudhish oqibatlarini boshidan kechirgan insonning ichki olamiga e'tibor qaratildi, avlodidan ma'naviy komil shaxsni qidiruvchi zamonaviy qahramonlar mavzusi tiklandi. Ch.Axmarov, R.Axmedov, R.Choriyev, V.Jmakin, V.Kovinin, N.Qo'ziboyev, M.Saidov, G.Ulko, A.Abdullayev, Y.Yelizarov, T.Oganesov, R.Timurov kabi rassomlar milliy rangtasvirdagi ijodiy va uslubiy rang-baranglikni belgilab berdilar. Ba'zi rassomlar rangtasvirda milliy o'ziga xoslik yo'llarini, etnomadaniy qatlamlarni izlasalar (R.Axmedov, B.Boboyev), ba'zilari plastik yechimlar ortidan quvar edilar (G.Ulko, Y.Yelizarov), boshqalari esa milliy mavzularni rangtasvirona talqin etish (N.Kashina, G.Ulko, R.Choriyev, V.Burmakin,



Y.Taldikin) bilan mashg'ul bo'ldilar. R.Axmedovning "Turkman qizi", "Rassom B.Boboyev portreti", R.Akbal-yanning "Sharq bozori burchagi" (1971), "Urgut qovunlari" (1972), S.Abdullayevning "Gurzuf" (1963), "Gullar" (1966), Z.Inog'omovning "Cho'pon qo'shig'i" (1963), T.Kuryazovning "Kuylayotganlar" (1968), R.Choriyevning "Alla" (1969) asarlari rangtasvirdagi ijodiy turfa xillikka misol bo'la oladi. Bu asarlar milliy rangtasvirda sodir bo'layotgan tendensiyalar, "illqlik" davrining boshlanishi haqida tasavvur beradi.

1960–1980-yillar rangtasvirda muhim iz qoldirgan

¹ Такташ Р.Х. Изобразительное искусство Узбекистана (вторая половина XIX в. – шестидесятые годы XX в.) – Ташкент: Фан, 1972. – с. 178.

rassomlardan biri Ro'zi Choriyevdir. Rassom ijod namunalari katta qismi, xususan, ilk ijod davri O'zbekiston davlat san'at muzeyi to'plamidan munosib o'rin olgan. Ro'zi Choriyev yaratgan B.Zokirov (1969), I.Akbarov, Q.Basharov, M.Nabiyev (1970), R.Taktash (1973-1974) va R.Gamzatovlarning siyosiy aks etgan portret asarlar bugungi kunda to'plamning oltin fondida saqlanadi. "Ijod!.. Uni mendan ajratib bo'lmaydi!.. Ijod — bu men! Mening hayotim, qiziqishim. Dardim. Mening atrofimni o'ragan narsalar — havo, yorug'lik, quyosh!" deya ko'kragi to'lib gapirgan rassom hayotni jo'n falsafa bilan o'z asarlariga muhrlagan edi. Uning suratlari rassom tabiati aksidir, ularda barcha narsa sodda hamda bir vaqtning o'zida go'zallikka maftun rassom qalbining ifodasidir. Asosiysi, bu suratlarda noma'lum olam emas, balki nomini, xalqini ko'rganda yuragi hapqirib ketadigan vatani, O'zbekiston mujassam edi. Ro'zi Choriyev olamni bolalarcha beg'uborlik, soflik bilan qabul qildi va tabiiyki bu uning asarlarida ham xuddi shunday muhrlanib qoldi.

Surxondaryoning Poshxurd qishlog'ida tavallud topgan rassom bolalik chog'idan o'lkaning go'zalligini, maftunkor tabiatini va ajoyib insonlarini o'zida kashf etdi. O'n bir yoshidan bolalar uyiga tarbiyalanishga topshirilgan yosh Ro'zi ijod olamiga ilk qadamini shu yerdagi tasviriy san'at to'garagida qo'ydi.² Hayolparastlikka moyil ijodiy tabiati, rangtasvirga oshnoligi sabab tez orada u tarbiyalanuvchilar orasida "Ro'zi rassom" laqabini oldi. Yetimlikdagi uqubatli yillar uning rangtasvirga muhabbatini sindirmadi, aksincha, hayotning o'zi uni doimo san'atga oshno insonlar bilan yuzlashtirdi. Ro'zi Choriyev surxon zaminiga muhabbat ibtidosini Termiz muzeyning direktori, qadimshunos olim G.V.Parfyonov bilan bog'liq xotiralar bilan bog'laydi. U to'garakdagi bolalarni Zarautsoyga olib borib, ibtidoiy insonlar chizib qoldirgan suratlar bilan tanishtirib: "Mana, Surxondaryo! Mana, san'atning beshigi! Ro'zi, sen buni bil! Sev, bu tuproqni!" dedi. "Mening o'lkamiz tarixiga qiziqishimga o'sha odam sabab bo'lgan, deb hisoblayman!" — deb eslaydi rassom. Keyinchalik u butun O'zbekistonni piyoda aylanib chiqadi. Buxoro, Samarqand, Xiva, Varaxsha, Bolaliktepa, Sopollitepa, Xolchayon, ayniqsa Surxondaryoning biror bir go'shasi uning nigohidan chetda qolmadi.

San'atga qiziqish uni Respublika badiiy bilim yurtiga yetaklab keldi. O'qishga kirdi va uni 1959-yilda tamomladi. Ro'zi Choriyevning ijodkor sifatida shakllanishida I.Ye.Repin nomidagi Rangtasvir, haykaltaroshlik va me'morchilik instituti katta rol o'ynadi. U yerda bo'lajak rassom Y.Neprinsev, O.Yeremeyev, A.Romanichev kabi professional pedagog-rassomlardan ta'lim oldi va bir vaqtning o'zida G'arb san'atining nodir namunalari bilan tanishish, ijodiy daholarning hayot, abadiyat va go'zallik haqidagi asarlari bilan yuzma-yuz kelish imkoniyatiga ega bo'ldi. Shu bilan birga rassom O'zbekistonning quyoshli taftini, issiq ranglarga boy betakror tabiatini ham aynan shu yerda ilk marotaba qalban his qildi. Sankt-Peterburg muzey ekspozitsiyasida birinchi bor Kamoliddin Behzod miniatyuralarini ko'rgandan so'ng Ro'zi Choriyev "Men sariq bo'yoqlar bilan chizishni Behzoddan o'rgandim!.." deya e'tirof etadi. Akademik badiiy yo'nalish Ro'zi Choriyevda katta qiziqish uyg'otdi. Shuningdek, u mazkur

yo'nalishni bo'yoq surtmalarning jonli harakati, sezgilar tarovatini bilan boyitdi.

1964-yilda R.Choriyev O'zbekistonga qaytadi va tez orada respublikadagi yetakchi rassomlar safiga qo'shiladi. Qafasga solib bo'lmas iqtidor qudrati va mehnatkashlik tabiati rassomning portret, manzara, janrlari kompozitsiyalarda qo'plab yirik kartinalar hamda chizmatasvir asarlarini yaratishiga sabab bo'ldi. Bu asarlar bugungi kunda butun dunyo bo'ylab tarqagan, ko'plab nufuzli muzey kolleksiyalaridan va rassom do'stlarining shaxsiy to'plamlaridan o'rin olgan. Ro'zi Choriyev asarlarining jahon bo'ylab tarqalishiga asosiy omil bu uning ijod uchun joy tanlamasi tabiati, qiziqarli yoki go'zal insonlar, manzara yoki lavhalarini ko'rganda darrov muhrlab qolishga intilishi va bu ishlarni bag'rikeng saxovat bilan hadya etib yuborishidir. Asosiy istagi xorijiy yurt vakillarida "o'zbek xalqi", "O'zbekiston" nomini eshitganda ijobiy taassurot uyg'onishi edi.



Choriyev R. Kuz, Farg'ona vodiysi, 1966-yil.

Rassomning portret va manzaralari artofimizni o'rab turgan oddiylikda go'zallikni ko'ra olish, ularni abadiyatga daxldor, ulug'vor xususiyatlarini yoritib olish fazilati bilan hayratga soladi. Uning ijodiy taqdiri o'z xalqi, mamlakati bilan chambarchas bog'lanib ketgan. Ayniqsa, Surxondaryo uning san'atini mazmun bilan boyitdi. Ro'zi Choriyev yillar davomida qo'hna o'lkamiz an'anaviy hayot tarzini kuzatdi. Tabiatining har bir go'shasiga kirib borib, uning taftini vujudiga singdirib bordi. Natijada, rassom butun ijodiy umri davomida Surxon zaminiga bag'ishlangan dostonini oq qog'ozda qora rangda terilgan so'zlar bilan emas, balki rango-rang bo'yoqlar orqali yaratdi, uning insonlarini kuylab, matoga muhrladi ("Kelin", 1967; "Pishgan anor", 1968; "Surxondaryo madonnasi", 1969; "Qumqo'rg'on olmalari", 1977; "Sayroblik qariya", 1979; "Sayrob go'zali", 1979; "Ziyoda momo portreti", 1979; "Pashxurd", 1979 va b.). "Meni Surxondaryo rassom qildi!" deya xitob qiladi rassomning o'zi. Rassomga xos fazilatlardan biri — bu garchi ba'zi ishlarni bir nechta seanslarda, ba'zan esa oylar davomida yozsada taassurot sofligi, chiziq va bo'yoq quvvatini saqlab qola olish iqtidoridir.

Uning "Xumson oqshomi", "Boysun", "Bahor. Sherobod manzarasi", "Bog'lar" kabi manzaralarida plastik ifodaviylik va kolorit masalalari bilan bir qatorda, rassomning qalb harorati, olamni go'zal, bezakdor bo'yoqlarda qabul qilish dunyoqarashi uyg'unlashgan. Biror bir rangtasvir asarida salbiy tuyg'ular bo'roni, jilosiz ranglar majmui yoki ruhan qashshoq insonlar qiyofasini uchratmaymiz.

Ro'zi Choriyev ijodining muhim qismi portret janridagi izlanishlar bilan bog'liq. Dastlab akademik maktab

² Normatov N. Ro'zi Choriyevning so'nggi vasiyati. — Toshkent: San'at, 2009. — B 12.



Choriyev R. Kelin. 1967-yil.

xatti-harakati orqali individual xislatlarini chuqurroq yoritishga erishgan va bu jarayonda rang bezakdorligi hamda chiziq ekspressiyasidan foydalangan. Masalan, “Botir Zokirov portreti”, 1969; “Rassom R.Toqtosh portreti”, 1972; “Poshxurdlik qiz Barno”, “San’atshunos A.Umarov portreti”, 1977; “Surxondaryolik ayol”, 1985



Choriyev R. Sayrob go'zali. 1979-yil.

an’analari ta’limiga tayangan rassomning portret ishlarida realizm an’analari ustunlik qiladi. Insondagi bilim ziyosiga, ong va ijod samaralariga hamda ijodiy tafakkur natijalariga qiziqish bir qator san’at va ijodga aloqador shaxslarning portretlar galereyasining yaratilishiga turtki bo’ldi. Qizig’i shundaki, realistik ijod yo’nalishini tanlagan rassom portretda individual xarakteristika, portret o’xshashlik bilan bir qatorda shakl va rang borasidagi ijodiy tajribalarni ham barobar olib bordi. “Model xakteri, uning hissiyotlari va shaxsiyatining ko’lami asarlaridagi ekspressiv badiiy yechimiga asos bo’lgan. Mazkur ishlarda vaqt ritmini aks ettiruvchi makonning ifodaviy dinamikasi ziddiyatli kompozitsiya va ranglar majmui yechimi ranglarning hissiy ifodasi katta rol o’ynagan. Mazkur stilistik usullar uning kolxozchi portretlariga xos bo’lib, ularda, murakkab ichki olam, milliy va umumbashariy sifatlar qiyofa aniqligi bilan o’zaro uyg’unlik kasb etgan (“Mexanizator Ro’zi Toshevning ahil oilasi”, 1974; “Pashkurtlik cho’pon”, 1976; “Sayroblik qariya”, 1979 va boshqalar.)”³.

Rassom har bir tasvirlanuvchiga individual yondashgan holda shoirona lirika, nozik ekspressiya, erkin chizmatasvir ifodasi va ranglar majmuidagi jonlilik orqali ochib beradi. Portretlarda nafaqat tasvirlanuvchi balki rassomning qisman o’zi ham mavjud. Ro’zi Choriyev matolarga muhrlagan insonlar bu zamondosh obrazidir, ular kuchli ruhiy quvvatga ega shaxslardir. Uning mo’yqalami ostiga tushgan inson, u xoh talaba yoki qishloq ahli, xohishchi, bola yoki ayol, turli yosh, qiziqish, sohada bo’lmasin ularning gavda holati, atrof olami,

kabi asarlarining har birida alohida emotsional ohang mavjud

Avtoportret rassom ijodida alohida o’rin tutadi. U ilk ijodiy yillaridan to hayotining so’nggi yiliga qadar avtoportret yaratgan. Ro’zi Choriyev uchun avtoportret o’zlikni anglashga intilish, rang-tasvirona istig’for, his-tuyg’ular ifodasi va badiiy izlanishlar tajassumi edi. Rassom sifatida u doim biron-bir yangilik o’ylab topish payida bo’lard, turli badiiy an’analarni erinmay tadqiq qilar va o’zlashtirardi.

Ro’zi Choriyev hayotlik vaqtda bir soniya ham rassom bo’lmasdan yashagan emas. Hatto tashqaridan qarab ham bilmagan odamlar ko’rkam soqoli, doim kiyib yuradigan beretidan uning rassom ekaniga iqror bo’lar edilar. Uning qalbi, yuragi rangtasvirga mahbub edi va bu oshiqlikni bo’yoqlar orqali ifodaladi. Murakkab davr, hayot sinovlari, ochlik yoki to’qlik yillariga qaramay u hayotda va ijodda insoniylikni, hayotga oshuftalikni saqlab qola oldi. Shu bilan birga o’z oshiqligi bilan atrofdagi insonlarni quvvatlantirib turdi. Ro’zi Choriyev ijodi va pedagoglik faoliyati munosib baholanib O’zbekiston xalq rassomi, O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan san’at arbobi, “El yurt hurmati” ordeni kabi qator mukofotlar bilan e’tirof etildi. Rassom 2004-yilning 18-sentabrida dunyodan ko’z yumdi, biroq uning hayot va ijod yo’li yoshlar uchun munosib ibrat, zamondoshlariga esa yorqin xotira bo’lib qoldi. Rassomdan meros bo’lib nafaqat o’ziga xos badiiy uslub, zamin isi u furib turgan kartinalar, balki olam va odam haqidagi betakror fikrlar, qarashlar ham qoldi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. Такташ Р.Х. Изобразительное искусство Узбекистана (вторая половина XIX в. – шестидесятие годы XX в.). – Ташкент: Фан, 1972. -280 с.
2. Normatov N. Ro’zi Choriyevning so’nggi vasiyati. – Toshkent: San’at, 2009. – 128 b.
3. Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. -115 с.
4. Махмудов Т.М. Эстетика живописи Узбекистана. –Ташкент: Г.Гулям. 1983. -223 с.
5. Ахмедова Н. Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог. –Ташкент; 2004. –224 с.

³. Лаковская В.Л. Послевоенная станковая живопись Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1991. - с 81.

O'ZBEK FOLKLORINING YOSH AVLOD TARBIYASIDAGI AHAMIYATI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek folklorining qisqacha tarixi, janrlarga ajratilishi, ularning tarbiyaviy ahamiyati, folklor namunalarini yanada kengroq targ'ib qilish bo'yicha fikr-mulohazalar, takliflar keltirilgan.*

Kalit so'zlar: *folklor, maqol, doston, lirika, chaldirmoq.*

ЗНАЧЕНИЕ ЖАНРОВ УЗБЕКСКОГО ФОЛЬКЛОРА В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

Аннотация. *В данной статье рассмотрены краткая история узбекского фольклора, его классификация по жанрам, его воспитательное значение, идеи и предложения по более широкому распространению фольклора.*

Ключевые слова: *фольклор, пословица, эпос, лирика, перстень.*

THE IMPORTANCE OF THE GENRES OF UZBEK FOLKLORE IN EDUCATING OF THE YOUTH

Abstract. *This article provides a brief history of Uzbek folklore, its division into genres, their educational significance, comments and suggestions on the wider promotion of folklore.*

Keywords: *folklore, proverb, epic, lyric, to play.*

Bugungi globallashuv davriga kelib, tez suratlarda rivojlanib borayotgan dunyo madaniyati barchani hayratga solmoqda. Fan-texnika va axborot texnologiyalari taraqqiyot yutuqlaridan foydalanib, barcha sohalar bir-birini inkor etmagan holda yuksaklik sari yuz tutib bormoqda. Soha vakillari tomonidan ixtiro qilinayotgan olamshumul kashfiyotlar esa kishilarni o'z salohiyatlaridan yetarli darajada foydalanish imkoniyatini yaratmoqda. Respublikamiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta'kidlanganlaridek, "O'zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz bu xalqimizning ulkan intellektual va ma'naviy salohiyatidir. Bu salohiyatni yaratish va yanada ko'paytirishda hurmatli ziyolilarimiz ilm-fan va texnika namoyandalari, birinchi navbatda qadrlri va hurmatli akademiklarimiz, madaniyat, adabiyot va san'at, sport sohalarining vakillari butun vujudini berib, fidokorona mehnat qilayotganlarini biz yaxshi bilamiz va yuksak qadrlaymiz".¹ XXI asrni "Intellektual yoshlar asri" deb nomlanishi ham bejiz emas. Ertangi kun egalari bo'lgan yoshlarni har tomonlama bilimli va iqtidorli, tanlagan kasbining mohir ustasi bo'lishi uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilgan. Shunday ekan, yoshlarning to'g'ri tarbiya topishi, millatimiz va vatanimizga sadoqat ruhida ulg'ayishi, yurtimiz ravnaqiga munosib hissa qo'shadigan fidoyi insonlar bo'lib tarbiyalanishida adabiyot hamda san'atning o'rni beqiyosdir. Ushbu sohalar kishi ruhiyati bilan uzviy aloqador bo'lib, insonni komillik sari chorlaydi, olam va odam haqida taassurotga ega bo'lishga hamda fikrlashga undaydi. Ayniqsa, san'at dunyosi har bir insonda yashashga bo'lgan hayotiy tajriba va ko'nikmalarni shakllantiradi.

Ma'lumki, san'atning barcha turi kishini, mehr-muhabbat

sari intilish va insoniy fazilatlarini o'rgatishga xizmat qiladi hamda ezgulik sari chorlaydi. Har bir san'at turi insonni yashashga bo'lgan ishonchini oshirish shu bilan birga qalbi, shuuri, ruhiyatiga ijobiy ta'sir etib, uning estetik didini shakllantirish, ma'naviy dunyosini boyitish, dunyoqarashini o'zgartirish qudratiga egadir. Biz har kuni guvoh buladigan voqealar yoki ba'zan e'tiborimizdan chetda qolayotgan mehr-oqibat, insoniylik, ezgulik kabi tushunchalar aks etishi san'atning asosiy tamoyillaridan biridir.

Xalqning ma'naviy-ruhini yuksaltirish, yangilana-yotgan yurtimiz milliy-mafkurasi g'oyalari mustahkamlash va rivojlantirish O'zbekistonda davlat va jamiyat oldida turgan eng muhim vazifalardan hisoblanadi.

Ma'naviyat insonga havodek, suvdek zarur. Vatan va jahon madaniyati hamda adabiyot va san'ati yutuqlari har bir oilaga yetib borishi uchun oilaning moddiy ta'minlanganligidan qat'i nazar, qulay sharoitlar yaratish talab etiladi. Ijodkorlarning ma'naviy va ijodiy kuchiga erkinlik berish ham katta ahamiyatga egadir.

Shuni alohida takidlash joizki, san'at xalqning e'tibori va qalbini tez rom eta oladi. Mana shunday qulayliklarni hisobga olgan holda, san'at asarlarida dolzarb va kuchli g'oyalarni singdira olsa, barkamol avlod tarbiyasida bir qancha yutuqlarga erishiladi. Ana shunda tomoshabinlarga taqdim etilayotgan asarlar xalqimizni, ayniqsa, bugungi kun yoshlarini vatanga muhabbat ruhida voyaga yetishi, ular ongida milliy mafkura asoslarini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Har bir xalqning o'zligi, millat sifatidagi qiyofasini boshqalardan ajratib turuvchi o'ziga xos etnomadaniyatini aks ettiruvchi hilqat bu birinchi galda uning san'atidir. Qachonki, bu san'at milliy meros, badiiy yodgorliklar, folklor, og'zaki ijod manbalariga asoslangan bo'lsa, u to'laqonli millat qiyofasini ifodalagan bo'ladi. "San'atning obyektidir insondir", san'at va san'atkorlar doim inson uning orzu-armonlari, dardi va quvonchini, shuningdek, uning

¹ Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik o'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. -Toshkent:O'zbekiston, 2016. -B.13.

mavjud ijtimoiy hayotini tasvir etadi. Zero, har bir kunning o'z mavzusi bo'lishi mumkin lekin shunday g'oyalar borki, ular yillar o'tishi bilan o'zgarimasdan saqlanib qoladi. Bu esa albatta, xalqning uzoq o'tmishi, urf-odat va an'analarini ifoda etuvchi folklor merosi an'analaridir. Darhaqiqat, e'tibor beradigan bo'lsak, boshqa san'at turlarining aksariyatida, zamonaviylik muhim o'rinni egallasa, folklor namunalari esa qadimiyligi va milliyliги bilan qimmatlidir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida aytilganidek: "Har qaysi xalqning azaliy tarixi va madaniyati eng avvalo uning og'zaki ijodi – folklor san'atida, doston va eposlarida mujassam topgan bo'lib, ular millatning o'zligini anglash, uning o'ziga xos milliy qadriyatlarini va an'analarini saqlash va rivojlantirishda bebaho manba hisoblanadi.

O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalari asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro miqyosda yanada kengaytirish maqsadida" Surxondaryoda ilk bor xalqaro baxshichilik festivali o'tkazildi". Inson qadimdan atrof-muhitda ro'y berayotgan voqea-hodisalarga o'z munosabatini bildirgan. Bu munosabat, avvalo, turli xatti-harakatlar, ovozlari, ehtirolar vositasida amalga oshgan. Keyinchalik his-tuyg'ularni so'zlar, so'z yig'indisi, raqslar va og'zaki drama namunalari orqali ifodalagan. Keyinchalik, ijtimoiy-madaniyat rivojlangach, odamlar tabiat va undagi jonivorlar, o'simliklar, tog'lar, suvlarning paydo bo'lishini izohlovchi og'zaki usulga oid turli mavzularga bag'ishlangan to'qima hikoyalar o'ylab topdilar. Qabila va urug'larning mard va jasur yigitlari, ularning g'aroyib qahramonliklari haqida afsona va rivoyatlar paydo bo'ldi. Bularning hammasi hali yozuv madaniyati vujudga kelmasdan oldin jamoa-jamoa bo'lib yashagan kishilar o'rtasida shuhrat topgan. Bugungi kunda ular "xalq og'zaki og'zaki so'z san'ati ijodi" deb talqin etiladi.

O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi o'ziga xos bo'lib, unda boshqa xalqlar folklori bilan mushtarakligi, farqli tomonlari va an'analarining badiiy ifodasini ko'rish mumkin. Xalq og'zaki poetik ijodining asosiy xususiyati bu – ijodiy yaratuvchilik va ijrochilik jarayonining kollektivlik xarakteri, og'zakiligi, ko'p variant-versiyalarga egaligi, jamoaviyligi, anonimligi hamda an'anaviyligi kabi jihatlari bilan ham xarakterlanadi. Uning og'zakilik, variantlilik, ommaviylik, an'anaviylik, anonimlik kabi xususiyatlar nomoddiy madaniyatning ijro san'atiga xos boshqa turlariga ham bevosita va bilvosita taalluqlidir. Folklor namunalari og'zaki yaratilib, og'zaki ijro etiladi va shu jarayonda u turli davrlar tarixiy-folkloriy jarayonida sharoit taqozosiga ko'ra ijrochilar tomonidan boyitib boriladi. Xalq og'zaki poetik ijodining kollektivlik xarakteri individual ijrochilar faoliyatini inkor etmaydi. Chunki ular folklor namunalari saqlab qolishi bilan

birga, keng ommalashtiradi va shu bilan birga og'zaki an'analar doirasida uni yanada mukammallashtirgan holda yangilarini yaratadi.

"Folklor" termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846-yilda qo'llandi. "Folk" (folk) – "xalq", "lor" (lore) – "donolik", "donishmandlik" ya'ni "xalq bilimi", "xalq donoligi", "xalq donishmandligi" degan ma'noni anglatadi. "Folklor" termini xalqaro terminga aylanib, turli mamlakatlarda qo'llanila boshladi". Aslini olganda, folklor xalq tomonidan yaratilgan hamma san'at namunalari tushuniladi. Me'morlik, naqqoshlik, ganchkorlik, zardo'zlik, musiqa, raqs, og'zaki adabiyot namunalari – hammasini folklor deb tushunish qabul qilingan.

Har bir fan, sohaning muhim nazariy masalalari bo'ladi. Badiiy adabiyotni o'rganuvchi fan – adabiyotshunoslik deb ataladi. Xalq og'zaki poetik ijodini o'rganish sohasi esa folklorshunoslik, deyiladi. Folklorshunoslik adabiyotshunoslik tarkibidagi mustaqil fan hisoblansa-da, o'rganish obyekti badiiy adabiyot bo'lgani sabab bir qator umumiy va mushtarak jihatlari bor. Xususan, janrlar masalasi adabiyotshunoslik uchun ham, folklorshunoslik uchun ham muhim hisoblanadi. Faqat adabiyotshunoslikda yozma adabiyot vakillari qalamiga mansub g'azal, ruboiy, doston, noma kabi (mumtoz adabiyot); she'r, hikoya, roman, drama kabilar (zamonaviy adabiyot) ning janr xususiyatlari o'rganiladi. Folklorshunoslikda esa xalq og'zaki adabiyotidagi mif, qo'shiq, afsona, rivoyat, ibora, maqol, naql, ertak, doston, xalq og'zaki dramasi va bolalar folklori kabi janrlarning o'ziga xoslik tomonlari tadqiq etiladi. Ammo og'zaki usulda yaratilgan har qanday badiiy namuna qaysi shaklda yaratilganligidan qat'i nazar, har bir yo'nalishdagi yutuqlar va kashfiyotlar badiiy adabiyot san'ati uchun asosiy manba hisoblanadi. Folklor badiiy adabiyot san'ati va adabiyotshunoslik ilmi taraqqiyotiga qo'shilgan hissa sifatida baholanadi.

Jahon adabiyotida uchta adabiy tur mavjudligi (epos, lirika, drama) qayd etilgan, tan olingan. Janr deganda, ana shu uchta turlar tarkibini tashkil qiluvchi kichik turlar tushuniladi. Xalq og'zaki ijodi ham bunday turlar tizimidan iborat. Har bir folklor turi tarkibi muayyan janrlardan tashkil topgan. Chunonchi, lirik tur, epik tur, liro-epik tur, dramatik tur va paremiologik tur (xalq iboralari, maqollari, topishmoqlari, latifalari, loflari, sanamalar, erkalamalar, olqishlar, qarg'ishlar, duolar)lardan iboratdir. Mazkur nazariy masalani ilmiy asosda o'rgangan folklorshunos Bahodir Sarimsoqov avval qayd etilgan to'rt tur qatoriga beshinchisini ham qo'shgan va uni "maxsus tur", deb atagan. Bu tur tarkibini: "oddiy o'tirish olqishlari, qarg'ish, so'kish, maqol, matal, topishmoq va boshqa xildagi yumuq iboralar", deb belgilagan. Yuqorida keltirilgan janrlarda bir tomondan muayyan vaziyat, voqea-hodisa haqida tasavvur hosil qilish uchun aniq ma'lumot, axborot mavjud bo'lishiga qarmay, aytilgan matnning hajm jihatdan o'ta ixchamligi alohida ko'zga tashlanadi.

Taniqli folklorshunos olimlardan V.M.Jirmunskiy va H.T.Zarifov o'zbek xalq og'zaki ijodidagi dostonlarni "Qahramonlik eposi" deb ataydi. 1947-yilda Moskvada e'lon qilingan katta hajmdagi kitobni "O'zbek xalq qahramonlik eposi" deb nomlaydi va unda "Alpomish", Go'ro'g'li turkumiga oid dostonlar, "Kuntug'mish" kabi qahramonlik, sarguzasht, ishqiy-romanik va tarixiy dostonlar tahlil etilgan.

Hayotda turli voqea-hodisalar ro'y beradi. Lirik asarlarda ana shu turmush lahzalari ta'sirida shaxs qalbida paydo bo'lgan his-tuyg'u kechinmalar ifodalanadi. Ana shu

² Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qarori //Xalq so'zi. 2018. -1 noy.

³ Murodova M. Follor va etnografiya: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Aloqachi, 2008. - b 5.

xususiyati bilan lirika eposdan farqlanadi. Chunki bunday asarlarda bosh maqsad sodir bo'lgan hayotiy voqeani emas, balki ana shu voqeaga nisbatan ichki munosabat tarzida ifodalovchi ruhiy taassurotlarning namoyon bo'lishini izohlaydi. Shuning uchun lirik asarlarda aks etgan voqea bayonini aynan emas, nisbiy tushunish lozim. Masalan, "Alpomish" dostoni "Burungi o'tgan zamonda, o'n olti urug' Qo'ng'iro't elida Dobonbiy degan o'tdi. Dobonbiydan Alpinbiy degan o'g'il farzand paydo bo'ldi. Alpinbiydan tag'in ikki o'g'il paydo bo'ldi: kattakonining otini Boybo'ri qo'ydi. Kichkinasining otini Boysari qo'ydi",⁴ deb boshlanadi. O'z-o'zidan ma'lumki, Fozil Yo'ldosh o'g'li dostonni tinglovchiga aytilajak asardagi voqealar qanday boshlangani yuzasidan ma'lumot bermoqchi. Matnda baxshi Qo'ng'iro't, Dobonbiy, Alpinbiylar bilan tinglovchini tanishtirmoqda. Aslini olganda, dostonning to'liq mazmuni ana shunday xabarlar tizimidan iborat.

O'zbek folklorining ommalashgan o'ziga xos janri hisoblanadigan, lirika qo'shiqlar ham folklorning barcha janrlariga tegishli bo'lgan og'zakilik, jamoaviylik, an'anaviylik, variantlilik qonuniyatlari asosida rivojlanadi, kuylanadi, keng omma orasiga yoyiladi va avloddan-avlodga o'tib an'analashadi. Har qanday qo'shiq jamoaviy ijod mahsuli. Ammo bu holat el orasida mashhur talantli, professional qo'shiq ijrochilari bo'lganligini, ularning ijro mahorati, iqtidori sabab qo'shiqlar go'zal shaklda bizgacha yetib kelganligini inkor qilmaydi. Shu boisdan ham, xalq ongida Sumbula haqidagi tasavvurlar, maqollar va afsonalar mavjud bo'lgan va ba'zilar bizgacha yetib kelgan.

Xalq og'zaki ijodining navbatdagi va eng faol janri – maqoldir...

Maqol deb xalqning ijtimoiy-tarixiy, hayotiy-maishiy tajribasi umumlashgan badiiy, obrazli mulohazalardan iborat hikmatli so'zlariga aytiladi. Xalq maqollarining mazmun ko'lamini inson hayotining turli sohalari aks etgan mavzularni qamraydi.

Topishmoqlar hajmi va shakliga ko'ra maqollarga o'xshaydi. Ba'zan mazmuniga ko'ra ham yaqinlik seziladi. Ammo yaratilish maqsadi boshqa hisoblanadi. Topishmoqning paydo bo'lishi haqida folklorshunoslikda aniq daliliy ma'lumotlar yo'q. Odatda, topishmoqlar xalq hayotining barcha sohalari egallagan bilan ham diqqatga sazovor. Maishiy hayotdagi, ijtimoiy muhitdagi munosabatlar topishmoq mavzularida o'z ifodasini topadi. Yaqin vaqtlargacha chaldirmoqlar topishmoq janri tarkibida qaralib, baholanib keldi. Qadimda chaldirmoq o'y shaklida amal qilgan. Chaldirmoqni ko'pchilik yoki ikki kishi o'ynasa ham bo'ladi. Topishmoqlar ixcham, lo'nda she'riy shaklga ega. Ularda vaziyat va holat batafsil izohlanmaydi. Chaldirmoqda vaziyat to'liq tushuntiriladi. Chaldirmoq bolalarning ma'lum badiiy matnga qurilgan harakatli o'yini hisoblanadi.

Xalq og'zaki ijodi janrlari, ularning tarkibi, ularning qaysi tur, janrlarga bo'linishidan tashqari, millatning

o'tmishi, tarixiy lavhalarini turli shakl va badiiy vositalar orqali ifodalagan bir butun meros ekanini tasdiqlaydi. Janrlararo yaqinlik og'zaki ijodning asrlar davomida dunyoqarashi jihatidan yaqin ijodkorlarning iqtidori mahsuli natijasi sifatida baholanishi mumkin. Og'zaki asar qaysi janrga taalluqli ekanidan qat'i nazar yosh avlodning barkamol farzand bo'lib yetishishini ta'minlash maqsadini amalga oshirish mexanizmi bo'lib xizmat qilgan.

Yuqorida keltirib o'tgan ma'lumotlar ko'p bora o'rganilgan bo'lsa-da, mutaxassislar tomonidan keng tahlil qilinagan mavzudir. Biroq o'zbek folklori namunalari tarbiyaviy ahamiyati haqida so'z borganda, har gal yangi jihatlarini kashf qilinaveradi. Milliy o'zlik, o'zbekcha tarbiya, o'zbekcha fikrlash, o'zbekcha dunyoqarashni shakllantirish, o'zbekona urf-odatlariga hurmatni yanada oshirish masalasi turadi. Folklor asarlari nafaqat o'zining purma'no so'zlari, takrorlanmas, harakatlari bilan, balki, jozibador va aynan milliylikni yaqqol ifodalovchi liboslari bilan tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Bu soha bugungi kunda davlatimiz tomonidan yuksak e'tirof etilayotgani, baxshilar, hududlar kesimidagi folklor jamolari faoliyatini yanada kengaytirish, ularni har jihatdan qo'llab-quvvatlashi bejiz emas albatta.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda aksariyat yoshlar (o'rta yosh vakillari ham) "zamonaviylik" tushunchasini biroq noto'g'ri talqin qilayotgandek tuyuladi. Zamonaviylik – zamon bilan hamnafaslikni bildiradi, aslo milliylik yoki o'zlikni turli fan-texnika ta'siri va o'zga etnoslar tomonidan urfga kiritilgan "ommaviy madaniyat" taqlidiga berilib, milliylikni unutish kerak, degani emas. Biz ushbu soha vakillari bugungi kunda xalqimizni uzoq yillik tarixga ega bo'lgan folklor san'ati, uning namunalari yanada kengroq targ'ib etish masalasida ko'p bor bosh qotiramiz. Bizning O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutimizda mavjud yo'nalishlar va ularning kafedra o'qituvchi va talabalari o'rtasida o'zaro ijodiy hamkorlik ishlari yo'lga qo'yilgan. Bunday hamkorlik yildan-yilga o'z samarasini bermoqda. Aynan "Teatr san'ati" hamda "Xalq ijodiyoti" fakultetlari hamkorligidagi amaliy ishlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Jumladan, qo'g'irchoq, musiqali va dramatik teatr aktyorlari va rejissorlari bilan birgalikda aynan xalq dostonlari, folklorning yuqorida keltirilgan boshqa janrlariga mansub asarlarni sahnalashtirish, bugungi kun yoshlari saviyasiga mos ravishda san'atning faol shakllari orqali foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, teatr, kino, qo'g'irchoq film va teatrlar, klip san'ati singari vositalarida tomosha san'atida targ'ib qilish ijobiy natijalar beradi. Eng asosiysi, ularni maktab, kollej, litsey va hatto boshqa oliygohlari o'quv rejadari dasturlariga kiritish, shuningdek, respublika, viloyat, shahar madaniyat muassasalari ish jarayonlariga kiritib, ommaviy-badiiy tadbirlarda namoyish qilinib, tarixiy an'ana davom ettirilsa, shu yo'nalishda yangi festivallar tashkil etilsa, o'ylaymizki, bu kabi ishlar o'z samarasini bermay qolmaydi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Jo'rayev M. Folklorshunoslikka kirish: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Barkamol fayz media, 2008. –178 b.
2. Murodova M. Folklor va etnografiya: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Aloqachi, 2008. –99 b.

Internet saytlaridan olingan manbalar:

3. Baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev Qarori //Xalq so'zi. 2018. -1 noy.
4. O'zbek tilining izohli lug'ati / <https://ziyouz.uz/>
5. "Alpomish" dostoni / [https://qomus.info /](https://qomus.info/)

³. Alpomish dostonidan.(elektron manbaa)

Gulshira SAPARBAYEVA,
O‘zDSMI Nukus filiali “Madaniyat va kutubxona faoliyati” kafedrasini mudiri
Asilbek QOLQANATOV,
O‘zDSMI Nukus filiali talabasi

QORAQALPOG‘ISTONDA MADANIYAT MARKAZLARI FAOLIYATINING SHAKLLANISHI

Annotatsiya. Mazkur maqolada Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi madaniyat markazlarining ilk faoliatiga doir axborot berilgan. Madaniyat markazlarining vujudga kelish jarayonlari, rivojlanish bosqichlari hamda bugungi kundagi faoliyati haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: madaniyat markazlari, folklor, madaniy-ma‘rifiy muassasalar, san‘at, havaskorlik, to‘garak.

Гулшира САПАРБАЕВА,
Заведующая кафедрой “Культура и библиотечная деятельность” Нукусского филиала ГИИКУз
Асылбек КОЛКАНАТОВ,
студент Нукусского филиала ГИИКУз

ФОРМИРОВАНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ КУЛЬТУРНЫХ ЦЕНТРОВ В КАРАКАЛПАКСТАНЕ

Аннотация. В данной статье представлена информация о деятельности культурных центров в Республике Каракалпакстан в прошлом. Дан обзор процессов развития культурных центров, этапов их развития и сегодняшней деятельности.

Ключевые слова: культурные центры, фольклор, культурно просветительные учреждения, искусство, любительский, кружок.

Gulshira SAPARBAEVA,
Head of the department of “Culture and library activities”, Nukus branch of UzSIAC
Asilbek QOLQANATOV,
Student of Nukus branch of UzSIAC

FORMATION OF ACTIVITY OF CULTURAL CENTERS IN KARAKALPAKSTAN

Abstract. This article provides information on the first activities of cultural centers in the Republic of Karakalpakstan. There is an overview of the processes of development of the centers, stages of development and its activity today.

Key words: cultural centers, folklore, cultural and educational institutions, art, amateur, circle.

Yoshlarning ma‘naviy yetuk inson sifatida shakllanishida madaniyat markazlarining faoliyati va ijodiy ishlarining natijasi katta ahamiyatga ega. Chunki madaniyat markazlari insonlarning turmush tarzi, zamon taqozo etgan masalalari va ijtimoiy jarayonlarni o‘zida aks ettirib insonlar ongida go‘zal va ezigulikni tarannum etuvchi ma‘naviyatning yuksak sohasidir. Moziydan nido, o‘tmishdan sado berguvchi insoniyatning umumbashariy qadriyatlarini o‘zida jamlagan madaniyat sohasi hamma vaqtda insoniyatning tarbiya manbai sifatida xizmat qilib kelgan.

Qoraqalpog‘istonda madaniyat markazlarining paydo bo‘lishi uzoq o‘tmishga borib taqaladi. Ma‘naviy qadriyatlarni tiklash va milliy mentalitetimizni, ma‘naviy merosimizni, milliy madaniyatimizni, folklor an‘analarni saqlash, targ‘ib qilish va rivojlantirishda madaniyat markazlarining ahamiyati katta bo‘lgan. Barcha xalqlar va millatlar kabi qoraqalpog‘ xalqining ham asrlar dovomida sayqallanib, otadan bolaga o‘tib saqlanib kelayotgan boy milliy madaniy meroslarga ega ekanligi ma‘lum. Bularning barchasi tarixiy manbalarda, xalq og‘zaki ijodida, to‘y-hashamlarda, marosimlarda, kundalik turmush tarzi va urf odatlarida, an‘analarda, liboslaridagi milliy naqshu-bezaklarida, qiz-yigitlar bazmlaridagi javob aytishuvi, hazil-mutoyibalarida, yoshlar o‘yinlarida o‘ziga xoslikning namunalarini ko‘rish mumkin. Madaniyat

markazlar faoliyatini o‘rganish jarayonlarida uning mohiyatini ilmiy jihatdan tadqiq etishda mafkuraviy va xalqchil tamoyillarga e‘tibor qaratilgan. Shuningdek, yoshlar tarbiyasidagi madaniy darajani yuksaltirish borasida ommaning ma‘naviy talablarini qondirishga asoslangan g‘oyaviy tarbiyaviy hamda tashkilotchilik ishlari madaniy markazlarning faoliyati hisoblangan.

Aholi dam olish maskanlari – madaniyat markazlari, kutubxonalar, muzeylar, parklar (hozirgi madaniyat va dam olish bog‘lari) hisoblanadi. Madaniyat muassasalari ommaviy, madaniy-ma‘rifiy ishlarni olib borishda katta tizim bo‘lib kelgan.

Og‘zaki jurnal, turli kechalar, uchrashuvlar, ko‘rgazmalar va havaskorlik jamoalarini tashkil etish, konsert va festivallarni o‘tkazishda tashkilotchilik faoliyati katta ahamiyat kasb etgan. Madaniy tadbirlar, teatr tomoshalarini saxnalashtirish, bayram va xalq sayillarini o‘tkazish jarayonida uning uslubiyoti manba sifatida xizmat qilgan.

Qoraqalpog‘istonda avval madaniyat maskanlari bo‘lgan va xalqimizning ziyolilari madaniyatimizning rivoji uchun madaniy ommaviy ishlarni olib borgan. Madaniy-ma‘rifiy muassasalar o‘sha davrlarda “Qizil uy”, “Qizil o‘tov”, “Qizil arava”, “Qizil karvon”, “Qizil burchak”, “Qizil kater” kabi nomlar bilan nomlangan [1.10]. Bir joyda yoki ko‘chmanchi tarzda faoliyat yuritgan.

Qoraqalpog'istonda dastlabki madaniyat markazlarining ochilishlariga aloqador ularni professional bilimga ega mutaxassislar bilan ta'minlash zarurligi paydo bo'ldi. Mana, shuni hisobga olib, 1937-yili To'rtko'l shahridan dastlabki vokal-musiq uchilishi ochildi. So'ngra uchilishga yetti yillik ma'lumoti bor tayyor o'quvchilar bo'lmagandan so'ng o'qish o'rning bazasini ko'tarish, ma'lumoti bor o'quvchilarni ko'paytirish maqsadida 1939-yildan boshlab, yetti yillik musiqa maktabi bo'lib qayta tashkil etildi. Maktabga Sobiq ittifoqning ko'p joylaridan mutaxassis musiqachi muallimlar chaqirildi. [2.3].

Bu muassasalarda targ'ibot va tashviqot ishlarini tashkil etishda boshqaruv faoliyati uchun maxsus shaxslar bo'lmagan. Xalqimiz o'zlarining urf-odat va an'analari, qoraqalpog'istonda madaniyat va san'at sohasida kadrlar bilan ta'minlanish imkoniyati yaratildi. Oliyog'ni tugatgan talabalar Respublikamizning madaniyat sohasida o'z faoliyatini olib borib, tarixan qisqa vaqt ichida markazlar ishini yangi bosqichga ko'tardi. Prezidentimizning farmon va qarorlari asosida madaniyat va san'at sohasi ishlarini rivojlantirishga e'tibor ko'chaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013–2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 25-iyun qaroriga asosan "Madaniyat markazlari ishlarining zamonaviy ish faoliyatining olib bo'lishida tubdan burilish yasaldi. Qarorda madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan ko'rsatilayotgan madaniy-ommaviy xizmatlar bilan aholining keng qatlamlarini ta'minlashni hisobga olgan holda ularning moddiy-texnika bazasi yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholi dam olish markazlarining vazifalariga muvofiqligiga, shu jumladan, ko'p funksiyali zali mavjudligiga alohida e'tibor qaratilgan holda har bir shahar va tuman bo'yicha madaniyat va aholi dam olish markazlarining sxemasini tasdiqlash belgilangan. Shuningdek, madaniyat uylari va klub muassasalarini makbullashtirish natijasida bo'shab qoladigan binolarni saqlashni va ulardan samarali foydalanishni, ularga zarurat bo'lmagan taqdirda esa ularni birja va birjadan tashqari savdolarida sotishni, shuningdek, ulardagi mavjud fodalanihga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarining yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholining dam olish markazlari balansiga belgilangan tartibda berilishi qayd etilgan"[5.1]. ushbu qaror mazmunida vazifalar ko'rsatilgan. Madaniyat markazlarining ish faoliyatining taraqqiyotida davlatimiz tomonidan tadbir etilgan qarorlar va farmoyishlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

XX asrga kelib mutaxassis olimlar va tadqiqotchilar tomonidan madaniyat markazlari va klublar tarixiga oid ma'lumotlarni yig'ish ishlari olib borildi. Qoraqalpog'istonda madaniyat muassasasi va klub ishlari va san'atshunoslik bilan shug'ullanuvchi olimlar o'z faoliyatini yanada kuchaytirdi. 1919-yili To'rtko'l'da birinchi davlat san'at muassasasi – musiqiy jamoasining bo'limi ochildi.

Uning vazifasi Amudaryo bo'limining havaskorlar to'garaklarini birlashtirishdan, ularga rahbarlik qilishdan, shaharlarda pullik spektakllar, konsertlar va kechalar tashkillash, shuningdek, markaziy tumanlardan mutaxassislarni chaqirishdan iborat bo'ldi. 1920-yili Qo'ng'iro't yoshlari qo'mitasining qoshida 25 kishilik teatr to'garagi ochildi. Shunday to'garaklar 1920–1921-yillari Chimboyda, Sho'roxonda, Shabbozda tashkil etildi. To'rtko'l'da 1921-yilda ochilgan shahar klubi bo'lg'usi teatrning shakllanishiga imkoniyat yaratdi [3.364].

Toshkentda qoraqalpoq madaniyati va san'ati kunlarining va dekadalarining o'tkazilishi madaniyat markazlarining ish faoliyatini ancha rivojlantiradi. O'zbekiston san'at va adabiyot vakillari bilan birga qoraqalpog'istonlik yozuvchi va san'atkorlarining dekadasi ishtirok etishi ularning malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Bu katta shodiyonada Respublikadagi barcha madaniyat markalari, xalq teatri, havaskorlik jamoalar va to'garak a'zolari faol qatnashgan. Madaniyat markazlari faoliyatini rivojlana boshlagan. 1995-yilda esa Respublikamizda Madaniyat ishlari Vazirligiga qarashli 218 klub muassasalari faoliyat olib borgan [4.8].

Madaniy-oqartuv muassasalarining haqiqiy tashkilotchilari sovet ittifoqi emas, mahalliy xalq bo'lgan. 2013-yilda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo'yicha 1777 ta madaniyat uylari va klub muassasalari xalqqa madaniy xizmat qilgan.

Shuningdek, turli mazmundagi tadbirlar, ijodiy kechalar, festivallar, tanlovlar, marafonlarni tashkil etish asosiy sifatida belgilangan. Aholining madaniy dam olishi va bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishi bo'yicha o'ziga xos

ma'naviy oziq va asosiy manba sifatidagi targ'ibot va tashviqot ishlarining mazmuni mafkuraviy g'oyani qullab quvvatlashdan iborat bo'lgan.

Milliy madaniyat va san'atni rivojlantirish va oliy toifali kadrlar bilan ta'minlash maqsadida 2008-yil 28-aprelda O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 845-son qarori bilan O'zbekiston davlat san'at instituti Nukus filiali tashkil etildi. 2012-yil 4-iyundagi 1771-son Prezident qaroriga asosan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali qayta tashkil etildi.

2013–2014-yillar filial tarixida muhim sana bo'ldi. Chunki institutda yangi yo'nalish "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish va boshqarish" bo'limi ochildi. Qoraqalpog'istonda madaniyat va san'at sohasida kadrlar bilan ta'minlanish imkoniyati yaratildi. Oliyog'ni tugatgan talabalar Respublikamizning madaniyat sohasida o'z faoliyatini olib borib, tarixan qisqa vaqt ichida markazlar ishini yangi bosqichga ko'tardi. Prezidentimizning farmon va qarorlari asosida madaniyat va san'at sohasi ishlarini rivojlantirishga e'tibor ko'chaytirildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013–2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013-yil 25-iyun qaroriga asosan "Madaniyat markazlari ishlarining zamonaviy ish faoliyatining olib bo'lishida tubdan burilish yasaldi. Qarorda madaniyat va aholi dam olish markazlari tomonidan ko'rsatilayotgan madaniy-ommaviy xizmatlar bilan aholining keng qatlamlarini ta'minlashni hisobga olgan holda ularning moddiy-texnika bazasi yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholi dam olish markazlarining vazifalariga muvofiqligiga, shu jumladan, ko'p funksiyali zali mavjudligiga alohida e'tibor qaratilgan holda har bir shahar va tuman bo'yicha madaniyat va aholi dam olish markazlarining sxemasini tasdiqlash belgilangan. Shuningdek, madaniyat uylari va klub muassasalarini makbullashtirish natijasida bo'shab qoladigan binolarni saqlashni va ulardan samarali foydalanishni, ularga zarurat bo'lmagan taqdirda esa ularni birja va birjadan tashqari savdolarida sotishni, shuningdek, ulardagi mavjud fodalanihga yaroqli musiqa asboblari va anjomlarining yangidan tashkil etiladigan madaniyat va aholining dam olish markazlari balansiga belgilangan tartibda berilishi qayd etilgan"[5.1]. ushbu qaror mazmunida vazifalar ko'rsatilgan. Madaniyat markazlarining ish faoliyatining taraqqiyotida davlatimiz tomonidan tadbir etilgan qarorlar va farmoyishlarning roli muhim ahamiyat kasb etadi.

2018-yil 28-noyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-sonli Prezident qarori esa Qoraqalpog'istonda milliy madaniyat markazlari uchun yangi tarix sahifasini yaratib, markazlar oldiga yangi vazifalar yukladi. Markazlar mavsumiy tadbirlar va sahna asarlari bilan shug'ullanib, faoliyat doirasini kengaytirishda vazifalarni belgilab oldi. Yoshlarni san'atga yo'naltirishda muntazam jalb qilish uchun zamonaviy Wi-Fi hududlari tashkil etila boshlandi. Qoraqalpog'istondagi barcha madaniyat maskanlarini joriy qayta ta'mirlash ishlari olib borildi.

2019–2020 yillarda O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni rivojlantirish konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Qarorga asosan quyidagi vazifalar belgilab berildi:

• Madaniyat sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy etish, madaniyatni yanada keng tadqiq va targ'ib qilish, innovatsion g'oyalar va texnologiyalardan samarali foydalanish;

• Milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizni yoshlar ongiga singdirishda etnik madaniy an'analarni asrab avaylash va shu asosida xalq ijodiyotini qo'llab-quvvatlash;

• Yoshlarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart sharoitlarni yaratish va kengaytirish [6.1];

Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, ularning madaniy ehtiyojlarini qondirish va bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini ta'minlash bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Ijodiy jamoalarning milliy qadriyat, urf-odat va an'analarni o'zida mujassam etgan namunali dasturlarni shakllantirish vazifalari yuklandi. Yoshlarimizga milliy meroslarimizni o'zida jamlagan zamonaviy asarlarning mazmunini teran anglashda, ularning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishimiz va ijodiy ishlarga qatnashib muvaffaqiyatga erishish borasida imkoniyat yaratish zarur.

2018-yil 28-noyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori madaniyat sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, madaniyat va sa'nat muassasalarining madaniy xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, soha mutaxassislarini ijtimoiy muhofaza etishga doir huquqiy va amaliy ishlarni mustahkamlashga yo'l ochib berdi. Shuningdek, yosh ijodkorlarga ta'lim-tarbiya berish, yuqori tajribaga ega kadrlarni tayyorlash va ularning tajribasini oshirish bo'yicha tizim yaratish, moddiy-texnik bazani zamon talabi va xalqaro standartlarga mos ravishda, tarixiy va madaniy merosimizni saqlash hamda uni yosh avlodlar tarbiyasida keng qo'llash, etnik madaniy an'analarni asrash va xalq ijodini qo'llab-quvvatlash masalalariga doir chora-tadbirlarning amalga oshirilishi muhim vazifa hisoblanadi.

Bugungi kunda xalqning ma'naviy dunyosini rivojlantirishda madaniyat markazlarining o'rni juda ahamiyatli. Xalqning ma'naviy dunyosini boyitishning birinchi vazifasi ularning fikrlash qobiliyatini har tomonlama shakllantirish, demokratik jamiyatda olg'a intilishning samaradorligiga erishish, vatanparvarlik, millatlar hamjihatligida har bir sohaning rivojlanishi tufayli mehnat qilish an'analarni shakllantirishdan iborat. Shu bilan birga, madaniyat sohasida samarali xalqaro munosabatlarni tashkil etish, rivojlantirish, milliy madaniyatga jahon madaniyatining ajralmas qismi sifatida qarash, teng huquqlilik va inson

huquqlarini muhofaza qilishda o'ziga xos faoliyat kasb etadi. Madaniy-ma'rifiy faoliyatning ko'pchilik yo'nalishlari ijtimoiy ahamiyatga ega vazifalarni bajaradi, jumladan, ommaning ijtimoiy-madaniy ijodini hamda ijtimoiy faolligini rivojlantiradi va jamoatchilikning fikrini shakllantiradi. Shaxsga ta'sir etish orqali ommaning intiluvchanligining o'ziga hosligi shundan iborat, har bir inson madaniy-ma'rifiy tadbirlarda faqatgina tamoshabin yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki yuz berayotgan hodisalarning faol ishtirokchisi, o'z qarashlarini ta'riflovchi shaxs sifatida ishtirok etishi mumkin. Shuningdek, ommaning qiziquvchanligi insonga ijtimoiy tarafdin o'z-o'zini namoyon etish imkoniyatini yaratadi.

Madaniy-ma'rifiy muassasalar insonni ixtiyoriy ravishda, har doim hurmat va ishonch ruhida ijodiy faoliyatga yo'naltiradi. Agar, mehnat jamoatchiligida insonning faoliyatida moddiy sabablar belgilansa, madaniy-ma'rifiy faoliyatda, birinchi navbatda, faoliyatning mazmuniga qiziquvchanlik asosi ko'rinadi, ixtiyoriylik madaniyat va ma'rifat muassasalari tomonidan taklif etiladigan faoliyat turlaridan biri sifatida shaxsning bo'sh vaqtlarida madaniy faoliyatining mazmunini o'zi tomonidan belgilab olishini belgilaydi.

Tarbiya – shaxsda aniq bir jismoniy, ruhiy, odab-ahloq, ma'naviy sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan amaliy pedagogik jarayon, insonning jamiyatda hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan xususiyatlarga ega bo'lishini ta'minlash yo'lida ko'rsatiladigan chora-tadbirlar yig'indisi. Tarbiya-insonning insoniyatini ta'minlaydigan eng qadimiy va abadiy qadriyatidir.

Tarbiya har qanday jamiyat va davlat hayotida hal qiluvchi muhim ahamiyat kasb etali. Yosh avlodning, umuman, jamiyat a'zolarining tarbiyasi bilan yetarlicha shug'ullanmagan mamlakat turg'unlik va inqirozga mahkumdur. Negaki, o'sishi va rivojlanishi uchun har qanday jamiyatda ham moddiy va ma'naviy boyliklarni ishlab chiqarish to'qtovsiz ravishda yuksalib borishi lozim. Buning uchun yosh avlod moddiy va ma'naviy boyliklarni yetishtirishni buyuk ajdodlari darajasida, ulardan ham yaxshiroq ishlab chiqara bilishlari kerak[7.19].

Madaniyat markazlarining vazifasi yoshlarning ma'naviy yetukligini tarbiyalashdan iborat. Madaniy faoliyat shaxsda ma'naviy, odob-axloqiy, estetik yetuklik darajasiga gina emas, balki uni keng ma'noda ijtimoiy jamiyatning muhim talabi asosida fikr yuritib borishida faollikni oshirga yordam beradi. Bundan kutilgan natija har tomonlama yetuk ma'naviyatli shaxsni shakllantirishdan iborat.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Allanazarov T. Qoraqalpaq teatrinda milliy rejissuraning qaliplesio'i. –Nekis: Bilim, 1996. -64 b.
2. Adambayeva T. Kerkem onerimizdih turg'ish otao'i //Yerkin Qaraqalpaqstan. -2008. -4 iyun.
3. Tariyx, arxeologiya ham etnografiya instituti. Qaraqalpaqstan: XIX asirdih yekinshi yariminan XXI asirge shekem. -Qaraqalpaqstan: Nekis, 2003. -554 b.
4. Juzimbetov A., Ebdikamalov E. Klub dramaturgiyasi ham milliy dastyrlar. –Nekis: Bilim, 1996. -60 b.
5. Sayfullaev B.S., Rustamov V.K. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. –Toshkent; 2016. -180 b.
6. www.lex.uz.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013-2018 yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2013 yil 25 iyun 178-son Qarori.
7. www.uz.uz 2018 yil 28 noyabrda "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatini yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4038-son Qarori.

QALBIGA DUNYONI SIG‘DIRGAN USTOZ

Annotatsiya. *Maqolada ulug‘ ustoz, mehnatkash ayol, mehribon ona, yarim asrlik umrini O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining “Musiqali, dramatik teatr va kino san’ati” kafedrasida rivojiga bag‘ishlab kelayotgan professor, pedagog-rejissyor Gulshan Hakimovna Muxamedovaning ijodiy faoliyati haqida hikoya qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *teatr, artist, operetta, rol, xonanda, maxorat, klassik, opera, stajyor, spektakl.*

Рашид УСНАТОВ,

и.о. доцент кафедры «Искусство музыкального, драматического театра и кино» ГИИКУз

УЧИТЕЛЬ, КОТОРЫЙ ВМЕСТИЛ МИР В СЕРДЦЕ

Аннотация. *В статье рассказывается о творческой деятельности Гульшан Хакимовны Мухамедовой, великого педагога, трудолюбивой женщины, любящей матери, которая полвека своей жизни посвятила развитию кафедры «Искусство музыкального, драматического театра и кино» Государственного института искусства и культуры Узбекистана.*

Ключевые слова: *театр, артист, оперетта, роль, певец, мастер, классик, опера, стажер, спектакль.*

Rashid USNATOV,

acting professor of the department art of “Musical, dramatic theater and cinema”, UzSIAC

THE TEACHER WHO HAS INSERTED THE WORLD IN THE HEART

Abstract. *The article speaks about the creative activity of Gulshan Khakimovna Mukhamedova, a great teacher, hardworking woman, loving mother, who has devoted half a century of her life to the development of the department of “Musical, dramatic theater and cinema” of the Uzbek State Institute of Arts and Culture.*

Key words: *theater, artist, operetta, role, singer, master, classic, opera, intern, performance.*

Gulshan Muxamedova musiqali teatr aktyorligi san’atining barcha sohasini mukammal egallagan amaliyotchi, nazariyotchi, tashkilotchi, targ‘ibotchi, shu bilan birga teatr va kino san’ati sohasiga bilimli, malakali kadrlarni tayyorlaydigan ajoyib pedagog, murabbiy hamdir.

Ustoz 1945-yil Toshkent shahri Yunusobod tumani Bodomzor mahallasida otasi Hakim Muxamedov oilasida opalari Ra‘no, Roza, Elyanoralardan keyin erkatoy, sho‘x qiz bo‘lib dunyoga kelgan. Yunusobod tumanidagi 12-maktabni tamomlagach otasi san’atkor bo‘lishiga rozilik bermagan. “Oilada otam tomonidan olib boriladigan tartib-intizomga hammamiz qat’iy amal qilardik, qolaversa otaning so‘zini ikki qilish bizlarga mutlaqo begona edi” – deya eslaydi ustoz. Moskvadagi Lomonosov nomidagi universitetning Kimyo fakultetiga hujjatlarini topshirdi va imtixonlardan o‘tib talaba bo‘ldi. Lekin san’atga bo‘lgan qiziqish unda tinchlik bermaydi va o‘qishni tashlaydi. Kelgusi yili ota-onasi roziligi bilan Toshkent davlat chet tillari institutining kechki bo‘limiga o‘qishga kiradi. Lekin yuragining tub-tubidagi orzu san’atga bo‘lgan ishqibozlik unga yana ta’sir ko‘rsata boshladi. “Bu dargoh seniki emas”, deya o‘z maqsadi yo‘lida intiladi. Bu dargohdagi o‘qishini ham tashlab ketadi. Oila a’zolari uni san’at yo‘lidan qaytarishning chorasini izlay boshlaydi va otasi oxirgi gapni aytadi, “mayli, bir marotaba imkoniyat beraman, agar san’at institutiga o‘qishga kira olmasang, mening aytganim bo‘ladi” deb shart qo‘yadi. Bolalikdan san’at sohasiga bo‘lgan qiziqishi va intilishi ustunlik qiladi

va 1964-yili tajiribali pedagog Nina Ivanovna Timofeyeva qabul qilayotgan kursga imtihonlarni a’lo darajada topshirib talablik baxtiga muayassar bo‘ladi.

1968-yili (o‘sha vaqtda Ostrovskiy nomli) hozirda faoliyatini davom ettirayotgan institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, shu yildan boshlab, “Aktyorlik mahorati va rejissura” kafedrasida o‘z pedagogik faoliyatini boshlaydi. “San’at oliygohining o‘ziga xos jihatlardan biri bu aktyorlik yo‘nalishida saboq berayotgan pedagog, albatta, rejissorlik qobiliyatiga, bilimiga ega bo‘lishi shart”¹. Tirishqoq va o‘qib izlanishdan tolmagan ustoz o‘zida rejissorlik qobiliyatini rivojlantirish ishtiyoqini sezadi. 1973-yil Moskvadagi Lunacharskiy nomidagi davlat san’at institutiga (GITIS) stajyorlikka o‘qishga boradi va professor B.A.Pokrovskiy sinfida musiqali teatr rejissurasidan dars oladi. San’at dargohida salkam yarim asrlik mehnati davomida, o‘zbek, rus, qoraqalpoq, turkman va qozoq kursi talabalariga ta’lim berib keldi. San’at instituti O‘rta Osiyoda hamda qo‘shni davlatlarga teatr san’ati kadrlarini tayyorlab beradigan yagona dargoh hisoblangan. G.Muxamedova institutdagi ish faoliyatini assistent o‘qituvchilikdan boshlagan, bugunga kelib bilimi, izlanuvchanligi, o‘z kasbini sevganligi tufayli professor lavozimiga munosib topildi.

Ustoz har safar talabalar bilan darsni teatr tarixi, buguni va ertasi to‘g‘risida nazariy suhbat bilan boshlab, keyin amaliy qismiga o‘tadi. Bir safar talabalar bilan dars oldidan tayyorlash mashqini olib borayotganida ustoz har kungidan o‘zgacha kayfiyatda, g‘amgin kirib keldi. Bolam, talabalar bilan mashqini to‘xtat va yarim doira shaklida o‘tiringlar, – dedi. Hamma jim, ovoz chiqarmasdan ustozning aytganidek o‘rindiqlariga o‘tirishdi va domlaning

¹ Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. –Toshkent: O‘zbekiston daavlat konservatoriyasi taxrir nashriyot bo‘limi, 2009. -b 63.



nimadandur hafsalasi sovganini sezgandek bo'ldi. Biroz jimlikdan so'ng tomoq qirib oldi-da, past ovozda so'z boshladi. Bolalarim, mashhur san'atkorlarning eng kuchli fazilatlari nimada? Ustaxonada jimjitlik hukm surardi. Nega jimsizlar, men sizlarga savol berdim shekilli, – dedi. Talabalar sekin-asta jonlana boshlashdi va biri, u dedi, biri bu dedi. Har xil javoblar bo'la boshladi. Shunda ustoz, “bilasizlarmi, men nega bu savolni berayapman? Sizlar har taraflama to'g'ri javob berayapsizlar, lekin asosiyini aytmayapsizlar – dedi. Bolalarim, ular eng avvalo fidoiy bo'lgan, ha, san'atni, teatrni o'z taqdiri deb bilgan va shunga ishongan kishilar bo'lgan. Ular teatrga muqaddas bir dargohga kelgandek kelib, sahnani tabarruk joy deb, sajda qilishga ham tayyor bo'lgan. Teatrni rivojlantirish yo'lida turli zahmatlar chekishgan. San'atga bo'lgan muhabbati, sadoqati tufayli buyuk san'atkorlarimiz hattoki urush yillarida ham barcha mashaqqat va qiyinchiliklarni sabot bilan yengib kelishgan. Ular bir burda nonga zor bo'lib ishlagan kunlarida ham teatrni muqaddas dargoh deb bilganlar. O'zlarini har tomonga urishmagan. Mana shunday san'atga butun qalb qo'rini baxshida etgan zahmatkash aktyorlarni, san'atkorlarni bugun mustaqilligimiz sharofati tufayli, qolaversa, Yurtboshimizning tashabbusi bilan faxr va iftixor bilan tilga olmoqdamiz va ularning mehnatlari munosib taqdirlanmoqda. Nega bu gaplarni aytayapman. Chunki hozirgi yoshlarimizda oldingi o'tgan san'at darg'alaridagidek fidoiylilik, jonkuyarlik, sabr-qanoat tuyg'ulari yetishmayapti. Domla va talabalar bir necha daqiqalik sukutda qoldi va ustoz yana so'z boshladilar. “Sizlar shu aytganlarimni har daqiqa esdan chiqarmang va shunga amal qilinglar” – deya ta'kidladi.

G.Muxamedova o'zining halol mehnati, bilimi, sadoqati, jonkuyarligi, shijoati, izlanuvchanligi va tajribasi tufayli institutdagi musiqali teatr aktyorligi yo'nalishining eng tajribali, faxriy pedagogi sifatida e'tibor va ehtiromga sazovor bo'lib kelmoqda. Bugungi kunga qadar institutning musiqali teatr aktyorligi yo'nalishida mustaqil ravishda

20 dan ortiq kurs, 300 dan ko'p aktyorlar tayyorlab, turli janrdagi 50 ga yaqin diplom spektakllarini sahnalashtirdi. Bugungi kunda ustozning shogirdlari O'zbekiston va boshqa qardosh respublikalarda xalq artisti unvonlariga sazovor bo'lishgan. “O'zbekiston va Qoraqalpog'iston xalq artisti, Turkmanistonda xizmat ko'rsatgan artist M.Sapayeva – Berdaq nomidagi qoraqalpoq akademik musiqali teatri artisti, O'zbekiston xalq artisti M.Azizov – Muqimiy nomidagi o'zbek davlat musiqali teatr direktori va yetakchi aktyori, O'zbekiston respublikasida xizmat ko'rsatgan artistlar I.Xonimqulov va G.Xonimqulovalar – Kattaqo'rg'on teatrining artistlari, S.Ortiqov Toshkent davlat musiqali komediya (operetta) teatri artisti, O.Qosimbetov, B.Uzaqbergenovlar, Berdaq nomidagi qoraqalpoq akademik musiqali teatri artisti, Moskvadagi Gnesin nomli musiqali bilim yurtining professorlari, Rossiyada xizmat ko'rsatgan artistlar – G.Musheyev, V.Kryuchkov, Toshkent davlat pedagogik institutining professori – N.Qahhorov, aytaversak bu nomlar juda ko'pchilikni tashkil qiladi”².

G.Muxamedova ilmiy-uslubiy faoliyati ham taqsiqga sazovor. Uning o'zbek musiqali drama aktyorlarini tayyorlash masalasiga qaratilgan “Teatr”, “Guliston”, “O'zbekiston adabiyoti va san'ati” jurnal va gazetalarda bosilib chiqqan risolalarida musiqali teatr aktyorlarini tayyorlash muammolari, uni yechishning yo'l yo'riqlari borasidagi mulohazali, ilmiy va amaliy asoslangan fikrlari keng jamoatchilikda qiziqish uyg'otib kelmoqda. Bundan tashqari u, o'quv jarayonida zarur bo'lgan adabiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qilgan va bir nechta ssenariy yozgan. Bundan ko'rinib turibdiki, ustoz har daqiqa izlanishda va o'z ustida muttasil ishlab, bilim va tajribasini doimo oshirib borishga harakat qilib kelmoqda.

G.Muxamedova “Musiqali teatr aktyorlarini tarbiyalashning asoslari”, “Kuylovchi aktyorning shakllanishi”, “Xonandaning aktyorlik mahorati” o'quv qo'llanmalari amaliy mashqlardan misollar keltirilganligi, har tomonlama pishiq, aniq va sodda tilda yozilganligi talabalarda qiziqish uyg'otmoqda. Ushbu qo'llanmalarining asosiy maqsadi – talabaga rol ustida ishlash yo'l-yo'riqlarini, aktyor o'z ustida ishlashda nimalarga e'tibor qaratish lozim, aktyor

² Muxamedova. G.X. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. -Toshkent: O'zbekiston daavlat konservatoriyasi taxrir nashriyot bo'limi, 2008. –b 98.

qanday mashqlarni o'zlashtirsa natijaga to'g'ri va tez erishadi, musiqiy asarlarni qanday tahlil qilish, talabani aktyorlik kasbiga moslashtirishga, ko'nikma hosil qilishga yo'naltirishdan iboratdir.

Shu bilan birga Gulshan Muhamedova o'zini yuksak darajadagi mutaxassis sifatida ko'rsatib kelgan va hozirda yosh pedagog kadrlarni tayyorlashda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. Xususan, men ham ustozning qo'lida musiqali teatr aktyorligi yo'nalishida ta'lim olib keyin magistraturani shu yo'nalishda tamomladim. Bugungi kunda yonlarida shogird sifatida pedagogikaning nozik sirlarini o'rganib kelmoqaman. Ustoz o'z ijodiy faoliyati davomida musiqiy dramaturgiyani puxta o'rganib, o'z spektakllarini sahnalashtirish jarayonida asarning oliy maqsadini xatti-harakat yo'llari orqali yechib berishga intiladi va bu juda murakkab, uslubiy to'g'ri yo'l, deb ta'kidlaydi. Ustoz tomonidan sahnalashtirilgan diplom spektakllari qiziqarli, kutilmagan yechimlarga ega bo'lib, musiqiy teatr mohiyati bilan bog'langan yangi shakllarni izlash tendensiyasini namoyon etib kelmoqda. Uning eng yaxshi ishlari o'zbek milliy va klassik musiqasiga asoslangan bo'lib, talabalarning individual tomonlarini ochishga katta e'tibor qaratadi. Xususan, X.X.Niyoziyning "Kim to'g'ri?", "Maysaraning ishi", "Paranji sirlari", K.Yashin "Xolisxon" musiqiy dramalari shular jumlasidan.

Professor G.Muhamedova O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida faoliyat yuritish bilan bir qatorda 1998-yildan boshlab O'zbekiston davlat konservatoriyasining "Akademik xonandalik va opera tayyorlovi" kafedrasida pedagog-rejissor sifatida ham talabalarga saboq berib kelmoqda. Konservatoriyada bir qancha; G.Gladkovning "Trubadur va do'stlari", "Qani, tangani cho'z", A.Ikramovning "Bevalar ovunchog'i", Motsartning "Figaroning uylanishi", P.Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin" operalarini qiziqarli, yuqori professional

darajada sahnalashtirganligining guvohi bo'lganmiz. U yerdagi ish faoliyati davomida faqat rejissorlik kasbi bilan chegaralanib qolmasdan, talabalarga vokal ijrosi jarayonida rol ustida ishlash yo'l-yo'riqlarini o'zlashtirish, ya'ni operani sahnalashtirishdan oldin aktyorlik mahoratidan dars berish, kasbning qonun-qoidalarini, nozik qirralarini o'zlashtirishga ko'nikma hosil qilishga tayyorlaganligi uning sahnalashtirgan spektakllarida o'zining yorqin ifodasini topgan.

Yurtimizda "qarisi bor uyning parisi bor", degan ibratli so'z bejizga aytilmagan. Buning zamirida ko'p hikmatli sirlar yotibdi. Ustoz "Aktyorlik mahorati" qo'llanmasining birinchi sahifasini shunday boshlagan. San'at olamida yaxshi rejissor, aktyorlar ko'p. Biroq aktyorlik mahoratidan dars beruvchi pedagoglar barmoq bilan sanarli. Chunki bu noyob kasbdir. Hamma ham aktyorlik mahoratidan dars bera olmaydi. Ayniqsa, musiqali teatr san'ati pedagoglari o'zlarining ko'pqirrali salohiyatlari bilan ajralib turadilar. Ular nafaqat pedagog, balki tashkilotchi, sahnalashtiruvchi rejissor hamdir. Bu qobiliyatlar bilan bir qatorda ular boshqalarni o'z ortidan ergashtira oladigan rahbar va albatta, katta shaxs bo'lishlari lozim. "Quruq uslub hech narsa o'rgatmaydi, u uslubni o'ziga singdira olgan katta shaxsgina bilim bera oladi. Uslub va shaxs-bu ikki tushuncha doimiy izlanish, takomillashishni taqozo etadi," – deya ta'kidlaydi.

Shunday ekan, men ham barcha shogirdlari nomidan ustoz to'g'risida bilganlarimni va yozgan kitoblaridan o'qiganlarimni, uning qilgan ezgu ishlarini, o'zidan eshitib, ko'rganlarimni sizlar bilan o'rtoqlashdim. G.Muxamedovaga doimo san'at deb atalmish ulkan dengizda mustaqil suza oladigan, xalq ishonchini, olqishini, hurmat va e'tiborini qozongan sodiq shogirdlar tayyorlashda sabr-toqat, kuch g'ayrat, shijoat tilab qolamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Muxamedova G.X. Xonandaning aktyorlik mahorati. –Toshkent: O'zbekiston daavlat konservatoriyasi tahrir nashriyot bo'limi, 2009. -163 b.
- 2.Muxamedova G.X. Kuylovchi aktyorning shakllanishi. –Toshkent: O'zbekiston daavlat konservatoriyasi tahrir nashriyot bo'limi, 2008. -182 b.
3. Muxamedova G.X., Usnatov R.J. Aktyorlik mahorati. –Toshkent: Navro'z, 2020. -196 b.



IV BO' LIM

**PEDAGOGIKA,
PSIXOLOGIYA**



СОВРЕМЕННЫЕ ОСОБЕННОСТИ РАЗВИТИЯ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация. В статье представлены особенности содержания и условий функционирования высшего образования в Узбекистане, обращено внимание на переориентирование задач, решаемых в сфере высшего образования.

Ключевые слова: стратегия, компетентность, образовательный процесс, высшее образование, гуманизация, специалист новой формации.

Antonina KOSHELEVA,
O‘zDSMI "Pedagogika va psixologiya" kafedrasi dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi

O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM RIVOJLANISHINING ZAMONAVIY XUSUSIYATLARI

Аннотация. Мақоллада O‘zbekistondagi oliy ta’lim faoliyati mazmuni va shartlarining o‘ziga xos xususiyatlari keltirilgan; oliy ta’lim sohasida hal qilingan vazifalarni qayta yo‘naltirishga e’tibor qaratilmoqda.

Калит со‘злар: strategiya, kompetensiya, o‘quv jarayoni, oliy ma’lumot, insonparvarlashtirish, yangi formasiya mutaxassisi.

Antonina KOSHELEVA,
candidate of pedagogical sciences,
docent of the Department "Pedagogy and Psychology", UzSIAC

MODERN FEATURES OF THE DEVELOPMENT OF HIGHER EDUCATION IN UZBEKISTAN

Abstract. The article presents the peculiarities of the content and conditions of the functioning of higher education in Uzbekistan; attention is paid to the reorientation of tasks solved in the field of higher education.

Key words: strategy, competence, educational process, higher education, humanization, a specialist of a new formation.

Высшее образование в XXI веке имеет свои особые стратегические особенности назначением ориентира.

Стратегия современного высшего образования определяется многими факторами, среди которых основополагающими на наш взгляд, являются:

- подготовка профессионалов во всех сферах общественного развития, отвечающих высочайшим мировым требованиям;

- обеспечение всестороннего развития личности в процессе постижения профессиональных основ;

- реализация тенденций высшего образования, обеспечивающих его гармонизацию в ходе образовательного процесса;

- гармоничное сочетание образования и воспитания в процессе получения компетентностных познаний и развития интеллекта.

Реалии современной, быстро меняющейся жизни «включают» свои, особые механизмы, четко определяющие характер высшего образования в нашей стране[1].

Их можно определить как новые подходы к воспитанию и подготовке кадров с совершенно новой мировоззренческой культурой, можно назвать глобальными переменами в этой сфере, и всё это предопределяет возможность утверждать, что в сфере высшего образования Узбекистана происходят огромные перемены, направленные на создание специалистов новой формации с инновационным типом мышления, способных к самораскрытию, решению нестандартных задач.

Сегодня мы перестали готовить специалистов узкой специализации, задача ставится иная: сформировать благоприятные условия и предпосылки для формирования и развития творчески одаренной личности, обладающей высоким нравственным потенциалом и ценностными ориентирами. Личность, способная к изменениям росту, адаптации, обладающая возможностями расши-

рять горизонты своей профессиональной деятельности, угадывать запросы времени и решать сложнейшие задачи, которые поставлены самой жизнью, такая личность на наш взгляд, способна к высочайшему назначению – продуктивной профессиональной и личной деятельности. И, естественно, что ориентация обучения в сфере высшего образования на подобный тип личности сложна и многогранна.

В результате образовательно – воспитательного процесса необходим постоянный поиск для решения труднейшей задачи, стоящей перед педагогикой высшей школы: создать такую систему обучения, результатом которой будет формирование и развитие потенциала каждого из обучаемых, их самосовершенствование и саморазвитие будущей профессиональной деятельности.

И, конечно же, в первую очередь, нам, педагогам высшей школы, следует обращать внимание на формирование у студентов профессиональной компетентности и профессионализма.

Мы помним о том, что термин «компетентность» отличается от термина «квалификация» весьма существенно, ведь помимо узко профессиональных знаний, умений и навыков, он включает «и такие качества, как инициатива, сотрудничество, способность к работе в группе, коммуникативные способности, умение учиться, оценивать, логически мыслить, отбирать и использовать информацию»[2]. Мы видим как велик перечень тех качеств, которыми должен обладать современный специалист, претендующий на определение «компетентный». Исходя из этого, мы понимаем, сколь сложны и много объёмны задачи, стоящие перед высшей школой и её педагогами.

Хотелось бы также обратить внимание и на тот факт, что в современном образовательном пространстве все

более пристальное внимание уделяется компетентностному подходу и определению понятия ключевых компетенций, их содержанию и разграничению. [3]

При этом следует особо отметить, что разработанная в нашей стране стратегия модернизации всей системы образования особое значение придает высшему, так как именно эта образовательная ступень в полной мере отвечает за подготовку специалистов новой формации, отвечающим высочайшим мировым требованиям и стандартам.

В современных условиях «перестройка» и обновление содержания высшей образовательной системы в Узбекистане имеет своим вектором Болонский процесс.

Важнейшим стратегическим подходом к образовательному процессу в Узбекистане являются глобальные изменения, происходящие в нем:

- адаптация образовательного процесса к потребностям общества и личности;
- изменение места науки и образования в жизни общества, признание их приоритетности;
- ориентация на личность, активно познающую и преобладающую действительность;
- повсеместное внедрение в образовательный процесс инновации как технологических, так научно-познавательных.

В развитии образования огромное место уделяется узбекской духовности проводится огромная работа, и направлена она, в первую очередь на молодое поколение. Президент нашей страны Ш.М.Мирзиёев подчеркивает: «Мы мобилизуем все силы и возможности нашего государства и общества для того, чтобы наша молодежь обладает самостоятельным мышлением, высоким интеллектуальным и духовным потенциалом, ни в одной сфере не уступала своим сверстникам из других стран, была счастлива и уверена в своём будущем» [4].

Каким же образом осуществляется сегодня духовно – нравственное развитие молодежи применительно к образовательному процессу? Через фундаментализацию педагогического образования, через обновление процесса подготовки педагогических кадров через его гуманизацию и гуманитаризацию.

Тандем образования и науки в наши дни тесно связан с включением в педагогический процесс новых способов развития личности в духовном, моральном, этическом и эстетическом планах.

Многоуровневость, вариативность, динамичность – вот те понятия, которыми мы можем оперировать, определяя специфику развития образовательной системы Узбекистана.

Важнейшей тенденцией в современном процессе обучения специалистов творческих профессий: актеров, режиссеров, драматургов, звукорежиссеров становится такое положение вещей, при котором воспитательные цели превалируют над целями обучения. И это приводит к действительно существенной по своей сути гуманизации обучения в творческом вузе, что, как мы знаем, стало основой и стержнем нового педагогического мышления. Обращение к личности как к наивысшей ценности - проявление истинного гуманизма в процессе воспитания и образования, именно такой по своей органике и сути подход приводит к социогенетической ориентации: развитию "социального индивида" или "личности" в соответствии с её творческим потенциалом и реалиями будущей профессии и жизни. [5]

Сегодня, как никогда раньше, очень важно внимание к воспитанию и просвещению, к духовному, нравственному началу и привитию молодежи стремления к знаниям, потребности в самосовершенствовании. Именно воспитание, просвещение и образование являются ключом к процветанию государства. Именно просвещение и образование ведут народы к истинному гуманизму, высокой нравственности, добру и терпимости. В связи с процессами изменений ценностных ориентиров в современном обществе обосновывается острая необходимость в динамичном развитии образования с позиций подготовки специалистов мирового уровня, современных представлений об их роли и месте в системе наук и оптимизации средств обучения на базе новых информационно – педагогических подходов.

Подготовка специалистов творческих профессий на основе учета индивидуальных органических, психических, социальных свойств – задача, которую решают преподаватели творческих вузов в соответствии с наличием у них научно-методического и профессионального багажа. И это заставляет обращать особое внимание на личность педагога, его нравственные и этические качества, мастерство преподавания.

Сегодня становится привычным сочетание двух терминов: педагогика и творчество – педагогическое творчество – непререкаемый и очень важный атрибут в современной педагогической деятельности. Существенным для толкования этого качества мы считаем соблюдение следующих условий:

- 1) креативный подход к процессу обучения, предусматривающий внесение изменений и коррекций в традиционную образовательную систему;
- 2) научно обоснованная методология построения учебно-воспитательного процесса, базирующаяся на законах психологии, педагогики и творчества;
- 3) формирование условий для воспитания в личности целого комплекса творческих качеств, которые приводят к формированию в ней доминирующей потребности творчества и умения самореализации

Для созидания новых творческих достижений необходимы многие качества и среди них: стимул, желание созидать, стремление к новому, неизведанному, порыв и заинтересованность в создании качественно нового явления.

Для создания подобного, необычного явления в искусстве и культуре следует обладать такими качествами, как интеллектуальная заинтересованность, свежий взгляд на привычные явления, богатое воображение, новые подходы к решению творческих задач, развитое ассоциативное мышление и яркое восприятие. Кроме того, следует быть технически грамотным, владеть своим телом, жестами и мимикой.

Таким образом, мы видим непосредственную связь творчества и творческого процесса, с одной стороны, с вдохновением, мечтой, фантазией и воодушевлением, с другой - с конкретным умением, навыком, знанием, технологией воплощения идеи в жизнь.

Если привлечь искусство в качестве одного из наиболее результативных и оптимальных средств обучения возникнет благоприятная среда для реализации широких возможностей и ускоренного развития творческого потенциала магистрантов, что предопределяет самосовершенствование и развитие гармонически развитых личностей.

Список литературы:

1. Мирзиёев Ш. Мы все вместе построим свободное демократическое и процветающее государство Узбекистана. – Ташкент: Узбекистан, 2016. -56 с.
2. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан» - 3-е изд. – Ташкент: Адолат, 2017. -112 с.
3. Педагогический словарь – справочник Изд. 2-е, переработанное и дополненное. – Ташкент; 2011. -315 с.

AKADEMIK XONANDALIK YO‘NALISHINI O‘QITISHDA “VOKAL ANSAMBLI” FANINING AHAMIYATI

Annotatsiya. Maqolada Oliy ta‘lim tizimidagi akademik xonandalik yo‘nalishiga taalluqli “Vokal ansambli” fanining o‘ziga xosligi, o‘rni, boshqa o‘quv fanlari bilan bog‘liqligi va ahamiyati haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: akademik xonandalik, vokal ansambli, xonanda, vokal-ansabl texnikasi.

Галина МУХАМЕДОВА,
ГКУз., и.о.профессора кафедры
“Академическое пение и оперная подготовка”

ЗНАЧЕНИЕ ПРЕДМЕТА “ВОКАЛЬНЫЙ АНСАМБЛЬ” В ОБУЧЕНИИ АКАДЕМИЧЕСКОМУ ПЕНИЮ

Аннотация. В статье рассматриваются особенности, значение и роль, взаимосвязь с другими предметами, специфика предмета “Вокальный ансамбль” в процессе обучения по направлению “Академическое пение” в системе высшего образования.

Ключевые слова: академическое пение, вокальный ансамбль, певец, техника ансамблевого пения.

Galina MUKHAMEDOVA,
Acting professor of the “Academic singing and opera training”
department of the State conservatory of Uzbekistan

THE IMPORTANCE AND ROLE OF THE SUBJECT “VOCAL ENSEMBLE” IN TEACHING THE ACADEMIC SINGING IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM

Abstract. The article considers the features, significance and role of the discipline “Vocal Ensemble”, interconnection with other subjects, the specifics in the process of teaching the direction of “academic singing” in the higher education system.

Key words: academic singing, vocal ensemble, singer, ensemble singing technique.

Qisqa muddatda amalga oshirilgan islohotlar madaniyat sohasini yangicha asoslarda rivojlantirish yo‘nalishini yuzaga keltirdi. Shu jihatdan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasida “2019–2021 yillarda milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasi”[10] madaniyat sohasida amalga oshirilayotgan ishlarning kompleks dasturi hisoblanadi. Ta‘kidlash joizki, Konsepsiya natijasida 2021-yildan boshlab, uni navbatdagi “Yo‘l xaritasi” ishlab chiqilib, amalga oshiriladi. Shu jihatdan biz Konsepsiya munosabati bilan davlatning madaniyat sohasidagi o‘rta va uzoq muddatli kompleks dasturiga ega bo‘ldik.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev quyidagilarni ta‘kidlaydi: “Barchamizga ayonki, O‘zbekiston boy qazilma va tabiiy resurslarga, – qudratli iqtisodiy va insoniy salohiyatga ega. Biroq bizning eng katta boyligimiz, bu – xalqimizning ulkan intellektual va ma‘naviy salohiyatidir”. [1. B.13]

Madaniyat va san‘at yo‘nalishidagi oliy ta‘lim muassasalarida “Vokal ansambli” fani talabalarda ijrochilik malakasi bo‘yicha ixtisoslanayotgan talabaning ijro etayotgan asar uslubini nozikroq tushunib, psixologik ifodalashini o‘zlashtirish ko‘nikmalarini o‘rgatishga asoslanadi.

Ansambli bo‘lib kuylash san‘ati professional akademik xonandaning shakllanishi uchun nihoyatda ko‘p narsa

beradi. Ansambli repertuarini o‘rganish yosh xonandada turli xil musiqiy uslublarga moslasha olishni, ijro etilayotgan asar mazmuni va xarakterini hamrohlari bilan uzviy muloqot orqali yetkazib berishni tarbiyalashga yordam beradi. Akademik xonandalikning asosiy maqsadi – opera xonandalarini tarbiyalash bo‘lgani tufayli ushbu maqolada faqat operalardan ansambllar ko‘rib chiqilgan.

“Vokal ansambli” fanining maqsadi – yosh xonandada ansambli bo‘lib kuylashda zarur sifatlarni tarbiyalash va vokal-ansambli texnikasini egallashdan iborat. Ushbu texnika o‘zida quyidagi ko‘plab qirralarni mujassam etgan:

- ☑ garmonik sezgirlikni rivojlantirish, ritmik strukturani his etishni;
- ☑ hamrohlarni eshitish va tinglay olishni;
- ☑ toza va aniq intonatsiyani;
- ☑ tembr jihatdan yagona ovozlarni jarangini ishlab chiqishni;
- ☑ to‘g‘ri va muvofiqlashgan nafasni tashkil etishni;
- ☑ iboralash va dinamik nyuanslarni egallashni;
- ☑ diqqat-e‘tiborni;
- ☑ aniq diksiyani.

Vokal ansambllari bilan tanishish yosh xonandaga bo‘ljak kasbi uchun zarur bo‘lgan amaliy ko‘nikmalarni beradi, Masalan, opera partiyasi yohud oratoriya yoki kantatadan olingan partiya ijrosini xoh u duet, trio, kvartet yoki boshqa bir kengaytirilgan ansambli bo‘lsin, ansambli

ishtirokisiz tasavvur etib bo'lmaydi. "Vokal ansambli" fani o'quv jarayonida Akademik xonandalik ijrochiligi, Kamer xonandalik, Opera tayyorlovi mashg'uloti kabi fanlar bilan uzluksiz bog'liq.

Ansambli (fransuzcha ensemble so'zidan olingan bo'lib, "birgalikda" ma'nosini anglatadi) – bu musiqiy asarlar bir necha xonandalar tomonidan ijro etilganda muvofiqlashgan, uyg'unlashgan jarangni hosil qilishdir. [4. B.5] Bunday uyg'unlik umumiy jarangni eshita olishga bog'liq bo'lib, yagona tembr xarakteriga erishish maqsadida unga moslashishni bildiradi. Bu esa barcha ishtirokchilarning doimiy koordinatsiyasini talab etadi. Vokal ansambli asarning bir necha xonandalar tomonidan birgalikda ijro etilishini nazarda tutadi. Ansambli ijrochilar soniga qarab duet, terset, kvartet, kvintet, sekstet, oktet, nonet, detsimet kabi turlarga ajratiladi. Ansambli deb, shuningdek, orkestr jo'rliqidagi xonandalar guruhi tomonidan ijro etiladigan opera, oratoriya yoki kantatadagi tugallangan nomerlarga ham aytiladi. Masalan, V.Motsartning "Figaroning to'yi" operasidan II pardadagi septet, S.Yudakovning "Maysaraning ishi" operasidan II pardadagi kvintet, V.Motsart "Rekviyem" idagi kvartet, J.Pergolezining "Stabat Mater" idagi kvartet shular jumlasidandir.

Lytunya (ud) jo'rliqidagi ansambli xonishi Italiyada, Uyg'onish davrida keng tarqaldi va mazkur davrning eng ommalashgan janri madrigal bo'ldi – bu bir necha ovozlari uchun mo'ljallangan, asosan dunyoviy xarakterdagi asarlardir. Opera janrining yuzaga kelishi va rivojlanishi sabab, ko'p ovozli xonish o'z o'rnini yakka ijro hamda ansambli ijrosiga bo'shatib, ikkinchi planga o'tib qoldi. "Xuddi ariyadagi singari, opera ansambllarida ham qahramonlarning emotsional holati, sahnaning dramatik kolliziyasi va tavsiflarni yoritish hamda umumlashtirish yuz beradi". [3.B. 283]

Opera ansambllari o'zining syujetdagi o'rni, strukturasi va pardalardagi funksiyasiga qarab o'zaro farqlanadi. Bu ansambli-dialog, ansambli-kurash, ansambli-kelishuv, ansambli-final bo'lishi mumkin. Operalardagi duetdan boshlab, to ishtirokchilarning katta jamoasiga mo'ljallangan murakkab tuzilmalargacha bo'lgan vokal ansambllarining ko'p sonli shakllarini o'rganish asnosida musiqaning umumiy xarakteriga, turli xildagi qatnashchilar partiyalaridagi musiqiy g'oyalarning muvofiqligi va nomuvofiqligiga, o'xshashligi va kontrastlilikiga e'tibor qaratish lozim. Musiqaning umumiy xarakteri sahna ritmi uyushmasida, mizanssena dinamikasi va statistikasida aks etishi kerak. Musiqiy materialning shakl ichidagi o'xshashligi va farqlarini aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi. Musiqiy iboralarning aynan takrorlanishi yohud uning xarakterli tashqi o'zgarishi, qahramonlar tuyg'ulari va o'y-fikrlarining o'zaro mos kelishi xususida so'zlaydi.

Bu borada V.Motsartning "Don Juan" operasidan II pardadagi mashhur Don Juan va Serlina dueti e'tiborga molik, u duet-kelishuv toifasiga mansub. Duet musiqasida Don Juanning kuyi yakka hokimlik qiladi. Serlina esa ko'rkam yigitga mahliyo bo'lgan holda, unga ergashadi, qiz garchi "yo'q" desada, musiqa, ya'ni unda aks etgan qahramon holati deyarli "ha" demoqda. Don Juan bilan uchrashgan qiz o'ziga avval hech kim aytmagan

so'zlardan ham hayajonda, ham hayratda. Serlinaning musiqiy iborasi Don Juan partiyasidagi iboradan bir qadar o'zgacha tusda yakunlanadi, boisi Serlina maftunkor Don Juandan qanchalik kuchli ta'sirlanganini ko'rsatgisi yo'q. Unga javoban Don Juan "Sen menga barchadan qadrliroqsan" kabi jo'shqin iborani kuylaydiki, shundan so'ng Serlina partiyasida sodda qalbli qizning qashshoq, boz ustiga ahmoq qallig'i va boy, ko'rkam yigit o'rtasida sarosimaga tushib qolganini ifodalovchi yangi kuy paydo bo'ladi. Unga sadoqatli, ammo unchalik yoqimtoy bo'lmagan Mazetto haqidagi o'ylar Serlinani biroz ikkilantiradi. Ammo uning qalbini zabt etgan insonning uzuk taqqan qo'llari o'ziga teginishi bilan qiz qalbida shunday ehtiroslar jo'sh uradiki, ulardan voz kechishning iloji yo'q. Serlina – abadiy ayollik timsoli, soddadil nafosatning to'laqonli ifodasi bo'lib, uning ongi kuchqudratga qo'shni bo'ladi. Ayollik borlig'i soddadil Serlinani beg'ubor noz-karashmaga undaydi. Bunda musiqa shubhani ifodalaydi, u faqat qizning partiyasida yangrab, Don Juan partiyasida paydo bo'lmaydi. Musiqiy materialning keyingi rivoji Serlinaning roziligiga olib keladi, u Don Juanning qat'i ohangdagi "ketdik" deyishiga "ha" deb javob beradi va bunda kuyning xarakteri ham, uning sur'ati va o'lchovi ham butkul o'zgaradi. Yangi o'lchov, ravon ritmik harakat, uzoq davom etgan tonika garmoniyasi – bularning barchasi erishilgan rozilikni, tuyg'ularning to'laqonli uyg'unligini yaratib beradi. Har ikki partiya ovozlari bir xil harakatga uyg'unlashib, bitta musiqiy materialni takrorlagan holda, parallel ravishda harakatlanishni boshlaydilar. Ushbu duet nafaqat vokal, balki artistlik mahoratini rivojlantirishga ham yordam beradi. "Har bir kuylangan so'zda ulardan har qaysisining (garchi ular ko'p bo'lmasa-da, ammo zarur) qadrini bilish yashiringanligini ijrochi tushunishi shart". Ansambllar odatda voqealar rivojining hal qiluvchi lahzalarida, qahramonlar taqdirining o'zaro bog'liqligi, qiziqishlarining umumiyliги kuzatilganda paydo bo'ladi. Xususan, T.Jalilov va B.Brovsin qalamiga mansub "Tohir va Zuhra" operasi I pardasidagi Tohir va Zuhraning lirik dueti shu jumlagi kiradi. Sevishganlar uchrashib, o'z tuyg'ularini "Otmagay tong" rozilik dueti orqali izhor etadilar. Mazkur duetni Zuhra o'zining ta'sirliligi ila zabt etuvchi o'zbek xalq qo'shiqlari ohanglariga asoslangan kuy bilan boshlaydi. Tohir partiyasida bu kuy aynan takrorlanmaydi, balki o'zgaragan holda, qahramonning teran tuyg'ularini ifodalab, birmuncha baland tessitura ko'tariladi. Zuhra va Tohir navbatma-navbat kuylaydi, ammo ularning partiyalari duetning ikkinchi qismida o'zaro qo'shilib boradi va yakunlovchi qismda qahramonlarning fikrlariyu, tuyg'ulari butkul uyg'unlashganini ifodalovchi unisonli jarangga keladi.

Har qanday tugal ansambli kabi duetlar ham voqealar kechayotgan muayyan muhitni yaratish, ya'ni haqiqiydan ko'ra, dekorativ rolni o'ynash uchun mo'ljallangan bo'ladi. Masalan, P.I.Chaykovskiyning "Pik xonim" operasi ikkinchi ko'rinishidagi Liza va Polina dueti shunday ansambllar jumlasidandir. Klavesin sadolari ostidagi ovozlarning bir vaqtdagi ixcham parallel harakati osoyishtalik va xushulqlik hissini uyg'otishga qaratilgan. Tinchlik va qalb xotirjamligi muhitdek tuyulgan

mazkur sharoitdagi bu farahli maishiy manzara, sahna voqealarining rivojlanishida ehtirolarning keyingi bo‘ronli to‘qnashuvlariga nisbatan keskin kontrast bo‘lib xizmat qiladi.

Ansambllar o‘zining dramaturgik funksiyalari bo‘yicha asosiy ziddiyatni, asarning hal qiluvchi g‘oyasini ifodalovchi voqealarning muhim lahzasi bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bu turdagi ansambllar voqealarning muhim rivojlanish lahzalarida, qahramonlar taqdirida o‘zaro bog‘liqlik kuzatilganda paydo bo‘ladi. P.I.Chaykovskiyning “Pik xonim” operasidagi birinchi ko‘rinishdan “Men qo‘rqayapman” kvinteti shunday ansamblga misol bo‘ladi, unda asosiy ziddiyatning boshlanishi yuz beradi. Dramadagi barcha qatnashchilarning ilk uchrashuvi bo‘lib o‘tadigan aynan shu ansambl qahramonlar taqdirining o‘zaro bog‘liqligi va bo‘lajak yovuz fojeani oldindan his etish holati ochib beriladi. Bunda har bir qahramonning o‘z fikrlari, o‘z tuyg‘ulari bor, ammo ularning barchasi bir holat “Men qo‘rqayapman”ga olib boradi. Bu ansambl xuddi kinodagi stopkadr singari tinglovchitomoshibin e‘tiborini voqealarning har lahzasida jalb etadi. Ijrochilarning vazifasi – ijobiy muhitni xarob qilayotgan g‘alati karaxtlik holatini yetkazib berishdir. Buni P.Chaykovskiy “Men qo‘rqayapman” yovuz iborasi orqali dohiyona ifodalaydiki, u sahnaning barcha qatnashchilari tomonidan takrorlanadi. Ularning har biri: German, Liza, Grafinya, Yeletskiy va Tomskiylar kuy rivojiga o‘z ranglarini kiritsalar-da, ammo rahna solayotgan halokat havfini bartaraf etishga o‘zgiradilar.

Ansamblning ichki mazmuni keskin ziddiyatli holatlarni aks ettirish bilan bir qatorda, voqealarning barcha qatnashchilari yoki ularning bir qismining to‘liq rozilik holatini ham aks ettirishi mumkin. Ansambllar voqea yuz berishi mumkin bo‘lgan o‘sha vaziyatlarni aniqlashtirishga,

yoki uning (voqea) uchun ko‘proq yohud kamroq darajadagi yorqin janrli fonni yaratishga xizmat qilishi, bo‘lgan voqeaqa fantastik, bayramona, motamsaro kabi zarur koloritni baxsh etishi mumkin. Kuy chiziqlarining aynan o‘xshashligi, garmonik ketma-ketliklardagi ritmning o‘stinatoliligi, harakatning parallelligi va yakkaxonlar partiyalaridagi musiqiy material rivoji ishtirokchilarning bo‘layotgan sahna voqealariga nisbatan bir xil yoki o‘xshash munosabatlariga mos keladi. S.Yudakovning “Maysaraning ishi” operasidagi II parda finalining kvinteti aynan mana shundaylardandir. Mulla Do‘st va Maysara partiyalari to‘liq mamnunlikni ifodalagan holda, unison tarzida yangraydi. Oyxon va Cho‘pon, shuningdek, haybatulla Qozi partiyalari ham garmonik jihatdan bir xil tuzilishli ko‘rinishda yangraydi. Garchi Qozi va operadagi boshqa qahramonlar bir-birlariga qarama-qarshi qo‘yilsalar-da, mazkur vaziyatda ular yagona tuyg‘uni his etadilar – qahramonlarning har biri “o‘z maqsadimga erishdim”, deb hisoblaydi va ansambl qatnashchilarning to‘liq mamnunligi bilan, major tonikasi uchtovushligida yakunlanadi.

Musiqiy materialning butkul bir xilligini operalarda, ayniqsa komik operalardagi turlicha final ansambllarida tez-tez kuzatish mumkin; unda hamma qahramonlar barcha muammolar o‘z yechimini topgani sabab, umumiy sevinch hissini tuyadilar va bu tuyg‘uni spektaklning emotsional yakuni sifatida tomoshibinlarga yetkazib berishga intiladilar. M.Glinkaning “Ruslan va Lyudmila”, V.Motsartning “Figaroning to‘yi”, J.Rossinining “Sevilyalik sartaresh” va ko‘plab boshqa klassik operalar shu tariqa yakunlanadi.

“Vokal ansambl” fani mutaxassislik fanlari qatorida talabalarga o‘z ixtisosligini egallashda, professionallik mahoratini oshirishda, ijrochilik madaniyatini shakllantirishda hamda umumiy musiqiy dunyoqarashni kengaytirishda yordam beradi.

Адабиётлар рўйхати:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. –Toshkent: O‘zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Акулов Е. Оперная музыка и сценическое действие. – Москва: Всероссийское театральное общество, 1978. – 454 б.
3. Анализ вокальных произведений. –Ленинград: Музыка, 1998. – 351 б.
4. Гобби Т. Мир итальянской оперы. –Москва: Радуга, 1989. – 319 б.
5. Кочнева И., Яковлева А. Вокальный словарь. – Ленинград: Музыка, 1986. –70 б.
6. Лавреньева И. Вокальные формы в курсе анализа музыкальных произведений. –Москва: Музыка, 1978. –77 б.
7. Мирзаева С. Вокальное воспитание учащихся. – Ташкент: O‘qituvchi, 2005. –80 б.
8. Мурадова Д. Опера и музыкальная драма: к проблеме взаимоотношений жанров. – Москва: Московская Государственная консерватория имени П.И.Чайковского, 1996. – 84 б.
9. Ярославцева Л. Зарубежные вокальные школы. – Москва: Российская академия музыки имени Гнесиных, 2007. – 152 б.
10. <http://lex.uz/docs/> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4038-son Qarori.

TA'LIM SIFATI VA INNOVATSION FAOLIYAT

Annotatsiya. Mazkur maqolada ta'lim sifatini oshirishda o'qituvchining innovatsion faoliyati, pedagogda ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvni qaror toptirish bosqichlari, oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakllari, metod va vositalaridan foydalanishi, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifatleri va kreativ qobiliyatga ega bo'lishi zarurligi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, pedagog, talaba, innovatsiya, san'at...

Олим ДАДАМИЗАЕВ,

и.о. доцента кафедры "Искусство музыкального, драматического театра и кино" ГИИКУз

КАЧЕСТВО ОБРАЗОВАНИЯ И ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ

Аннотация. В данной статье рассматривается инновационная деятельность учителей в повышении качества образования, этапы принятия решения об инновационном подходе к образовательному процессу, использование инновационных образовательных технологий, новых, инновационных форм, методов и средств обучения для обогащения мировоззрения учителя, необходимость в учителях овладеть качествами профессиональной компетентности и творческими способностями.

Ключевые слова: образование, воспитание, педагог, студент, инновации, искусство.

Olim DADAMIRZAYEV,

acting professor of the department "Art of Musical, drama treatre and cinema" UzSIAC

QUALITY OF EDUCATION AND INNOVATIVE ACTIVITIES

Abstract. This article examines the innovative activities of teachers in improving the quality of education, the stages of decision-making on an innovative approach to the educational process, the use of innovative educational technologies, new, innovative forms, methods and teaching aids to enrich the worldview of teachers, the need for teachers to have the qualities of professional competence and creativity.

Keywords: education, upbringing, teacher, student, innovation, art...

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, kadrlar tayyorlash mazmunini zamonaviy talablar asosida tubdan qayta ko'rib chiqish, raqobatbardosh oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash hamda sohani jahon standartlari darajasida rivojlantirishda oliy ta'lim tizimida innovatsion faoliyatni boshqarishni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada asosiy bilim sohalari bo'yicha elektron ta'lim resurslari milliy tizimini yaratish, jahonning ta'lim resurslariga kirish va bu infrastrukturani takomillashtirish, o'quv jarayonida jahonning va milliy elektron ta'lim resurslaridan axborot kommunikatsiya texnologiyalari orqali foydalanish, o'quv yurtlarini moddiy-texnika bazasini va tarmoqli infratuzilmani rivojlantirish muammolari oliy ta'lim tizimida dolzarbdir.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti istiqbolini belgilash, jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan munosib o'rin egallashga intilish yo'lidagi keng ko'lamlı islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Jahonning rivojlangan mamlakatlari tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda. Zamonaviy talablar inobatga olingan holda, oliy o'quv yurtlarining pedagog

kadrlarini qayta tayyorlash yo'nalishlari bo'yicha qayta tayyorlash va malaka oshirishning o'quv dasturlarini muntazam takomillashtirib borish ishlarini tashkil etish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, mahorat darslari o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish;

Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlashning maqsadli parametrlarini shakllantirish, oliy ta'lim muassasalarida o'qitish yo'nalishlari va mutaxassisliklarini istiqbolda mintaqalar va iqtisodiyot tarmoqlarini kompleks rivojlantirish, amalga oshirilayotgan hududiy va tarmoq dasturlarining talablarini inobatga olgan holda optimallashtirish[1].

Dastur 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar

strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli,[2] 2019-yil 27-avgustdagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi PF-5789-sonli Farmonlari,[3] shuningdek, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo'lib, u oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahoratlarini oshirishga hamda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan qat'iy islohotlar mazmunini ochib berishni maqsad qiladi. Oliy ta'lim muassasalari pedagoglarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslarida turli ixtisosliklar o'qituvchilarining intellektual salohiyatini oshirish, dunyoqarashlarini boyitishda ularni innovatsion ta'lim texnologiyalari, o'qitishning yangi, innovatsion shakl, metod va vositalari bilan tanishtirish, pedagoglarda kasbiy kompetentlik sifat-lari va kreativ qobiliyat mohiyati bilan yaqindan tanishtirish muhim ahamiyatga ega. Malaka oshirish tizimida pedagog kadrlarni zamonaviy innovatsion ta'lim texnologiyalarining tashkiliy, texnik va didaktik imkoniyatlaridan xabardor bo'lishlari, ta'lim amaliyotida o'qitishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish, kompetentlik sifat-lari va kreativlik qobiliyatini izchil rivojlantirib borish ko'nikma-malakalarini hosil qilish uchun sharoit yaratib qolmay, kasbiy faoliyatda ulardan samarali foydalanish borasidagi malakalarining mustahkamlanishini ham ta'minlaydi. Shuningdek, tinglovchilar pedagogik innovatsiyalarni asoslash, yaratish va amaliyotga samarali tatbiq etish yo'llaridan xabaror bo'ladi, innovatsion xarakterga ega mualliflik dasturlarini ishlab chiqish malakalarini muvaffaqiyatli o'zlashtiradi. Bu esa o'z navbatida o'qitish jarayonida talabalarining faolliklarini ta'minlash, ta'lim sifatini yaxshilash, samaradorlikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yaqin o'tmishda "Innovatsion ta'lim", "Innovatsion faoliyat" va "Innovatsion jarayonlar" terminlari respublikamizning pedagogik adabiyotlarida juda kam kuzatilar edi. Innovatsion ta'lim so'zining zamirida yangilikni tashkil qilish, yangilikni o'zlashtirish, yangilikdan foydalanish, yangilikni namoyon etish kabi kompleks faoliyat yotadi. Innovatsion ta'lim – ta'lim oluvchida yangi g'oya, me'yor, qoidalarni yaratish, o'zga shaxslar tomonidan yaratilgan ilg'or g'oyalar, meyor, qoidalarni tabiiy qabul qilishga oid sifatlar, malakalarni shakllantirish imkoniyatini yaratadigan ta'lim "Innovatsion ta'lim" tushunchasi birinchi bor 1979 yilda Rimda qo'llanilgan. Biz bilamizki, innovatsion ta'lim jarayonida qo'llaniladigan texnologiyalar innovatsion ta'lim texnologiyalari yoki ta'lim innovatsiyalari deb nomlanadi. Ta'lim innovatsiyalari, ta'lim sohasi yoki o'quv jarayonida mavjud muammoni yangicha yondashuv asosida yechish maqsadida qo'llanilib, avvalgidan ancha samarali natijani kafolatlay oladigan shakl, metod va texnologiyalar ta'lim sohasida innovatsion jarayon – bu ta'lim konsepsiyasidagi, o'quv dasturlaridagi, usul va uslublardagi, tarbiya va o'qitish usullaridagi yangilik va

o'zgarishlardir. Ta'lim sohasida innovatsion jarayonlar so'zining tub ma'nosida pedagogikaning ikkita muhim – o'rganish, umumlashtirish va ilg'or pedagogik tajribalarni ommalashtirish muammosi hamda pedagogika fanlari yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish muammosi yotadi. Shunday ekan, innovatsiyaning predmeti va innovatsion jarayonlarning tarkibi, mexanizmi bir – biriga o'zaro bog'liq bo'lgan jarayonlar jamlanmasi tarkibida bo'lishi kerak. Aynan innovatsion faoliyat xizmat ko'rsatish bozorida oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi raqobatbardoshlikning asosini yaratibgina qolmay, professor – o'qituvchining kasb mahoratining o'sishini, ijodiy izlanishini, amaliy jihatdan ochib beradi. Shuning uchun ham innovatsion faoliyat o'qituvchilarning ilmiy-uslubiy faoliyati va talabalarining o'quv jarayoni va ijodiy faoliyati bilan uzluksiz bog'liq. Innovatsion faoliyat – yangi ijtimoiy talablarning an'anaviy me'yorlarga mos kelmasligi yoki yangi shakllanayotgan g'oyalarning mavjud g'oyalarni inkor etishi natijasida vujudga keladigan majmual muammolarni yechishga qaratilgan faoliyat. Ta'limdagi pedagogning innovatsion faoliyati tuzilishini tahlil qilishda turli xil yondashuvlar mavjud. Masalan, mashhur rus yozuvchisi Anna Nikolskayaning fikricha, faoliyatni yangilash 3 bosqichda, ya'ni tayyorgarlik, rejalashtirish va joriy etish bosqichlarida amalga oshiriladi. Pedagogik faoliyatda innovatsiyalar qancha ko'p bo'lsa, o'qituvchi xususiy eksperimentni shuncha yaxshi tushunadi. Innovatsion faoliyat bu amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy obyekt sifatlarini yaxshilashga qaratilgan ijtimoiy subyektlarning harakat tizimi bo'lib, u ma'lum doiradagi muammolarni yechish qobiliyatigina emas, balki har qanday vaziyatdagi muammolarni yechish uchun motivatsion tayyorgarlikka ega bo'lishdir. O'qituvchi innovatsion faoliyatining markaziy masalasi o'quv jarayonini samarali tashkil etishdan iborat. Innovatsion faoliyat quyidagi asosiy funksiyalar bilan izohlanadi: kasbiy faoliyatning ongli tahlili; meyorlarga nisbatan tanqidiy yondashuv; kasbiy yangiliklarga nisbatan shaylik; dunyoga ijodiy yaratuvchilik munosabatida bo'lish; o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, o'z turmush tarzi va intilishlarini kasbiy faoliyatida mujassam qilish. Ta'lim muassasasida pedagogning innovatsion faoliyatini tashkil etish uchun "Innovatsion muhit" shakllangan bo'lishi kerak, ya'ni pedagogik jamoada umuman ta'lim muassasida ijodiy, samimiy do'stona sharoit, unda pedagog-o'qituvchi o'zini erkin his qila olsa va jamoda ichki intilish moddiy-ma'naviy qiziqish yuqori darajada bo'ladi. U muhitda pedagog o'qituvchi ijodiy fikr yuritishga, intilishga yo'naltiriladi. Natijada innovatsion jarayon – yangilikni kiritilishi va shart-sharoitlari, tizimini yangi sharoitlarga ko'rsatkichlarga muvaffaqiyatli o'tishini ta'minlovchi o'zgarishlar sodir bo'ladi.

Pedagogning innovatsion faoliyatiga yondashuv turlari. Akmeologiya (akme – yunoncha: "oliy nuqta", yetuk, eng yaxshi davr) – rivojlanayotgan insonning ijodkorlik, kashfiyotga intilish, kasbiy faoliyatining

yetuklik pog'onasini o'rganish sohasidir. Innovatsion faoliyat tuzilmasi tahlilida akmeologik yondashuv pedagogning kasbiy mahorati cho'qqilariga erishuvda uning shaxsi rivojlanish qonuniyatlarini ochishi imkonini beradi. Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati zamonaviy pedagogikada "kreativ pedagogika" tushunchasi qo'llanila boshlaganiga hali u qadar ko'p vaqt bo'lmadi. Biroq o'qitish jarayoniga innovatsion hamda ijodkorlik yondashuvlarini qaror toptirishga bo'lgan ehtiyoj "kreativ pedagogika"ning pedagogik turkum fanlar orasida mustaqil predmet sifatida shakllanishini ta'minlaydi. Ushbu predmet asoslarini pedagogika tarixi, umumiy va kasbiy pedagogika hamda psixologiya, xususiy fanlarni o'qitish metodikasi, ta'lim texnologiyasi va kasbiy etika kabi fanlarning metodologik g'oyalari tashkil etadi. "Kreativ pedagogika" quyidagi ikki holatni kafolatlay olishi zarur:

1) pedagog-o'qituvchilar tomonidan o'quv fanlarini past o'zlashtirayotgan va ularni o'rganishni zerikarli deb hisoblayotgan talabalar e'tiborlarini fan asoslarini o'zlashtirishga jalb etish;

2) talabalarda kreativ fikrlash va ijodiy faoliyat natijalarini rag'batlantirishga xizmat qiladigan strategiya va vositalarni tavsiya etish orqali auditoriyada ulardan samarali foydalanishlari uchun imkoniyat yaratish. O'qituvchining ijodkorligi esa u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy (kreativ) yondashuvda aks etadi. So'nggi yillarda ushbu holat "pedagogik kreativlik" tushunchasi bilan ifodalanmoqda. Pedagogik kreativlik – pedagogning an'anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta'lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta'minlashga xizmat qiluvchi yangi g'oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo'lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyati "kreativlik" tushunchasida madaniy xilma-xillikni aks ettiradi. G'arb kishilari uchun kreativlik, umuman olganda, yangilik sanaladi. Ular kreativlik negizida noan'anaviylik, qiziquvchanlik, tasavvur, hazil-mutoyiba tuyg'usi va erkinlik mavjud bo'lishiga e'tiborni qaratadilar. Sharqliklar esa aksincha, kreativlikni ezgulikning qayta tug'ilish jarayoni, deb tushunadilar. Refleksiya – (lotincha reflexio – ortga qaytish) faqat subyektning o'z-o'zini bilishi va tushinishi emas, balki boshqalar uning shaxsiy xislatlari, his qilish tuyg'usi va bilish (kognitiv) tasavvurlarini bilish hamda tushunishini aniqlab olishini ham anglatadi. Refleksiv innovatsion amaliyot o'qituvchi ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga qaratilib, bunda pedagogik fanda faqatgina yangilik yaratish qobiliyatigina emas, balki o'z-o'ziga, o'z mehnatiga, bolalarga, har qanday muammoli vaziyatni hal etishga va umuman hayotga o'ziga hos ijodiy munosabatda bo'lish tushuniladi. Refleksiv innovatsion amaliyot ilgarigi tajribani dolzarblashtirish uni qayta anglash bo'lajak ta'lim muassasasining yangi muammo va munosabatlarini aniqlash uchun imkon

beradi. Demak, pedagog-o'qituvchi yangi pedagogik texnologiyalar, nazariyalar, konsepsiyalarning muallifi, ishlab chiqaruvchisi, tadqiqotchisi, foydalanuvchisi va targ'ibotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

Taniqli rus olimi V.A.Slastenin tadqiqotlarida o'qituvchining innovatsion faoliyatiga bo'lgan qobiliyatlarining asosiy xislatlari belgilab berilgan. Unga quyidagi xislatlar taalluqli: Shaxsning ijodiy-motivatsiyaga yo'nalganligi. Bu – qiziquvchanlik, ijodiy qiziqish; ijodiy yutuqlarga intilish; peshqadamlikka intilish; o'z kamolotiga intilish va boshqalar;

Kreativlik. Bu – hayolot (fantastlik), faraz; qoliplardan holi bo'lish, tavakkal qilish, tanqidiy fikrlash, baho bera olish qobiliyati, o'zicha mushohada yuritish, refleksiya;

Kasbiy faoliyatni baholash. Bu – ijodiy faoliyat metodologiyasini egallash qobiliyati; pedagogik tadqiqot metodlarini egallash qobiliyati; mualliflik konsepsiyasi faoliyat texnologiyasini yaratish qobiliyati, ziddiyatni ijodiy bartaraf qilish qobiliyati; ijodiy faoliyatda hamkorlik va o'zaro yordam berish qobiliyati va boshqalar;

O'qituvchining individual qobiliyati. Bu – ijodiy faoliyat sur'ati; shaxsning ijodiy faoliyatdagi ish qobiliyati; qat'iyatlik, o'ziga ishonch; mas'uliyatlik, halollik, haqiqatgo'ylik, o'zini tuta bilish va boshqalar[4].

Shu nuqtai nazardan O'zbekistonda amalga oshirilayotgan uzluksiz ta'lim tizimining islohoti ta'limda ko'p qoidalarning o'zgartirilishini, ilmiy asoslangan yangi tizimning shakllanishini va korporativ hamkorlikni keng yo'lga qo'yishda ishlab chiqilgan nazariy bilimlarimizni ishlab chiqarishga tatbiq etishni taqozo etadi. Yoshlarga ta'lim va tarbiya berish bilan birga egallagan bilimlarini korporativ hamkorlikda bevosita ishlab chiqarish korxonalarini bilan bog'lashda murakkab vazifalarini hal etish ta'lim beruvchining g'oyaviy e'tiqodi, kasb mahoratiga, san'ati, iste'dodi va madaniyatiga bog'liqdir. Hozirgi zamon darsi uchta maqsadni: ta'lim, tarbiya va innovatsion korporativ hamkorlikda rivojlantirish maqsadlarini ko'zda tutadi. Shunday ekan, malakali kadrlar tayyorlash jarayonining har bir bosqichida ta'limni samarali tashkil etish, uni yuqori bosqichlarga ko'tarish borasida muayyan vazifalarni amalga oshirish lozim.

Albatta, ta'lim muassasalarida darslarni samarali tashkil etishda, yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, yetuk kadrlar bilan bir qatorda ta'limga doir meyoriy hujjatlar, o'quv-metodik ta'minotning o'rni ham benihoyat ahamiyatlidir. Prezidentimiz tomonidan o'qitishning zamonaviy metodologiyasini yaratish va amaliyotga joriy etish, o'quvchilarning ongli ravishda kasb-hunar tanlash ishtiyoqini kuchaytirish, darsliklarni yaratishga butunlay yangicha yondashish kabi dolzarb vazifalar aynan shu maqsaddan kelib chiqilgan holda qo'yilmoqda. Haqiqatan ham, globallashuv jarayonining jadallashuvi o'quv dasturlarimizni tubdan qayta ko'rib chiqishni, keng bilimga ega bo'lgan, mantiqiy fikrlay oladigan yoshlarni voyaga yetkazishga xizmat qiladigan, takomillashgan

me'yoriy hujjatlar, o'quv-metodik majmualarni yaratishni taqozo etmoqda.

Kitobxonlik madaniyati xalqning ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Shu bois bugun yurtimizda aholining, ayniqsa, yosh avlodning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Gap shu haqda borar ekan, Prezidentimizning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi yosh avlod qalbida kitobga mehr uyg'otish, komil insonni tarbiyalash borasida juda muhim qadam bo'lganini aytish joiz. Bundan ko'rinadiki, mazkur yo'nalishda zimmamizdagi mas'uliyat va vazifalar yanada ortdi [5].

Oliy ta'lim muassasalari kutubxonalari va axborot-resurs markazlarida milliy hamda jahon adabiyotlariga, zamonamiz qahramonlari obrazi ochib berilgan yoshlarbop yangi asarlarga ehtiyoj katta. Shuni hisobga

olgan holda, talabalarda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining loyihasi ishlab chiqildi. Shu maqsadda axborot-resurs markazimizda institutimiz rektori topshirig'iga asosan tashkil etilgan "Kitob o'qing va bir finjon qahva iching" shiori ostidagi an'ana 2019-yilning 14-sentabridan shu bugunga qadar davom etib kelmoqda. Unda ko'zda tutilgan tadbirlar, albatta, badiiy didi hamda saviyasi yuqori, chin insoniy fazilatlariga, keng dunyoqarash va yuksak ma'naviyatga ega avlodni tarbiyalashga zamin yaratadi.

Umuman, davlat hamda jamiyat ravnaqi yosh avlodning intellektual salohiyati, intilishi, shijoati bilan uzviy bog'liq. Shunga ko'ra, ta'lim-tarbiyani zamon talablari asosida takomillashtirishga mamlakatimiz barqaror rivojining muhim sharti sifatida yondashilayotgani ayni muddaodir. Zero, ona Vatanga sadoqatli, bilimli, chinakam komil insonlarni voyaga yetkazish bugun barchamizning ulug'vor maqsadimizga aylangan.

Adabiyotlar ro'xati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. J 1. –Toshkent: O'zbekiston, 2017. -480 b.
2. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yo'llari: O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilarining malakasini oshirish va qayta tayyorlash fakulteti tinglovchilari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. –Toshkent: TDPU., 2004. -320 b.
3. Сластенин В. А., Подимова Л. С. Педагогика: Инновационная деятельность. -Москва; 1997. -283 с.
4. Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori //Xalq so'zi. -2017. -21 apr.
5. Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //Xalq so'zi. -2019. -28 avg.
6. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //Xalq so'zi. -2017. -8 fevr.
7. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori //Xalq so'zi. -2017. -13 yanv.
8. 2019-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni //Xalq so'zi. -2018. -22 sent.
9. Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori //Xalq so'zi. -2019. -12 iyul.
10. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida: O'zbekiston Respublikasining Qonuni //Xalq so'zi. -2016. -14 sent.

MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARINI INGLIZ TILIDA O'RGANILISHI

Annotatsiya. Ushbu maqola chet tilini o'qitish metodikasi, ularning turlari va o'qitish jarayonida qo'llanilishining imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Muhammad Yusuf she'rlaridan chet tili o'qitish metodikasida foydalangan holda til o'rganuvchilarning kreativligini shakllantirish, ta'lim jarayonida yuzaga keladigan qiziqishlarning afzalliklari haqida mulohaza yuritiladi.

Kalit so'zlar: adabiyot, metodika, she'r, kommunikativ, fundamental, ta'lim, lingvistika, intellektual.

Xumora USMANOVA,

старший преподаватель кафедры "Мировые языки и литература" ГИИКУз

ИЗУЧЕНИЕ СТИХОВ МУХАММАДА ЮСУФА НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация. В данной статье анализируются методы обучения иностранному языку, их виды и возможности их применения в учебном процессе. Также, формирование креативности у изучающих язык с использованием методики преподавания иностранных языков с помощью стихов Мухаммада Юсуфа, обсуждаются преимущества интересов, возникающих в образовательном процессе.

Ключевые слова: литература, методология, поэзия, коммуникативная, фундаментальная, образовательная, лингвистика, интеллектуальная.

Khumora USMANOVA,

senior teacher of the chair "World Languages and Literature", UzSIAC

STUDY OF MUHAMMAD YUSUF'S POEMS IN ENGLISH

Abstract. This article analyzes the methods of teaching a foreign language, their types and possibilities of their application in the teaching process. Also, the formation of the creativity of language learners using the methods of teaching foreign languages in the poems of Muhammad Yusuf, the advantages of the interests that arise in the educational process are discussed.

Key words: literature, methodology, poetry, communicative, fundamental, educational, linguistics, intellectual.

Adabiyot, badiiy adabiyot xalqning butun olamini, ichki dunyosini so'z vositasida ochib beradigan, kishilarni ruhlantira olishga qodir buyuk bir san'at. U insonning kasbidan qat'i nazar, kattadan-kichik barchaga birday aziz hisoblanadigan ne'matdir. Zero, u-ko'ngil fani. Ko'ngillar ro'shnoligi o'shandadir. O'zbekning zamini bebaho va dunyoda o'xshashi topilmas o'lka. Uning zamini pok, havosi toza, osmoni musaffo, odamlari oq ko'ngil, tanti qolaversa, san'at shaydolari.

Bu zaminda tug'ilgan odamning har bir sohada yuksalmasdan iloji yo'q.

Shu sababdan ham, o'zbek xalqining buyuk mutafakkir-u allomalari, shoir-u tadqiqotchilari hanuzgacha dunyoni zabt etib kelmoqdalar.

Lekin bir hikmat ham bor: O'zbekiston zamini sehrlil, fazilatlariga boy. U o'z farzandlariga kuch-quvvat beraveradi, shijoatlar ato etaveradi, ko'ngillarga ilhomlar solaveradi, shoirlar tug'ilaveradi, o'tli shoirlar yetishaveradi. O'tli shoir! (1, 11b)

Yurtimizning shunday o'g'loni bor edi-ki, hanuzgacha yoshlar qalbida, ona Vatan e'zozida adabiy yashab kelmoqda. Uning har bir she'riy misralari o'zining ramziy shiori ostida yangrab kelmoqda.

Muhammad Yusuf ana shunday ona zaminini suygan o'tli shoirlardan biri edi. Shoir shu tuproqda tug'ildi, shu tuproqni sevdi, shu tuproqqa jonini fido qildi. Andijonning tanti va jo'mard o'g'lonlaridan biri Muhammad Yusuf o'z she'rlarini kuylab yozar edi, uning she'rlari musiqadav quyilib kelar, hali siyohi qurimay qo'shiq bo'lib ketardi.

M.Yusuf she'rlari asosida yaralgan qo'shiqlar shunchalar samimiy va tabiiy ediki, o'z-o'zingdan xirgoyi qilib yuborganingni bilmay qolarding kishi.

Muhammad Yusuf chinakam xalq shoiri, mustaqillik uchun kurashgan ijodkorlardan biridir. O'zbek, millat, vatan, ozodlik, o'zbeklik g'ururi, ulug' bobolarga vorislik tuyg'usi uning she'rlarida gupurib turadi. Har bir she'rining nomlanishi yuraklarni jo'shqinlantira oladi. Bunga "O'zbekiston", "O'zbek", "O'zbekning ayollari", "O'zbekmomo", "O'zbek qizlari", "Vatan", "Vatan madhi", "Vatan, yagonasan", "Vatanni seving", "Mening Vatanim" kabilar misol bo'la oladi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2020-yilning 20-may kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy bog'ida barpo etilgan "Adiblar xiyoboni"ga tashrif buyurdi. Tashrif davomida yozuvchilar va shoirlar, ziyolilar bilan uchrashuvda milliy adabiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan e'tibor, galdagi muhim vazifalar haqida so'z bordi.

"Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyatini ko'rsatadi. Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish, ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foylanish kerak. Ajdodlar merosini o'rganish, buyuk madaniyatimizga munosib buyuk adabiyot yaratish uchun hamma sharoit yaratamiz" (2), – dedi Shavkat Mirziyoyev o'zining "Adiblar xiyoboni"ga qilgan tashrifida.

"Adiblar xiyoboni"ni adabiyot, ma'rifat va madaniyat maskaniga aylantirish, har bir adib haykalini muayyan oliy

o'quv yurtiga biriktirib, bu yerda ochiq darslar, ma'rifiy tadbirlar o'tkazish bo'yicha tavsiyalar berildi. Xiyobon bilangina cheklanib qolmasdan, adiblar ijodini chuqur o'rganish, ularning ibratli umr yo'llari haqida kitoblar va filmlar yaratish, yangi asarlar yozish muhimligi ta'kidlandi.

– Mana, “zamonamiz qahramonlari”, deb ko'p gapiramiz. Bugun bu qahramonlar koronavirusga qarshi kurashayotgan fidoyi shifokorlarimiz, mard harbiylarimiz, saxovatli tadbirkorlarimiz, vatanparvar yoshlarimiz. Ularning jasorati haqida o'qishni hammamiz xohlaymiz, – dedi Shavkat Mirziyoyev [2].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-may kuni “Adiblar xiyoboni”ga tashrifi davomida ta'kidlangan topshiriqlarini amalga oshirish maqsadida ushbu maqola chet tili fanida Muhammad Yusuf she'rlaridan foydalanish, ularni talabalarga ingliz tilida taqdim etgan holda, chet tilini o'rganishlarini yanada samarali qilish va takomillashtirishga qaratildi.

Muhammad Yusuf she'rlari xalq diliga juda yaqin va ravon tilda yozilgan. Uning she'rlarida xalq dardi shoir tomonidan baralla aytilgan, yurt muhabbatini hech kimga o'xshamagan misralarda ta'riflagan.

Muhammad Yusuf sherlari asosida yaratilgan qo'shiqlar ham misoli madhiya: ularni tinglamagan, tuyg'ulariga erk bermagan talaba bo'lmasa kerak, menimcha. Shoir bunday yutuqqa qanday erishdi? U xalq tarixini, yurti geografiasini, eli fe'l-atvorini besh qo'lday biladi: ularni emin-erkin, to'lib-toshib kuylaydi. Muhimi shuki, ijodkor ozod yurt, orzusi ushalgan xalq kuychisi ekanligini teran anglaydi.

Shularni bilgan, anglagan, his qila olgan talaba o'z ona tilida she'rni qay darajada ifodaliy ijro etsa, o'rganayotgan chet tilida ham ya'ni ingliz tilida ham o'sha hissiyotlari ila bajara oladi. Albatta, bunda bir qancha mehnat talab qilinadi, ya'ni so'zlarni ingliz tilidagi tarjimasini yod olish va mazmun mohiyatini chuqurroq anglash. Qarangki, Muhammad Yusufning har bir she'riy misralari ularga ilhom baxsh eta oladi. Ana o'shaning ruhiyatida ular ingliz tilidagi variantini ham o'zlashtirib boradilar.

She'r – nazokat, go'zallik, noziklik, g'aroyib mutanosiblik. Kapalak eng qisqa umr ko'ruvchi go'zal hasharot. “*O'lsam, kapalak qanotiga ko'minglar*” – deydi shoir(1;17b). Bu misralarni ingliz tiliga quyidagicha tarjima qilamiz. “*When I die, bury me in a butterfly's wing*”.

Erka, erk, erkalash, lolaqizg'aldoq, jayron, yalpiz, rayhon, maysa singarilar shoir she'riyatning egasi, ohang taratuvchi manbalardir. Bu manbalarni talabalarga o'z ona tillaridan ingliz tiliga tarjima uchun vazifa qilib berilsa, ular tez orada lug'at yordamida bo'lsa ham tarjima qila oladilar va matnda yoki bo'lmasa misralarda ingliz tilida bemalol qo'llay oladilar. Sababi bu so'zlar shoirning qalb manbasi, har bir misralarida takror va takror ishlatiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan so'zlarni ingliz tilida bir qancha ma'nosi bor. Bir so'z tarjimasini o'rganish jarayonida talaba bir qancha so'zlarni o'rganishiga va ularni eslab qolishiga to'g'ri keladi.

Masalan: erk – freedom, liberty;

erka – dearly, loved, sweetheart, darling, beloved;

yuqoridagi o'zbek va ingliz tilidagi so'zlarga e'tibor

qaratadigan bo'lsak, ikki tilda ham ushbu so'zlar bir ramzni, ya'ni vafodorlik, muhabbat, his-tuyg'uni anglatadi.

Ayni paytda nozik so'zlarda teran ma'no, o'rtovchi tuyg'u bor:

Labim bilan yarang silayman,

Senga dardi shifo tilayman,

Kel, tug'ishgan og'ang bo'lay man,

Jayron, nega ko'zing to'la yosh? (“Jayron”) (1; 17b)

Ushbu misrani talabalarimiz nafaqat ifodali yod olish bilan birga, qo'shiq qilib hirgoyi ham qilganlar.

Ingliz tilidagi tarjimasini: I will stroke your wound with my lips,

I wish you pain,

Come, let me be your brother, Jayron,

Why are you eyes full of tears?

Berilgan misradagi jayron so'ziga e'tibor qaratsak, shaxsga qaratilgan ismni nazarda tutilganda, Jayron tarjima qilinmay o'z holicha talaffuz qilinadi. Agar biron bir jonzodga nisbatan ishlatilayotgan bo'lsa, mazmunidan kelib chiqqan holda tarjima qilinadi, ya'ni *jayron* – *gazelle*. Shu o'rinda talabalar tomonidan savol tug'iladi, nima uchun *deer* emas. Sababi talabalarga yoritib beriladi, shu bilan birgalikda bir qancha o'rganilishi kerak bo'lgan ingliz tilidagi qonuniyatlarga urg'u berib ketiladi.

Yoshlarda ma'naviy barqarorlikni oshirishda, o'z ona diyorlariga bo'lgan muhabbatni, sadoqatni ifodalash hamda yetuk, kelajagimizni gullab yashashida, uning “O'zbekman” nomli she'rini ingliz tili mashg'ulotlarida ham o'zbek ham ingliz tilida yod eta olishlari o'zgacha zavq baxsh etadi.

Ziyo oqqan men yurgan yo'l-yo'lakka,

Shom-u Iroq zor termulgan o'zbekman.

Dunyolarni o'rantirgan ipakka,

Tilla qo'ngiroqli karvon o'zbekman!

Ingliz tilidagi tarjimasini:

To the path I walk in the light,

I am an Uzbek who is hard-pressed in Iraq.

The silk that surrounds the worlds,

I am an Uzbek with a caravan of gold bells!

Muhammad Yusuf she'riyatining eng oliy fazilati, fikrimcha, bu uning sof va pok samimiyatida mujassamdir. Samimiyat, xalqona ruh uning she'rlarini jilolantirib, bezab, ularga betakror ko'rk-u tarovat bag'ishlaydi. Eng yaxshi fazilatlaridan yana biri – loqaydlikdan yiroqlik, hayotga befarq emaslik. Kuykanak ko'ngil, ammo yig'loqlik, qo'l qovushtirib, taqdirga tan berib o'ltirish unga yot. U ko'rgan, zavqlangan yoki nafratlangan narsasini darhol ifodalashga intiladi, qo'lga qalam oladi.

Muhammad Yusuf ijodida bo'y cho'zib turgan muhtasham obraz – bu, albatta, Vatan obrazi, O'zbekiston timsoli. Uning Vatanga muhabbati juda g'aroyib ... (3; 13b).

Bu esa albatta har bir talaba yoshlarni jo'shqinlantiradi, o'z vataniga bo'lgan sadoqati, kelajakka bo'lgan ishonchi osha boradi. Shoir ta'kidlaganidek, Vatanga muhabbat – Vatan uchun fido bo'lmoqqa tayyor turish, o'ziga hech narsa tilamaslik, buyuk sadoqat, ixlosdan iborat. Mashg'ulot davomida talabalarga yuqorida shoir

tomonidan ta'kidlab o'tilgan misralarni isboti qilib, uning "Hur o'lkam" she'ridagi hayqirib aytgan misralarini tarjimasini taqdim eta olamiz.

*Do 'stlar, og'iz to 'ldirib Vatan
Deya olmoq o'zi baxt ekan!*

Ingliz tilidagi tarjimasi:

1. Friends, mouth filling to say Homeland
As long as it is happy

2. Friends, it is a pleasure
To be able to call your homeland

Berilgan tarjimaga e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikki xil tarjima qilinganini anglab yetamiz, ya'ni birinchi tarjimada berilgan misralarni so'zma-so'z tarjima qilingan bo'lsa, ikkinchi tarjimada mazmun jihatidan tarjima qilingan, demak shu o'rinda talabalarga tarjima haqidagi kerakli ma'lumotlarni tushuntirib, mohiyati yoritilib beriladi.

Shoirning she'rlari juda ham sodda qilib yozilganligi sabab ularni mashg'ulot jarayonida tarjima uchun taqdim etilganda, talabalar tomonidan ham qiziqish bilan bajariladi.

"Izhoril dil" she'rida shunday satrlar bor:
*Qo'hna tol beshikdan boshlanar olam,
Senga iddaolar qilmay sevaman.
Bir kuni singlim, deb
Bir kuni onam,
Vatan, kimligingni bilmay sevaman.*

Ingliz tilida tarjimasi: World can start from the old willow cradle,

I love you without making claims.
One day as my sister,
One day my mother,
Homeland, I love you without knowing
Who are you?

Ushbu she'rdagi misralarni tarjima qilar ekanmiz, shoirning Vatanga muhabbati g'aroyibli xuddi ana shunda, ya'ni: "... iddaolar qilmay sevaman!" deyishida. Bu ayniqsa, yoshlar uchun katta ibrat namunasidir (1; 14b).

Shoirning ko'pgina she'rlarini misol tariqasida berish mumkin. Aynan uning she'rlari mashg'ulot jarayonida har qanday metod orqali yondashishga, auditoriyani jonlantira olishga imkoniyat yarata oladi. Shu o'rinda davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyevning "Adiblar xiyoboni" deb nomlangan internet portali tashkil etish taklifini bildira turib, "Unda mumtoz va zamonaviy asarlarning elektron nusxalari, yozuvchi va adabiyotshunoslarning mahorat

saboqlari jamlanadi. Portal o'zbek, ingliz va rus tillarida faoliyat ko'rsatsa, undan xorijlik muxlis va mutaxassislar ham foydalanishi imkoniyati yaratiladi."(2) – degan fikrlarini ta'kidlab o'tmoqchiman.

Xulosa qilib aytganda, Muhammad Yusuf she'rlarini ingliz tilidagi tarjimasi, til o'qitishdagi samaradorlikni oshirishda she'rlarning tarjimasi ustida ishlash, ularni ifodaliy o'qish va yod eta olish talabalarda kreativlik hamda kommunikativ yondashuvni shakllantirishga yordam beradi. Shu o'rinda, shoirning yurakka yaqin cho'g'li, ta'sirli misralar, hayotiy misol, timsol, qiyoslar bilan yurtning betakror go'zalligi, ulug'vorligini tarannum etgan "Iqror" she'riga to'xtalmoqchiman..

*O, ota makonim.
Onajon o'lkam,
O'zbekiston, jonim to 'shay soyangga.
Senday mehribon yo 'q,
Seningdek ko 'rkam.
Rimni alishmasman bedapoyangga. (4)*

Ingliz tilida tarjimasi:

Oh, my father's birthplace,
My lovely motherland,
Let me lay my soul on your shade.
Uzbekistan,
You are the most benignant,
You are so great,
For Rome – your clover-field – I cannot trade. (5)

*Sen bilan o'tgan har kun bayram - bazm,
Sensiz bir on qolsam vahmim keladi.
Seni bilganlarga qilaman ta'zim,
Seni bilmaslarga rahmim keladi... (4)*

Ingliz tilida tarjimasi:

Each day I spend with you is a big fete,
Without you I'm scared, I'm full of worry.
I welcome those who know you and respect,
For those who don't know you I feel sorry (5)

Muhammad Yusuf uchun she'r doimiy hamdam, bir malham, shirin g'am, goh qo'l yetmas hilol, goh bag'ritosh sanam edi. She'rlarining misralari yorqin dalolatidir. "Iqror" she'rining so'ngi misralariga e'tibor qaratsak, birgina ramziy kinoya bilan uning ifodasini topa olamiz.

Eli, yurti, Vatanini ulug'lagan, sidqidildan xizmat qilgan insonni eli, Vatani ardoqlagani, Yurtboshisi e'zozlaganining Muhammad Yusufga ko'rsatilgan, ko'r-satilyotgan e'zoz va e'tibor yorqin dalolatidir.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Muhammad Ali. Shoirning sozi tinmaydi: Muhammad Yusuf zamondoshlari xotirasida. -Toshkent: Adib, 2014. - 230 b.
2. Rasulov A. Muhammad Yusuf she'riyatini kuzatganda... -Toshkent: Adib nashriyoti, 2014. -230 b.

Internetdan olingan manbalar:

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 20 may kuni Adiblar xiyoboniga qilgan tashrifi nutqididan- <https://uza.uz/posts/toshkent>.
4. Muhammad Yusuf. "Iqror" 2014 y- <https://tafakkur.net> > iqror > m...
5. Confession by Muhammad Yusuf. Translated by Azam Obid. Translation from Uzbek poetry. 2017y -<http://azamabidov.uz> >...

“SAHNA NUTQI” FANINI O‘QITISHDA PEDAGOG MAHORATI

Annotatsiya. Ushbu maqolada “Sahna nutqi” fanini o‘qitishda pedagogdan talab etiladigan uslubiy va amaliy ko‘nikmalar haqida so‘z yuritiladi. “Sahna nutqi” fanini o‘qitish jarayonini takomillashtirish bo‘yicha fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: sahna nutqi, talaba, pedagog, mahorat, adabiyot, texnika, ovoz, talaffuz, tavsiya.

Айдос УТЕПБЕРГЕНОВ,
преподаватель Нукусского филиала ГИИКУз

МАСТЕРСТВО ПЕДАГОГА В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ СЦЕНИЧЕСКОЙ РЕЧИ

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются методические и практические навыки, необходимые учителю при обучении предмету “Сценическая речь”. Высказаны мнения об усовершенствовании предмета “Сценическая речь”. Даны педагогические советы и рекомендации.

Ключевые слова: сценическая речь, студент, педагог, мастерство, литература, техника, голос, произношение, рекомендация.

Aydos UTEPBERGENOV,
teacher at the Nukus branch of the UzSIAC

TEACHER SKILLS IN THE PROCESS OF TEACHING STAGE SPEECH

Abstract. This article discusses the methodological and practical skills required of a teacher in teaching the subject of stage speech. Opinions were expressed on the improvement of the subject of stage speech. Pedagogical advice and recommendations are given.

Key words: stage speech, student, teacher, skill, literature, technique, voice, pronunciation, recommendation.

Sahna nutqi va aktyorlik mahorati fanini mukammal va mustahkam egallash orqali aktyorlik san‘atida muayyan darajada professionalikka erishish mumkin.

Sahna nutqi fani aktyorlik mahorati yo‘nalishlari talabalari uchun katta ahamiyatga ega fan sifatida aktyorning kelajagini belgilovchi fanlardan biri desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Aktyor sahna nutqi texnikasi va badiiy o‘qishning sir-asrorlarini qay darajada o‘zlashtirganligi, uning badiiy adabiyotlardan olingan parchalar ustida ishlash jarayonida bilinadi. Ma‘lumki, sahna nutqi texnikasida asosan aktyorning artikulyatsiyasi, diksiya va nafas olishi, qolaversa, ovozi, talaffuzi ustida muntazam ish olib boriladi. Haqiqiy so‘z san‘atini egallash, uning qadr-qimmatini oshirish, fikrni aniq ifodalash, so‘zning tub ma‘nosini topish (aniqlash), ijro etish orqali tomoshabinga yetkazib berish alohida texnik jarayonlar orqali yuzaga chiqadi. Bu adabiy matn ustida ishlash jarayonidir [1. 7].

Haqiqatan, sahna nutqini adabiyot bilan chambarchas bog‘liq ekanligini alohida ta‘kidlab o‘tishimiz joizdir. Badiiy asarlar negizida sahna nutqi fani rivojlanib, takomillashib borganligini hisobga olsak, adabiyot nafaqat sahna so‘zi, balkim san‘atshunoslikning ham katta bo‘g‘inidir.

Bulg‘usi aktyor kutubxon bo‘lishi kerak, deb bejizga aytmagan ustozlarimiz. Chunki inson ko‘proq kitob o‘qib, gazeta-jurnallar varaqlasagina uning talaffuzidagi nuqsonlar ozmi-ko‘pmi yo‘qoladi va talabaning ma‘naviy dunyoqarashi ham kengayib boradi. Ko‘pchilik holatda talabaning kasbiy shakllanishi ustozlari va amaliy mashg‘ulotlariga bog‘liq bo‘ladi. Ayniqsa, mohir pedagog tarafidan tavsiya etilgan kitoblar talabani bir pog‘ona

yuqori fikrlash va dunyoviy bilimlarining yuksalishiga xizmat qiladi.

Aktyorlik san‘atida sahna nutqi predmetini har tomonlama yetuk o‘zlashtirish uchun pedagogdan talabaga nisbatan to‘g‘ri yondashish va ishlash talab etiladi.

Chunki talabalar orasida dars davomida o‘qituvchi tomonidan topshirilgan vazifani birdaniga o‘zlashtira oladigan talabalar bilan birga, uning aksi ham bo‘lishi mumkin. Shuning uchun oddiy asardan murakkab asarni tanlay olish va o‘rgatish ishlari olib boriladi. Sahnaviy matn ustida ishlash ham xuddi ana shu yo‘nalishda olib boriladi, ya‘ni izchillikka rioya qilinadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, mohir pedagogdan tahsil olayotgan talaba yoshlarning ma‘naviy dunyoqarashi keng va ko‘proq badiiy adabiyotga yaqin bo‘ladi. Mushohada va mulohaza yuritishga moyilligi yuqori darajada shakllanib, o‘rgatgan narsani mustaqil egallashi oson va malakali kadr bo‘lib yetishishi tabiiy.

Teatr san‘atining aktyorlik jabhasida nutqning tutgan o‘rni beqiyosdir. Muallifning g‘oyasi matnda turli vositalar orqali ifodalanadi. Asarning o‘ziga xos stilistik tomoni, nutqiy xarakterligi, qahramonlarini o‘z fikrlarini ifodalashi sahna asari yaratilishida yuqori o‘rin egallaydi. Bu xususiyat nutqning o‘ziga xosligidir, – deya pedagog Go‘zal Xoliqulova ta‘kidlab, sahna nutqi fani predmetining zaruriyat va vazifalarini quydagicha ko‘rsatib o‘tadi.

Ana shuning uchun ham maxsus fanga ehtiyoj tug‘iladi. Bu fan o‘z zimmasiga quyidagi vazifalarni oladi:

1. Nutq texnikasi.
2. Orfoepiya – adabiy talaffuz.
3. So‘z ustida ishlash.

Diksiya, ovoz, nafas, orfoepiya, mantiqiy intonatsion qonuniyatlarini o'zida mujassamlashtirilgan nutq mahorati sahna nutqi fanining predmetidir. Ifodali sahnaviy nutqga erishish uchun so'z bilan chuqur shug'ullanmoq joiz. Ijodkor muallif niyatidan kelib chiqib, borliqni anglagan holda o'ziga xos shakl va mazmunga ega so'zga erishishi kerak. Bu jarayonga mufassal erishish uchun avvalo, badiiy so'z bilan shug'ullanmoq joiz. Bunda adabiy badiiy matnlar ustida ishlash ko'zda tutildi.

Umuman olganda pedagog sahna nutqi fanining talabaga zaruriyatini va mazmunini to'g'ri tushintira olsa, talabaning fanga bo'lgan qiziqishi o'z-o'zidan oshib boradi. Talaba sahna so'zi manbalarini badiiy-adabiy asarlardan oladi. Bir tomondan bo'lg'usi aktyorning imkoniyat doirasidan kelib chiqqan holda asar tanlashi yaxshi samara beradi. Asar tanlashda talabadan ko'proq yoshi va imkoniyatidan foydalana oladigan asar tanlashi yaxshi samara beradi. Ko'pchilik talabalar oliy ta'limda sahnaga chiqib nazarga tushishni yoki filmlarda rol ijro etishi orqali o'zini professional mutaxassis bo'ldim, deb bilishlari yoki shunga harakat qilish holatlari kuzatiladi. Bu bir tomondan yaxshi, lekin tanganing ikkinchi tomoni bo'lgani kabi ayrim holatlarda biz kinematografiya va teatrlarda ham aktyorlarning talaffuzidagi kichik-kichik nuqsonlarni anglaymiz.

Bundagi kamchilikni teatr rejissyori yoki film rejissyoridan emas, aybni aktyordan qidirish maqsadga muvofiq. Bu kamchilik aktyorda talabalik davrida shakllanadi. Bu vaziyatga pedagogning e'tiborsizligi ham sabab bo'lishi mumkin. Mohir pedagogdan ta'lim olgan ko'pgina talabalarda esa bunday holat kam uchraydi yoki uchramasligi mumkin.

Bunday holatda aktyor ko'proq o'z ustida ishlashi va nutq texnikasi qoidalarini qayta o'zlashtirishga to'g'ri keladi. Ko'pincha bunday salbiy jihatlar aktyor talabalik davrida o'z imkoniyati ya'ni fizik va ruhiy holatiga mos asarlarni tanlay olmasligidan kelib chiqadi.

Badiiy so'z bilan shug'ullanishdagi asosiy omil, yuqori bosqich talabalarining nutq texnikasini meyoriga erishishdir. Sahna nutqida ijodkorni jismoniy va ruhiy hattiharakatlarini keltirib chiqaruvchi mashqlar umumlashmasi nutq texnikasi deb ataladi.

Nutq texnikasi, o'z obyektiga ko'ra besh qismga bo'linadi:

- Ovoz
- Nafas
- Artikulyatsiya
- Diksiya
- Orfoepiya

San'atkorning ijodida nutq texnikasi mufassal darajada bo'lishi shart. Ovoz nutq madaniyatida ham, sahnaviy nutqda ham asosiy qismni egallaydi. Ovoz oliy asab tizimi signallarining mahsulidir [2. 6-7].

Shunday ekan, aktyorlar sahna nutqi mahoratini fizik imkoniyat doirasidan kelib chiqib, chuqur egallashlari zarur bo'ladi. Aktyor inson sifatida biologik yaratiq, kasbiy jihatdan uzluksiz o'zini rivojlantirib borguvchi mutaxassis. U professionalikka intiladi va yetuk mutaxassis bo'lishga harakat qiladi. Ba'zi holatlarda aktyorlarda o'z ustida ishlash yosh o'tgan sari pasayadi. Chunki ustozlik darajasiga yetishi, kasbiy tajribasi ortishi bunga sabab bo'ladi. Ammo, aktyor qancha yillik tajriba va rollar soniga ega bo'lmasin, u rejissyor tomonidan tanglanadigan va sahnaga chiqadigan kasb egasi. Bu bo'lsa unga mas'uliyat yuklashi kerak. Sahnaviy nutq yosh o'tishi yoki sog'liqqa

bog'lik o'zgaruvchan bo'ladigan aktyorning kasbiy quroli.

Sahnaviy nutqning ravon va aniq bo'lishi sahna asarlarining mazmunini tez anglashga, mohiyatini chuqur tushunib olishga yordam beradi. Bu esa aktyor o'z nutqi ustida uzluksiz ishlab borishi va uni o'stirish, takomillashtirish yo'lida tinmay mehnat qilishi zarurligini ko'rsatadi. Mahoratli aktyorning nutqini muhokama qilish, ularni bir xilda tanqid qilish odat tusiga aylangan.

Bu tanqid ba'zan aktyorlarga yoqmaydi, qabul ham qilmaydi. Sahnadagi nutqiy kamchilik estetik jihatdan ham, grammatik jihatdan ham hammaga eshutiladi. So'z – bitta hayotiy rolni ifodalovchi muhim vosita hisoblanadi [3. 3].

Aktyor hayoti davomida nutqi bo'yicha qandaydir tanqidga uchrasa, albatta, uni tahlil qilishi kerak. Sahna nutqi vaqt va imkoniyat tanlamaydigan qonuniyatlarga bo'ysinadi. Buni teran anglash uchun aktyor talabalik davrida o'z xarakter va ijro mahoratini aniq bir ampulaga solib olishi kerak bo'ladi.

Bu haqida pedagog Zora Alimdjonova "Sahna nutqi (xrestomatiya)" kitobida shunday deydi: Adabiy parchalar monolog va boshqa matnlar ijro uchun tanlanish jarayoni talabalarda, ba'zan pedagoglarda ham biroz murakkabroq kechadi.

Chunki tanlangan adabiy matnlar talabaning xarakteriga (tabiatiga) mos kelishdan tashqari, ijro orqali uning xulq-atvorini, imkoniyatlarini tarbiyalash kerak. Eng asosiysi talabaning o'ziga tanlagan matni yoqishi kerak. Negaki ijro his-tuyg'u bilan bog'liq bo'ladi.

Sahna nutqi predmetining uzoq yillik tajribalaridan, tekshirishlardan quyidagi bosqichlar belgilab olingan. Bular birinchi kurslarda manzara va kam voqeali adabiy parchalar, ikkinchi va uchinchi kurslarda ko'p voqeali (personajlar ishtirokidagi) adabiy parchalar, mas'ul she'riy matn, monologlar tanlab, ular ustida ishlashdir.

Demak, ijodiy imkoniyat bilan birga talabaning qiziqishi va o'zi xohlagan asarni tanlashga imkoniyat yaratib berish pedagogning mahorati va dars uslubiyatiga bog'liq. Birinchi kursdan birdaniga parchaga o'tib ketish mumkin bo'lmagani kabi, aktyorlik mahoratining o'z shakllanish va sahnaviy rivojlanish davri vaqtlar o'tishi bilan sayqallanib boraveradi.

Talabalar bilan mashq olib borish mobaynida pedagog o'z oldiga mashq turiga qarab maqsad qo'yadi.

Masalan, she'r aytishda talabaning his-tuyg'ulari rivojlansa, kuzatuv mashqida aktyorlik sezgi, etyud jarayonida esa sahnaviy harakatlanish qobiliyatlari shakllanib boradi. Endi tez aytishning asosiy maqsadi sifatida quyidagi vazifalar yuklanadi.

Nutq texnikasi mashqlari mobaynida juda "tez gapirish" yoki aksincha, nutq a'zolari hammasi to'g'ri joylashuviga qaramay, yengil, ya'ni "salmoqlanib" gapiruvchi talabalar bilan ishlaganda, tez aytishda qo'llanadigan uchta tezlik juda qo'l keladi: birinchi tezlik – sekin, shoshmasdan, dona-dona gapirish; ikkinchi tezlik – o'rtacha, tezlikni biroz oshirib gapirish; uchinchi tezlik – tez, shu bilan birga aniq va chaqqon talaffuz qilgan holda gapirish.

Endi nutqi juda salmoqli bo'lgan talaba uchun uchinchi tezlikda ishlash vazifasini qo'yish darkor. Bunda mantiqqa putur yetkazmaslik, tovushlarning barchasini burro aytishni o'qituvchi nazorat qilib boradi. Tez gapiruvchilar ba'zan duduqlanib ham qolishadi. Bu nuqsonni tuzatishda birinchi tezlikdan foydalanish mumkin.

Shuni yodda tutish joizki, nutqdagi har qanday tezlik biror maqsad, fikr bilan bog'liqdir. Tez aytishning yana bir boy imkoniyatlaridan biri, undagi mazmun jihatdan bir-

biriga qarama-qarshi bo'lgan so'zlarda mantiqiy urg'uni belgilash orqali fikrni aniq yetkaza olishdir [4. 39].

Biz pedagogning kasbiy mahorati yuqori bo'lishi kerak deb ko'rsatib o'tganimiz kabi, tez aytish mashqi dovomida talaba bilan ishlashda tub burilish yuzaga keldi. Ya'ni ba'zan duduqlanib qolganda, birinchi tezlik – sekin, shoshmasdan dona-dona gapirishni qo'llay olishni bilishi kerak. Bunda pedagogdan metodik uslubiyatdan foydalana olishi va interfaol usullarni qo'llay bilishi bilan rivojlanib boradi.

Pedagog tomonidan o'quvchilarga tavsiya qilinayotgan mashqlar ularning imkoniyat doirasidan kelib chiqib tanlanadi. Ular muayyan bosqichlarga ham bo'linishi bilan farqlanishi mumkin.

Talaba uchun asar tanlashda, albatta, pedagogning talaba bilan ishlash mahorati ham hisobga olinadi. Talabani o'ziga xos jihatlari yoki boshqa ochilmagan xususiyatlarini ochildirish, imkoniyatlarini oshirish kabi jihatlarni hisobga olinadi.

Sahna nutqi fanini talabalarga samarali o'rgatish uchun bugungi kunda yangi pedagogik vositalar va usullardan foydalanish bilan birga yangi interfaol metodlarni hayotga tadbiq etish ishlarini tizimli yangi bosqichga olib chiqish davri keldi. Sohaga oid pedagogik texnologiyalarni qo'llashda kasbiy mahorat va aktyorlik ko'nikmasini hosil qilish va yuqori saviyada tashkil etish kerak.

Ayniqsa, bakalavriat ta'limi kasb tanlashda oliy tizim ekanligini hisobga olsak, OTMda sahna nutqi qonun-qoidalari va nutq madaniyatini o'stirish usullarini interfaol metodlar yordamida adabiy til normalari bilan qorishtirish va aktyorlik elementlari bilan qo'llash kerakligini davrning o'zi taqozo etmoqda.

Albatta, bu jarayon qiyin kechadi. Ayniqsa, hozirgi talaba yoshlar bilan ishlash jarayonlari mushkullashib ketayotganday tuyuladi. Chunki san'at maktabida tahsil olmoqchi bo'lgan talabalar aksariyati adabiyot o'qishdan yiroqlashib ketganligi tufayli chuqur mulohaza qilolmaydilar.

Ortiqcha musiqiy shovqinlar, yengil-yelpi ko'rsatuv va eshittirishlar ularning xayolidan keng o'rin egallagan.

Aktyorlik san'atini, ijodini ham ana shularga tenglashtirib, "oson kasb" deb o'ylaydigan yoshlar ham uchrab turadi. Ular bilan ishlashda, ularni haqiqiy mehnat mashaqqatiga o'rgatish mana shu matnlar bilan to'g'ri yondashilgandagina o'zgarish paydo qilish mumkin [5. 7].

Sahna nutqini talaba tomonidan mukammal o'zlashtirishi ko'proq pedagogning ilmiy salohiyatiga bog'liq bo'ladi. Qaysi javqani olib qaramang, baribir pedagog mahorati yuqori bo'lgan ta'lim maskanlarining salohiyati ham yuqori bo'ladi.

Pedagogik faoliyat – talabani qiziqishini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi va rag'batlantiruvchi tizimdir.

Endi pedagogik faoliyat obyektining o'ziga xosligini ko'rib chiqamiz. Bu faoliyatning objekti insondir. Pedagog tadqiqotchilarning fikricha, pedagogik obyektining o'ziga xosligi quyidagilardan iborat:

1. Inson tabiatning jonsiz moddasi emas, balki o'zining individual sifatleri, ro'y berayotgan voqealarning idrok qilishi va ularga o'zicha baho beradigan, takrorlanmaydigan faol

mavjudotdir. Psixologiyada ta'kidlanganidek, har bir shaxs takrorlanmasdir. U pedagogik jarayonning o'z maqsadi, ishtiyoqi va shaxsiy xulqqa ega bo'lgan ishtirokchisi hamdir. Shunday qilib, pedagogik faoliyatning objekti bir paytning o'zida bu faoliyatning subyekti bo'lib hisoblanadi.

2. Pedagog doimo o'zgarib, o'sib boradigan inson bilan ishlaydi. Ularga yondashishda bir xil qolip, shakllanib qolgan xatti-harakatlardan foydalanish mumkin emas. Bu esa pedagogdan doimo ijodiy izlanib turishni talab qiladi [6. 7].

Sahna nutqi pedagogi psixolog va sahnaviy ishtiyoqi mukammal shaxs bo'lsa, talaba albatta professional kadr bo'lib chiqadi. Bunga hayotda ko'p guvohi bo'lganmiz. Biz sahna nutqini o'rganishimiz uchun juda ko'p san'at yo'nalishlaridan xabardor bo'lishimiz zarur. Shuning uchun ham aktyorlik mahoratining negizi sahna so'zi deya e'tirof etilishi bejiz emas. Endi sahna nutqining ajralmas elementi musiqa san'atiga hamohangligini alohida o'rganib chiqamiz.

Musiqali adabiy parchalarni ishlashda (ijro etganda), olingan asarlar, matnlar, voqealaridan kelib chiqib musiqa qo'shiladi. So'z va musiqa bir-birini to'ldirishi, ya'ni so'zdan musiqaga, musiqadan so'zga o'tish jarayonida ijroda fikr mantiqdan uzilib ajralib qolmasligi shart. Musiqiy monologlarda ham, so'z bilan musiqa (ya'ni aytiladigan ariyalar) zanjir-ko'prik uzluksiz fikr orqali ijro etilishi talab qilinadi, – deya ta'kidlaydi Zora Alimdjonova.

Umuman olganda, sahna nutqi fanini zamonaviy innovatsion metod va interfaol usullar orqali o'tish talabalarining erkin va darslarni yaxshi o'zlashtirish imkoniyatini oshiradi.

Sahna nutqi fanida ustozlarimiz tomonidan yaratilgan metodlar yaxshi samara berib kelgan. Hozirgi kunda axborot kommunikatsiyaning yuqori rivojlanishi bilan internet dunyosida ham sahna nutqiga doir audio va video darsliklar, tavsiya qilingan sahnaviy asarlardan parchalar yaratilmoqda. Ularni yuklab olib, talabalar tomonidan o'zicha qo'llash va sinab ko'rish holatlari ham uchraydi.

Bunday ishlangan materiyallar faqatgina maxsus tavsiya etilgan oliy ta'lim saytlari va manbalaridan olinsa, yaxshi samara beradi.

Ta'lim sohasida zamonaviy va innovatsion usullardan keng foydalanish zamon talabi va ehtiyoji hisoblanadi. Talabalar tomonidan videodarsliklarga bo'lgan talabning oshganligi soha uchun yangicha metodlarni qo'llash kerakligini yana bir karra tasdiqladi.

Sahna nutqi fanini o'qitish jarayonida ko'proq chet el tajribalarini amaliyotga joriy etish maqbul bo'ladi. Sababi hozirgi ijtimoiy rivojlanish va raqamli texnologiyalar davrida boshqa sohalarda ham ilgari kuzatilmoqda. Biz pedagoglar talabalarni dars va mashg'ulotlarga qiziqtirishimiz uchun ular bilan tez-tezdan maslahatlashib, qiziqishlarini tahlil qilib borsak, samarali faoliyat olib boramiz. Sahna nutqi bir tomondan ijodiy jarayon. Unga ko'proq ijodiy yondashuv bilan cheklanib qolamiz. Ammo ijodiy jarayonga ham yangi chel el pedagogik usullarini qo'llansak, pedagogik mahoratimiz yuksalib, bu esa talabalarining o'qish jarayoniga to'g'ridan-to'g'ri ijobiy ta'sir qilishi shubhasiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Alimdjonova Z. Sahna nutqi (xrestomatiya): o'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zDSI bosmaxonasi, 2007. -189b.
2. To'laganov A. Sahna nutqi. –Toshkent: Musiqqa, 2006. -62 b.
3. Xoliqulova G. Sahna nutqi mahoratini egallashda uslub va vositalar: o'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zDSI bosmaxonasi, 2008. -48 b.
4. Hojimatova M. Sahna nutqi: nutq texnikasi. –Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. -116 b.
5. Alimdjonova Z. Sahna nutqi (xrestomatiya): o'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zDSI bosmaxonasi, 2007. -189 b.
6. Qodirov SH. Pedagogik mahorat: muammoli ma'ruzalar matni. –Namangan: NMPI., 2006. -98 b.



V BO'LIM

**YOSH
TADQIQOTCHI**

ETNOMADANIY TURIZM GENEZISI

Annotatsiya. Ushbu maqolada "turizm" va "etnomadaniy turizm" kategoriyalari tahlil qilinadi. Shu bilan birga etnomadaniy turizm sohasi xalqaro aloqalarni o'rnatishda, iqtisodiyotni rivojlantirishda, insonlarni madaniy hordiq chiqarishida muhim omil bo'lib xizmat qilishi yoritilgan. Etnomadaniy turizmning genezisi, turli ijtimoiy tarixiy bosqichlarda va turli vaziyatlarda namoyon bo'lish xususiyatlari va rivojlanish jarayonlariga ilmiy jihatdan yondashilgan.

Kalit so'zlar: etnomadaniyat, turizm, texnologiya, sayohat, arxitektura, ekskursiya, madaniyat, urf-odat, madaniy meros.

Наргиза АЛИЖОНОВА,

преподаватель кафедры «Организация и управление учреждениями культуры и искусства» ГИИКУз

ГЕНЕЗИС ЭТНОКУЛЬТУРНОГО ТУРИЗМА

Аннотация. В статье анализируются категории «туризм» и «этнокультурный туризм». При этом было отмечено, что сфера этнокультурного туризма служит важным фактором налаживания международных связей, экономического развития, культурного отдыха людей. Научно рассмотрены генезис этнокультурного туризма, особенности его проявления на разных социально-исторических этапах и в разных ситуациях, процессы развития.

Ключевые слова: Этнокультура, туризм, технологии, путешествия, архитектура, экскурсии, культура, традиции, культурное наследие.

Наргиза АЛИЖОНОВА,

Lecturer at the Department of Organization and Management of Culture and Art Institutions UzSIAC

GENESIS OF ETHNOCULTURAL TOURISM

Abstract. This article analyzes the categories of "tourism" and "ethnocultural tourism". At the same time, it is noted that the field of ethnocultural tourism serves as an important factor in establishing international relations, economic development, cultural recreation of people. The genesis of ethnocultural tourism, the features of its manifestation at different socio-historical stages and in different situations, and the developmental processes are scientifically approached.

Key words: Ethnoculture, tourism, technology, travel, architecture, excursions, culture, traditions, cultural heritage.


Insoniyatning ko'p asrlik tarixi turli hodisalarga boy, ko'pincha savdo-sotiqni rivojlantirish, yangi yerlarni egallash va o'zlashtirish, boyliklarni qidirish, yangi transport yo'llarini vujudga kelishi, boshqa mamlakatlar bilan tanishish, o'zga xalqlar madaniyat va urf-odatlariga qiziqish va boshqalar. Bularning barchasi asta-sekin sayohatning maxsus shakli – turizmni paydo bo'lishiga olib keldi Turizm sohasi dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda, yangi ish o'rinlarini yaratishda, madaniyatini rivojlanishida va mamlakatning imijining shakllanishida muhim omildir. Turizm xalqaro miqyosda dunyoning turli mintaqalarida va mamlakatlarda turlicha rivojlanmoqda. Turizm har bir mamlakatning tarixi, ichki imkoniyatlari, xizmat ko'rsatish sohasi, geografik tuzilishi, etnik belgilari bilan bog'liq holda yuzaga keladi. "Turizm" keng qamrovli tushuncha, masalan, unga olimlarning ilmiy safarlari, diplomatik yoki diniy ziyoratlar, etnografik kuzatuvlar, hordiq chiqarish bilan bog'liq sayohatlar kiradi. O'z navbatida, turizm sayohat turidir. Turizmning asosiy maqsadlari – bu dam olish, sayohatdan zavq va yangi taassurotlar olishdir, shuningdek, turizm sog'liqni

saqlash va tibbiyot, biznes va boshqalar bilan bog'liqdir. Turizmning genezisi va shakllanishi uzoq o'tmishga borib taqaladi. "Turizm" va "Turist" atamalari XVIII–XIX asrlarda "sayohat" atamasidan ancha keyin paydo bo'lgan. Xalqaro miqyosda "turizm" so'zining etimologiyasi fransuz tilidan olingan bo'lib. U fransuzcha "tour" – sayohat so'zidan kelib chiqqan. O'zbek tilining izohli lug'atida: "Sayohat – arabcha so'z bo'lib, dam olish, hordiq chiqarish yoki dunyoni ko'rish, o'rganish maqsadida qilingan safardir" deyiladi. O'tmishda ajdodlarimiz turli maqsadlar bilan o'zga mamlakatlarga safarlar qilishgan.

Safarlardan asosiy maqsad shuki, xalqlar va o'lkalar madaniyatini, tarixiy-madaniy boyliklarini o'rganish asosiy o'rinda turadi, shuning uchun turizmning ushbu yo'nalishini umumiy atama bilan "etnomadaniy turizm" deb atashni ma'qul ko'rdik. "Etnomadaniy turizm" atamasi uchta "etnos", "madaniyat" va "turizm" so'zlari birikmasidan yasalgan bo'lib, mutaxassislar etnomadaniy turizmni xalqlar, millatlar madaniyati, arxeologiyasi, etnografiyasi, san'ati va turmush tarzi bilan bog'lab o'rganishni tavsiya qiladilar.

Ommaviy turizm ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida faqat XVIII–XIX asrlarda paydo bo'lgan. Turizmni davrlashtirishga turli yondashuvlar mavjud. M.V.Sokolova turizmning kelib chiqishi va rivojlanishining asosiy bosqichlarini 4 ta davrga bo'lib chiqadi.

¹ Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti 2011. -b 53.



- qadimgi sayohat;
- oʻrta asrlarda sayohat va sayr;
- yangi davr (XVII–XVIII) da turizm;
- XX asrda turizm ²

V.P.Gritskovich turizm genezisini ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida oʻziga xos xususiyatlariga asoslangan holda davriylashtirgan. Turizmni quyidagi tarixiy bosqichlarga ajratadi:

- qadimgi dunyoda turizmning dastlabki elementlarining paydo boʻlishi;
- oʻrta asrlarda turizmning ayrim turlarini rivojlantirish;
- uygʻonish davri (XV–XVI asrlar) turizmni madaniyatning mustaqil tarmogʻi shakllanishi;
- XVII–XIX asrlarda turizm;
- uyushgan ommaviy turizm rivojlantirish (1840-yillar – XXI asr boshlari)

Koʻrinib turibdiki turizm genezisini tadqiqotchilar turlicha davrlashtiradilar.

Mamlakatimiz sivilizatsiya oʻchoqlaridan biri sifatida dunyo xalqlari madaniyati, sanʼati, shaharsozlik, arxitektura va ilm faniga ulkan hissa qoʻshgan. Oʻlkamizning qulay geografik sharoiti, etnomadaniy tarixi va boyliklar, etnologik manbalar turizmni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Mintaqamizning rivojlanishida etnomadaniy va etnologik turizmning hissasi katta boʻlgan. Oʻzbekistondagi etnomadaniy turizmni genezisi va shakllanish bosqichlarini quyidagicha davriylashtirish mumkin.

- qadimgi davr sayohati;
- oʻrta asr sayohati;
- yangi davr sayohati;
- mustaqillik davrdagi turizm

Turizm boʻyicha olib borilgan tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, sayohatlarning ilk koʻrinishlaridan biri bu koʻchmanchi xalqlar hisoblanadilar. Ular, turli sabablarga koʻra, iqlim sharoiti va jangu-jadallar tufayli turli hududlarga koʻchib yurganlar. Lekin ular oʻzlarini sayohatchi deb bilmaganlar.

Eramizdan avvalgi 2-ming yillikning oxiri va 1-ming yillikda Markaziy Osiyo hududida ham chorvador podachi jamoalarining moddiy madaniy yodgorliklari qadimiy Xorazm (Tozabogen)da, Zarafshon vodiysi (Urgut, Kattaqoʻrgʻon)da, Fargʻona vodiysi (Vodil va Karomkoʻl) da ham mavjud boʻlgan. Oʻlkamizdagi koʻchmanchi qabilalar haqida “Avesto”da, yunon tarixchilari asarlarida muhim manbalar mujassam. Eramizdan avvalgi VII–VI asrlarda yozilgan va otashparastlik (zoroastrizm) dinining mazkur kitobida Eron va Markaziy Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati (eʼtiqodi, tili, adabiyoti), tarixi haqida qimmatli maʼlumotlar beradi. Ular etnomadaniy hayot haqida bebaho manbalardir.

Turizmning koʻrinishlaridan yana biri savdogarlik. Savdogarlar bir hududdan ikkinchi hududga borib iqtisodiy va madaniy aloqalarni oʻrnatganlar. Sayohatlar sonining oʻsishi dastlabki davlatlar paydo boʻlganidan keyin tovar ayirboshlash va savdo-sotiqning kuchayishi bilan bogʻliq edi. Ayniqsa, mil. avv. II asrdan milodiy XVI asriga qadar faoliyat koʻrsatgan Sharq va Gʻarbni bogʻlab turgan “Buyuk ipak yoʻli” orqali ajdodlarimiz oʻz sayohatlarini amalga oshirganlar. Karvon yoʻli orqali koʻplab karvonsaroylar, shaharlar barpo etildi, sayohlar uchun turli xizmatlar shakllanib bordi, davlatlar rivojlanib madaniyat almashinuvi yuzaga keldi. Savdo aloqalari koʻpincha diplomatik aloqalar bilan birga boʻlgan.

Davlatlar oʻrtasida diplomatik aloqalar oʻrnatish maqsadida elchilarning xizmati katta boʻlgan. Ular boshqa mamlakatlarga tashrif buyurib ularning madaniyatini, qadriyatlarini oʻrganganlar va madaniy aloqalar tiklashda katta hissa qoʻshganlar. Shuning uchun ham elchilarni “sayohlar” deb atash mumkin. Bunday aloqalar Amir Temur va Temuriylar davrida yanada faollashgan. Amir Temur fransuz qiroli Karl VI va ingliz qiroli Genrix IV bilan diplomatik aloqa oʻrnatgan. Uning elchisi 1403-yil Parijga kelgan. Ispaniyalik Klavixoning “Buyuk Temurning hayoti va faoliyati” kitobida Movarounnahrda ijtimoiy-madaniy hayot va sayyohlarning Temur davlatiga intilishi aks etgan.

² Sokolova M.V. Istoriya turizma. –Moskva: Masterstvo, 2012. –s 56.

Barcha din vakillarining o'z ziyoratgohlari mavjud bo'lgan. Ota-bobolarimiz ziyoratgohlarga haj safarlari orqali o'zga mamlakatlarga diniy ibodatlarini amalga oshirish maqsadida tashrif buyurganlar. Haj safarlarini amalga oshirish ham sayyohlikning ilk ko'rinishlaridan biri bo'lgan. Chunki ular o'zga mamlakatlar madaniyatini, urf-odatlarini, an'alarini kuzatganlar hamda haj va umra ziyoratlarini tashkillashtirib beruvchi tashabbuskorlar ham bo'lganlar va ular jamoa bo'lib safarga chiqishgan. Hozirgi kunda ham musulmon davlatlarida turoperatorlar diniy turizm bilan shug'ullanib, haj, umra ziyoratlarini tashkil qilib kelmoqdalar. Yurtimizdagi Imom at-Termiziy, Baxovuddin Naqshbandiy, Ahmad Yassaviy, Imom al-Buxoriy va Zangiota qadamjolarini ham ziyoratgohlar deb bilamiz.

Ilm izlab dunyo kezgan olim va ulamolarni ham ilk sayohatchilar qatoriga qo'shish mumkin. Ular o'zlarining safarlari davomida borgan mamlakatlarining etnik kelib chiqishi, madaniyati, urf-odat va an'analari, geografik tuzilishi, iqtisodiyoti va muqaddas qadamjolari to'g'risida o'z esdaliklarida yozib qoldirganlar.

Sivilizatsiyalarning paydo bo'lishi va madaniyatlararo aloqalarning kengayishi transportning rivojlanishi bilan bog'liq. Dastlab ular quruqlik bo'ylab piyoda yoki otda, eshak va tuyada sayohat qilganlar.

O'zbekistonda turizm tarmoq sifatida XX asrda shakllangan. Respublikamiz hududlarida dastlabki ekskursiya sayohati byurosi 1936-yilda ochildi va O'zbekiston kasaba uyushmasi qoshida "Sayohat-ekskursiya boshqarmasi" tashkil etilgan. Bu tashkilot yaqin va uzoqlarga uyushtiriladigan safarlar bilan shug'ullanadi. 1962-yilda respublikaning viloyat va o'lkalari qoshida ham sayohat byuroolari tashkil etiladi. 1982-yilga kelib viloyatlar va Qoraqolpog'istonda jami 13 ta "Sayohat va ekskursiya soveti", 29 ta "Ekskursiya va safarlarga chiqaruvchi byurosi", 5 ta sayohatchilar mehmonxonasi, 12 ta turistik baza va kempinglar barpo etiladi.³

Mustaqillik davrida turizm yo'nalishida ham tub islohotlar o'tkazilishga imkon paydo bo'ldi. O'zbekiston 120dan ortiq mamlakatlar bilan rasmiy aloqalar o'rnatishi, ko'p davlatlarda elchixonalarining ochilishi turizm sohasini rivojlantirishga zamin yaratdi. Ko'plab rivojlangan mamlakatlar qatori davlat tomonidan turizm mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy yo'lini belgilab berishi mumkinligini anglab yetgan holda turizm tizimini taraqqiyotiga jiddiy e'tibor qaratildi. Shu bois turizmga tegishli ma'rifiy va huquqiy asoslar yaratildi. 1992-yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining Farmoni bilan turizm tizimida davlat siyosatini olib boruvchi "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil etildi. Shuni aytish kerakki, mamlakat turizm sohasida jahon hamjamiyatidan o'rin egallash va o'zbek

etnomadaniyati dunyoni tanitish etnomadaniy turizmni rivojlantirishga yordam beradi.

"2018–2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora tadbirlar to'g'risida" (2017-yil 16-avgust), "Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta'minlash chora tadbirlari to'g'risida" (2018-yil 6-yanvar), "Ipak yo'li" turizm xalqaro universitetini tashkil etish to'g'risida" (2018-yil 28-iyun), "Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" (2018-yil 19-dekabr), "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (2019-yil 5-yanvar), "Turizm tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid chora tadbirlar to'g'risida"gi Qaror va Farmonlari, "2019–2025 yillarda O'zbekistonda turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi" (2018-yil 15-avgust) kabi Qaror va Farmonlari qabul qilingani ahamiyatlidir. Ushbu say'harakatlar natijasida mamlakatimizning ko'pgina hududlarida tarixiy, buyuk siymolar qabrlari, daxmalar, diniy obidalarni qaytadan tiklash va ta'mirlash hamda xalq hunarmandchiligi, milliy kiyimlar, xalq og'zaki dostonlarini qayta tiklash va targ'ib qilish ishlari keng miqyosda amalga oshirildi. Bu o'z navbatida etnomadaniy turizmni rivojlanishiga va turistik obyektlarning ko'payishiga olib keldi.

Respublikamizda etnomadaniy turizm kompleksini moddiy qo'llab-quvvatlash maqsadida "Xalqaro ziyorat turizmi" Forumi o'tkazildi, 64 ta mamlakat aholisi 30 kungacha O'zbekistonda vizasiz bo'lishi, 76 ta davlat fuqarolari yengillashtirilgan tartibda elektron viza olishi, 101 mamlakatlar fuqarolari uchinchi davlatga o'tishda 5 kungacha yurtimizda vizasiz bo'lishi tartiblari o'rnatildi. Mamlakatimizdagi 7476 ta tarixiy madaniy obyektlar ro'yhatga olindi, ular turistik yo'nalishlar xaritasiga kiritildi, 107 ta nomoddiy ma'naviy meros, 2,5 milliondan ziyod muzey eksponatlari, kolleksiyalar va etnografik boyliklar turistlar diqqatini tortadigan artefaktlar ekani belgilandi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki etnomadaniy turizmning obyekt xalq, millat, ularning turmush tarzi, madaniyati, urf-odatlarini, yaratgan madaniy boyliklaridan iboratdir. Sayohlarni o'zga xalqlarning etnik madaniyati, turmush tarzi, an'analari qiziqtiradi. Etnomadaniy turizm bugun xalqaro aloqalarni kengaytirishga, ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga va kishilarning etnomadaniy borliqni anglash, bilish va hordiq chiqarish kabi ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan madaniy xizmat sohasiga aylangan. Tarixiy-madaniy merosga boy xalqlar ushbu boylikdan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish manfaatlarida foydalanishi an'anaga aylanib qolgan. Shunday ekan, bugungi kunda O'zbekistonda etnomadaniy turizmni rivojlantirish dolzarb mavzu bo'lib davlat siyosati darajasiga ko'tarilmoqda.

Адабиётлар рўйхати:

1. Mirzayev M.A., Aliyeva M.T. Turizm asoslari. –Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2011. -287 b.
2. Sokolova M.V. Istoriya turizma. –Moskva: Masterstvo, 2012. -352 b
3. Usmonov M. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari; Samarqand misolida: dissertatsiya. – Toshkent; 2003. -78 b.

³ Usmonov M. O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlari; Samarqand misolida: dissertatsiya. -Toshkent: 2003. - b 11.

Otajon DOSTONOV,
O‘zDSMI “Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati” kafedrası,
17.00.03- Kinosan’ati, Televideniye ixtisosligi 1-kurs tayanch doktoranti

YOSH OPERATORLAR TA’LIMIDAGI VORISIYLIK VA INNOVATSIYA MASALALARI

(kinooperator-pedagog I.Meliqo‘ziyev misolida)

Annotatsiya. *Mazkur maqolada o‘zbek milliy kinooperatorlik amaliyotidagi badiiy xususiyatlar tahlil qilinib, yosh operatorlar ta’limidagi vorisiylik va innovatsiya masalalari kinooperator-pedagog Iqbol Meliqo‘ziyev misolida atroflicha tadqiq qilinadi. I.Meliqo‘ziyevning kinooperator sifatidagi yaratgan filmlari, ulardagi badiiy xususiyatlari, zamonaviy pedagogik faoliyatidagi uslub va metodlari ham o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *yosh operator, kinooperatorlikta’limi, kino, ta’limidagi vorisiylik, kinooperatorlik maktabi, ijodkor, pedagogik innovatsiya, badiiylik*

Отажон ДОСТОНОВ,
кафедра “Звукорежиссура и операторское мастерство” ГИИКУз,
1-курс базовой докторантуры по специальности 17.00.03- Искусство кино, Телевидение

ЗАДАЧИ ПРЕЕМСТВЕННОСТИ И ИНОВАЦИИ В ОБУЧЕНИИ ЮНЫХ ОПЕРАТОРОВ

(на примере кинооператора-педагога И.Меликузиева)

Аннотация. *В данной статье анализируются художественные особенности функционирования узбекского национального кинематографа, подробно изучаются вопросы преемственности и новаторства в воспитании молодых операторов на примере кинооператора-педагога Икбол Меликузиева.*

Ключевые слова: *молодой оператор, кинематографическое образование, кино, преемственность в образовании, школа кинематографии, Творчество, педагогическая инновация, артистизм*

Otajon DOSTONOV,
The chair of “Sound producing, cinema and television cinematography art” UzSIAC,
17.00.03- The art of cinema, TV specialization first year of basic doctoral

INHERITANCE AND INNOVATION ISSUES IN THE TRAINING OF YOUNG CINEMATOGRAPHERS

(cinema operator pedagogy by Iqbol Melikuziev)

Abstract. *In this scientific article, the artistic features of the Uzbek national cinematography operation are analyzed, the issues of succession and innovation in the education of young cinematographers are studied in detail on the example of the film-teacher Iqbol Melikuziev's. I.Melikuziev films created in the capacity of a cinematography, their artistic features were studied, and the methods and techniques of modern pedagogical activity were also studied.*

Key words: *young operator, cinematography education, cinema, succession in Education, School of Cinematography, Creative, pedagogical innovation, artistry*

Kino sanati tarixidan ma'lumki yangilik hech qachon to'g'ridan to'g'ri qabul qilinmagan, hamisha tanqidga uchragan. O'zining shakllanish va taraqqiyot jarayonida fotografiya, teatr, rangtasvir, me'morchilik, musiqa va adabiyot sohalarining ijodiy tajribasidan bahra oldi. Ammo amaliyotdagi jarayon o'z yo'nalishida davom etavergan. Fransiya kinosi 1897-yildan boshlangan Melyes davrida san'at va sanoat munosabatlaridagi mana shunday yangilik jarayonini boshidan o'tkazgan. Oradan sal kam yuz yil o'tib bu jarayon o'zbek kinosiga ham kirib keldi. Sanoatdagi iqtisodiy tejamkorlik san'at rivojidadagi faoliyatiga ham o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi. Bu holat esa film yaratishdagi mavjud an'analarga munosabatning o'zgarishida o'z aksini topmoqda. Ayni munosabatlar esa ijobiy jihatlari bilan birga qator salbiy xarakterga egaligi masalaning dolzarbligini aks ettiradi.

Shunday bo'lsa-da, milliy kinooperatorlik ta'limida talabalar bosib o'tish kerak bo'lgan va qonuniyat darajasiga chiqqan bosqichlarga yangicha yondoshuvlur kuzatila boshlandi. O'zbek kinooperatorlik san'atining

yetakchilaridan bo'lgan Abdurahim Ismoilov tashabbusi va bevosita boshchiligida 1991-yil ilk bor Toshkent davlat teatr va rassomchilik institutida kinooperatorlar tayyorlash bo'limi tashkil qilindi. Operator-pedagog Abdurahim Ismailovning 2004-yilda “Kino-teleoperatorskoye masterstvo” nomli kitobi chop etildi. Mazkur to'plamda kinematografiyaning rivojlanish yo'li, operatorlik sohasining namoyon bo'lishidagi o'ziga xosliklar haqida ma'lumotlar berilgan.

2009-yilda kinooperatorlik san'ati haqida operator-pedagog Hotam Fayziyev “Ovozsiz kinematografiyadagi operatorlik san'ati tarixidan” nomli o'quv qo'llanma yaratadi. Ushbu qo'llanmada muallif ovozsiz kinematografiyada operatorlik san'ati vujudga kelishining muxtasar ocherkini yaratishga muvaffaq bo'lgan.

Ustoz-shogird an'anasining davom etishi, katta avlod vakillarining badiiy jarayonlardagi faol ishtiroki keyingi 2000–2020 yillar uchun qo'yiladigan zalvorli qadamga muhim omil bo'lib xizmat qildi.

USULLAR

Mazkur ilmiy maqola mavzusini yoritishda tavsifiy, tasnifiy, tarixiy-qiyosiy, kontekstual va kompleks yondashuv tahlil usullari qo'llanildi. Ishda yana gumanitar fanlar – san'atshunoslik, psixologiya, sotsiologiya, aloqa nazariyasi, madaniyatshunoslik metodologik vositalaridan foydalanadi.

Tadqiqotda ko'rib chiqilayotgan muammolarni nazariy va tarixiy-badiiy tushunishga qaratilgan zamonaviy san'atshunoslik usullaridan foydalanilgan. Qiyosiy tahlil usuli ekran san'atining rivojlanishining turli bosqichlarida badiiy filmlarda ssenariyning ahamiyatini o'rganishda ishlatilgan.

NATIJALAR VA MUNOZARA

2000-yillar badiiy kinosi operatorlik maktabining yangi izlanishlarini, o'ziga xos tamoyillarini ro'yobga chiqarishiga zamin yaratib, mahoratli ustozlarning munosib shogirdlari bo'y ko'rsata boshladi.

Yosh ijodkorlarning ta'lim jarayonidagi vorisiylik masalasi haqida so'z borganda professor Abdurahim Ismailovning shogirdi, umidli kinooperator-pedagog I.Meliqo'ziyev ishlariga alohida to'xtalib o'tish lozim.



1-rasm. A.Ismailov va I.Meliqo'ziyev

I.Meliqo'ziyev amaliyotni nazariya bilan uyg'unlashtirib olib borayotgan pedagog va operator sifatida ijodiy faoliyatida ham e'tiborga molik ishlarga qo'l urmoqda. Postanovkachi operator sifatida "Uylanish", "Omad", "Qora ko'z", "Tundan tonggacha", "Yigit yig'lamasin", "Robinzon qo'zi", "So'ngi qo'ng'iroq", "Oling-quda, bering-quda!", "Dardi-bedavo", "Omadli yigitlar", "Mening akam bo'ydoq", "Xizmat doirasidan tashqarida", "Tundan tonggacha-2", "Tilim qursin", "Janob xot-dogchi", "Ana xolos", "Dadam bilmasin", "Qaysar oshiq", "Onam bilmasin", "Kunlardan bir kun", "Tilim qursin 2", "Baxt ortidan" kabi to'liq metrajli badiiy filmlar tasvirga oldi.

2010-yil "Ko'zgu film" kinostudiyasida ssenariy muallifi va rejissyor J.Ahmedov operator I.Meliqo'ziyev rassom D.Nuriddinov bastakor D.Agzamovlar hamkorligida "Tundan tonggacha" badiiy filmi tasvirga olindi. Mazkur film yosh homilador kelinni tunning o'rtasida turmush o'rtog'ini bananga yuborgandan keyingi voqealarga quriladi. Banan qidirish jarayonlarida u turli

xildagi qiziqarli, qo'rqinchli sarguzashtlarni boshidan kechiradi. Yosh yigit bir kechada bir necha bor banan topadi va yana uni yo'qotadi. U bananni qidirishda tungi shahar ko'chalari bo'ylab yurgan paytda, qudalar yosh oilaning mavjud bo'lmagan muammolarini muhokama qilib turli ziddiyatlarga kelishadi. Ammo ziddiyatlar echimi kelinni to'lg'oq tutib, tug'ruqxonaga borishi bilan o'z echimini topadi. Filmni tasvirga olish texnikalarining ijodiy imkoniyati past darajada bo'lsa-da, operator tasvirining kompozitsion konstruksiyalarini murakkablashtirishga harakat qildi. Ammo film voqealar ideyarli to'liq tunda bo'lib o'tishini inobatga olib tasvirlarida aktyorlarni yorug'lik bilan chizishi mehnati bor edi. Chunki yorug'likka litidan to'g'ri foydalanish unga filmdagi epizodlarni boshqarishga imkon beradi.

Ijodiy izlanishlar asosan tomoshabin uchun tabiiy yorug'lik manbasini yaratish uchun aniq va noaniq usullardan foydalanishga qaratildi. Meliqo'ziyev o'z filmda muhim innovatsion usulni o'ziga hos darajada yangiladi. Yani tabiiy interyerda tarqalgan nurga badiiylik va fakturani oshirish maqsadida yorug'likni rangi va yoritishni kuchaytirdi. Ushbu texnika milliy kinokomediya deyarli foydalanilmagan edi. Filmdagi svet sxema qattiq kontrast-yarkostestetikasiga qaraganda butunlay boshqacha prinsipga asoslangandir. Shuni ta'kidlash kerakki, yoritish sxemasini yaratishda operator film kulgili voqealarga qurilganligi uchun o'zining uslubida aktyorlarga maksimal erkinlik yaratib berishni muhim deb hisobladi.

Yosh kuyov banan qidirib yurib, ko'p qavatli uy oldida turgan oshiq yigitga duch kelib qoladi. Tasodifni qarangi, u ham o'zi yoqtirgan qizga banan olib kelgan edi. Ushbu epizodning birinchi kadri yarim tunda yurib kelayotgan kuyovning umumiy plani bilan boshlanadi. Undan keyingi o'rta, yirik planlardagi yoritilish uslubi deyarli kadrda qora mavhum joy qolmaganligi bilan ahamiyatlidir. Ayniqsa, issiq va sovuq ranglarni o'zida mujassam etgan chiroqlar har bir kadrda umumiy uslubga bo'ysunadi. Aktyorlar xuddi yop-yorug' joyda yurganga o'xshaydi, ammo bu yoritish sxemasi operatorning mahorati natijasidir.



2-rasm. "Tundan tonggacha" filmidan kadrlar

Kuyovi banan olib kelish uchun ketganligidan bexabar qudalar arzimagan kelishmovchiliklar sababli yosh oilani ajratishmoqchi bo'lishadi. Kellingning narsalarini olib ketish uchun hovli darvozasi oldiga yukdashinasi olib kelishadi. Mojarolar bo'lib o'tadigan epizoddagi har bir kadrda operator tasvirni ijodiy tarzda o'zgartirish maqsadida, rangliy echimda har-xil filtrlarni qo'lladi. Bu esa svet sxemasi bilan qo'shib, kadrlardagi etiborni o'zi xohlagan predmetga tortishga xizmat qildi.

Yangi davrning e'tiborli jihatlaridan biri mahoratli operatorlarning yosh avlodi badiiy jarayonlarda o'zligini namoyon etdi. Ularning filmlarida shakllangan an'analariga

vorisiylik asosida yondashuv, raqamli texnikaning yangi imkoniyatlari ochish orqali innovatsion o'zgarishlarga qadam qo'yilgani, o'z navbatida, yashovchan tamoyillarga asos solingani kuzatiladi.

Bularning tub asosida mamlakatda kinooperatorlarni tayyorlash oliy ta'limini to'g'ri yo'lga qo'yilganligi turar edi. O'zDSMIda tashkil etilgan "Kinoteleoperatorlik" bo'limi o'z ishini davom ettirib, u yerda tahsil olgan mutaxassislar professional badiiy jarayonlarni egallab kelishmoqda. I.Meliqo'ziyev esa ushbu mutaxassislikning bakalavr va magistraturasini tamomladi.


I.Meliqo'ziyev pedagoglik faoliyati davomida Kinoteleoperatorlik operatorlik va Animatsiya sohalarini bo'yicha institutda darslik-o'quv qo'llanmalar nihoyatda kamligini xisobga olgan holda I.Meliqo'ziyev hozirgi kundabakalavriyat talabalari uchun 12 dan ortiq darslik va o'quv qo'llanmalar: "Metodika opredeleniya vremeni i usloviy eksponirovaniya s pomoshyu fotoeksponometra" o'quv qo'llanma; "Texnicheskiye i tvorcheskiye vozmozhnosti videokameri", darslik; "Kinofotoprotsessi i aksessuari" darslik; "Kinoteleoperatorlik mahorati" (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari) darslik; "Animatsiya rejissurasi" o'quv qo'llanma; "Fotokompozitsiya" o'quv qo'llanma; "Multimediya loixalash" o'quv qo'llanma; "Tasviriy effektlar va postprodakshin" o'quv qo'llanma; "Kino video texnika asoslari" o'quv qo'llanma; "Yorug'lik, rang va kompozitsiya asoslari" darslik; "Maxsus va murakkab montaj" darslik; "3D,5D,7D animatsiya amaliyoti" o'quv qo'llanmalarini nashrdan chiqardi.

"Kinoteleoperatorlik mahorati" (badiiy fotografiya shakllanish va taraqqiyot jarayonlari) nomli darslik orqali o'zbek fotografiya tarixi, fotografiyaning turli janrlari vafilmlar tasvirga olish uslub-usullarini zamonaviy metodlarini yaratish to'g'risida fikr yuritiladi. Ko'p yillardan buyon "Ovoz rejissyorligi va operatorlik mahorati" kafedrasini mudiri, professor v.b. sifatida mutaxassislik vorislariga ta'lim berib kelmoqda.



4-rasm. Amaliy dars jarayonidan lavhalar

Kinooperatorlik mahorati fani doirasida klassik uslublarni takomillashtirib, zamonaviy innovatsiyalardan foydalanadi. Jumladan, o'quv jarayonida badiiy kinooperatorlik maktabining yangi izlanishlarini, o'ziga xos tamoyillarini, mahoratli ustozlarning amaliyotda bajargan ishlari bilan xronikal foto-videolar, hujjatli-badiiy filmlar, suratga olish jarayonlari, prezintatsiyalar orqali tanishtirib boradi. Fan nazariyasi va amaliyotdagi bilim va ko'nikmalarni talabalarda vizual ta'sirini oshirish maqsada kichik loyihalar, tasvirga olish maydonchasida dars o'tish, bevosita talaba o'zi tasvirga olish texnikasi xaqida tushuncha olish bilan bir vaqtda amaliy ish bajarishi kabilar ham e'tiborga molik.



3-rasm. Tasvirga olish maydonchasidagi dars jarayonidan lavhalar.

Mazkur innovatsiyalar talabalarni qiziqishlarini oshirish bilan birga, kasbni mukammal o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Xulosa o'rnida H.Fayziyev, A.Ismailov va I.Meliqo'ziyevlar kabiustoz-shogird an'anasi,shaxsiy pocherk yaratish, sharq falsafasi asosida qaxramonni ekranda tasvirlash, yosh operatorlar ta'limida vorisiylik va innovatsiya masalalarida tayanch omil bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abulqosimova X. Kinoteledramaturgiya asoslari. –Toshkent: Star-poligraf nashiryoti, 2009. -60 b.
2. Fayziyev H. Ovozsiz kinematografiyadagi operatorlik san'ati tarixidan. –Toshkent: O'zDSI, 2009. -123 b.
3. Meliqo'ziyev I.M. Ko'p kameralarda tasvirga olish uslubi: o'quv qo'llanma. –Toshkent: Turon-Iqbol nashriyoti, 2009. 57 b.
4. Ж.Садуль. Всеобщая история кино. Т. 6. –Москва: Искусство, 1958. -319 с.
5. Гальперин А. Из истории кинооператорского искусства. –Москва: Госкино СССР, 1983. -67 с.
6. Sh.M. Mirziyoyev kadrlar masalasi "bizning kelajagimiz, bizning ertangi kunimiz", deb qayd etgan. Internet maqola [<https://sputniknews-uz.com/politics/20181218/10289877/Mirzиеv-zbekistonda-malakali-kadrlar-etishmasligi-aida-banot-ildi.html>.]

Zamira SA'DULLAYEVA,
Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik
va dizayn instituti tayanch doktoranti (PhD)

O'ZBEKISTON NOAN'ANAVIY KULOLCHILIGI: ODIL SAYFULLAYEV

Annotatsiya. Maqolada san'atshunoslik ilmiy tadqiqotlarida ilgari o'rganilmagan kulol Odil Sayfullayev ijodi o'rganilgan. Usta yaratgan maishiy idish-ovoqlar, dekorativ pannolardagi mavzu doirasi va uslubiy izlanishlar tadqiq etiladi. Shu bilan birgalikda muallif kulol ijodidagi har bir yangi topilmalarni xomashyo va texnik masalalar bilan bog'liqligini aniqlagan. Chunki kulolchilikda hamma narsa shu masalalarga taqaladi. Xulosada Odil Sayfullayev ijodining O'zbekiston zamonaviy kulolchiligi tizimidagi o'ziga xos jihatlari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: badiiy kulolchilik, sopol buyumlar, Quvasoy chinni zavodi, Dulyovo chinni zavodi, haykal, dekorativ vazalar, emal, loy, zamonaviy noan'anaviy kulolchilik, terrakotali rangli emal.

Замира САЪДУЛЛАЕВА,
докторант (PhD) Национального института искусств и дизайна им.К.Бехзода

НЕТРАДИЦИОННАЯ КЕРАМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОДИЛ САЙФУЛЛАЕВ

Аннотация. В статье исследуется творчество современного гончара Адыла Сайфуллаева, ранее не исследованного в искусствоведческих трудах. Внедряется в научный оборот нововведения мастера в сюжетно-тематической линии, и в вопросах стилистических приемах. Автор анализирует художественно-эстетические вопросы и технические моменты рабочего процесса. В заключение определяется своеобразие творчества гончара в системе современной художественной керамики Узбекистана.

Ключевые слова: художественная керамика, гончарное дело, фарфоровый завод Кувасай, фарфоровый завод Дулево, скульптура, декоративные вазы, эмаль, глина, современная нетрадиционная керамика, эмаль терракотового цвета.

Zamira SADULLAEVA,
PhD student of National Institute of Fine Arts and Design named after K.Bekhzad

NON-TRADITIONAL CERAMICS OF UZBEKISTAN: ODIL SAYFULLAEV

Abstract. The article examines the creativity of the modern potter Adil Sayfullaev, who has not previously been studied in the works of art history. The innovations of the master are being introduced into the scientific circulation in the thematic plot line, and in masters of stylistic techniques. The author analyse artistically aesthetic issues and technical aspects of the working process. In the conclusion originalities works of the potter in the system of art ceramics of Uzbekistan are defined.

Key words: art ceramics, pottery, Kuvasay porcelain factory, Dulevo porcelain factory, sculpture, decorative vases, enamel, clay, modern non-traditional ceramics, terracotta color enamel.

Kulol Odil Sayfullayev Qozog'iston Respublikasining Turkiston shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Oilasida ijod bilan shug'ullanuvchi insonlar bo'lmagan. U yerda 14 yoshiga qadar istiqomat qilgan. Otasi Pochchaxon Sayfullayev ikkita institutni tamomlagan (Qishoq va suv xo'jaligi melioratsiya sohasida va ToshDUda pedagogika sohasida). Onasi Zuhra Sayfullayeva asli toshkentlik, Toshkentdagi pedagogika bilim yurtini tamomlab, Qozog'istonga kelin bo'lib tushgan va u yerda o'zbek maktabida rus tilidan dars bergan.

Odilxon aka A.N.Ostrovskiy nomidagi Toshkent Davlat teatr va rassomlik institutini (hozirgi Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti) tugatgan. O.Sayfullayev institutdagi diplom ishini Yaravoy Anatoliy Grigorovich rahbarligida himoya qilgan.

Aytish kerakki, Odilxon Sayfullayev rostmana ijod bilan tengqurlariga qaraganda kech shug'ullangan. "Agar tayyorgarligimni bolalik pallalarimdan boshlaganimda, balki hozir mahoratim bundanda oshgan bo'lardi" deydi.

Chunki, ta'lim jarayonida u haykaltaroshlik fanidan "A'lo" bahoga o'qisada, lekin tasviriy san'atning asosi hisoblanmish "Rangtasvir" fanidan o'zlashtirishi biroz sust bo'lgan.

Odilxon aka rafiqasi Rimma Gazaliyeva bilan bir kursda o'qishgan. Do'stona munosabatlar jiddiy tus olib, talabalik yillaridayoq oila qurishgan.

Institutni bitirishgach, Odilxon aka va Rimma opa qo'llaridagi chaqaloqni onalariga tashlab, o'zlari yo'llanma bilan Farg'onadagi Quvasoy chinni zavodiga ishga kelishgan. U kezlari zavodda soha bo'yicha mutaxassislar yetishmas, borlari ham – asosan kollejni tamomlagan yoshlardan iborat bo'lib, ular bitta qolipga tushib qolgan, bir xil andoza asosida mahsulot ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, faqat texnologiyani o'zlashtirishdan nariga o'tishmagan edi.

Odilxon aka oliy ma'lumotli mutaxassis bo'lsada, zavoddagi faoliyatni dastlab texnologiyani o'zlashtirishdan boshlagan. Sababi, institutda o'qish mobaynida ularga

faqat sohaning nazariy va amaliy jihatlariga ko'p urg'u berilib, texnologiya masalalari nazardan biroz chetda qolgan edi.

Yoshlar, dastlab, zavod qoshidagi yotoqxonaga joylashadilar. Ikki haftadan so'ng, ularga zavod o'z hisobidan kvartira ajratadi. Aytish kerakki, bunday baxtga o'sha davrda hamma ham erishavermagan. Faqatgina salohiyatli, zavod uchun qadri mutaxassislargina bunday imtiyozdan bahramand bo'lishlari mumkin edi.

Bir yil o'tgach, yosh oilaga avvalgisidanda kattaroq, ikki xonali boshqa kvartira ajratiladi. Bundan tashqari, er-xotinga samarali mehnatlari uchun mukofot pullari ham beriladi. 1983-yil sentabrda Odilxon Sayfullayev zavodga 1-toifali rassom lavozimiga o'tkaziladi va unga 125 rubl miqdorida oylik maosh tayinlanadi.

Odilxon aka zavodda turmush o'rtog'i Rimma Gazaliyeva bilan bir xonada yelkama-yelka ijod qilishgan. Bu ikki ijodkor uchun bunday vaziyat o'zaro fikr almashish, bir-birlarining ishlarini ko'rib, xato-kamchiliklari ustida bahs-munozara olib borishga imkon yaratgan. Chinni zavodida faoliyat yuritish, berilgan imkoniyatlardan to'la foydalanish, shliker bilan ishlash, pechlardan foydalanish – yosh mutaxassislar uchun katta tajriba maktabi bo'lgan. Odilxon aka uchun eng asosiysi – u zavodda chinnida ijod qilish texnologik sir-asrorlarini o'rgangan.

Lekin shunday vaziyatlar ham bo'lganki, ustaning rafiqasi bilan hamkorlikda yaratgan yangi ishlanmalari zavodda ishlab chiqarishga tadbiiq etilmay, ustaxonada qolib ketgan. Masalan, 1984-yilda Toshkentda o'tkaziladigan Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi mamlakatlari kinofestivali uchun tayyorlangan premetlar tannarhi kimmatligi uchun ko'p nusxalarda ishlab chiqarilmagan. Bu chinni idishlar to'plami festival mehmonlari va qatnashuvchilariga esdalik sovg'a tariqasida taratilishi kerak edi. Ustalarining tasavvurlariga ko'ra choynakning o'rtasiga tillahaldan Festivalning ramzi (logotipi) muhrlanishi va uning atrofiga rangli naqshli kompozitsiya ishlashi kerak edi. Lekin tushunishadiki, bundan kompozitsiyani murakkablashib ketadi. Shu sababli buyurtmani oddiyroq qilib yaratishadi. Sababi, birinchidan, ish tez bitadi, ikkinchidan, mahsulot tannarhi arzonlashadi.

R.Gazaliyeva bilan hamkorlikda yaratilgan ushbu kompozitsiya o'zining sharqona ko'rinishi bilan boshqa chinnilardagi bezaklardan tubdan farq qiladi. Ya'ni boshqa chinnilarda mualliflar bir rangdagi bo'yoq tuslaridan foydalanishni xush ko'rsalar, bu buyurtmada ijodkorlar turli yorqin rangli, hammasi tandirda bir paytda bir haroratda pishadigan ranglardan foydalanishgan.

Avvallari chinni idishlar uchun nakleykalarni Ros-siyaning Sankt-Peterburg shahridagi Dulyovo chinni zavodiga buyurtma qilishar edi. Chunki bu manufaktura Sobiq itifoqning barcha chinni zavodlari uchun zarur xom-ashyolarni yetkazib beruvchi tayanch korxonaga bo'lgan. Odilxon Sayfullayev esa Quvasoy chinni zavodida faoliyatini boshlagach, bu ishni o'zi mustaqil amalga oshirishga bel bog'laydi. Bunda rassom dastlab qog'ozda rangli eskizni yaratadi va eskizda ishlatiladigan har bir

rang uchun alohida boshqa-boshqa eskiz tayyorlaydi. Ya'ni agar bitta eskizda to'rtta rang qatnashgan bo'lsa, huddi shu eskiz yana to'rt marta boshqatdan chizilib, har biri faqat bitta rang uchun mo'ljallanadi.

Ranglar eskizi tayyor bo'lgach, ularning har biri zavodda alohida suratga olinib, mahsus qog'ozga o'tkazilgan (shelkografiya). Bunda, chalkashib ketmaslik uchun, har bir rangdagi eskiz zavodda oldindan raqamlanadi va avtorga amaliyotda sinash uchun yuboriladi. Bordiyu loyiha muvaffaqiyatli chiqib, ishlab chiqarishga tadbiiq etilsa, buning uchun zavod "Mualliflar huquqini himoya qilish" Davlat Agentligining Bankdagi hisob raqamiga avtorlar uchun ulush (qalam haqi) o'takazadi. Agentlik esa pulni mualliflarga pochta orqali, masalan, kvartalda bir marta, ularning doimiy yashash manzillariga yuborgan.

O.Sayfullayev va Rimma Gazaliyeva o'z davrida Quvasoy chinni zavodining faxri hisoblanishgan. Chunki ular ishlab chiqarish bilan parallel ijod bilan ham shug'ulanishgan. Hattoki ularning ijod namunalari zavod qoshidagi maxsus ko'rgazmalar uchun xonada saqlanib, zavodga tashrif buyurgan mehmon va buyurtmachilarga namuna sifatida ko'rsatilgan.

O.Sayfullayev Quvasoy chinni zavodida bir yil ishlagach, kutilmaganda ishdan bo'shshga to'g'ri kelgan. Sababi, o'shanda Rimma Gazaliyeva uyda farzand tarbiyasi bilan shug'ullanayotgan (vaqtinchalik dekret ta'tilida edi) paytda, zavod jamoasi paxta yig'im-terimiga jalb etilgan. Usta Odil ham hamma qatori paxtaga borishi kerak. Ayoli uyda yolg'iz, yosh bolasi bor. Oilaviy sharoiti tufayli u paxtaga borishdan bosh tortadi va shu masala yuzasidan zavod rahbariyati bilan orada konflikt paydo bo'ladi. Uni hattoki "statya" bilan ishdan bo'shatishga ham urinib ko'radilar.

Ishdan bo'shagandan so'ng uni Ubaydullo Otabayev (Atabayev) Quvasoydagi o'zi boshqarayotgan shisha ("Steklotarniy") zavodiga bosh rassom vazifasiga ishga taklif qiladi. Bu korxonaga u kezlari Quvasoyda chinni zavodidan keyingi ikkinchi yirik ishlab chiqarish korxonasi bo'lib, shishadan ro'zg'orda keng qo'llaniladigan banka, butilka, deraza-romlar uchun oyna ishlab chiqarishga ixtisoslashgan edi. Zavodda ijodiy ishlar uchun eksperimental sex ham bo'lgan. Lekin uning faoliyati direktorni qoniqtirmagan. Rahbar bu sexda xuddi Quvasoy chinni zavodida ishlab chiqariladigan badiiy saviyasi yuqori bo'lgan buyumlarni shishadan yaratishni orzu qilardi.

Odilxon akani zavodga ishga taklif qilishdan uning maqsadi shishadan bejirim, o'ynoqi ranglarga boy badiiy buyumlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, shu orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdan iborat edi.

Bu yerda shuni ham aytish kerakki, Odilxon aka chinni zavodda ishlab yurgan kezlari bitta predmetni boshidan-oxirigacha o'zi mustaqil bajarishga o'rgangan edi. Ya'ni dastlab hayolidagi g'oyani qog'ozga chizadi, keyin uni plastilinda ishlaydi, so'ng undan gipsda qolip oladi. Agar premetda mayda detallar ko'p bo'lsa, qolipni yahshi chiqishi uchun, gips o'rmida gohida eboksitli smola ishlatadi. Chunki smolada gipsga qaraganda nozik detallar

aniq chiqadi. Bu ustaning qanaqa ish qilayotganiga bog'liq. Usta bir haykalchanning mayda detallarini aniq chiqishi uchun uni bir necha bo'lakka bo'lib, so'ng shaklga qo'yishi ham mumkin. Shakldan chiqqan qismlar bir-biriga ustalik bilan yopishtirilib, yopishgan yerlaridagi izlar silliqlanadi. Natijada haykal qolipda yaxlit quyilgandek ko'rinadi.

Quvasoy shisha zavodida ishlab yurgan kezlari Odilxon aka shishadan sharbatlar uchun grafin va ikkita stakandan iborat servizlarni kashf qilgan. Lekin ularning ko'pining tannarxi qimmat bo'lgani sababli, keng ishlab chiqarishga tadbiiq etilmay, eskizligicha qolib ketgan. Fotolari ham, afsuski, ustaning shaxsiy arxivida saqlanib qolmagan.

1987-yil Odilxon aka fevral oyida turmush o'rtog'i bilan Sankt-Peterburgdagi V.Muxina nomidagi badiiy shisha zavodiga malaka oshirgani borishadi. Qoliplash sexiga kirib, avval kitoblardan o'qigan texnologiyani amaliyotda o'z ko'zi bilan ko'rib, bir zumdayoq o'ziga kerakli jarayonning sir-asrorlarini tushunib oladi.

Quvasoyga qaytgach, shu bilimlarni shishadan konfetlar uchun vazalar ishlab chiqarishga tadbiiq etadi. Bu tajriba yordamida ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot o'sha yillarda butun Farg'ona bozorlari bo'ylab yashin tezligida tarqaladi va zavod bundan katta iqtisodiy foyda ko'radi.

Quvasoy davrida O.Sayfullayev zavoddagi ishlaridan tashqari ijodiy ishlar ham qilgan. Masalan, Quvasoydagi ikki tepalikning orasida uzoqdan ko'zga tashlanib turuvchi "Qizil armiyachilar" (Krasnoarmeysi) nomli balandligi 3 metrli, asosi betondan, figuralari shamotdan, uchi besh qirrali qizil yulduz shakli bilan yakunlanuvchi stellani (yodgorlik) yaratadi. Chunki shu tepalikda ilgari mozar bo'lgan ekan. Bu loyiha jasaki shu mozorga ko'milgan insonlar hotirasiga mahalliy aholining hurmati o'laroq amalga oshirilgan.

quritiladi. Keyin lagan yuzasida hosil bo'lgan har bir tasvirning ichi mo'yqalam yordamida oq rangli emal bilan to'ldirib chiqiladi (bo'yalmaydi). Bu ishni usta shakli dumaloq, tuki mayin mo'yqalamda bajaradi. Mo'yqalam emalga botirilib, tuklari rangni shimib olgangan keyin ohistalik bilan lagan yuzasidagi tasvirlarning kerakli yeriga ketma-ket ohista tekkazib chiqiladi. Shunda boyagi tasvirlar orasidagi bo'laklar emalga to'ladi. Bu usulni ustalar "terrakotali rangli emal" deb atashadi.


Shu usulda Odilxon usta ziravorlar uchun ham sopol idishlar yasagan. Bo'yi taxminan 9-10 santimetrli bu ashyolar qizil loydan ishlanib, sopolning yarmigina emal bo'yoqli tasvir bilan qoplangan. Yarmida loyning tabiiy rangi va fakturasi saqlab qolingan. Unisi sirlanmagan, emal surtilgan qismi esa kun yorug'ida tovlanib turadi.

Emal usulida usta gul vazalarning chinnidan farq qiluvchi ko'rinishlarini ham kashf etgan. Bunda emalli qism ko'zaning bo'nigacha bo'lgan tana qismini qoplagan bo'lib, ornamental kompozitsiya tabiatdan stilizatsiya qilingan, ramziylikka boy naqshlardan tuzilgan. Doira ichidagi olcharang oltiyaproqli gul, doiraning tashqarisidagi yashil rangli tepaliklar xuddi galaktikadagi sayyoralarini eslatadi. Aynan shu kompozitsiya namunasini usta dekorativ laganlarida ham qo'llagan va aynan shu laganlarda naqsh gul vazasiga qaraganda jozibali ko'rinadi. Bilish mumkinki, ustaning bu tajribasi, garchi, avvalida gul vaza uchun yaratilgan bo'lsada, keyinchalik dekorativ laganlarda ham o'z o'rmini topdi. Ta'kidlash kerak, bu naqsh birinchisiga qaraganda ikkinchisida – laganlarda jozibali ko'rinadi.

Usta gohida aralash usullarda ham ijod qiladi. Masalan, "Farishtalar shahri" nomli kompozitsiyada yuqoridagi dekorativ laganlardan farqli o'laroq, sir ham ishlatilgan.



Odilxon Sayfullayev. Ziravorlar uchun sopol idishlar. 2000-yil. Toshkent. Kulolchilik loyi, sir, bo'yoqlar. Ustaning shaxsiy mulki.



Odilxon Sayfullayev. "Gul vaza". 2002-yil. Toshkent. Kulolchilik loyi, sir, bo'yoqlar. Ustaning shaxsiy mulki.



Odilxon Sayfullayev. Dekorativ lagan. 2002-yil. Toshkent. Kulolchilik loyi, sir, bo'yoqlar. Ustaning shaxsiy mulki.

Toshkentda usta emal bilan ishlash texnikasini rivojlantirdi. Emalda bo'yashdan avval usta laganni bir marta tandirda pishirib oladi. Shundan so'ng unga qalamda tasvir chizadi. Keyin tasvirning chiziqlarini (liniyalarini) kulolchilikda ishlatiladigan mahsus quyuq qora rangli saqich (qurum) bo'yog'ida 4-5 mm. kenglikdagi kontur chizig'ida boshqatdan chizib oladi. Lagan yuzasida qalin konturli tasvirlar paydo bo'ladi. So'ng, ashyo (bo'yoq)

Farqi shundaki, agar birinchisida tasvir laganga oldindan qalamda chizib olingan bo'lsa, ikkinchisida kulol tasvirni qalamda chizmay, emalning o'zida hosil qiladi. Shuning uchun bu texnikada bajarilgan ishni (asl nusxani) muallif ikkinchi marta qaytarmoqchi (yaratmoqchi) bo'lsa, asl nusxasidek yarata olmaydi va ish har safar har xil chiqadi.

Bugungi kunda kulol ijodiy ishlar bilan bir qatorda shaxsiy buyurtmalarni ham bajarmoqda. Yurtimizda



Odilxon Sayfullayev. "Farishtalar shahri". Toshkent, 1998-yil.

Kulolchilik loyi, sir, bo'yoqlar. Ustaning shaxsiy mulki.

faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar, dam olish maskanlari tomonidan berilgan buyurtmalar bunga misol. Masalan, betondan ishlanib, sirtiga rang berilgan oshpaz haykali, "Xalqlar do'stligi" san'at saroyi (Toshkent shahri) yaqinida joylashgan aviakassa uchun samolyot haykali va boshqalar. Afsuski, ularning badiiy saviyasi talab darajasida emas; buyurtmachilarning shaxsiy didlari va talabalaridan kelib chiqqan holda yaratilgan.

Xulosa qilish mumkinki, Odilxon Sayfullayev O'zbekiston zamonaviy noan'anaviy kulolchiligida samarali ijod qilib kelayotgan ustalardan. U kishi Quvasoyda keng ishlab chiqarishga tadbiiq etilgan ishlar ustida ishlab, malakasini oshirish ustida izlangan bo'lsa, ijodkor sifatida uning yangi qirralari Toshkent shahrida namoyon bo'ldi. Aynan Toshkentda uning ishlarida yangi topilmalar va ilgari qo'llanilmagan texnik usullar ko'zga tashlandi.

Oxirgi yillardagi ijod namunalarida milliy obrazlarni yaratish ustida jiddiy izlanayotgani ma'lum bo'ldi. Ayniqsa, dekorativ laganlarda o'zbekona turmush tarzini yorituvchi milliy obrazlar galereyasini yaratib, zamonaviy jarayonda sovet davrida Samarqandda ijod qilgan Sofiya Rakovaning an'alarini o'zining badiiy to'qimalari bilan boyitib, davom ettira bildi.

Odil Sayfullayevning oldidagi asosiy muammo – texnika. Ustaga sir tagiga tasvir chizish uchun zavodlardagidek, yuqori haroratda ishlaydigan maxsus pech kerak. Uydagi mufel pechda faqat sir ustiga bezak chizilgan ashyolarni pishirish mumkin, xolos. Ikkinchisi ustaxona. Ustaning o'zi ashyoni boshdan-oyoq to'la mustaqil yarata oladi; tajribasi yetarli. Yangidan-yangi eksperimentlarni yaratgisi keladi. Lekin buning uchun unga sharoit kerak.

Agar shu masala hal bo'lsa, usta O.Sayfullayev O'zbekiston zamonaviy noan'anaviy kulolchilini yangi bosqichga olib chiqadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Raximov M.K. Xudojestvennaya keramika Uzbekistana. –Tashkent: Fan, 1961. -249 s.
2. Xakimov A.A. Prikladnoye iskusstva Uzbekistana: traditsii i innovatsii. –Tursiya: MEGA BASIM YAYIN SANAYI VE TISARET A.S., 2013. -194 s.
3. Xakimov A.A. Istoriya iskusstv Uzbekistana. –Tashkent: Info Capital Group, 2018. -418 s.
4. Koshayev V. Dekorativno-prikladnoye iskusstvo. Ponyatnyy. Etapi razvitiya: uchebnoye posobiye dlya vuzov. Moskva:izd.-vo sentr VLADOS, 2010. -272 s.
5. Umarova I.A. Problemi i tendensii razvitiya netraditsionnoy keramiki Uzbekistana 1970-90-x gg. Avtoreferat dissertatsii na soiskaniye uchyonoy stepeni kandidata iskusstvovedeniY. Spetsalnost: 17.00.04 – "Izobrazitelnoye i dekorativno-prikladnoye iskusstvo". –Tashkent, 1995. -29 s.

ILK O'ZBEK KINOKOMEDIYALARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada o'zbek kino san'atida komediya janrining paydo bo'lishi, shakllanishi borasida so'z yuritiladi. Unda ilk o'zbek kinokomediyalari – "Nasriddin Buxoroda" hamda "Nasriddinning sarguzashtlari" filmlari o'zaro uzviylikda hamda qiyosiy tahlil etilib, filmlarning badiiy hamda g'oyaviy xususiyatlari, ijodiy komponentlarning yutuqlari hamda bugungi kinematografiyamizda tutgan o'rni borasida muhim fikrlar bildirilgan.*

Kalit so'zlar: *kinematografiya, komediya, janr, rejissyor, aktyor, senarist, kulgu, film, folklor motivi, milliy kolorit, xalqona qahramon.*

Мухайё МУХТОРОВА,

базовый докторант Института искусствознания АН РУз

ПЕРВЫЕ УЗБЕКСКИЕ КИНОКОМЕДИИ

Аннотация. *В статье речь идет о возникновении и становлении жанра комедии в узбекском кино. В нем анализируются первые узбекские комедии – «Насриддин в Бухаре» и «Приключения Насриддина», дается важное понимание художественных и идеологических особенностей фильмов, достижений творческих компонентов и их роли в современном кино.*

Ключевые слова: *кинематограф, комедия, жанр, режиссер, актер, сценарист, комедия, фильм, фольклорный мотив, национальный колорит, народный герой.*

Mukhayyo MUKHTOROVA,

basic doctoral student of the institute of fine arts of academy science of Uzbekistan

THE FIRST UZBEK MOVIE COMEDIES

Abstract. *The article deals with the emergence and formation of the genre of comedy in Uzbek cinema. It analyzes the first Uzbek comedies – "Nasriddin in Bukhara" and "The Adventures of Nasriddin", and provides an important understanding of the artistic and ideological features of films, the achievements of creative components and their role in modern cinema.*

Key words: *cinema, comedy, genre, director, actor, screenwriter, comedy, film, folk motif, national flavor, folk hero.*

O'zbek kinematografiyasida komediya janrining vujudga kelishi o'ziga xos murakkab tarixga ega. 1943-yil ayni Ikkinchi jahon urushi avjiga chiqqan bir pallada O'zbekistonga ko'chirilgan san'atkorlardan bo'lgan mashhur rejissor Yakov Protazanov tomonidan "Nasriddin Buxoroda" filmi suratga olindi. Bu hodisa qator mulohazalarni uyg'otishi tabiiy. Nega urushning ayni pallasida komedik film suratga olindi va nega aynan Xo'ja Nasriddin haqida? Butun dunyoni, xususan Sovet mamlakatini safarbar etgan urush voqe'ligi qayerda qoldi? Ayni mana shu xususiyatlar o'zbek kinosida komediya janrining tug'ilishidagi murakkabliklar hamda o'ziga xos yutuqlar edi. Avvalambor, dastlabki qo'yilgan savollarga to'xtalinsa, ma'lumki, urushda insonlar jismonan kurash olib borsalar-da, ularning kurashuvchanlik, g'alabaga bo'lgan intilishlari ruhiy holatlari bilan bevosita bog'liq. Bundan tashqari, urush faqatgina jang maydonlarida emas, frontorti safarbarligi bilan ham murakkabki, kishilarni ruhlantirmaslik, g'alabaga bo'lgan ishtiyoqni uyg'otmaslik urushdagi umumiy safarbarlikka salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Buni yaxshi anglagan ijodkorlar, kinotashkilotchilari xalqni ruhlantirish, ko'nglini ko'tarish maqsadida komediya janridagi filmga qo'l urishdi. Bu haqda Yakov Protazanov "Agar biz har doim urush haqida o'ylaydigan bo'lsak, bundan bizga hech qanday foyda yo'q. Inson kulishni unutib qo'yimasligi kerak", degan edi. Bu borada eng yaxshi material esa albatta, xalqqa tanish bo'lgan, xalqni azaldan qadrdon qahramoniga aylangan Xo'ja Nasriddin obrazi bo'lardi. Bu o'zbek

kinosidagi ilk komediya uchun juda qulay tanlovdir. Zero, bu qahramonni tomoshabinga ortiqcha tanishtirish, xarakter xususiyatlariga yangidan ishlov berish shart emas edi. Bundan tashqari, Xo'ja Nasriddinning azaliy vazifasi mazlumlarni zo'rovonlar zulmidan ozod qilish, bechoralarga yordam berish bo'lib kelgan. Bu esa o'sha davr Sovet mafkurasiga ham juda qo'l kelar edi. Asosan ezilgan yo'qsil xalq manfaati birlamchi kabi shiorlarini xalq ongiga yanada singdirish va ishontirishda bundan qulay badiiy vosita bo'lishi mumkin emas! O'zbek kinematografiyasidagi ikkinchi komediya – "Nasriddinning sarguzashtlari" (rejissyor Nabi G'aniyev) ham aynan mana shu qahramon haqida bo'lib, ketma-ket ishlangan ushbu filmlardan ko'zlangan asosiy maqsad bir edi. Bu boradagi asosiy masala esa mana shu mafkura ta'sirida badiiylik ifodalari qanchalik o'z aksini topdi va uning bugunga qadar ahamiyati nechog'liq ekanidadir.

"Nasriddin Buxoroda" filmi o'zbek kinokomediya-sining taraqqiyotiga zamin yaratgan, tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan kinoasarlardan hisoblanadi. Rejissyor Yakov Protazanovning kinorejissyorlik tajribalari o'laroq, qiyinchiliklar, nohaqliklar va urushdan allaqachon bezigan xalqqa umid beruvchi sharqona xarakter, o'zbekona, oddiy xalq ko'nglidan joy olgan, ruhan charchagan xalqning kayfiyatini ko'taruvchi qahramon timsoli ekranga olib chiqilishi unga topshirildi. Leonid Solovyovning "Xo'ja Nasriddin haqida hikoya" nomli 31 bobdan iborat kitobi va undagi Nasriddin obrazi ayni muddao edi. Viktor Vitkovich va Leonid Solovyov ssenariysi asosida film suratga olish

ishlari boshlandi. Biroq rejissyor oldida turgan muhim masala – “o'zbek xalq qahramoni” qiyofasini kim yaratishi turardi. Filmida bosh qahramon uchun to'g'ri tanlov qilish juda muhim. Shu o'rinda Nasriddin roliga aktyor tanlash ham oson bo'lmadi. Bir vaqtning o'zida o'zbek va rus xalqiga birdek o'xshash, o'zbekona xarakterni to'liq ochish, o'zbekning qiyofasi va ruhiyatini aks ettirish kabi vazifalarni uddalay oladigan aktyor kerak. Mixail Jarov va Lev Sverdlin bu rolga asosiy nomzodlardan edi. Protazanov bu rol borasida uzoq vaqt ikkilandi. Jarovning mallarang qosh-ko'zlari, ko'rinishidagi ruslarga xos chizgilar rol uchun biroz munosib tushmadi. Sverdlinning quyuc qoshlari, qo'ng'ir rangli ko'zlari va dumaloq yuzi o'zbekona ekanligi, shuningdek, bir muddat Toshkentda yashaganligi, o'zbeklarning xarakter va urf-odatlar bilan tanishligi sababli rejissyor Sverdlinni tanlaydi. Sverdlin o'ziga topshirilgan vazifani a'lo darajada uddaladi. Uning haqiqiy o'zbekonalikka kirishib ketishi oson bo'lmadi, albatta. Milliy koloritni ekranga olib chiqish qanchalar murakkab ekanligini anglagan Yakov Protazanov jamoani shakllantirish jarayonida Toshkent kinostudiyasidan ilk o'zbek rejissyori Nabi G'aniyev, bastakor Muxtor Ashrafy, rassom Varsham Yereyman kabi o'z kasbining mohir ustalarini ham taklif etadi. Mahalliy san'atkorlarning maslahatlari hamda yakdil ijodiy ishlari o'z samarasini berdi...

Film Buxoro amirligining darvozalari ochilishi bilan boshlanadi. Odamlar oqimi orasida “Tom boshida tog'ora, tog'orada zog'ora, zog'orani yopolmay, qaynona-kelin ovora” deb aytiluvchi qo'shiq bilan Nasriddin darvozadan kirib keladi. Filmida uning Nasriddin ekanligini bilib olish uchun shu qo'shiqning o'zi kifoya qiladi. Aktyorning nigohlaridagi mug'ombirlik va so'zga chechanlik bilan parallel bajariluvchi harakatlar Nasriddin obrazini ekranda qarshisidagi tomoshabinga yaqinlashtiradi. Zero, tomoshabin kishilarga hamisha yordam qo'lini beminnat uzatuvchi shunday qahramonga muhtoj edi.

Suvga cho'kayotgan odamni qutqarish taraddudidagi olomonning shovqinini eshitib, o'sha tomonga boradi va yana xiyla bilan cho'kayotgan odamni qutqarib qoladi. “Boy odamga cho'z-cho'z deysizlar, qayerda ko'rgansiz boylarning cho'zganini?! Ularga ma, ol deyish kerak. Mana-mana, oling, bu sizga. Oling-oling...”, deb suvga cho'kayotgan odamni qutqaradi. Shu kadrda Nasriddindagi chaqqonlik va topqirlik, kulguga boy mutoyibani uyg'otibgina qolmay, o'sha davrdagi sinfiy tushunchalar, boy va kambag'al o'rtasidagi adolatsizlikka qurilgan munosabatlar ham ochib berilgan.

Keyingi epizodda Amir va uning ayonlari musiqayu, olqishlar ovozi bilan ekranda ko'rinadi. Nasriddinning Buxorodagi hayot tarziga bo'lgan munosabatlari shu tarzda boshlanadi. U har doimgidek, oddiy xalq himoyachisi sifatida ekran qarshisidagi tomoshabinlarni o'ziga maftun qila boshlaydi. Film so'nggida esa o'z muhabbati Guljon bilan yangi sarguzashtlar sari o'tlanadi.

Film komediya janrida suratga olingan bo'lsa-da, unda lirik, folklor, romantik unsurlar qorishmasini ham kuzatish mumkin. Aktyor Lev Sverdlin Nasriddin rolini ijro etar ekan, o'zbekona xarakter, xatti-harakat, voqealarga nisbatan mimik munosabat kabi ko'plab xislatlarni o'zlashtirganligini kuzatish mumkin. Nasriddin xarakteriga

xos xiylakorlik va Lev Sverdlinning mimik mahorati umumlashmasi obrazni yanada to'ldirib ketadi. Garchi aktyor rus millatiga mansub bo'lsa-da, har bir harakati, so'zlash ohangidan to'k'z qarashlariga qadar xalq najot istagan Nasriddin qiyofasiga kiradi. Darvozadan kirishda “muhim ish uchun boj” to'layotgan Nasriddinning pulni eshagining boshidan o'girib berishi ham, yaxshi topilma bo'lgan.

Lev Sverdlin Nasriddin rolini ijro etar ekan, o'sha davr oddiy xalq hayoti, ruhiyati va xakteri, xatti-harakatlari, hattoki, kayfiyatini ham o'ziga singdirishga intiladi. Bu Guljonni ko'rganda uni husniga to'yish uchun bulbulga qiyoslab so'z o'yini qilishi, amirning kelishi, temirchi Yusufning jazolanishi kabi kadrlarda ko'rinadi. Hatto eshagi hangraganda ham “Ey voh, axir amirimizning aql zakovatiga tasanno aytayotgan eshagimning ovozi o'chirolmaymanku”, deb boshiga urib o'zini soddagina ko'rsatsa-da, aslida Nasriddin bo'layotgan voqealarga munosabatini aks ettirayotgandi. Lev Sverdlin Nasriddin rolini ijro etar ekan, childirma chalib, qo'shiq aytib, raqsga tushib, o'z qahramoni bilan singib ketadi. Buyumlarni sotuvga qo'yan, savdolashish epizodida ham obraz o'zbekona xarakter bilan boyitilgan.

Guljon bilan yolg'iz qolgan epizodlarda Nasriddin – Lev Sverdlin bir qarashda romantik, o'ychan va chorasiz qiyofani aks ettirsa, yana bir zumda chaqqon, mahbusining visolidan umidvor sho'x va shaddod oshiqqa aylanadi.



Filmida Guljon roli ham mahorat bilan ijro etilgan. Aktrisa M.Mirzakarimova o'zbekona ibo-hayoni, soddalik va hurkaklikni, o'sha davrda qarz evaziga olib ketilayotgan qizlardagi ruhan isyonkorlikni ekranda namoyish qiladi. Shuningdek, o'z xisssiyotlari uchun kurashish, muhabbatsiz hayotning mazmuni yo'qligini va o'limga ham tayyor ekanligini mahorat bilan ijro etadi. Zero, o'sha davr ayollari uchun bunday harakatlar misoli jasorat kabi edi.

Rejissor bir qarashda komediya suratga olgan bo'lsa-da, aslida Guljon taqdiri bilan o'z davridagi ko'plab muammolarni yuzaga olib chiqadi. Ayollarning toptalayotgan g'ururi, arzimagan pul evaziga sotilayotganligi, taqdirga tan bermasa, bevaqt ko'z yumayotgan xotin-qizlar qismati filmida satirik kulgi bilan qorishib ketgan.

Amir roli ham filmida yetakchi qahramonlardan biri bo'lib, Konstantin Mixailov bu rolni maromiga yetkazib

ijro etgan. Aktyordagi tashqi ko‘rinish, nigohlar va harakatlardan bilish mumkinki, u xalq uchun kuyunchak amir emas. Konstantin Mixailovning amiri ekranda shunchaki taxt egasi bo‘lib qoladi, xolos. Aybdorlarga hukm o‘qish kadrlarida ko‘rish mumkinki, amir hatto xalq taqdiri bilan bog‘liq qarorlarni ham ayonlariga topshirib qo‘yadi. O‘zi bir qarasa mudrab, bir qarasa tebranib o‘tiradi. Vaholangki, xalq taqdiri yana o‘sha vijdonsiz, bilimsiz, uquvsiz ayonlar qo‘lida o‘yinchoq bo‘ladi.

Filmda yana Vasiliy Zaychikov – Niyoz (Guljonning otasi), Stepan Kayukov – Baxtiyor (vazir), Obid Tolipov – Yusuf temirchi, Matbey Lyarov – Arslonbey (amir soqchilari boshlig‘i), Nikolay Volkov – Husayn Husnillo, Asad Ismatov – Ali choyxonachi, Lutfixonim Sarimsoqova – xizmatchi ayol, Mirshohid Miroqilov, Rahim Pirmuhammedov va Ivan Bobrov (amir soqchilari) kabi aktyorlar ishtirok etgan.

Filmda kulgi, tabassumga boy kadrlar tomoshabinni bir qarashda kulgiga undasa-da, ammo chuqur mushohadaga tortadi. Amirning xalq oldiga chiqish epizodi: amir va ayonlarining shohona, dabdabali, hashamdor va zebu ziynatlar bilan bezatilgan kiyimlarda kirib kelishlari-yu, oddiy xalqning yupun, yirtiq-yamoq kiyimlarda ikki bukilib ta‘zim bilan ularni kutib olishida ham o‘sha davr jamiyatidagi kuchli tabaqalanish aks ettirilgan.

Shuningdek, Husayn Husnillo bilan bog‘liq kadrlarda ham bog‘dodlik munajjimning bir og‘iz gapi bilan odamlarning ko‘r-ko‘rona qatl etilishi yoki qatldan olib qolinishi, aslida noinsof amaldorlarning amir atrofida jamlanib olib, oddiy qora xalq hayotini sariq chaqaga ham olmasliklari ochib berilgan. Buni Nasriddin munajjim qiyofasida saroyga kelib, amirga ayonlarining bilimsizligini aytganda amirning o‘zi ham tasdiqlashi ko‘rsatib beradi. Shuningdek, amirning yechgan tillo kamarini ayonlaridan birining o‘g‘irlab olganligi amir atrofida yulg‘ich, yolg‘onchi va vijdonsizlar yig‘ilganligini yana bir bor ko‘rsatib beradi.

Rejissyor shu kabi ko‘plab muammolarni tomoshabinga kulgi bilan taqdim etadi. “Qizim senga aytaman, kelinim sen eshit” qabilida aytiluvchi ko‘plab fikrlar oddiy xalq hayotining kundan-kunga og‘irlashib borayotganligini ko‘rsatib berish uchun xizmat qilgan. Filmdagi qo‘shiqlar komediyaga musiqiy xarakter berib, tomoshabin kayfiyatini bir to‘lqinda ushlab turishga erishgan. Muxtor Ashrafiy filmda xalq folkloridan unumli foydalanganligi filmning ommabop bo‘lishiga xizmat qilgan.

Filmda rassom mahorati e‘tiborga yaqqol tashlanadi. Varsham Yeremyan o‘sha davr kayfiyatini shunday chizgilarda aks ettirganki, tomoshabin o‘zini o‘sha davrga tushib qolgandek his etadi. 1943-yil uchun saroy devorlari, qasr, ijtimoiy muhitning mukammal berilganligi rassomdan ulkan mahorat talab qilgan.

Film so‘nggida Nasriddinning qatldan mohirona qutilib qolishi uning Sibir, Turkiya, Eron shohlari o‘ldirganligi haqidagi epizodga izoh berish barobarida, oddiy xalqqa Nasriddin o‘lmasligi, u hali ko‘p yashashi va odamlarga yordam berishda davom etishiga bo‘lgan umidni uyg‘otadi.

Filmda ba‘zi juz‘i kamchiliklar ko‘zga tashlanadi. Biroq, film 1943-yilda suratga olinganligining o‘zi ushbu kamchiliklarga izoh bo‘ladi. Zero, filmda badiiy film unsurlari to‘liq mujassamlashgan. Kadrdan kadr o‘tish,

voqealarning bir-biriga uzviy bog‘langanligi tomoshabinni aslo zeriktirmaydi. Film urushning murakkab yillarida suratga olingan bo‘lsa-da, bugungi kunga qadar o‘z tomoshabinlariga ega ekanligi bilan ahamiyatlidir. Zero, bu film yumor bilan tilga olingan ba‘zi muammolarni ochish barobarida, kelajak avlod komedik filmlari andozasi sifatida qimmatlidir.

“Nasriddin Buxoroda” filmi tomoshabin orasida katta shuhrat qozonadi. Xalq qahramoniga aylangan Nasriddin obrazi film orqali ko‘plab insonlarga umidbahsh etdi. Film o‘sha davr odamlaridagi tushkunlik kayfiyatini yo‘qotish uchungina xizmat qilmay, kurashish, nohaqlikka qarshi bosh ko‘tarish kabi g‘oyalarni ham olg‘a surdi. Bu esa rejissyor Nabi G‘aniyevni ilhomlantirib, xalqona milliy qiyofadagi qahramon timsolini 1946-yilda “Nasriddinning sarguzashtlari” filmi bilan yana “jonlantirdi”. “Kolliziya, voqealar va xarakter o‘xshash bo‘lgan Nasriddin haqidagi ikkinchi filmni suratga olish rejissyorga katta mas‘uliyat yuklardi. O‘zbek rejissyorlarining ilk avlodiga mansub Nabi G‘aniyev bu borada tavakkal qilishdan cho‘chimadi”. Viktor Vitkovich ssenariysi asosida suratga olingan ushbu filmning avvalgisidan farqli jihatlari nimalarda ko‘zga tashlanadi? “Nasriddinning sarguzashtlari” filmi avvalgisining badiiy-g‘oyaviy davomi bo‘la oldimi? Film kutilgan natijani bera oldimi?

Rejissyor Nabi G‘aniyev Nasriddin rolini Razzoq Hamroyevga topshirar ekan, aktyorga avvalo Lev Sverdlin ijrosidagi Nasriddin stereotiplarini buzmaganda holda, tomoshabinlar chin yurakdan yaxshi ko‘rib qolgan, tanish va qadrdon qiyofani aks ettirish vazifasini topshiradi. Hatto ba‘zi harakatlar va so‘zlar avvalgi Nasriddindan to‘liq olinganligini ham ko‘rish mumkin. Masalan, “Nasriddinning sarguzashtlari” filmi boshida choyxonada xaltadagi oltinni taqsimlash epizodida Nasriddin – Razzoq Hamroyev oltinlarni qo‘li bilan teng “chiziq tortib”, so‘ng yarmini xaltadan to‘kadi. Aynan shu harakat Lev Sverdlinning Nasriddinda Xusayn Xusnullo bilan amir bergan oltinlarni taqsimlash epizodida kuzatiladi. Bunday misollar filmda bir necha marotaba uchraydi. Zero, Nasriddin obrazini ikkala filmdagi umumlashmasi ham aynan xarakterlarda ko‘zga tashlanadi.

Nasriddin – Razzoq Hamroyev tomoshabinlarga kutilmagan kulgili vaziyatlar va holatlarni taqdim etar ekan, xalqning qiyin turmushini ham tanqid ostiga olib ketishni unutmaydi. Xuddi avvalgi Nasriddin obrazi singari atrofda voqea hodisalarga bo‘lgan munosabatini mimik harakatlar, askiyalar va muammolarga aql bilan yechim topish orqali ko‘rsatib beradi.

Filmda o‘g‘ri rolini Rahim Pirmuhammedov mahorat bilan ijro qiladi. Uning qisq ko‘zlariga yashiringan ayyorona kulgusi, dumaloq yuzi, keng peshonasi va biroz tutilib, ikkilanib so‘zlashi omi bir o‘g‘ri qiyofasini to‘ldirib ketgan. Aktyordagi yumorga boy xarakter aynan Nasriddinning yonida “tarbiyalanuvchi” o‘g‘ri obrazi uchun qo‘l keladi. Rahim Pirmuhammedov bunga qadar ham kinoda ko‘plab rollar ijro etgan bo‘lsa-da, “Nasriddinning sarguzashtlari”dagi o‘g‘ri obrazi uni tomoshabinda vijdonsiz kimsa sifatida emas, aksincha shunchaki hayotda o‘z o‘rniga ega bo‘lolmay o‘g‘rilikni kasbga aylantirishga majbur bo‘lgan inson sifatida taassurot uyg‘otadi. Nasriddinning “Halol pul topishni istaysanmi?”,

– deb bergan savoliga o'g'ining “Bu nopok zamonda halol pul nima qiladi” deb aytiluvchi birgina dialogidan bilish mumkinki, zamon uni shu ishni qilishga majbur etgan. Unda, hattoki, halol pul topish mumkinligiga bo'lgan umid ham yo'q. Zero, uning qalbida allaqachon o'z “kasbi”ga bo'lgan ko'nikish va qaysidur ma'noda faxr hissi barq urib bo'lgan. Tomoshabin filmni ko'rar ekan o'g'ri – Rahim Pirmuhammedov harakatlariga kulish bilan bir qatorda u kabi odamlar qismatiga achinadi ham.

Filmda Og'abek rolini Obid Jalilov mahorat bilan ijro etadiki, tomoshabin uning qahramonini bir qarashda yovuz, o'z manfaatini hamma narsadan ustun qo'yuvchi, nafsining quli bo'lgan salbiy qiyofada ko'rsa, yana bir tomondan o'ta sodda, shunchaki boylik kuchi bilan mansabdor bo'lib qolgan omi, hattoki axmoq qiyofasida ham ko'radi. Bir obrazga ikki, uch xarakterni joylashtirgan Obid Jalilovning qahramoni qiyofasini ochishda aktyorlik mahoratining barcha elementlaridan, jumladan, mimika, ko'z, qiyofa, harakat kabilardan to'liq foydalanadi. Og'abek obrazi tomoshabinga o'z davridagi nohaqliklar, ochofat va nafs qullari, manfaati yo'lida tubanliklardan qolmaydigan zulmkor kishilar qiyofasini kulgi va askiya bilan ko'rsatib beradi. Boshqalar sindirib qo'yganda 4–5 barobar xaq oluvchi Og'abekning eshakni Xorazm xonining o'g'li deb, uning uchun ko'zalarni sindirish epizodi bunga yaqqol misol. Film so'nggida har qanday nohaqlik va jinoyat jazosiz qolmasligi muqarrar ekanligi ham kulgili tarzda berib ketiladi. Zero, o'sha davrda aynan shunday holatlardan aziyat chekayotgan xalq uchun bu bir motivatsiya bo'lgan bo'lsa ajabmas.

Nabi G'aniyev filmga avvalgisidan farqli ravishda shunday obraz olib kirdiki, u hamisha odamlar yuragiga g'ulg'ula solishga, bo'layotgan hodisalarga ishonmaslikka undaydi. Uning ko'lining yangi egasiga nisbatan “Bunisi ham otni kallasini so'raydi, ishonmang, hammasi nayrang” yoki “Xo'ja Nasriddin?! Ishonmayman, bu bir nayrang” kabi dialoglarida ham aynan inson tabiatiga xos bo'lgan ishonchsizlikni tomoshabinlarga ko'rsatib beradi. Shu bilan

birga Nabi G'aniyev bu obraz timsolida o'z davrida yuz berishi kutilayotgan yangiliklarga nisbatan ham odamlarda hadik va ishonchsizlik bor ekanligini ko'rsatib beradi.

Filmda Yulduz Rizayeva (Zulfiya), Qobil Xaliqov (Said), Xayri G'aniyeva (Orzibibi) kabi ko'plab iqtidorli aktyorlar ishtirok etgan. Davr muhitini berishda va yaratilgan muhitni tomoshabinga aynan o'zidek yetkazishda operator Danil Demuskiy va rassom Varsham Yeremyanning mehnatlari beqiyos. Bastakor Aleksey Kozlovskiy ham xalq qo'shiqlari musiqalaridan keng foydalangan.

“Nasriddinning sarguzashtlari” filmining muhim xususiyati xalq qadriyatlariga o'ziga xos yondoshuvida aks etdi: urf-odatlar, liboslar, o'yin-kulgilar shunchaki muhitni ko'rsatibgina qolmay, personajlar turmush tarzi sifatida ham namoyon bo'ldi”.

“Nasriddin Buxoroda” filmi odamlarga har qanday muammoni birlashib yechish mumkinligini ko'rsatib, “birlashinglar, yengilmas kuchga aylanasiz” kabi g'oyalarni olg'a surgan bo'lsa, “Nasriddinning sarguzashtlari” filmida xudbinlikdan voz kechish, o'z davrining men emas biz deb yashash prinsiplarini “Meniki degan so'zni ishlatmang, meniki emas, bizniki deng. Bizning ko'limiz, bizning yerimiz” kabi jumalalarda aks ettirib ketadi.

Aytish mumkinki, “Nasriddinning sarguzashtlari” ham “Nasriddin Buxoroda” kabi tomoshabinlarning sevimli filmiga aylandi. “Oltin fond”ga kiritilgan filmlar safidan joy olganligi ham bejiz emas. Zero, bu ikkisi ham badiiy kinoning barcha unsurlarini o'zida aks ettirib, inson qadri va qiymati beqiyosligi, ayollarning boshidagi og'ir savdolar va unga yechim topish uchun biroz aql hamda jur'at bo'lsa kifoya ekanligi Nasriddin obrazi orqali aytiladi. Shuningdek, o'z davrining qator kamchiliklari kulgu bilan niqoblangan holda ochib tashlanadi. Tomoshabinlarga esa o'zlari kutgan haloskor hamisha ularning yonida, orasida ekanligini uqtiradi. Shu sababli ham oradan salkam 80 yil o'tgan bo'lsa-da, tomoshabinlar bu filmlarni sog'inshadi, hamon miriqib tomosha qilishadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Абикеева Г. Кино Центральной Азии. – Алма Ата: ВГИК им. С.А. Герасимова. -2001. - с 215.
2. Abulqosimova X. Kino san'ati asoslari. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti, 2009. -98 b.
3. Каримова Н. Игровой кинематограф Узбекистана. – Ташкент: San'at. 2016. -с 215.
4. Полякова Т. Комедии Узбекских кинематографистов // Кино. -1968. - №5. -с 6-13.

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN‘AT VA MADANIYAT INSTITUTI XABARLARI

ilmiy-nazariy, amaliy-uslubiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jurnal

Jurnal bir yilda to‘rt marta nashr etiladi

Nashrga tayyorlovchilar:

G‘ani Xudoyev,
Faxriddin Abduvohidov,
Nasiba Turg‘unova,
Muqaddam Sodiqova,
Zilola Ergasheva,
Maksim Savochnik,
Nafisa Raimqulova,
To‘xtaxon Qo‘ziyeva.

Sahifalovchi-dizayner:

Abdug‘ani Sodiqov

Bosishga ruxsat etildi: 19.07.2021 y. Ofset bosma usulda bosildi.

«Times New Roman» garniturasida. Bichimi 60×841/8.

Shartli bosma tabog‘i 12,25.

Buyurtma raqami № 2. Adadi: 160 nusxa.

Manzilimiz: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug‘bek tumani,
Yalang‘och dahasi, 127-a uy. Tel.: 230-28-02, 230-28-03, 230-28-13

Jurnal «Donishmand ziyosi» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent shahri, Shayxontohur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30.